O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOShKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

*«IQTISODIYOT VA STATISTIKA» FAKULTETI*

**Ishmuhammedov A.E., Eshov M.P.,
Sunnatov M.N.**

# BOZOR IQTISODIYOTI VA BIZNES ASOSLARI

## O’QUV QO’LLANMA

PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

**Ishmuxamedov A.E., Eshov M.P., Sunnatov M.N. «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari» - O'quv qo'llanma - T.: TDIU, 2006 – 208 bet.**

O'quv qo'llanmada bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari, tadbirkorlik tamoyillari va aholini ijtimoiy himoya qilish kabi muammolar batafsil aks ettirilgan. Bular O'zbekiston Respublikasi hamda rivojlangan mamlakatlar, misolida ko'rib chiqilgan.

Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari butun bir iqtisodiy tizim, murakkab munosabatlar kompleksidir. Buning ma'nosi shuki, bozor munosabatlari doimo o'rganib borish asosidagina xo'jalik yuritishda yuksak natijalarga erishish, o'z mulk va mablag'larimizdan unumli foydalanishimiz natijasida farovon va to'q hayot kechirishimiz mumkin. Odamlarda yaxshi yashash ko'nikmalarni hosil qilishga esa biznes asoslarini egallash orqali erishiladi. Buni bozor munosbatlari asosida yashayotgan, rivojlanib borayotgan o'nlab mamlakatlar va xalqlar hayotidan ko'rib turibmiz.

Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekistonning boshqa mamlakatlar, xususan, o'z taraqqiyotida bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanlagan davlatlar bilan olib borayotgan iqtisodiy o'tish faoliyatiga alohida e'tibor beriladi.

Ushbu o'quv qo'llanmani yozishda so'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar natijalari hamda jahon iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan kirib borayotgan mustaqil davlatlarning tajribalari, rivojlangan mamlakatlarning ilmiy yondoshuvlari, shuningdek, mualliflar tomonidan o'qilgan ma'ruzalar asos qilib olingan.

Talabalar kursni o'rganish natijalariga ko'ra olingan bilimlar va tajribalarini o'zlarining kelgusidagi iqtisodiy tartibga solish amaliyotlarida qo'llay olishlari lozim.

Ushbu o'quv qo'llanma «Iqtisodiyot» ta'lim yo'nalishi tlabalari uchun mo'ljallangan.

**Ma'sul muharrir: «Iqtisodiyot va statitstika» fakulteti dekani, i.f.n., dotsent, Hayitov A.B.**

**Taqrizchilar: i.f.d., professor Maxmudov E.X.;**
**i.f.n., dotsent Ashurova D.S.**

PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# M U N D A R I J A


**KIRISH…………………………………………………………………………. 8**

**I-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING TARIXI………………………………………………………………………….** 10

1.1.Bozor tarixiga oid…………………………………………………. 10

1.2.Amir Temur davlatining iqtisodiy siyosati va soliqlar tizimi… 11

1.3.O'zbekistonning bozor tarixi…………………………………….... 15

Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 17

Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………… 17

Asosiy adabiyotlar………………………………………………………. 17

Internet veb-saytlari........................................................................... 18

**II-MAVZU. BOZOR TUSHUNCHASI VA** 19

**TURLARI…………………..** 19

2.1. Bozor tushunchasi va uning vazifalari…………………………….. 20

2.2. Erkin va monopollashgan bozor……………………………………. 22

2.3. Bozorning turlari……………………………………………………. 23

Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 24

Nazorat va mulohaza uchun savollar…………………………………… 24

Asosiy adabiyotlar………………………………………………………. 24

Internet veb-saytlari...........................................................................

25

**III-MAVZU. EHTIYOJLAR VA UNING QONDIRILISHI……….** 25

3.1.Ehtiyoj tushunchasi va uning yuksalishi…………………………..... 26

3.2.Resurslarning kamyobligi…………………………………………….. 27

3.3.Ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasi…………………… 28

Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 28

Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………….... 28

Asosiy adabiyotlar ……………………………………………………….. 29

Internet veb-saytlari...........................................................................

30

**IV-MAVZU. IQTISODIY FAOLIYAT VA ISHLAB CHIQARISH…** 30

4.1.Iqtisodiy faoliyat turlari……………………………………………….. 31

4.2.Ishlab chiqarish omillari va natijalari…………………………… 32

4.3.Mehnat unumdorligi………………………………………………….. 34

Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 34

Nazorat va muhokama uchun savollar…………………………………….. 34

Asosiy adabiyotlar………………………………………………………... 35

Internet veb-saytlari...........................................................................

36

**V-MAVZU. IQTISODIY MEXANIZM VA TIZIMLAR…………** 36




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

5.1. Iqtisodiy mexanizm………………………………………………….. 37
5.2. Iqtisodiy tanlov qoidasi………………………………………… 38
5.3. Iqtisodiy tizimlar……………………………………………….. 39
Qisqacha xulosalar……………………………………………………. 39
Nazorat va muhokama uchun savollar……………………………….... 39
Asosiy adabiyotlar …………………………………………………….. 40
Internet veb-saytlari.......................................................................................... 41
**VI-MAVZU.BOZOR IQTISODIYoTI VA UNGA O'TISh YO'LLARI** 41
6.1.Bozor iqtisodiyotining belgilari…………………………………… 43
6.2.Bozor iqtisodiyotining turlari……………………………………… 44
6.3.Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari……………………………….. 46
Qisqacha xulosalar……………………………………………………. 46
Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………… 46
Asosiy adabiyotlar…………………………………………………... 47
Internet veb-saytlari.......................................................................................... 48
**VII-MAVZU. IQTISODIY RAQOBAT TUShUNChASI…………….** 48
7.1.Iqtisodiy raqobat mazmuni……………………………………….. 49
7.2.Raqobat va baho……………………………………………………… 51
7.3.Raqobat- bozorni tartibga soluvchi kuch…………………………… 53
7.4.Xalqaro raqobat kurashi…………………………………………….. 55
Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 55
Nazorat va muhokama uchun savollar……………………………………... 55
Asosiy adabiyotlar……………………………………………………… 56
Internet veb-saytlari.......................................................................................... 57
**VIII-MAVZU. MONOPOLIYA VA BOZOR MODELLARI…………...** 57
8.1.Monopoliya tushunchasi…………………………………………… 58
8.2.Bozorning asosiy modellari……………………………………….. 61
8.3.Aksmonopoliya siyosati…………………………………………….. 63
Qisqacha xulosalar…………………………………………………….. 63
Nazorat va muhokama uchun savollar…………………………………..... 63
Asosiy adabiyotlar……………………………………………………… 64
Internet veb-saytlari.......................................................................................... 65
**IX-MAVZU. MULK SHAKLLARI……………………………………….** 65
9.1.Mulk shakllarining bozorga ta'siri…………………………….... 68
9.2.Davlat mulki………………………………………………………… 68
9.3.Xususiy mulk……………………………………………………….... 73
Qisqacha xulosalar………………………………………………… 73
Nazorat va muhokama uchun savollar……………………………… 73
Asosiy adabiyotlar………………………………………………… 74
Internet veb-saytlari..........................................................................................



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

75
**X-MAVZU. DAVLAT MULKINI XUSUSIYLAShTIRISh………...** 75
10.1.Davlat mulkini xususiylashtirish……………………………….. 76
10.2. Xususiylashtirishni amalga oshirish……………………………... 79
Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 80
Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………… 80
Asosiy adabiyotlar……………………………………………………… 80
Internet veb-saytlari...............................................................................
82
**XI-MAVZU. PUL…………………………………………………….** 82
11.1.Pul va pul tushunchasi…………………………………………... 85
11.2.Pul va inflyatsiya………………………………………………… 85
11.3.Pul qiymat o'lchovi va jamg'arma vositasi………………………. 87
Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 87
Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………… 87
Asosiy adabiyotlar……………………………………………………… 88
Internet veb-saytlari...............................................................................
89
**XII-MAVZU. MOLIYA VA BANK TIZIMI……………………………** 89
12.1. Moliya va uning asoslari……………………………………… 90
12.2.Moliyaning vazifalari…………………………………………. 93
12.3.Moliya tizimi…………………………………………………... 97
Qisqacha xulosalar……………………………………………………... 97
Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………... 98
Asosiy adabiyotlar…………………………………………………….. 98
Internet veb-saytlari...............................................................................
99
**XIII-MAVZU. KREDIT VA BANKLAR FAOLIYATI………………...** 99
13.1. Kredit tushunchasi…………………………………………… 101
13.2. Banklar……………………………………………………………….. 101
13.3.Banklar turi…………………………………………………….. 103
Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 103
Nazorat va muhkama uchun savollar…………………………………… 103
Asosiy adabiyotlar………………………………………………………. 104
Internet veb-saytlari...............................................................................
105
**XIV-MAVZU. BIZNES VA TADBIRKORLIK………………………..** 105
14.1.iznss va tadbirkorlik tushunchasi………………………………… 105
14.2. Biznes va tadbirkorlik tamoyillari……………………………… 106
14.3.Tadbirkorlik va mulk shakllari…………………………………… 108
Qisqacha xulosalar………………………………………………………. 108
Nazorat va muhokama uchun savollar…………………………………… 109
Asosiy adabiyotlar……………………………………………………… 109
Internet veb-saytlari...............................................................................



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

110
**XV-MAVZU. BIZNES ASOSLARI……………………………………….** 110
15.1. Firmalarning shakllari…………………………………………. 113
15.2. Biznesda sof xarajatlarning turlari…………………………….. 115
15.3. Me'yoriy xarajatlar………………………………………………… 117
Qisqacha xulosalar…………………………………………………….. 117
Nazorat va muhokkama uchun savollar………………………………… 117
Asosiy adabiyotlar…………………………………………………… 118
Internet veb-saytlari.......................................................................................
119
**XVI-MAVZU. BIZNES SAMARADORLIGI MUAMMOLARI……** 119
16.1.Biznesda foyda va rentabellik…………………………………... 122
16.2. Investitsiya faoliyati…………………………………………...
16.3. Biznes va tadbirkorlik xatarlari va ularni kamaytirish 123
tadbirlari……………………………………………………………… 125
Qisqacha xulosalar……………………………………………………… 125
Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………... 125
Asosiy adabiyotlar……………………………………………………... 126
Internet veb-saytlari.......................................................................................

**XVII-MAVZU.MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI** 127
**TA'MINLAShDA BIZNESNING O'RNI...…………………………..** 127
17.1.Makroiqtisodiy barqarorlik……………………………………… 129
17.2.Iqtisodiy barqarorlikda biznesning o'rni……………………….. 130
17.3.Biznes mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash choralari……... 132
Qisqacha xulosalar…………………………………………………….. 132
Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………… 132
Asosiy adabiyotlar…………………………………………………… 133
Internet veb-saytlari.......................................................................................
134
**XVIII-MAVZU. KIChIK VA O'RTA BIZNES ISTIQBOLI………..** 134
18.1.Kichik va o'rta biznes…………………………………………….. 134
18.2.Kichik va o'rta biznes istiqboli…………………………………. 140
Qisqacha xulosalar…………………………………………………….. 140
Nazorat va muhokama uchun savollar………………………………… 140
Asosiy adabiyotlar…………………………………………………… 141
Internet veb-saytlari.......................................................................................

" Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari " fanidan qisqacha izohli lug'at 142
(Glossariy).........................................................................................

«TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiyot mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriyat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari»dan olingan «Bozor iqtisodiyoti



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

va biznes asoslari» fani bo'yicha bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ro'yxati..... 153

Fan bo'yicha ayrim darslik va o'quv qo'llanmalar sharhi......................... 155

" Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari " fanining «Mulk shakllari» tematik ma'ruzasini o'qitish va o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari..................................................... 158

«Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari» fani bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari......................................................................... 162

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati…………………….................... 166

"Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari" fanidan ishchi dastur……..... 169



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# KIRISH

O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan qudratli davlatga aylanishi bozor iqtisodiyoti tizimini barpo etish vazifasi bilan bir davrga to'g'ri kelmoqda, ya'ni bu ikki bir-biriga uzviy bog'liq ulug'vor ishni bir tarixiy davrda uddalashdek og'ir muammoni hal qilishga to'g'ri kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, bir tomondan eski iqtisodiy tafakkurdan voz kechish, yangi iqtisodiy tizimga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakatni og'ir iqtisodiy ahvoldan olib chiqish, iqtisodiyotga yangi sifat berish, barqaror o'sish sur'atlari va biznes asoslarini yaratish bilan amal qilinadi.

Bozor iqtisodiyotining asl ma'nosi iqtisodiyotni tashqaridan tartibga solish tajribasidan voz kechib, o'zini - o'zi tartibga solish, yo'naltirishdir. Uning markazida bozorga barqaror o'sish sur'atlari baxsh etib turadigan yangi bozor mexanizmi tadbirkor inson turadi, inson omili yoki ish kuni yotadi. Boshqacha aytganda, shunday sifatdagi biznes asoslari tayyorlanishi kerakki. U o'zida hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobiy yutuqlarini bartaraf qiladigan xususiyatlarini gavdalantirgan bo'lishi kerak, ayni vaqtda bu yangi ish kuchi omili o'zida yuksak milliylik. O'z vatanini imkoniyatlaridan unumli foydalana bilish xislatlarini ham egallashi darkor.

Demak, yangi iqtisodiy tizimga o'tish, mustaqil davlat qurishni har birimizdan, birinchi navbatda, O'zbekiston taqdiri va kelajagi bo'lgan yoshlardan, ularda zamonaviy iqtisodiy tafakkur, biznes asoslari va iqtisodiy tafakkur zaminida o'zi va o'z xalqi, Vatani taqdiri uchun mas'uliyat hissini sezish yotadi. Bunga erishish vositasi biznes asoslarini egallashdir, iqtisodiy qonunlar va tushunchalar mazmunini chuqur idrok etish, bilib olishdir.

Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari butun bir iqtisodiy tizimdir, murakkab munosabatlar kompleksidir. Buning ma'nosi shuki, bozor munosabatlarini doimo o'rganib borish asosidagina muvaffaqiyatli xo'jalik yuritish, yuksak natijalarga erishish, o'z mulk va mablag'larimizdan eng unumli foydalanish natijasida farovon va to'q hayot kechirish mumkin, odamlarda yaxshi yashash ko'nikmalarni hosil qilish esa biznes asoslarini egallash orqaligina ta'minlanadi. Buni bozor munosabatlari asosida yashayotgan, rivojlanib borayotgan o'nlab mamlakatlar va xalqlar hayotidan ko'rib turibmiz.

To'g'ri, hozirgi vaqtda bozor munosabatlarini o'rganish bo'yicha ancha-muncha ishlar qilinmoqda, turli mavzularda ma'ruzalar o'qilayapti, kurslar, xilma-xil biznes maktablar, seminarlar tashkil etilmoqda, iqtisodiy litseylar, kollejlar va sinflar ochilmoqda. Biroq, bunday uslubiy ishlar samara bera olmaydi. Chunki, kishilarda chuqur bazaviy iqtisodiyoti va biznes asoslari bilimi etishmaydi. Axir hanuzgacha bizning o'rta maktablarimizda, hunar kasb bilim yurtlarimizda iqtisodiyot va biznes asoslari ta'lim berish bilan tushuniladigan iqtisodchi pedagog kam.

Yana bir oddiy haqiqat shuki, har qanday tafakkur kabi iqtisodiy ta'limni yoshlikdan, maktabdan boshlansagina, ijtimoiy hayotda sifat o'zgarishlari, o'sish sur'atlari bo'lishi mumkin. Shuning uchun hozirgi vaqtda kelib bu dolzarb vazifaning bajarilishini o'z holiga tashlab bo'lmaydi, bu g'oyat katta iqtisodiy va ma'naviy yo'qotishlarga sabab bo'lishi mumkin.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Prezident I.Karimov kichik va o'rta biznesni, xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, uning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratish, ayni vaqtda uning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, balki shu bilan birga aholining farovonligi va daromadlari ortishida muhim omilga aylanishiga erishish, davlat boshqaruv organlari, ijtimoiy tuzilmalar diqqat markazidagi asosiy vazifa, ekanligini doimo ta'kidlab kelmoqda.

Ushbu vazifalarni o'z vaqtida hal etish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish kichik va o'rta biznes korxonalarining faoliyat ko'rsatishi va ularning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish hamda istiqboldagi o'zgarishi haqida ilmiy asoslangan iqtisodiy axborotlar mavjud bo'lishini talab etadi.

Hozirgi vaqtda respublikada kichik va o'rta biznes korxonalarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika ta'minoti hamda kreditlar ajratish yo'nalishlari bo'yicha monitoring joriy etilgan, ular haqida ma'lumotlar muntazam umumlashtirib borilmoqda. Ammo kichik va o'rta korxonalar faoliyati samaradorligini o'rganish va ularning istiqboldagi rivojlanishini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda matematik modellashtirish asosida tadqiq qilish yo'nalishida ilmiy ishlar etarli emas. Shularni hisobga olgan holda, korxonalarning bozor muhitida faoliyat ko'rsatishi va ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'zida ifodalovchi ekonometrik modellashtirish usullarini va shu asosida ekonometrik modellar turkumini ishlab chiqish muhim va dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Ushbu «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari» o'quv dasturini yaratishda ijtimoiy fanlarni o'rganishda tadbiq etiladigan uslublar, shuningdek, iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot va boshqa fanlarni o'rganishning ilmiy tahliliy uslublari qo'llaniladi.

Ushbu fan oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, litsey o'quvchilariga mo'ljallangan va respublikada ko'zga ko'ringan olimlarning iqtisodiy asarlaridan foydalanilgan.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## I-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING TARIXI

**1.1. Bozor tarixiga oid**
**1.2. Amir Temur davlatining iqtisodiy siyosati va soliqlar tizimi**
**1.3. O'zbekistonning bozor tarixi**

### 1.1. Bozor tarixiga oid

G'arbga nisbatan Sharq mamlakatlarida taraqqiyot ancha oldin boshlangan. Insonning iqtisodiyot sohasidagi faoliyati, bozor, savdo kabilar Osiyo xalqlari ichida juda qadimgi davlardayoq boshlanib, so'ngra g'arbga, Ovro'pa xalqlariga tarqala boshlagan.

Sharq bozori, Markaziy Osiyo va O'zbekistondagi bozor o'zining qadimiyligi bilan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu yerlarda qadim davrlardanoq inson iqtisodiy faoliyati ancha yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, sharq bozorida maxsus savdo rastalari, do'konlar, omborlar, karvon saroylar kabilar bo'lgan. Shu bilan birga savdogarlar o'z vatanlaridan uzoq bo'lgan bir necha bozorlarda oldi-sotdi ishlarida qatnashishgan, hatto bir necha mamlakatlar bozorlarida ishtirok etishgan.

Bu albatta, qadim vaqtlardayoq hunarmanchilik, dehqonchilik rivojlanganligining natijasidir. Qadimgi davr, qulchilik davrlardayoq hozirgi O'zbekiston hududi bozorlarida Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va Yunon savdogarlari o'z mollarini sotish bilan birga ko'p miqdorda bu yerlardan hunarmandlar, dehqonlar mahsulotlarini xarid qilar edilar.

Turon bozorida «Ipak yo'li»ning ta'siri katta edi. Bu yo'l Xitoydan Janubiy Ovro'pagacha cho'zilgan bo'lib, shu yo'l bo'yidagi shahar bozorlarini o'z ichiga olar, ya'ni asosan shu «Ipak yo'li o'tgan joylardagi» bozorlarga ta'sir etar edi. Bu bozor Foydalanilgan adabiyotlarqat Xitoy mollari va Janubiy Ovro'pa mollari bilan chegaralanmay, yo'l-yo'lakay barcha xalqlar mollari savdosini ham ta'minlar edi. Albatta, bunda Xitoyning ipak mollari va chinnisi katta o'rin egallar, lekin Turon hunarmand va dexqonchilik mollarining salmog'i ham oz emas edi. Bu mollar Uzoq Sharq va Ovro'pagacha olib borilib sotilar edi. Shu bilan birga «Ipak yo'li» o'tgan hududlar uchun noma'lum bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishining bora-bora o'zlashtirilishda «Ipak yo'li»ning ta'siri katta bo'lgan.

O'zbekiston hududida keyingi bozor taqdiri Movaraunnahr bilan bog'liq bo'lgan. Bunda Amir Temur davri o'z ahamiyati bilan farqlanib turadi. Chunki, u yirik markazlashgan davlat barpo etib, bozor uchun juda qulay sharoit yaratgan edi. O'zbekiston asosidagi davlat g'arbda Ovro'pagacha, Sharqda Xitoy, Hindistongacha cho'zilgan bo'lib, bozor uchun keng masofa yaratildi. Bunda ichki bozorga nisbatan tashqi bozor kengroq rivojlandi.

Shaharlar ko'payib, yirik-yirik savdo markazlari paydo bo'ldi. Savdo avji hunarmandchilik va xaridorgir mollar ishlab chiqarishni kengaytirdi. Bu vaqtga kelib Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Shahrisabz kabi jahon ahamiyatiga molik



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

savdo markazlari yuzaga keldi. Movaraunnahr bozorlari Sharq va g'arb mamlakatlari savdogarlarini o'ziga jalb etdi.

Katta shaharlar bozorida savdoning xususiyatlaridan biri shu ediki, hunarmand mollari alohida savdo do'konlarida emas, balki asosan korxonaning o'zida sotilar edi. Shunga ko'ra maxsus hunarmandlar mahallasi, o'rami, mavzelari bo'lgan. Bularning ayrimlarining nomlari hozirgacha ham saqlanib kelmoqda. Chunonchi, O'qchi, Egarchi, Misgarlik, Kallaxona, Chaqichmon kabilar. Bunday mahallalar asosan shaharlar markazida bozorlarga yaqin joylashgan edi.

To'quvchi va tikuvchiga o'xshaganlarning mahsulotlari asosan bozorlarda sotilib, ular sotiladigan maxsus bozorlar mavjud bo'lgan. Masalan, Samarqandning Registon maydonida XV-asrda qurilgan katta aylanma bino bo'lib, bu do'ppi bozori edi. Hozirgi vaqtda bu erda kutubxona joylashgan.

Bundan tashqari savdogarlar ayrim mollarni sotishga ixtisoslashgan bo'lib, o'z nomiga ega edi. Aytaylik, allopun va bug'doy, qassob-go'sht sotuvchilar, baqqol-mayda savdo kabilar. Bular savdo va bozorning qadimdan ancha yuqori darajada ekanligidan dalolatdir.

## 1.2. Amir Temur davlatining iqtisodiy siyosati va soliqlar tizimi

Amir Temur Movaraunnahr siyosiy hayotida XIV asrning 50-yillari oxiri 60-yillar boshlarida ko'rindi. O'sha davrda Movaraunnahr chig'atoy ulusiga qarashli bo'lib, mayda feodal davlatlarga bo'lingan edi. Kesh-Shahrisabz, Buxoro, Termiz, Badaxshon, Xo'jand, Shosh-Toshkent va boshqa viloyatlar o'rtasida tinimsiz urush-janjallar davom etib kelardi. Bunday ahvol mamlakat va xalq boshiga son-sanoqsiz kulfatlar solardi. Amir Temur bu feodal urushlarga boshqalardan maqsadliroq qatnashib, o'zining qobiliyati va uddaburonligi bilan elga tanilgan edi.

Amir Temur shu davrda Movaraunnahrda mustaqil kuchli markazlashgan davlat tuzish uchun mo'g'ul xonligiga qarshi Movaraunnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan barcha kuchlar bilan ittifoq tuzib, o'zboshimcha feodallar va boshqa zid kuchlarga qarshi kurash olib borib, feodal tarqoqligiga barham berdi, Movaraunnahrni mo'g'ullardan ozod qildi va mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzdi.

Mamlakat chegaralaridagi osoyishtalikni ta'minlash maqsadida Amir Temur Xorazm va Xurosonni egallab butun Turonni birlashtirdi va Eron, Iroq, Ozarbayjon, Hindistonning shimoliy qismini o'z ichiga olgan buyuk markazlashgan davlatga asos soldi va Movaraunnahrda o'z saltanatini o'rnatdi (1370 y.). Shu paytda yurtda notinchlik, vayronagarchilik, tartibsizliklar hukm surar, mamlakat o'ta holdan toygan, fuqarolar ochlikka, qashshoqlikka yuz tutgan edi.

«Pirim Zayniddin Abubakir Toyobidiy menga saltanat ishlarida 4 narsaga amal qilishimni maslahat berdi,-deydi Amir Temur . –1 kengash; 2.Mashvaratu maslahat; 3.Qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4.Ehtiyotkorlik. Bular saltanat ishlarida men uchun eng to'g'ri yo'lboshchi bo'ldi.

Shunga ko'ra davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, maslahat, tadbir, hushyorlik bilan amalga oshirishni va bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

angladim. Tajribamda ko'rdimki, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir».

Amir Temur o'z siyosatini davlatni boshqarishda tartib o'rnatish, yurt osoyishtaligini ta'minlash, dehqonchilik va chorvachilikni jonlantirish, hunarmandchilik va savdoni rivojlantirish, ariq va kanallar qazish, suv inshoatlari va to'g'onlar qurib suv chiqarish, ko'priklar qurish, chet davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar o'rnatish bo'yicha qurultoylar o'tkazishdan boshladi. Qurultoylar Movaraunnahrning barcha viloyatlarida o'tkazilib, ularda barcha shahzodalar, bosh amaldorlar, harbiy boshliqlar va aristokratlar boshliqlari ishtirok etganlar. Bu kengashlarda mamlakat xo'jaligi, xalqning ahvoli, ilm-fanni rivojlantirish va harbiy holat hamda boshqa masalalar muhokama qilgan.

Amir Temur bu qurultoylarda o'zi nutq so'zlab, ilm va dinning mashhur olimu fuzalolari, har bir sohaning bilimli mutaxassislariga murojaat qilib, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarni bildirishni so'raydi.

Amir Temur ichki-iqtisodiy siyosati xalq farovoniligini oshirish Movaraunnahrda ilm va fanni taraqqiy ettirishdan iborat edi. U xazinaning katta qismini yodgorliklar barpo etishga, yurtni obodonlashtirishga sarflar edi. Shu davrda Samarqandda Ko'ksaroy, Bibixonim masjidi, Shohizinda maqbarasi, ko'plab bog'lar, saroylar, yo'llar, ko'priklar, qishloqlarda masjidlar va muhtojlarga oziq-ovqat beradigan joylar qurdirdi. Toshkent atrofida kanallar qazdirib, Sirdaryodan Ohangaronga kanal o'tkazdi. Buxoro, Shahrisabz, Farg'ona, Turkistonda masjid, madrasalar, karvonsaroylar, suv inshoatlari barpo etdi.

Bu ulkan ishlarni bajarishga Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning ham mohir ustalari, hunarmandlari, kosiblarii, olimlariyu fuzalolari jalb etildi.

Amir Temur Samarqandning dovrug'ini ko'klarga ko'tarish uchun bu erda oziq-ovqat mo'l-ko'lchigini ta'min etdi, ipak, atlas, sental, shoyi kabi matolar ko'plab to'qib chiqarildi; mo'yna va turli xil surg'ichlar, bo'yoqlar, eng sifatli qog'ozlar ishlab chiqildi. Turli shaharlardan ko'plab sohalar bo'yicha ustalar, hunarmandlar olib kelindi: Damashqdan ipak, mato to'quvchilar, nayza va qurollar yasovchilar, shisha ishlovchilar, Turkiyadan merganlar, har xil hunarmandlar, zardo'zi ustalar keltirildi.

Samarqandga shuncha ko'p kasb sohiblari olib kelindiki, shaharning aholisi turli millatlarga mansub bo'lib, 150 mingga etdi. Shaharga Rusiya va Tataristondan charm va surp, Xitoydan ipak matolar, lal va gavharlar, mushk, Hindistondan muskat yong'og'i, qalampir munchoq, mustak guli, dolchin, anbar va boshqa noyob mollar keltirilgan. Samarqand shu davrda savdo markazi bo'lib, maydonlar kechayu-kunduz odamlar bilan gavjumligi bois doimo qizg'in savdo bo'lib turgan. Amir Temur o'z faoliyatida dehqonchilik, chorvachilikni rivojlantirishga, suv omborlari, to'g'onlar qurdirib, ariq va kanallar qazdirib, yangi yerlarni o'zlashtirishga, qo'l ostida bo'lgan barcha yerlardan foydalanishga katta e'tibor bergan, ekin ekish mumkin bo'lgan barcha yerlarni chorva yaylovlari, ekinzor bog'larga aylantirgan.

Abu Tohirxo'ja Samarqandiy shunday yozadi: «Samarqandda Amir Temur Ko'ragon soldirgan bog'larkim, Eram Gulistoni rashk qilar darajada 7 ta ekan» (keyingi ma'lumotlarda, bu bog'lar 14 ta, deb ko'rsatilayapti).



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Amir Temur o'z qo'l ostidagi hududlarda ilm-fanga katta e'tibor berib, katta-kichik har bir shahar va qishloqda masjid, madrasa, xonaqohlar bino etdirgan hamda qashshoqlikni bartaraf etish uchun faqiru miskinlarga boshpanalar, yo'lovchilarga qo'nib o'tadigan rabotlar, etim-esirlarga ovqat beriladigan uylar, g'aribxonalar qurdirgan, bemorlar uchun shifoxonalar barpo ettirgan va ularda ishlash uchun xodimlar, tabiblar tayinlab, maosh berilgan.

Amir Temur iqtisodiy siyosatida savdoni, shu jumladan tashqi savdoni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Movaraunnahrga Misr, Farangiston, Ispaniya, Dashti qipchoq, sharqiy Turkiston, Xitoy va boshqa qo'shni davlatlardan elchilar, savdogarlar muntazam ravishda kelib turgan. Amir Temur Angliya, Farangiston va boshqa davlatlar qirollariga murojaat qilib, ular bilan savdo aloqalarini o'rnatdi va rivojlantirgan. Markaziy Osiyo orqali o'tadigan Ipak Yo'lida savdogarlarning ahvolini yaxshilash, safarini engillashtirish, xavfsizligini ta'minlash uchun yo'llar atrofiga karvonsaroylar qurdirib, ularda barcha qulayliklarni yaratgan. Chunki, hudud yo'lning eng serqatnov, serdaromad, gavjum va osoyishta qismi hisoblangan. Shu sababli yo'lga soqchilar qo'yilib ular savdogarlarni va sayohatchilarni qo'riqlaganlar, o'g'rilar, qaroqchilar, odamlar joniga qasd qiluvchilarga shafqat qilinmagan.

Bozorlarda tartib va narx-navo ustidan doimiy nazorat o'rnatilgan. Xaridor xaqiga xiyonat qilgan sotuvchilar qattiq jazolangan. Bozor narxlarining beo'rin oshirmasliklari uchun chayqovchilarga qarshi qat'iy choralar ko'rilgan. 1404 yilda Amir Temur shaxsan o'zi qozilik qilib, go'shtni baland narxda sotishda ayblangan qassobni o'lim jazosiga hukm qilgan. «Har bir mamlakat va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qaerga bormasin, … u yurtlarning nafis matolari va boshqa tovarlaridan keltirishsin, o'sha mamlakatlarda yashovchi fuqarolarning hol-ahvoli, turish –turmushlari haqida menga xabar olib keltirsinlar, har bir mamlakat hukmdorining o'z raiyatiga qanday muomalayu munosabatda ekanliklarini aniqlasinlar» deb yozadi sohibqiron.[1]

Soliq tizimi Amir Temur davlati iqtisodiy siyosatining asosi bo'lib hisoblanadi. Shu davrda erga egalikning 5 ta asosiy ko'rinishi bor edi: 1.**Suyurg'ol yerlar**. Bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilgan bo'lib, soliqdan ozod qilingan. 2.**Harxon yerlar**. Bu yerlar odamlarga biron bir xizmati uchun xususiy mulk qilib berilgan. 3.**Ushr yerlar**. Sayyid va xo'jalarga mansub yerlar. 4. **Vaqf yerlar**. 5.Sipohilar va ularning rahbarlariga berilgan yerlar.

Saltanat xazinasini to'ldirish xarajatlari asosan soliqlar hisobiga amalga oshirilar edi. Amir Temur davlatining o'ziga xos soliqlar belgilash va uni yig'ish qoidalari bo'lib, bu haqda sohibqiron shunday degan edi.- Soliq yig'ishda xalqni og'ir ahvolga solishdan yoki o'lkani qashshoqlikka tushirib qo'yishdan ehtiyot bo'lish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi.

Biror o'lka menga taslim bo'lganida bu o'lkaning xalqi soliq yig'ish tartiblarining saqlab qolinishini istasa, ularning xohishiga rozi bo'lardim, aks holda



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

soliqlar men joriy qilgan qoida asosida yig'ilardi»[1]. Bu qoidaga asosan, soliqlar erning mahsuldorligiga va olingan hosilga qarab belgilanar edi.

Masalan, doim, uzluksiz ravishda kanal, buloq va daryo suvi bilan sug'orilgan ekin yerlaridan olingan hosildan ikki hissasi er egasiga qoldirib va bir hissasi saltanat xazinasiga soliq tariqasida olinar edi. Bordiyu raiyat bu qoidaga rozi bo'lmasa, u holda hisobga olingan ekin yerlarini birinchi, ikkinchi va uchinchi jarib (ya'ni 1 gektarga) qilib, uchga ajratib, birinchi jaribdan olingan hosilning 3 harvori (1 harvor-300 kg.yaqin), ikkinchi jaribdan olingan hosilning 2 harvori, 3-chi jaribdan olingan hosilning 1 harvori, ya'ni 1 gektar eri bor kishi 900 kg, 2 gektar eri bor kishi 1500 kg va 3 gektar eri bor kishi 1800 kg soliq to'lagan va hokazo.

Ammo xalqdan olingan soliqlarni har xil bahonalar bilan ko'paytirishga yo'l qo'yilmagan. Kuzgi, bahorgi, qishki va yozgi dexqonchilikdan, lalmikor yerlardan olingan hosilning uchdan va to'rtdan bir qismi soliq tariqasida olingan.

Fuqarolar olinadigan jon solig'i, kasb-hunardan, o'tloq va suvloqdan olinadigan soliqlar qadimdan o'rnatilgan qoidalar bo'yicha olingan. Soliq hosil pishib etilgandan keyin olingan. Soliq yig'ishda zo'ravonlik, kaltaklash, bandi qilish, xaqoratlash man etilgan.

Kimki, biron sahroni obod qilsa, yoki er osti suvini olish uchun inshoat qursa, to'g'onlar qurib bog' ko'kartirsa yoxud xarob bo'lib yotgan yerlarni obod qilsa birinchi yili soliqdan ozod qilingan, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bo'yicha soliq to'laganlar. Amir Temur harbiy yurishlardan zafar bilan qaytib kelganda fuqarolarni uch yilgacha soliqdan ozod qilgan.

Tashlandiq, xarob yerlarni obod qilish uchun turli asbob va kerakli narsalar berilgan. Bu yerlarni obod qilish uchun, suv inshoatlari, qo'rg'onlar qurish uchun, ariqlar qazish ko'priklar qurish, ot-ulov, omoch-ho'kizlar sotib olish uchun xazinadan pul berilgan.

«Saltanatni adolatli boshqarish maqsadida ushbu tadbirlarni ma'qul ko'rdim».- deb yozadi Amir Temur.

«Menga bo'ysungan yangi davlatlarda hurmatga loyiq odamlarga hurmat ko'rsatdim. Men payg'ambar avlodlariga, qonun targ'ibotchilariga, olimlar va keksalarga buyuk hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'ldim; ularga nafaqa belgiladim; etim - esirlar, kambag'al-qashshoqlarga g'amxo'rlik qildim; yaxshilarga, ular qaysi millatdan bo'lishiga qaramasdan, ularga yaxshilik qildim, g'arazli kishilar va sotqinlar, ig'vo-fitna yurituvchilar, yolg'on gap tashuvchilar davlatimdan quvildi, o'g'rilik, poraxo'rlik, ta'magirlikning barcha yo'llarini bekitish choralarini ko'rdim.

Shubhali va niyati buzuq kishilarning tuhmatlari bilan fuqarolarga jazo berishni man etdim. Ammo biror shaxsning gunohi 4 dalil bilan isbotlansa, unga qilmishiga yarasha jazo berdim»[2] deb yozadi Amir Temur.

## 1.3. O'zbekistonning bozor tarixi

Umuman O'zbekistonning keyingi bozor tarixi Turkiston bilan bog'liq

[1] Temur tuzuklari – Toshkent, Matbaa birlashmasi, 1991y. 61-bet.
[2] Temur tuzuklari – Toshkent, Matbaa birlashmasi, 1991y. 61-bet



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

bo'lgan. Bunda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, rus mustamlaka davri alohida o'rin egallaydi. Bu davrda bozor munosabatlari bir qadar kengayib, bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar ham miqdor, ham sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. O'rta Osiyo iqtisodiyoti Rossiya iqtisodiyoti manfaatiga bo'ysundirildi. Bunda, avvalo paxtachilikka va bog'dorchilikka katta ahamiyat berildi. Rossiya mustamlakachilik siyosatida paxtachilik asosiy o'rin egallab, bu tarmoq imkoni boricha kengaytirildi va O'zbekistonning paxta xom ashyosi bilan Rossiya to'qimachiligi sanoati to'la ta'minlanib, hatto Rossiya uni chetga ham eksport qildi. Bu borada mustamlakachilik siyosati imkoniyatlaridan to'la foydalanildi. Chunki bu yo'l bilan tabiiy boyliklar va arzon mehnat va resurslaridan juda yuqori foyda olinar edi. Shu bilan birga hunarmandchilik mahsulotlari ham arzonga olib ketilar, bu tarmoq ham ancha jonlangan va o'ziga xos bozorgir mollar ishlab chiqarilar edi.

Mustamlaka davrida sanoat yuzaga kela boshladi. Bu asosan qishloq xo'jalik mahsulotlariga birlamchi ishlov berish bilan bog'liq bo'lib, bular asosan paxta zavodlarini tashkil etar edi.

Davr o'tishi bilan hududimizga Ovro'paga xos bo'lgan savdo ham kira boshlaydi va Sharq savdosi xususiyatlari yanada boyiydi. Bunda kapitalistik munosabatlarning kirib kela boshlashi ahamiyatlidir. Texnik ekinlar maydonining kengayishi, temir yo'l qurilishi, xo'jaliklarning sanoatga bog'liqligi kuchayishi kabilar tovar - pul muomalalarini jonlantiradi.

Hozirgi O'zbekiston hududida paxta maydonlari 1860 - 1915 yillar ichida 36 ming gektarga, paxta etishtirish esa 25 ming tonnadan 830,9 ming tonnagacha o'sgan. Bundan tashqari Rossiyaga pilla, teri-charm, jun, mevalar etkazilib turilgan. 1915 yili 80 ming tonna pilla, 1800 ming dona qorako'l teri, 11,2 mln.so'mlik meva Rossiyaga tashilgan.

Rossiyaga olib ketilgan mahsulot miqdori 1857 yildagi 3838,8 ming so'mdan 1914 yilda 269079,0 ming so'mga o'sgan. Shuningdek, Rossiyadan keltirilgan tovarlar miqdori shu vaqt ichida 6047,5 ming so'mdan 243574,0 so'mga etgan. Bunda chetga chiqarilgan mollar asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'lsa, chetdan olib kelingan mollar sanoat iste'mol mollarini tashkil etgan.

Yirik savdo do'konlari, katta magazinlar asosan ruslar turgan mavzelarda ochilgan. Bozor munosabatlarini kengaytiradigan birja, yarmarka va banklar ochilgan. Eng birlamchi va ahamiyatli savdo birjasi 1906 yili Qo'qonda ochiladi va kon'yunkturani ko'rsatib turuvchi «Kokandskiy birjevoy komitet» byulleteni nashr etiladi.

Mustamlaka davrida Toshkent va Qo'qon iqtisodiy markazga aylandi. Ayniqsa, Qo'qon eng ahamiyatliliga sabab Farg'ona vodiysining paxtasi edi.

Bu davrda kooperativ savdosi paydo bo'la boshladi. Bular asosan matlubot va ssuda kooperativlari bo'lib, ular Foydalanilgan adabiyotlarqat rus aholisi ichida tarqalgan edi.

Umumiy qilib aytganda, Turkistondagi bozor savdosi mustamlaka mazmunida bo'lib, u Foydalanilgan adabiyotlarqat Rossiya manfaatiga qaratildi, mavjud bozor munosabatlari ichki xo'jalik munosabatlariga deyarli tub o'zgarish kirita olmadi va asosan tashqi ta'sir, ya'ni Rossiya ta'sirida bo'ldi. Shuning uchun ham u Rossiya va



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Turkiston hamda Turkiston orqali Rossiya va Sharq, Janub mamlakatlari o'rtasidagi mahsulot harakatlarini o'z ichiga olgan edi. Shunga ko'ra Turkiston Rossiyaning Xitoy, Hindiston, Eron, Arab mamlakatlari bilan bo'lgan tashqi savdosida oraliq vazifasinigina bajarib, o'zi hech qanday mustaqillikka ega emas edi.

Mustamlakachilik, ayniqsa tengsiz-ekvivalentsiz ayirboshlashda o'z aksini topadi. Masalan, Rossiyaga chiqarilayotgan xomashyo o'z qiymati bilan sotib olinmasdi. Jumladan 1915 yili chor hukumati tozalangan paxtani sotib olish narxini bir pud uchun 24 so'm belgiladi, bu mahalliy bozordagiga nisbatan 3 barobar past edi. Rossiyadan asosan iste'mol buyumlari keltirilib, ularning ichida metall buyumlar 9-10 foiznigina tashkil etardi va oldindan kelishilgan narxlar bo'yicha sotilib, bular mavjud narxlardan ancha yuqori edi.

Paxtakor, pillakor, qorako'lchi asosan qarz hisobiga tirikchilik qilganlari uchun pirovardida mahsulotlarini arzonga sotishga majbur bo'lar edilar. Chunki, qarzning asosiy qismi pul bilan emas, balki tayyor mahsulotlar bilan berilardi. Masalan, 1912 yili Turkiston dehqonlari hosilni olgandan keyin ham Foydalanilgan adabiyotlarqat qarzlarining 60 foizinigina to'lay olganlar.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Qisqacha xulosalar

Sharq bozori o'zining qadimiyligi bilan G'arb bozoridan ancha oldin taraqqiy etgan.

Amir Temur movaraunnaxrda mustaqil kuchli markazlashgan davlatni shakllantirdi.

Movaraunnaxrning siyosiy xayotida O'zbekistonnig bozor tarixi shakllanib borgan.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

**1.** Bozorning tarixiyligini qanday tushunasiz?

2. Amir Temur Iqtisodiy siyosati va solig'i to'g'risida nimalarni bilasiz?

3. O'zbekiston hududida bozor mavjudligi va miqyosini asosiy davrlar bo'yicha aytib tushuntiring.

4. Rus mustamlaka davri va sovet imperiyasi davridagi O'zbekistonda bozorning ahvoli, darajasini keng talqin qilib bnring.

5. O'zbekistonning «kapitalizmsiz rivoji» ning bozor munosabatlariga ta'sirini qanday talqin qilasiz?

6. O'zbekiston xalq xo'jaligining Sovet imperiyasidan keyingi holatini tushuntirib bering.

7. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti istiqboli va bundagi mavjud imkoniyatlar nimalardan iborat?

## Asosiy adabiyotlar


1. Karimov I.A. "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li" T. "O'zbekiston" 1993 y.
2. Байе М.Р. Управленческая экономика стратегия бизнеса. Издательство: ЮНИТИ, 2001. –631с.
3. Балашевич М. Экономика малого бизнеса. Издательство: БГЭУ, 2005.
4. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
5. Герчикова И.Н. Международные экономические организации: регулирование мирохозяйственных связей и предпринимательской деятельности: Учебное пособие. - М.: Консалтбанкир, 2004.- 624с. 1 экз.
6. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз.
7. Xodiev B.Yu., Samatov G'.A.., Yusupov M.S., Eshov M.P. «Kichik tadbirkorlik faoliyati asoslari» o'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent: EH TEMPUS dasturi «Matador-2000» loyihasi 2004.-144 bet.




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Internet veb-saytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# II-MAVZU. BOZOR TUSHUNCHASI VA TURLARI

**2.1. Bozor tushunchasi va uning vazifalari**
**2.2. Erkin va monopollashgan bozor**
**2.3. Bozorning turlari**

## 2.1. Bozor tushunchasi va uning vazifalari

Bozor deganda kishilar ko'z oldida ko'pchilik yig'ilib savdo-sotiq yuz beradigap joy gavdalanadi. "Bozorga boraman" deganda xam o'sha joyga borish tushuniladi, lekin ko'pchilik magazin, birja yoki auktsionni bozor tarzida xayoliga ham keltirmaydi. Bu tabiiy. Chunki, odamlarda shunday ko'nikma hosil bo'lgan. Aslida "Bozor" tushunchaciga boshqacharoq qarash kerak. Bozor iqtisodiyoti va bozor tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular aynan bir narsa emas. Agar bozor iqtisodiyoti yaxlit bir organizm hisoblansa, bozor uning muhim a'zosidir. Bozor faqat savdo sotuvdan iborat faoliyatni bildiradi.

Bozor sotuvchilar bilan xaridorlarning oldi-sotdi qilish orqali yuz beradigan o'zaro manfaatli va hamkorlik aloqalaridir.

Bozorda sotuvchilar va xaridorlar bir-birini topadi. Bozor ularni bir-biriga bog'lab turuvchi mexanizm hisoblanadi. Bozor bu barter emas, balki oldi-sotdi qilish, ya'ni tovarlarni pul vositasida ayriboshlashdir. Pulsiz bozor bo'lishi mumkin emas. Bozor bo'lishi uchun oldi-sotdi ham xaridorga, ham sotuvchiga manfaatli bo'lishi talab qilinadn. Sotuvchi o'z tovarini yaxshi qo'llasa, xaridor esa kerakli tovarni ma'qul narxda topa biladi, shuning uchun ham ular muhim aloqada bo'lishga intiladi. Xo'sh, kim sotuvchi-yu, kim xaridor? Bozorning har bir ishtirokchisi, u kim bo'lishidan qati nazar (iste'molchi, fuqaro, firma, davlat), bir bozorda sotuvchi bo'lsa. boshqa bozorda xaridor vazifasini o'taydi.

Xaridorda tovarni malum narxda sotib olish ishtiyoqi bor. Sotuvchilar esa tovarlarni bozorga chiqarib ularni ma'lum narxda xaridorlarga taklif etuvchilardir.

Xaridorlar va sotuvchilar har doim bir-birlarining hojatini chiqarib, hamkorlik qiladilar, kerakli tovariing narxini kelishib, o'zaro iqtisodiy murosaga keladilar. Bu bozordagi murosa deyiladi.

Uy xo'jaliklari, birinchidan, oddiy iste'molchilardan (masalan,oila yoki yakka odamdan), ikkinchidan, resurs egalaridan iborat. Ular xaridor sifatida bozordan tovarlar va xizmatlarni olsa, sotuvchi sifatida ish kuchi, er va pul mablag'ini bozorga chiqarib sotadilar. Ish kuchi mehnat bozorida, er ko'chmas mulk bozorida, pul esa moliya bozorida (bank orqali) sotiladi (bular birgalikda resurslar bozori deyiladi). Uy xo'jaliklari resurs bozoriga tovar chiqarib, u erdan pul oladilar. Bu pulni tovarlar bozoriga chiqarib, u erdan ists'mol buyumlari oladilar. Tovar ishlab chiqaruvchi firmalar, fermer xo'jaliklari yoki yakka tartibda ishlab chiqaruvchilardan iborat. Ishlab chiqaruvchilar ham ikki bozorda ish ko'radilar. Ular resurs bozoridan ish kuchi, xomashyo, er va qarz puli topadilar, ya'ni ularni sotib oladilar. Ayni paytda ular bozorga tovar chiqarib, u erdan pul oladilar.

Davlatga kelsak, u ham uy xo'jaliklaridan va tovar ishlab chiqaruvchilardan



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

tovar olib, ularga pul beradi, ammo ulardan yana pul ham oladi. Bu undirilgan soliqlardir. Davlat tovarlarni maxsus buyurtma orqali oladi. Bunga misol qilib mamlakatimizda amalda bo'lgan paxtakorlarga beriladigan davlat buyurtmasini olish mumkin. Unga binoan belgilangan miqdordagi paxta davlatga etkazib beriladi, paxtaning qolgan qismi erkin narxlarda sotiladi.

Bozordan tovarni sotib olish uchun pul kerak, buning uchun esa nimanidir sotish kerak. Demak, xaridor, albatta, sotuvchi vazifasini ham o'tashi lozim. Uy bekasi bozor qilganda pul bilan chiqib, uyiga tovar bilan qaytadi. U go'yo hech narsa sotmadi. To'g'ri, u shu damda tovar sotmadi, lekin uning hamyonidagi puli oldin sotilgan tovarning xaqi. Masalan, uning oila a'zolari o'z ish kuchini firmaga yoki davlatga sotib, ish xaqi olgan. Shu pulni beka bozorga olib chiqadi. Mazkur oila bankka pul quygan bo'lsa, unga ham haq oladi, uyini ijaraga bersa, ijara xaqi oladi. Uy bekasi uchun sotish operatsiyasi oldin bo'lib, xarid etish operatsiyasi keyin bo'lgan, xolos. Demak, bozorda oldi-sotdi har xil vaqtda kechishi mumkin.

Bozorda davlatning ishtiroki boshqacharoq. Agar davlatning korxonasi bo'lsa, u ham tovar sotadi. Ammo aksariyat davlat idoralari va mahkamalari bozorda o'z xizmatini sotadi. Bu xizmatning xaqi olinadigan soliqlar hisoblanadi. Tushgan pulga davlat bozordan resurslar va tovarlar sotib oladi. Bozorning afzalligi ham shuki, u oldi-sotdidan iborat iqtisodiy aloqalarni o'rnatadi.

### 2.2. Erkin va monopollashgan bozor

Iqtisodiyotnnng o'zi tarixan turli shakllarda mavjud bo'lgani kabi Bozorda xaridor va sotuvchining mavqei ham o'zgarib boradi. hozirgi bozor tartiblanadigan bozor, unda stixiyalik, noaniq xaridor uchun ishlash kam uchraydi, mijozlar o'rtasida oldi-sotdi aloqalari muhim va uzoq vaqt uzilmay davom etadi. Bozorga tovarlarni tavakkalchilik bilan etkazish ham kam uchraydi. Tovar chiqarishdan oldin bozor puxta o'rganiladi, nimani, qancha etkazib berish belgilab olinadi. Ammo bozorda ma'lum darajada noaniqlik saqlanib qoladi. Chunki, xaridor va sotuvchi mustaqil bo'lib, nima qilishni o'zlari hal etishadi, ularning maqsad va o'y-xayollari turlicha, lekin bozor tartiblangani bois beboshlik bo'lmaydi. Ilgarilari bozor asosi tartibsiz bo'lgani uchun unda noaniqlik hukm surgan, narx-navoning qanday bo'lishi, nimaning bozori chaqqon, nimaning bozori kasod bo'lishini oldindan payqab bo'lmagan. Bunday bozorning sarqitlari hozir ham bor. Bunga misol qilib O'ebekistondagi dshqon bozorlari va buyum bozorlarini, ayrim do'konlarni olish mumkin. Bu erda ish yurituvchilar aniq mo'ljalga ega bo'lmasdan, bozor o'zgarishlarini oldindan bilmasdan savdo qiladilar. Bunday bozor o'rniga tartiblangan, madaniy bozor kelishi muqarrar. Eng demokratik bozor bu erkin boeordir.

**Erkin bozor** deganda xaridorlar ham, sotuvchilar ham ko'p bo'lib. ulardan hsch biri monopoliya mavqeiga ega bo'lmay. bir-birini tezda topa oladigan, raqobat to'la-to'kis hukmron bo'lgan, narxlar erkin savdolashuv asoslari shakllanadigan bozor tushuniladi.

Keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turganidek. erkin bozorda xaridor va sotuvchi



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

munosabati biron bir tazyiqsiz, iqtisodiy tanlov asosida vujudga keladi, ular orasida murosa mavjud bo'ladi. Erkin bozorga misol qilib O'zbskistondaga qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorini ko'rsatish mumkin. Bu bozorda millionlab kishilar xaridor, sotuvchilar esa davlat xo'jaligi, jamoa xo'jaligi, fermer xo'jaligi, minglab tomorqa xo'jaligi va dala hovli sohiblaridir. Bu erda kim nimani sotish, kimdan nimani olish, qanday narxda savdo qilish yuqoridan turib belgilanmaydi, buni bozorning o'zi hal qiladi.

Erkin bozorda xaridor va sotuvchilarning tanlovi ularning saralanishiga va ulardan kuchlilarining monopol bozorni tashkil etishiga oaib keladi. •

**Monopol bozor** deb ozchilik xaridorlar va sotuvchilar : hukmron bo'lgan, monopol narx o'rnatilgan, raqobat cheklangan yoki raqobat umuman bo'lmaydigan bozorga aytiladi.

Monopol bozorning o'zi uch xil bo'ladi: Monopol raqobatli bozor son jihatdan ko'p bo'lmagan, bozorga bir xil, o'xshash yoki o'rinbosar tovarlar chiqaradigai firmalar qo'lida bo'ladi, ular o'zaro raqobat qiladilar. Bunga misol kilib O'zbekistondaga kiyim-kechak bozorni olish mumkin. Bu erda asosan 8 ta firma mahsulot chiqaradi, lekin ular nafaqat o'zaro, balki tovari O'zbskistonga kirib kelgan xorij firmalari bilan ham bellashadilar.

**Oligolopistik bozor**. Ozchilik firmalar hukmron bo'lgan bozor, bu erda raqobat ko'pgina sotuvchilar orasida emas, balki xaridorlar o'rtasida yuz beradi. Bunga misol tariqasida O'zbekistondagi tsement bozorini olish mumkin. Bozorga 3 korxona mahsulot chiqaradi, TSement xarid qilish uchun raqobat esa : xaridorlar o'rtasida boradn.

**Sof monopoliya bozori**. Bunday bozorga tovarni butun bir tarmoqda hukmron bo'lgan ayrim korxonalar etkazib beradi. Masalan, O'zbekisgonda paxta terish mashinalarini faqat Toshkent Qishloq xo'jaligi mashinasozlik zavodi, traktorlarni faqat Toshkent Traktor zavodi tayyorlab bozorga chiqaradi. Ichki bozorda ularning raqiblari yo'q,

O'z turidan qat'iy nazar har qanday bozor o'zining ixtisoslashgan kichik bir qismlariga segmentlariga ega bo'ladi

Bozor segmentlarga quyidagi belgilariga qarab ajraladi: aholining xarid qobiliyati; yashash sharoiti; yoshi va jinsi; qaysi tovarlarni afzal ko'rishi; kishilarningg mehnat faoliyati, turmush tarzi; inflyatsiya darajasi; bozor infrastrukturasi holati.

Bozor aloqalari faol bo'lishi uchun bozor infrastrukturasi yaxshi ishlashi lozim.

Bozor infrastrukturasi bozor aloqalarini yurgizish uchun xizmat qiluvchi korxona, tashkilot va muassasalar majmuidir.

Infrastrukturani birjalar, savdo uylari, savdo kompaniyalari, hisob-kitob idoralari, maslahatchi firmalar, broker va auditor idoralari, yarmarkalar, tender (maxsus savdo) uyushtiruvchi tashkilotlar, bojxona idoralari, banklar, sug'urta kompaniyalari kabilar tashkil etadi. Ularning vazifasi oldi-sotdiga xizmat qilishdir.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## 2.3. Bozorning turlari

Bozorga g'oyat xilma-xil tovar va xizmatlar chiqariladi, ular bozor ob'ektini, aniqrog'i u erdagi oldi-sotdi ob'ektini tashkil etadi. O'z ob'ekti jihatidan bozorni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. **Iste'mol tovarlari bozori**, ya'ni iste'molchilar bozori kishilarning, tirikchiligi uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar bozoridir. Bu bozorda keng iste'mol buyumlari, madaniy, maishiy va kommunal xizmatlari oldi-sotdisi olib boriladi. Bu bozorda deyarli barcha fuqaro ishtirok etadi. Bu bozorning O'zbekistonda aniq ko'rinishlari bor: magazinlar, savdo uylari, firmalar, supermarket, do'kon (shop), oshxona, nonvoyxona, har xil ustaxonalar, sartaroshxonalar, salonlar, nihoyat, dehqon bozorlari va buyum bozorlari.

2. **Ishlab chiqarish vositalari va resurslar bozori** — ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan narsalar bozori. Bu bozorda ulgurji savdo-sotiq yuz beradi. Mazkur bozor savdo firmalari, savdo uylari, birjalar faoliyatida, er va boshqa ko'chmas mulk savdosida namoyon bo'ladi. Bunday bozorda resursga talabgorlar resurs etkazuvchilar bilan koitrakt-shartnomalar asosida aloqa qiladilar. Resurs bozorining bosh bo'g'ini tovar birjasi hisoblanadi.

Tovar birjasi ulgurji savdo bilan shugullanuvchi tijorat korxonasidir.

Birjadagi savdo-sotiq opsratsiyalari quyidagi belgilarga ega: a) birjada tovarlarni etkazib berish haqida bitim tuzishib, ularning pulini to'lash birjadan tashqarida yuz beradi; b) birjada sotiladigan tovarlarning o'zi emas, ularning namunasi va naqdligini tasdiqlovchi xujjat qo'yiladi; v) birjada hali yo'q tovarlarni sotish haqida ham bitim tuzidadi, bu qishloq xo'jaligi mahsulotlariga taalluqlidir. Bo'lg'usi hosil yuzasidan savdo bitimi ilgariroq tuzilib, tovarni etkazib bsrish hosil yig'ilganidan keyii yuz beradi; g) birja uyushgan bozor bo'lib, bu erdagi savdo-sotiq operatsiyalari belgilangan tartibda o'tkaziladi. Universal birjalar har xil mollar bilan savdo qilsa, ixtisoslashgan birjalar ayrim tovarlarni (don, paxta, metall va hokazo) sotadi.

3. **Ish kuchi yoki mehnat bozori** — ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Ish kuchi maxsus tovar bo'lganidan uning bozori o'z xususiyatiga ega. Ish kuchi insonning ishlash qobiliyati. Agar oddiy tovar sotilganda uning egasi o'zgarsa, ish kuchi necha marta sotilmasin, o'z egasi bilan birga qoladi. Chunki,b uni inson jismidan ajratib bo'lmaydi.

Mehnat bozori mehnat birjalari, ishchi yollovchi vositachi firmalardan va nihoyat, kishilarni bevosita ishga jalb etuvchi korxonalarning o'zidan iborat. Sharqqa xos bo'lgan tartibsnz mehnat bozori - bu mardikor bozoridir. 4.**Moliya bozori** ham bozorning maxsus turi. Moliya bozori deganda moliya resursiga (vositasiga) aylangan pul mablag'lari va ularga tenglashtirilgan qimmatbaho (qiymatli) qog'ozlar bozorini tushunish kerak. Moliya bozori tarkiban kredit (qarz puli) bozori, qimmatbaho qog'ozlar bozori va valyuta bozoridan iborat (bu masala keyingi boblarda batafsil yoritiladi). Valyuta auktsioni, kredit pullari auktsioni, banklar, moliya



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

kompaniyalari, fond birjalari (qimmatli qog'ozlar birjasi) va boshqalarning faoliyati bu bozorning yaqqol ko'rinishidir.

5.**Intelektual tovarlar bozori** — aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar va xizmatlar bozori. Bu bozorda ilmiy ishlanmalar, g'oyalar, texnikaviy loyihalar va chizmalar, axborot, san'at, adabiyot va ilmga tegishli asarlar, ijrochilik xizmati va turli tomosha xizmatlari sotiladi. Bu bozorning muhim unsuri litsenziya bozori va hozirgi kunda shou-biznes va kino bozorlaridir.

6.**Qurol-aslaha bozori** bozorning alohida turini tashkil etadi, bu erdagi tovarlar iste'mol buyumlari ham emas, resurslar ham emas. Bu erda xavfizlikni ta'minlovchi qurol-yarog'lar sotiladi. Bu bozor salonlar va ko'rgazmalar shaklida bo'ladi. Mayda qurollar magazin orqali sotiladi.

Bozor o'zining qamrov doirasi jihatidan mahalliy, hududiy, milliy va jahon bozorlariga bo'linadi. Bozor qanchalik turga bo'linmasin, ixtisoslashmasin, baribir, u oldi-sotti orqali kishilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga hizmat qiladi.

## Qisqacha xulosalar

Sotuvchilar bilan xaridorlarning o'zaro manfaatli aloqasi asosida yuzaga kelgan bozor turga bo'linmasin, ixtisoslashmasin baribir u iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga xizmat qiladi.

Erkin bozorda xaridor va sotuvchilarning tanlovi ularning saralanishiga va ulardan kuchlilarining monopol bozorni tashkil etishiga olib keladi.

Bozorga g'oyat xilma – xil tovar va xizmatlar chiqariladi, ular bozor ob'ektini aniqrog'i ob'ekti jihatdan bozor turlarga bo'linadi.

## Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Bozor deganda nima tushuniladi?
2. Kim bozor ishtirokchisi hisoblanadi?
3. Bozor qanday vazifalarni bajaradi?
4. Erkin va monopolik bozor qanday farqlanadi?
5. Bozor turlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?

## Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Oliy majlisning yig'ilishda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi 31 avgust 2002 y.
2. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. Xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
3. O'zbekiston Respublikasini majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasi ikkinchi yig'ilishda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi 23 yanvar 2000y.
4. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

5. Karxalov M.F. Kichik biznesni samaradorligini oshirish yo'llari (Qashqadaryo viloyati misolida).
6. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие
7. С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 s. 1 экз.

.

## Internet veb-saytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## III-MAVZU. EHTIYOJLAR VA UNING QONDIRILISHI

**3.1. Ehtiyoj tushunchasi va uning yuksalishi**
**3.2. Resurslarning kamyobligi**
**3.3. Ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasi**

### 3.1. Ehtiyoj tushunchasi va uning yuksalishi

Inson boshqa jonzodlardan o'zinpng aql-idroki bnlan ajralib turadi. Inson biologik mavjudot sifatida ovqat eyish, uxlash, dam olib o'z kuchini tiklash, o'zini issiq-sovuqdan asrash ehtiyojlariga ega. Mazkur ehtiyojlar moddiy shaklda — kiyim-kechak, oziq-ovqat. turar joy va boshqalar shaklida ifoda etiladi.

Moddiy ehtiyojni qondirish uchun esa zarur noz-ne'matlarni ishlab chiqarish kerak- Inson borsa-kelmas orolda, afsonalarda aytilganidek, qush borsa qanoti, odam borsa oyog'i kuyadigan joyda, tanholikda yashamaydi. Inson ijtimoiy jonzod. U ma'lum mamlakat fuqarosi, aniq bir hudud (shaxar, qishloq, mahalla, kvartal) da kishilik jamiyatida yashaydi. Uning mehnat orqali qondiriladitan jamiki ehtiyoji moddiy ehtiyojga kiradi.

Insonning moddiy ehtiyojlari bilan birga ijtimoiy ehtiyojlari ham borki, bularga bilim olish, madaniy saviyani oshirish, malaka, mahoratga ega bo'lish va sog'lom hayot kechirib, uzoq umr ko'rish kiradi. Aytilgan ehtiyojlar moddiy shaklga ega bo'lmagan har xil xizmatlar ko'rsatish orqali qondiriladi Shifokor, o'qituvchi yoki madaniyat xodimi xalqqa xizmat qilib, uning ehtiyojini qondirishga hissa qo'shadi, ammo ularning mehnati ishchi yoki dehqon mehnati kabi moddiy mahsulotda ifodalanmaydi.

Insonning mehnat qilish ehtiyoji ikki narsadan kelib chiqadi: birinchidan, mehnat moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondiradi; ikkinchidan, mehnatda inson kamolotga erishadi, qobiliyatini o'stiradi. Hayotda o'z o'rnini topadi, obro'-e'tiborga erishadi. Shu sababli mehnatniig tagi rohat deydilar. Mehnat qilish uchun jihozlangan ish joyi bo'lishi zarur. Ish joyi uchun bino qurish, kerakli uskuna-jihozlar, masalan, stanoklar, kompyutyerlar, o'lchash asboblari, laboratoriya uskunalari o'rnatish kerak. Demak, ularni ham ishlab chiqarish talab qilinadi.

Ehtiyoj qat'iyan tabaqalashgan bo'ladi. Ehtiyoj kishilarning odati, didi, ruhiyati, yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, millati, mehnat va yashash sharoitlariga ham bog'liq. Maktab o'quvchisi bilan olimning, yosh yigit bilan pensioner cholning, dehqon bilan shaxtyorning ehtiyoji bir xil emas. hatto kishilarning jismoniy tuzilishi ham ehtiyojlarda farqlarni hosil qiladi. Albatta gavdasi yirik kishining ehtiyoji bilan jussasi kichik kishining ehtiyoji bir xil emas. Eng muhimi — xilma-xil ehtiyojni qondirish uchun xilma-xil faoliyat talab qilinadi.

Ehtiyojlar to'xtovsiz ravishda mos rivojlanishi ksrak: Aks holda ehtiyojlar qondirilmay qoladi. O'z navbatida ishlab chiqarishning rivojlanishi, ayniqsa texnika taraqqiyoti yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Masalan, tezkor axborotlar olish zarurati EHMlarni yaratdi. Kompyuterlash jarayoni EHMlarni yaratish va qo'llash bilan bog'liq ehtiyojlarni yuzaga chiqardi. Kompyutyerlarning birinchi avlodiga



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

ehtiyoj avval qisqarib, so'ngra yuqoldi. Hozir to'rtinchi avlod mashinalariga — AVM-486 markali EHMga ehtiyoj bor.

Ehtiyojlarning yuksalishi quyidagicha yuz beradi: — kishilarning ehtiyoji miqdoran o'sib boradi. Uning sababi esa aholi sonining ko'payishi, turmushining yuksalishida. Masalan, hozir jon boshiga 60 kilogramm go'sht talab qilinsa, aholi soni 1,5 marta ko'paysa, shunga ko'ra jamiyat miqyosida jami go'shtga bo'lgan ehtiyoj ham 1,5 marta ortadi, albatga; — ayrim ehtiyojlar yo'qolib, o'rniga yangisi keladi, ehtiyojlar doirasi yangilanib, kengayib boradi. Masalan, asrimizning 70-80 yillarida qo'lda ko'tarib yuradigan (Vesna, Veta) magnitafonga ehtiyoj katta bo'lgan. Magnitafoni bor kishi g'ururlanib yurgan. Hozir hech kimga magnitafon kerak emas. Uning o'rniga zamonaviy ixcham magnitofonlarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Eski radiotexnika o'rniga videotexnika keldi;

- muayyan ehtiyoj saqlangan holda uning aniq turlari orasidagi nisbat o'zgardi. Masalan, shahar transportiga ehtiyoj doirasida uning turlari o'rtasidagi nisbatan o'zgaradi. Yo'lovchilar o'z tanloviga binoan tramvay, troleybus, avtobus, taksi yoki metroni afzal ko'rib, unga ehtiyoj bildiradi. Bir tovarga bo'lgan ehtiyojlarni boshqa o'rinbosar tovar qoniqtira oladi. Shirinlikka bo'lgan ehtiyoj umumiy bo'lsada, asal, shakar, qand, konfet biri-birining o'rnini bosa oladi. O'rinbosar tovarlar doirasida ehtiyoj bir tovardan boshqa nafliroq tovarga ko'chadi.

Xullas ehtiyojlarning miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib borishi tabiiy jarayon bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirishiga undaydi, lekin uning o'sib, yangilanib borishi resurslarning kamyobligi muammosiga yo'liqadi.

## 3.2.Resurslarning kamyobligi

Ehtiyojlarning cheksizligi bilan resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi nomutanosiblik iqtisodiyotning azaliy muammosidir.

**Iqtisodiy resurslar** - bu iqtisodiy rnvojlanish uchun zarur bo'lgan moddiy va insoniy omillarning yaxlitligidir.

Iqtisodiy resurslarni uch toifaga bo'lish mumkin:

1.**Moddiy resurslar**. Bularga tabiiy boyliklar, asbob-uskuna, mashina mexanizm, bino inshoat va har xil qurilmalar kiradi. Ular ishlab chiqarishning moddiy, buyumlashgan omilini tashkil qiladi

2.**Mehnat resurslari**. Bularga mehnatga layoqatli aholi kiradi. Iqtisodiyot uchun resurs sifatida aholining faqat soni emas, balki uning bilimi ish tajribasi va mehnat mahorati ahamiyatlidir.

**3.Ishbilarmonlik qobiliyati**. Bu tadbirkorlarning ishning ko'zini bilishi, ishlab chiqarish, tijorat, bank ishi va boshqa faoliyatni samarali boshqara olishi, tavakkalchiligi, zarar ko'rishdan qo'rqmasligidir.

Resurslarning so'nggi ikki turi ishlab chiqarishning shaxsiy insoniy omili hisoblanadi. Resurslar sarfi texnika-texnologiya darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa ehtiyojlarni qondirish shu qadar kam resurs talab qiladi yoki aksincha. masalan, eski texnologiya sharoitida 10 so'mlik mahsulot olish uchun 1 kVt elektr energiya sarf qilinsa, ilg'or texnologiya sharoitida 0,5 kVt



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

sarflanadi, demak, energo resurs birligi evaziga 2 barobar ko'p mahsulot olinadi,

Resurslarning kamyobligi umumiy xodisa. Bu ekiladigan yerlarning er osti va er usti boyliklarning, mehnatga yaroqli aholi sonining cheklangan bo'lishi, energiya resurslarining etishmasligida ifoda etiladi. Masalan, keyingi 200 yil ichida er yuzasida istemolchilar soni 5 marta ko'paydi, ammo er sathi, tabiiy boyliklar ko'paygani yo'q. Er kurrasini 72% okeanlardan, 28% esa quruqlikdan iborat, ammo quruqlikni ham talay qismida yashab bo'lmaydi. Chunki, qumlik, sahro, suvsiz cho'li biyobon, osmono'par tog'lardan iborat. Sarf etilgan er osti boyliklarni umuman tiklab bo'lmaydi, ammo erning o'simliklar va xayvonot olamini tiklab bo'ladi.

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida malakali ish kuchi ham kamyob resursga aylanadi. Shunday sharoitlarda kishilar o'sayotgan ehtiyojlarni faqat mavjud resurslarga tayangan holda qondirishga harakat qiladilar.

## 3.3.Ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasi

Resurslarni ko'proq ishlatish hisobidan-ehtiyojlarni qondirish vaqtinchalik, chunki, resurslar tugab boravergani sayin kishilar uni kamroq sarflash yo'lini qidiradilar, resurslarni tejovchi texnologiya yaratilib, keng qo'llaniladi. Natijada resurs birligini ishlatishdan olingan mahsulot ko'payadi. Umuman olganda cheksiz ehtiyojni kamyob resurs bilan ta'minlash uchun 2 narsa amalga oshishi shart:

1.Ehtiyojlar ko'p bo'lganidan ularning hammasini birdaniga qondirish mumkin emas, shu boisdan ularniig eng muhimi ajratib olinadi va ishlab chiqarish ularni qondirishga karatiladi, Masalan, hozir O'zbekiston uchun neft mahsulotlari va donga bo'lgan ehtiyoj eng zarur ehtiyojlardan hisoblanadi va resurslar eng avval shularni qondirishga qaratilgan. Shu sababli 2002 yil O'zbekistonda qishloq xo'jaligi 6 foiz, sanoat –2.5 foiz, iste'mol tovarlar ishlab chiqarish 11,8 foiz ko'paydi va 5 million 400 ming tonna don etishtirildi.

2. Resurslar kamyob bo'lganidan ishlab chiqarishning' eng zarur sohalariga ustivorlik beriladi. Muqobil mahsulotlardan eng maqbuli tanlab olinadi. Bir mahsulot uchun resurs ko'proq ketsa, tabiiy ravishda boshqasiga kamroq qoladi. Hadisi sharifda aytilganidek "tejamkorlar muxtoj bo'lmaslar"

Shuning uchun resurslar sarfining eng tejamli usuli tanlanadi, shunda shu resurs birligi hisobiga ko'proq mahsulot olinadi ehtiyojni to'laroq kondirish mumkin bo'ladi (ilova)

Egri chiziqda avtomashina va traktor muqobil mahsulot, deb olingan. Ularni ishlab chiqarish uchun ikkalasiga ham bir xil 1 tonnadan metall sarflanadi deb olsak, metall resursi esa jami 10 tonna bo'lsa, traktorni ko'proq chiqarish uchun avtomashinani kamroq ishlab chiqarish zarur bo'ladi. Traktorni uch dona chiqarish uchun avtomashinani 10 ta o'rniga 7 ta chiqarish kerak. Buni boshqacha tasvirlasak ham bo'ladi (ilova 2.3). Kamyob resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasi tanlab olinadi. Bunda kam resurs bilan ko'proq ehtiyoj qondiriladi.

Bu qoidaga binoan mahsulot birligini yaratish uchun ketgan resurs sarfi qisqarishi shart, aks holda ehtiyoj to'la qondirilmaydi. Masalan, donga bo'lgan



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

ehtiyojni to'la qondirish uchun don hosildorligini muttasil oshirib borgan holda, har tonna don olish uchun ketgan resurs sarfini qisqartirib borish talab qilinadi.

## Qisqacha xulosalar

Extiyot kishilarning odati, didi, ruhiyati, yoshi, jinsi, oilaviy axvoli, yashash sharoiti bilan shakllanib yuksalib boradi.

Ehtiyojlarning cheksizligiva resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi nomutanosiblik iqtisodiyotning azaliy qonuniyatidir.

Resurslar kamyob bo'lganidan ishlab chiqarishning eng zarur sohalariga ustivorlik beriladi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Nima sababli ehtiyojlar cheksiz bo'ladi?
2. Resurslar nima va ularning noyobligini qanday tushunish kerak?
3. Ehtiyojlarning optimal darajasini tiklash zaruriyati nimadan iborat?

## Asosiy adabiyotlar


1. I. Karimov «Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlapggirish muhim vazifa" Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "xalq so'zi" 24 yanvar 2000
2. A.E.Ishmuxamedov va boshqalar «Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning" rivojlanishi» - T., "O'qituvchi", 1996
3. I.Karimov "Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz". Xalq so'zi, 13 fevral, 2002 yil.
4. Salaev S. Iqtisodiy islohatlarni chuqulashtirish sharoitida kichik biznes: muammolar, taxlillar va istiqbollar. T.: – 2004y.
5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
6. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз.


## Internet veb-aytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

4. http:\\www.bearingpoint.uz – “O’zbekiston iqtisodiyoti” qo’llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so’nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o’zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o’zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# IV-MAVZU. IQTISODIY FAOLIYAT VA ISHLAB CHIQARISH

**4.1. Iqtisodiy faoliyat turlari**
**4.2. Ishlab chiqarish omillari va natijalari**
**4.3. Mehnat unumdorligi**

## 4.1. Iqtisodiy faoliyat turlari

Ehtiyojlar turli-tuman bo'lganidan ularni qondirish ham turlicha yo'llar bilan amalga oshiriladi, lekin baribir bu ish iqtisodiy faoliyatni talab qiladi.

Iqtisodiy faoliyat deganda inson tirikligini ta'minlash usullari va vositalarn majmui tushuniladi.

Iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi, yaratilgan mahsulotlarni ayirboshlash orqali isge'mol etish bilan tugallanadi. Uning asosiy bo'g'ini ishlab chiqarish, ya'ni har xil mahsulot va xizmatlarni yaratishdir. Mehnat yaratgan ne'matlar iqtisodiy ne'matlar deyiladi. Ular tabiatdagi tekin ne'matlar (havo, quyosh nuri, suv) dan farq qiladi. Mahsulotlarni ayirboshlash va ularning isge'moli (ishlatilishi) ham iqtisodiy faoliyat tarkibiga kiradi Ishlab chiqarish tijorat (savdo-sotiq) orqali iste'mol bilan bog'lanadi. Iqtisodiy faoliyat turlari xilma-xil, lekin ular bir-birini albatga taqozo etadi.

Ishlab chiqarish bo'lmasa kishilar yashay olmaydi, bu turgan gap. Ammo kishilar yaratgan mahsulotlarini o'zaro ayirboshlash orqali iste'molni qondiradilar, bir-birlariga kerakli mahsulotlarni egkazib beradilar.

Kishilar o'z ehtiyojini qondirmasa, ish qobiliyatini tiklay olmaydilar. Binobarin, iste'molsiz ishlab chiqarish ham bo'lmaydi. Ishlab chiqarish turlari g'oyat ko'p. Hozir dunyoda 25 million xil mahsulot va ularning butlovchi qismlari va detallari yaratiladi. Aholiga minglab xil xizmatlar ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish birlamchi faoliyat sifatida ikki turga bo'linadi:

1. Moddiy ishlab chiqarish aniq moddiy shaklga ega mahsulotlarni (masalan, iste'mol buyumlari, yonilg'i, xomashyo, material, mashina va uskunalarni) yaratish, shuningdek, moddiy sohaga xizmatlar ko'rsatish. Bunga sanoat, qishloq xo'jaligi, yuk transporti, qurilish, ombor xo'jaligi, aloqa kiradi.
2. Nomoddiy ishlab chiqarish — moddiy shaklga ega bo'lmagan, qo'l bilan ushlab his etilmaydigan, ammo foydali xizmatlar ko'rsatish. Masalan, shifokor yoki o'qituvchi xizmati moddiy ko'rinishda emas, lekin u hammaga zarur. Nomoddiy ishlab chiqarishga madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalar kiradi.

Ayirboshlash faoliyatida mahsulotlar va xizmatlar yaratilmaydi, balki ular ma'lum miqdoriy nisbatda bir-biriga almashtiriladi. Bu jarayon ikki xil kechadi: biri mahsulot ayirboshlash, ikkinchisi tovar ayirboshlash.

Bir mahsulotning bevosita boshqasiga to'g'ridan-to'g'ri, lekin ma'lum miqdoriy nisbatda ayirboshlanishi barter (mu'ovaza) dsb yuritiladi.

Barter ayirboshlashning qulay bo'lmagan xolis usuli. Bu usul oldi-berdi aloqalari izdan chiqqanda, pul shiddatli qadrsizlanganda qo'llaniladi. Me'yordagi



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

iqtisodiyot sharoitida tovar ayirboshlashga amal qilinadi.

Bir mahsulotning boshqasiga pul vositasida va ma'lum narx asosida, ya'ni oldi - sotdi yo'li bilan ayirboshlanishi tovar ayirboshlash deyiladi.

Tovar ayirboshlash barterdan farqliroq, tovarni oldin pulga, so'ngra pulni kerakli boshqa tovarga ayirboshlashni bildiradi. U hamma bop, ya'ni universal ayirboshlashdir. Bu jarayonda pul ishtirok etadi, pulga xohlangan tovarni xohlagan joydan sotib olish mumkin bo'ladi.

Tovar ayirboshlash, oldi-sotdi ayirboshlashning eng yuksak va qulay shaklidir.

Iste'mol degan narsa mahsulotni amalda, ya'ni ehtiyojni qondirish uchun ishlatish demakdir. Mahsulotlar, birinchidan, tirikchilik uchun kishilarning o'zlari tomonidan iste'mol etiladi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni davom ettirish uchun uning o'zida ishlatiladi.

Iste'mol faoliyat sifatida yakka, oilaviy, guruhiy yoki umum-milliy istemol tarzida yuz beradi. Masalan, ko'ylakni har bir kishi yakka tartibda kiyadi, televizor, gilam yoki mebel oilaning birgalikdagi iste'molida bo'ladi. Maktab, kasalxona yoki bolalar bog'chasidagi asbob-anjom va jihozlar ham birgalikda ishlatiladi. Armiya, xavfsizlik xizmati yoki boshqa ma'muriy tashkilotlar xizmatidan ayrim kishilar yoki guruhlar emas balki butun xalq bahramand bo'ladi. Xullas, mahsulotlar va xizmatlar har xil bo'lsada iste'mol etiladi. Ammo bundan qat'i nazar ular iste'mol etilgach, yana qayta yaratilishi lozim. Demak shunday qoida bor:

Cheksiz ehtiyojni qondirish uzluksiz iqtisodiy faoliyatni talab qiladi.

Iqtisodiy faoliyat yoki iqtisodiyot kishilarning ma'lum maqsad yo'lidagi xatti-harakatini bildiradi. Uning ishtirokchilari ayrim kishilar, oila, korxona, xo'jaliklar va davlatdir.

Iqtisodiyot ishtirokchilari iqtisodiy sub'ektlar deb ataladi, ular o'zaro muntazam iqtisodiy aloqada bo'ladilar. Bu esa ularning iqtisodiy munosabatlaridir. O'zaro aloqasiz na ishlab chiqarish, na ayirboshlash, na iste'mol yuz beradi. Robinzon Kruzo kabi kimsasiz orolda tanho xo'jalik yuritish faqat hikoyalarda bo'ladi. Amaldagi iqtisodiyot yo'lida esa hamma bir biriga bog'liq bo'lishi zarurat hisoblanadi.

## 4.2. Ishlab chiqarish omillari va natijalari

Aytganimizdek, iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi. har qanday ishlab chiqarishda ikki omil; — shaxsiy-insoniy va moddiy-ashyoviy omillar ishtirok etadi.

Shaxsiy-insoniy omil — bu mehnat qilish qobiliyatidan iborat bo'lgan ish kuchi va uning faoliyatdir.

Shaxsiy-insoniy omil mehnatga layohatli aholi, uning jismoniy va aqliy qobiliyati, bilim va saviyasi, malaka va mahoratidir. Mazkur aholi O'zbekistonda 2002 yilda 12 million kishi edi. Bu omil insoniy qobiliyat bo'lgani sababli inson shaxsi bnlan birgalikda, undan ajramagan holda namoyon bo'ladi va inson shaxsida gavdalanadi.

Moddiy-ashyoviy omil — bu ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

oddiy  shakldagi vositalardir.

Tadbirkorlik qobiliyati oddiy ish kuchidan farq qilib, ishlab chiqarishda boshqarishdan iborat bo'lgan alohida vazifani bajaradi. U tabiatan ishbilarmonlik bo'lib, alohida bir iste'dod, yuksak bilim, maxsus tayyorgarik va mas'uliyat mujassami demakdir.

Tadbirkorlik qobiliyati moddiy omillar bilan birikmaydi, balki shu omillar bilan ish kuchining samarali birikishi, iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natija olinishini ta'minlaydi.

Omillarning birikishi tufayli olingan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning natijasi hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulot ikki xil bo'ladi: birinchisi — natural mahsulot bo'lib, uni ishlab chiqaruvchining o'zi iste'mol etadi. Bu mahsulot ayirboshlash uchun bozorga chiqarilmaydi. Masalan, fermer xo'jaligida etishtirilgan donning bir qismi natural mahsulot bo'lib, xo'jalikning o'zida molga em yoki fermer oilasiga oziq-ovqat uchun ishlatiladi; ikkkinchisi — tovar shaklidagi mahsulot bo'lib, ishlab chiqaruvchining o'z iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish uchun yaratiladi. Mahsulotni bozorda oldi-sotdi qilish uchun ishlab chiqarish tovar ishlab chiqarish deb yuritiladi. Mana shu tovar ishlab chiqarish bozor iqtisodiyotining asosidir.

Bozorda sotish uchun- chiqarilgan mahsulot va xizmatlar tovar deyiladn.

Tovarning ikki xil xususiyati bor. Birinchidan, u kishilarning hayotiy ehtiyojini qondirib, ularga foyda keltiradi. Ikkinchidan, u boshqa tovarlarga almasha olish xususiyatiga egaki, bu uning almashuv qiymati deyiladi. Tovarning yaratilishidan tortib, to u iste'mol etilguncha bo'lgan jamiki mehnat sarfi tovarning qiymatini tashkil etadi. Ammo qiymatni aslo befoyda mehnat yaratmaydi. Agar mehnat kishilarga kerak bo'lgan mahsulotni yaratsa va me'yorida sarf etilgan bo'lsa, mana shunday mehnatni kishilar ma'qul topib tan oladilar, ya'ni mahsulotni sotib oladilar. Shu tarzda zarur deb topilgan, mehnat tovar qiymatini tashkil etadi (ilova 1,2).

## 4.3. Mehnat unumdorligi

Inson har doim farovon yashashga intilib kelgan. Buiing uchun esa mahsulotlarni va xizmatlarni ko'plab va sifatli ishlab chiqarish zarur. Resurslar kamyob bo'lganidan ularni tejab-tergab ishlatish kerak. Bu esa o'z navbatida mehnat unumdorligini oshirishni talab qiladi.

Mehnat unumdorligi insonning vaqt birligida ma'lum miqdorda mahsulot va xizmatlarni yarata olishidir.

Mehnat unumdorligi ishlab chiqaruvchi vaqt birligida (masalan bir soat,  bir ish kuni yoki bir yilda) qancha sifatli mahsulot yaratgani yoki mahsulot birligini (masalan, 1 metr gazlama, 1 $m^3$ gaz, 1 tonna paxta) ishlab chiqarish uchun qancha vaqt sarflagani bilan o'lchanadi. Mehnat har xil bo'lgani uchun uning natijasini ketgan vaqt bilan o'lchash qiyin. Masalan, 1 tonna paxta, bug'doy, ko'mir yoki metall turlicha mahsulot bo'lganidan ularni ishlab chiqarish uchun ketgan vaqtni taqqoslab bo'lmaydi. Shu boisdan unumdorlik mahsulotni pul-qiymat shaklida hisoblab aniqlaydi. Misolga qaytsak 1 tonna paxta 100 ming so'm, ko'mir 2 ming



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

so'm, bug'doy 30 ming so'm turadi. Shunga qarab yaratilgan mahsulot pulga chaqiladi. Pulda hisoblangan mahsulotni ishlovchilar soniga bo'lsak, mehnat unumdorligi kelib chiqadi.

Agar ko'mir konida 1000 kishi ishlab, bir yilda 2 million tosh ko'mir qazib olgan bo'lsa, jami ko'mir 4 mlrd. so'mlik bo'ladi. Bunda har bir ishchi yiliga 4 mln. so'mlik ko'mir qazib olgan bo'ladi. Xullas unumdorlikni aniqlash uchun yaratilgan mahsulot ishlovchilar soniga bo'linadi. Unumdorlik soatlar bo'yicha hisoblanganda yaratilgan mahsulot ishlangan soatlarga bo'linadi.

Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni uchga bo'lish mumkin.

1. Ishlab chiqarishning texnika-texnologiya darajasi. Tsxnika qanchalik mukammal bo'lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

2. Shaxsiy-insoniy omilnnng sifati. Agar ishlovchilarning bilim darajasi,ish malakasi va tajribasi yuqori bo'lsa, unumdorlik ortadi yoki aksincha.

3. Ishlab chiqarishning tabiiy sharoiti. Bu sharoit qanchalik qulay bo'lsa,unumdorlnk shunchalik yuqori bo'ladi. Tabiiy sharoitni inson o'zgartira olmaydi, ammo texnikani mukammallashtirish orqali noqulay tabiiy sharoitda ham unumdorlikni oshirish mumkin. Mehnat unumdorligini mugtasil oshib borish iqtisodiyotga xos qonuniyatdir, shu tufayli resurslar cheklangan bo'lishiga qaramay mahsulot ko'payib boradi.

Moddiy shakli jihatidan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish vositalari (moddiy resurslar) va iste'mol buyumlaridan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarish biror korxona doirasida, shuningdek, mamlakat miqyosida olib boriladi. Ayrim ishlab chiqaruvchi yoki korxona yaratgan mahsulot—individual mahsulot hisoblanadi, jamiyatdagi barcha kishilarning iqtisodiy faoliyati esa yalpi milliy mahsulotni (YAMM) yaratadi.

YAlpi milliy mahsulot bir yil davomida pirovard natijada yaratilgan va bozor narxida hisoblangan barcha mahsulot va xizmatlardir.

Aholi jon boshiga yaratilgan YAMM miqdori iqtisodiyotning naqadar rnvojlanganligini bildiradi. Agar bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat shunchalik boy hisoblanadi, uning «fuqarolari shu qadar farovon yashaydi. Masalan, 1993 yilda YAponiyada aholi jon boshiga yaratilgan YAMM 31,4 ming dollar bo'ldi, Bangladeshda bu ko'rsatkich 220 dollarga tug'ri keldi. Demak, YAponiya boy, Bangladesh esa kambag'al mamlakat. Individual va YAMM mavjudligi iqtisodiy faoliyatning ikki darajali bo'lishidan kelib chiqadi. Birinchisi — mikroiqtisodiyot. Bu sektor (tarmoq) firma va ayrim uy xo'jaliklari (oilalar va oilasiz kishilar) doirasidagi iqtisodiy faoliyat bo'lib, uning asosiy unsuri firma (korxona) hisoblanadi.

Ikkinchisi — makroiqtisodiyot, butun xalq xo'jaligi miqyosida milliy doiradagi jamiki iqtisodiy faoliyatdir. Mikroiqtisodiyotning barcha turlari o'zaro bog'lanib, bir-birini taqozo etuvchi yaxlit faoliyatni hosil etganda makroiqtisodiyot vujudga keladi. Makroiqtisodiyotning asosini ijtimoiy nshlab chiqarish tashkil etadi.

## Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy faoliyat inson tirikligini ta'minlash usullari va vositalari majmuidir.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi va har qanday ishlab chiqarishda shaxsiy–insoniy, hamda moddiy–ashyoviy omil ishtirok etadi.

Mehnat unumdorligi insoning soat oralig'ida ma'lum miqdorda mahsulot va xizmatlarni yarata olishidir.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy faoliyat nima va uning tarkibi qanday?
2. Ishlab chiqarish omillarining qanday turlari bor?
3. Mehnat unumdorligi deganda nimani tushunamiz?

## Asosiy adabiyotlar


1. Sanoat korxonalarida ishlab chikarishni tashkil etish: O'quv qo'llanma G'Ortikov A.A. va boshk.-T.: TDIU, 2004.-144c. 1 ekz.
2. Yuldasheva Sh.M. Sanoat tarmoklari texnologiyasi: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-304 c. 1 ekz.
3. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
4. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
5. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
6. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
7. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004.


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# V-MAVZU. IQTISODIY MEXANIZM VA TIZIMLAR

**5.1. Iqtisodiy mexanizm**
**5.2. Iqtisodiy tanlov qoidasi**
**5.3. Iqtisodiy tizimlar**

## 5.1. Iqtisodiy mexanizm

Iqtisodiy mexanizm iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi va bir-birini taqozo etuvchi vositalardir. Iqtisodiy mexanizm universal xarakterga ega, u- hamma erda bor. Mexanizm iqtisodiyotning motori, uni harakatga soluvchi vosita.

Iqtisodiy mexanizm bir necha unsurlarning yaxlitligidan tashkil topadi. Unga iqtisodiy stimullar (rag'bat beruvchi kuchlar), ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'molni tashkil etish, iqtisodiy faoliyatning ixtisoslashuvi, iqtisodiy faoliyat kooperatsiyasi va xo'jalik aloqalarini o'rnatish usullari kiradi

Iqtisodiy mexanizmning etakchi bo'g'ini iqtisodiy stimullar hisoblanadi.

Iqtisodiy stimullar insonlarning o'z iqtisodiy manfaatlarini yuzaga chiqarishining aniq vositasidir.

Ehtiyoj manfaatni yuzaga keltiradi, manfaat esa stimullar orqali amalga oshadi. Stimulni - yaxshi daromad topishga intilish, - dsb ham ta'riflash mumkin. Manfaatdorlik insonning iqtisodiy xatti-harakatni belgilaydi.

Iqtisodiy manfaat insonning o'zi anglab etgani bois uning xatti-harakatlariga sababchi bo'lgan hayotiy ehtiyojdir.

Iqtisodiy manfaatni uch turga bo'lish mumkin:

a) individual manfaat — ayrim kishining yoki alohida oilaning yaxshi yashashdan iborat manfaati;

b) guruhiy-korporativ manfaat—firmaning umumiy manfaati bo'lib, tobora ko'proq foyda olishdan iborat.

v) umummilliy yoki umumjamiyat manfaati — butun xalqning umumiy manfaatidir. Mazkur manfaatni YAMM ifodalaydi. Chunki, yaratilgan mahsulot qanchalik ko'p bo'lsa, kishilar shunchalik to'q va farovon yashaydilar.

Iqtisodiyot mehnatga tayanadi. Mehnatga undash esa ikki yo'l bilan ta'minlanadi: zo'rlash va moddiy rag'batlantirish orqali. Zo'rlashga tayangan mehnatning unumdorligi past bo'lib, o'zini oqlamaydi. Manfaatdorlikka, ya'ni iqtisodiy stimulga asoslangan mehnat unumli bo'ladi, shu boisdan o'rta asrdayoq Markaziy Osiyoda mehnatga majburlash o'rniga erni hosilbay ijaraga berish, dehqonni qiziqtirish orqali erdan foydalanish yuzaga kelgan.

Iqtisodiy faoliyat ixtisoslashadi, bunga sabab jamiyatda mehnat taqsimotn bor.

Mehnat taqsimoti yagona mehnatning mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan mehnat turlariga ajralib borishi, mehnat turlarining to'xtovsiz ravishda yangidan paydo bo'lishidir.

Bir mehnat turini bajarish ayrim kishilarga birkitiladi, natijada kasblar ko'payib boradi. Bir vaqtlar mehnat taqsimotn tufayli deqonchilikdan sanoat ajralib chiqqan. hozir esa sanoatning o'zi yuzlab tarmoqlarga ajralgan har bir tarmoqning



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

o'zida yuzlab korxonalar borki, ularda har xil kasb egalari ishlaydi. Mehnat taqsimlanganidan ishlab chiqarish turli korxonalarni, korxona ichida esa har xil kasb sohiblarini ish yuzasidan hamkorlik qilishini talab qiladi. Chunki, yagona mahsulot yaratishda ko'pchilik mehnati ishtirok etadi. Masalan, bir samolyot ishlab chiqarishda mingdan ortiq korxonalar qatnashib, uning butlovchi qismlarini etkazib beradi.

Mehnat taqsimoti mehnat kooperatsiyasini muqarrar yuzaga keltiradi.

Mehnat kooperatsiyasi ixtisoslashgai mehnat turlarining bir-biriga bog'lanib muayyan turdagi mahsulot yaratishda ishtirok etishidir.

Korxonalar bir-biriga turli zarur mahsulotlar etkazib beradi, bu kooperatsiya aloqalari dsb yuritiladi. Kooperatsiya xo'jalik aloqalarida muntazamlikni talab qiladi.

Ixtisoslashuv korxonalarning ayrim mahsulot yoki uning ma'lum qismlarini tayyorlashga moslashuvini bildiradi. Ixtisoslashuv, birinchidan, mehnat unumdorligini oshiradi, Ikkinchidan, mahsulot sifatini ta'minlaydi.

Iqtisodiy mexanizmning muhim bo'g'ini xo'jalik aloqalarini o'rnatish usuli hisoblanadi, ixtisoslashuv mavjud sharoitda zaruratga aylanadi. Chunki, turli tarmoq va korxonalar o'zaro aloqasiz ishlay olmaydilar. Xo'jalik aloqalari barter yoki bozordagi oldi-sotdi aloqalari shaklini oladi.

Iqtisodiy mexanizm pirovard natijada iqtisodiy sa'y-harakatlarning oqilona bo'lishiga qaratiladi.

Iqtisodiy oqilonalik eng kam resurs sarf qilgan holda eng ko'p iqtisodiy natijaga erishish yo'lini bildiradi.

## 5.2. Iqtisodiy tanlov qoidasi

Inson xatti-harakatlari uning manfaatiga qaratilgani uchun «qaysi biri foydali, qaysi biri zararli ekanligi o'ziga ravshan bo'lgach foydalisini tanlayda va olib o'zlashtiradi, zararlisiii rad etadi.

Muayyan makondagi tabiat resurslari ma'lum miqdordagi jon-zodlarni boqishi mumkin. Bu qoidaning insoniyatga ham aloqasi bor. Ammo resurslar taqchilligi fan-texnika taraqqiyoti tufayli susayadi. Baribir tabiiy resurslar miqdori bilan aholi soni o'rtasida ma'lum nisbat bo'lishi kerak. Resurslar qanchalik ko'p bo'lmasin, ular chegaralangan vaqt davomida ma'lum miqdordagi aholining farovon yashashi uchun kifoya qiladi. Aholi soni ortib, uning ehtiyoji oshgani sari resurslar kamyobligi kuchayadi. Shu sababli aholining ehtiyoji bilan tabiatning imkoni orasidagi tafovut kuchayib boradi.

Tanlash qoidasi shuki, resurslar cheklangan sharoitda ulardan nimani ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan ma'qul bo'lsa, resurslarni shunga sarflash yo'li tanlab olinadi.

Masalan, tikuvchilik fabrikasi imkoniga qarab nima tikishni ya'ni kostyummi, plashmi, paltomi, kurtkami, shu masalani o'ziga ma'qul usulda hal qiladi. Fuqaro hamyonidagi puliga qarab qaerdan qaysi birini xarid etishni o'zi tanlaydi. Iqtisodiyotda hech bir narsa tekinga kelmaydi, - degan qoida ham bor. Shunga ko'ra nimaiki tanlansa, uning xaqi to'lanadi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Tanlab olish tufayli voz kechilgan iqtisodiy xatti-harakat keltirishi mumkin bo'lgai foyda tanlov xaqi deyiladi, u har xil ne'mat yoki daromaddan iborat bo'ladi.

Xulosa shuki, tanlov naf keltirgandagana unga qo'l urish ksrak.

### 5.3. Iqtisodiy tizimlar

Iqtisodiy faoliyat ma'lum iqtisodiy tizim sharoitida amalga oshadi. Iqtisodiy tizimga quyidagalar kiradi: a) iqtisodiy resurslar; b) iqtisodiy aloqalar yoki munosabatlar; v) noiqtisodiy mexanizm; g) iqtisodiy siyosat. Iqtisodiy tizimlarni tarixan to'rt turga bo'lish mumkin.

1. **An'anaviy yoki natural iqtisodiy tizim**. Bu o'ta ko'hna va qoloq iqtisodiy tizim, uzoq vaqtgacha o'zgarmay qolgani uchun arxaik (eski) tizim deb baholanadi. Bu tizimda qo'l mehnati hukmron, ishlab chiqarish natural xarakterga ega; mehnat unumdorligi va turmush darajasi g'oyat past. Iqtisodiy aloqalar xo'jalikning o'z ichida yuz beradi. Boshqalar bilan oldi-sotti munosabatlari bo'lmaydi. Bu iqtisodiyot davlat siyosati ta'siridan holi bo'ladi. An'anaviy iqtisodiy tizim hali taraqqiy etmagan urug'-aymoqchilik sharoitida yashayotgan ba'zi Afrika xalqlarida uchrab turadi.

2. **Sof bozor iqtisodiyoti tizimi**. Bu bozordaga talabni qondirishga qaratilgan,bozor orqali hamkorlikni taqozo etuvchi erkin va demokratik iqtisodiy tizim. U xususiy mulkchilik, bozor uchun ishlash, cheklanmagan iqtisodiy tanlov, naf ko'rish va raqobat kabi tamoyillarga asoslanadi. Bozor tizimida daromad topish chegaralanmaydi, boy bo'lish taqiqlanmaydi, o'ziga to'q, farovon yashovchi odamlarning moddiy tengsizligi mavjud bo'ladi. Bozor tizimi asosida tovar ishlab chiqarish va pul yotadi. Bozor tizimi dunyoning hamma mamlakatlarida bor, lekin uning rivojlanish darajasi bir xil emas.

3. **Rejali yoki buyruqbozlik-ma'muriy iqtisodiyot tizimi**. Bu to'la-to'kis davlatlashtirilgan iqtisodiy tizimdir. Uning asosi davlat mulki hisoblanadi, ishlab chiqarish davlatning reja-topshiriqlariga binoan yurgiziladi, nima ishlab chiqarish masalasi davlatning buyrug'iga binoan hal etiladi. Boy bo'lish ta'qiqlanadi, aholining tengligi hukm suradi. Bunday iqtisodiy tizim sobiq sho'rolar mamlakatida bo'lgan.

4. **Aralash iqtisodiy tizim**. Bu har xil darajada bozor va reja (nobozor) aloqa-munosabatlarining qorishmasidan iborat tizimdir. Bu tizimda bozor vositalari bilan birgalikda rejalashtirish, hamkorlik va saxovatga asoslangan iqtisodiy aloqalar mavjud bo'ladi. Iqtisodiyoti yuksak texnologiya, g'oyat yuqori mehnat unumdorligiga asoslanadi, bu esa moddiy to'kinchilikni ta'minlaydi. Aholining ko'pchiligi mulk sohibiga aylanadi, davlat o'z siyosati bilan iqtisodiyotga faol ta'sir etadi. Aholining ko'pchiligi o'rta hol sinfga mansub bo'ladi. Aralash tizim iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda xususan AQSh Kanada va Evropa mamlakatlarida mavjud. O'zbekiston mustaqillik yillari davomida reja iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyoti – aralash iqtisodiyotga o'tmoqda.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy mexanizm pirovard natijada iqtisodiy sa'y xarakatlarning oqilona bo'lishiga qaratildi.

Resurslar cheklangan sharoitda, nimani ishlab chiqarish maqbul bo'lsa o'sha yo'lni tanlash demakdir.

Iqtisodiy faoliyat stimullari asosida yuzaga kelgan taraqqiyotni ta'minlovchi mexanizm iqtisodiy tizimni ko'rsatadi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy mexanizmning qanday usullari bor?
2. Iqtisodiy oqilonalik nimani tushuntiradi?
3. Iqtisodiy tanlov qoidasi qanday?
4. Iqtisodiy tizimlarning asosiy belgilari nimalardan iborat?

## Asosiy adabiyotlar

1. I.Karimov "Iqtisodiy erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz". Xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
2. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
8. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
**9.** Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
10. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
11. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
12. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004.

## Internet veb-saytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# VI-MAVZU. BOZOR IQTISODIYoTI VA UNGA O’TISh YO’LLARI

**6.1. Bozor iqtisodiyotining belgilari**
**6.2. Bozor iqtisodiyotining turlari**
**6.3. Bozor iqtisodiyotiga o’tish yo’llari**

## 6.1. Bozor iqtisodiyotining belgilari

Kishilik jamiyati paydo bo’libdiki, insoniyat oldida: nimani ishlab chiqarish zarur; qanday usullar va sarf-xarajatlar bilan ishlab chiqarish zarur ishlab chiqarilgan narsalar kimga kerak, ularni kimlar iste’mol etadi? degan mazmunidagi muammolar turadi.

Bu muammolarni hal etish iqtisodiy tizimga qarab turlicha bo’lgan. Agar rejali iqtisodiyot tizimi ularni samarali hal eta olmagan bo’lsa, bozor iqtisodiyoti buning uddasidan chiqa oldi. Bozor. iqtisodiyoti ko’pchilik xalqlarga manzur bo’lgan va ular kelajagini ta’minlovchi iqtisodiyot hisoblanadi. U hozirgi davrga xos umuminsoniy iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy faoliyatda erkinlikka, xo’jalik yuritishda oqilonalik tamoyillariga asoslangan demokratik iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyotining mohiyatini anglash uchun uning asosiy belgilarini ko’rib chiqamiz. Bozor iqtisodiyotiga erkinlik xos bo’lib, uni mulkchilik shakli ta’minlaydi. Bunday iqtisodiyotda xususiy, jamoa va davlat mulklari mavjud bo’lib, u yoki bu mulkning monopoliyasi (yakka hokimligi) bo’lmaydi. Barcha mulklar teng, ular cheklanmagan holda rivojlanadi. Mulkchilikning asosini xususiy mulk tashkil etadi. Bozor iqtisodiyotida xo’jalik yuritishning shakllaridan qaysi birini tanlash, o’z mol-mulkini qanday ishlatish ham kishilarning o’z ixtiyoriga bog’liq. Tadbirkorlik qilish yoki yollanib ishlash, o’z pulini sanoatga, dehqonchilikka, tijoratga, bank ishiga yoki boshqa yo’lga sarflash odamlarning o’z ixtiyorida. Muqobil faoliyat turlari ko’p va ulardan ma’qul keladigani tanlab olinadi, ammo iqtisodiy oqilonalikka amal qilinadi. Shu boisdan hamma o’z qo’lidan keladigan ish bilan shug’ullanadi.

Xilma-xil mulkchilik va faoliyat turlarini erkin tanlab olish iqtisodiy plyuralizmni tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy monopoliyani rad etadi. Iqtisodiy aloqalarda hech bir cheklanish bulmaganidan ularda ko’pchilik faol qatnashadi. Ular jumlasiga har xil firmalar, resurslar egalari, millionlardan iborat ists’molchilar (xaridorlar), davlatning idora mahkamalari kiradi. Ularning aloqalari tovar — pul munosabatlariga asoslanadi.

Tovar—pul munosabatlari tovarlarni bozor uchun ishlab chiqarish, ularni oldi-sotdi qilish va shuningdek, pul borasida yuz beradigan iqtisodiy aloqalarni o’z ichiga oladi.

Bozor tizimiga iqtisodiy liberalizm xos, ya’ni yuqorida aytilganidek, har qanday faoliyat turlari erkin amalga oshadi, ammo faoliyat turlari albatta bir-biri bilan bozor orqali bog’lanishi shart. hamma o’z manfaati yo’lida harakat qiladi. Sotuvchi qimmat sotishga intilsa, xaridor arzon olishga intiladin. Tadbirkor ishtiyoqi foyda



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

olish bo'lsa, ishchining maqsadi ko'proq ish haq olish. Alohida manfaatlar bo'lishi ularning to'qnashuviga sabab bo'ladi. Shu boisdan bozor iqtisodiyotida raqobat bo'ladi. Ishning ko'zini bilgan bu kurashda g'olib chiqadi, uning mavqei mustahkamlanadi, uquvsizlar esa o'z-o'zidan chiqib qolishadi.

Bozor iqtisodiyotida faqat raqobat emas, manfaatlar uyg'unlashgan sharoitda hamkorlik ham yuz beradi. Masalan, sotuvchi bilan xaridor savdolashib, har ikki tomonga ma'qul narx kelishib olinganda ularning manfaati mos tushadi, ya'ni ular bir-biridan rozi bo'ladilar. Shunday o'zaro bir-biriga naf keltirish hamkorlik, shsrikchilik va oldi-berdini keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos rivojlanish mexanizmi bor, u iqtisodiy stimullarga, ya'ni kishilarni to'q va xotirjam yashash, obro'ga ega bo'lish, hayotda o'z o'rnini topish kabi manfaatlarini yuzaga chiqarishga asoslanadi. Bozor mexanizmi iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmidir. Unda iqtisodiy faollikka undash va hatto zo'rlash ham bor, ammo bu ma'muriy zo'rlash emas, balki iqtisodiy jihatdai majburlashdir. Masalan, raqobat hammani yaxshi ishlashga majbur qiladi. Bozor mexanizmi iqtisodiy bo'lganidan bu tizimda foyda zarar, sarf-xarajat, yutish-yutqazish, narx-navo, raqobat-kelishuv, soliq-subsidiya degan narsalar keng ishlatiladi.

Bozor iqtisodiyotiga xos belgilardan biri erkin, ya'ni liberallashgan narxlarning bo'lishi va hamisha narxni hisobga olib, foyda-zararni nazarda tutgan holda ishlashidir. Iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqarishni tez va eng avvalo resurslarni tejab-tergab sarflagan holda rivojlantirishni ta'minlaydi. Natijada moddiy to'kinchilik yuzaga keladi. Binobarin, bozor iqtisodiyoti taqchilliksiz iqtisodiyot hisoblanadi. Uning ijtimoiy mo'ljal-maqsadi farovonlikni oshirish. Farovonlikni kishilarning ishbilarmonligi, mshnatining natijasi, o'z mulkini samarali ish bilishi ta'minlaydi. Har bir kishi qo'lidan kelgan ish bilan shug'ullanib, ishlaganiga qarab daromad ko'rishi adolatli hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti kambag'al va qashshoqlarning emas, balki o'ziga to'q kishilarning tengligidir. Tengsizlikning bo'lishi ham adolatli hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan sharoitida eng kam daromad chegarasini davlat qonun yo'li bilan belgilab qo'yadi. Masalan, AQShda 2002 yilda eng kam ish xaqi 1 soat ishlaganlik uchun 6,0 dollar qilib belgilangan va uni bundan kamaytirib bo'lmaydn. Bozor iqtisodiyotida daromadlarning yuqori chegarasi belgilab qo'yilmaydi, bu esa kishilarda pul topish ishtiyoqini kuchaytirib, ko'plab ishlab chiqarishga rag'bat beradi. Kishilar iqtisodiy faollikni yuzaga chiqaradi. Boyligi adolatli yo'l bilan topilganidan uni yashirmaedan oshkor e'lon qiladilar. Masalan, 2002 yil natijasiga ko'ra AQSh eng katta boylar ro'yxatiga 400 ta boy kiritilib, ularning boyligi 0,5 milliard dollardan 43,0 milliard dollargacha bo'lganligi e'lon qilindi. 2002 yilda jahondagi eng boy kishining puli 48 milliard dollar bo'lgan va uning nomi - Bil Geyts, ikkinchi o'rinda Uorren Beffet – 36 mlrd. dollar va uchinchi o'rinda Mg'crosoft asoschisi Pol Allen – 21 mlrd. dollarga ega. Bozor iqtisodiyotida shunday qoida bor:

Jamiyatiing naqadar boy bo'lishi har bir oila, har bir kishining naqadar boy va farovon yashashiga bog'liq.

Bu qoidaning yuzaga chiqishiga bozor mexanizmi xizmat qiladi. Chunki, u



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi kuch hisoblanadi.

## 6.2. Bozor iqtisodiyotining turlari

Bozor iqtisodiyotining yashovchan va istiqboli bo'lishi sabablaridan biri uning inson ezgu niyatlarini amalga oshira olishida. Kishilarning shaxsiy manfaati «o'zim bo'lay» degan so'zni yuzaga chiqaradi. Bozor iqtisodiyoti har bir kishining shaxsiy manfaatini o'zgalar manfaati bilan bog'lay oladi. Kishilarshshg o'ziga naf keltiruvchi ishi boshqalarga ham ma'qul tushadi. Masalan, tovarni ishlab chiqarish va sotishdan foyda ko'rish uchun uni bozorbop qilib, ya'ni boshqalarning talab — ehtiyojini qondira oladigan qilib yaratish zarur, o'zgalar manfaatini bozor orqali hisobga olmagan kishi o'z manfaatiga erisha olmaydi.

Kishilardagi «o'zim bo'lay» degan harakat ularda mulk sohibi bo'lish ishtiyoqini yuzaga ksltiradi. Inson tabiatiga eng mos tushadigan mulk bu xususiy mulkdir. Kishilar qanchalik «o'zim bo'lay» demasin, baribir o'zlari tanho yashay olmaydilar. Ular albatta ayirboshlash yuzasidan aloqaga kirishadilar. Shu xislat bilan odam boshqa tirik jonzodlardan ajralib turadi.

Insondagi ayirboshlashga bo'lgan moyillikni na ayirboshlashni bozor iqtisodiyoti yuzaga chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy tanlov erkinligi bor, har bir kish o'ziga naf keltiruvchi ishni o'zi tanlashga haqli. Shu sababli u yoki bu ish bilan tanho bir yoki bir necha kishining shug'ullanishi iqtisodiy erkinlik tamoyiliga zid keladi. Raqiblar bir xil ish bilan shug'ullanishi o'z kuchini turli sohada sinab ko'rishi mumkin. Masalan, savdo-sotiqni eplay olmagan kishi sanoat, maishiy xizmat yoki dehqonchilik bilan shug'ullanishi mumkin. Kuch sinab bellashuvda «kim yutadi?» qoidasiga binoan va tavakkaliga ish qilish imkoni cheklanmagan.

Har bir kishining boshqalardan ajralib turishi, o'z o'rnini topib ustunlikka ega bo'lishi, obro' — e'tiborga erishgisi keladi. Bozor iqtisodiyotidagi raqobatchilik-vaziyati bunga yo'l beradi. Inson o'zi uchun harakat qilsada, baribir unda insoniylik xislatlari, jamiyatdagi kishilar orasida mehr-oqibat, odamiylik, nochorlarga yordam qo'lini cho'zish kabi intilishlar tabiiydir. Bozor iqtisodiyoti bunday intilishlarni namoyon etish uchun ham keng yo'l ochadi. Misol qilib ijtimoiy himoya mexanizmini olish mumkin. Bugunga kelib O'zbekistonda mavjud nafaqa (pensiya) tizimining takomillashtirishga muhtojligi tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlashtirilishiga muhtojligini ko'rsatadi. Chunki respublikada nafaqa oluvchilar soni 3 million kishidan ko'p, shu jumladan qarilik nafaqasini 69%, invalidlik nafaqasini 22% va 9% boquvchisini yo'qotgani asosida nafaqa oladi. O'zbekistonda qarilik nafaqasiga erkaklar 60 va ayollar 55 yoshda chiqsa AQSh vaGermaniyada erkaklar va ayollar 65 yoshda chiqadi. Kelajakda O'zbekistonda nafaqa oluvchilar oshib boradi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, 2025 yilga borib, nafaqa oluvchilar soni 2000 yilga nisbatan O'zbekistonda 2 marta oshadi. Oddiyroq qilib aytganda bitta ihlovchi bitta nafaqaxo'rni nafaqasini qo'shimcha ishlab bersa, 2025 yilga kelib 2 baravar oshadi. Shu sababli nodavlat nafaqa jamg'armalariga doir jahon tajribasini o'rganish katta ahamiyatga molik. Bunday jamg'armalar jamiyat va aholiga qarlik



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

uchun mablag' yig'ish, davlat byudjetiga bosimini kamaytirish va iqtisodiyotga jamlamalarni jalb qilishni rag'batlantirish mumkin.

Inson har doim adolat qidiradi. Bozor iqtisodiyoti esa adolatparvarlikni yuzaga chiqaradi. Har bir kishining ishlab topganiga yarasha yashashi, narxlarning bozorga qarab adolatli bo'lishi, ish xaqining ish natijasiga qarab to'lanishi, soliqlarning daromadga qarab ortib borishi, o'ta kam daromaddan soliq olinmasligi, tabiatga keltirilgan zararning qoplanishi, insofsizlikka yo'l bermaslik adolatparvalikka yaxshi misol bo'ladi.

## 6.3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari

Bozor iqtisodiyoti deganda hozirgi rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiyot-tushuniladi. Albatta bu iqtisodiyot uzoq taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Tovar-pul munosabatlari asrlar davomida sekin-asta rivojlangan, turli shakllarga kirgan (masalan, kapitalistik) va nihoyat 20 asrning 2-yarmidan boshlab hozirgi bozor iqtisodiyoti shakllandi. Uning asl namunasini hozirgi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ko'rish mumkin. Tarixan qaraganda bozor iqtisodiyotining ikki turi bor. Birinchisi — asov yoki yovvoyi bozor iqtisodiyoti. Bunday iqtisodiyotining asl namunasi 18 va 19 asrlarda bo'lgan. Uning ba'zi alomatlari hozir ham uchrab turadi. Uning quyidagi asosiylarini sanab o'tamiz:

1) YAkka egalikdagi xususiy mulkning hukmron bo'lishi, mulkning ozchilik qo'lida to'planishi, - boy va kambag'allikka keng yo'l ochilishi.

2) Iqtisodiyotning stixiyali o'sishi, ya'ni iqtisodiy beboshlik tartibsizlik bo'lishi, - oqibatda inqirozga uchrash.

3) Noma'lum bozor uchun ko'r-ko'rona ravishda tovar ishlab chiqarish - tovarning sotilish yoki sotilmasligining noma'lumligi

4) Raqobat kurashining qonun-qoidasiz - terror, zo'ravonlik, qalloblik kabi g'ayriinsoniy usullar bilan borishi.

5)Tadbirkorlar o'rtasidagi sherikchilik aloqalarining tasodifiy bo'lishi.

6)Davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi, undan chetlashib qolishi.

7)Tartibsizlik natijasida kuchli iqtisodiy tangliklar va bo'hronlarning kelib chiqishi, iqtisodiy talofatlarning yuz berishi.

8) Kishilarning o'ta boy va o'ta kambag'allarga ajralib ular o'rtasidagi sinfiy kurashning mavjudligi, ijtimoiy muvozanat yo'qligi.

Bunday iqtisodiyotni asov daryoga tenglashtirish mumkin. Asov daryo tartibsiz oqadi, uning o'zanlari tez o'zgarib turadi, uning suvini tartibga soluvchi to'g'onlar, suv omborlari bo'lmaydi. Bunday daryo nafaqat obi-hayot, balki toshqinlar, qirg'oqlarni yuvib ketish bilan talofat ham keltiradi. Masalan Jayxun (amudaryo) eski To'rtko'l shahrini yo'q qilishi.

Ammo yovvoyi iqtisodiyot abadul-abad saqlanmaydi. U madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga aylanib borishga majbur. Madaniylashgan bozor iqtisodiyotining ham o'ziga xos belgilari bor:

1) Asosiy bo'lgan xususiy mulk bilan bir qatorda boshqa mulk yo'llari xam mavjud bo'ladi, mulkiy muvozanat yuzaga keladi.

2)Iqtisodiyotdagi beboshlik qattiq cheklanadi, iqtisodiyot tartiblanadi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

3) Bozor talabni hisobga oladi, ishlab chiqarish talabiga moslashadi, bozordagi noma'lumlik ahyon-ahyon uchrab turadi.

4) Raqobat kurashi belgilangan qoidalarga binoan halol kechadi, uning madaniy usullari qo'llaniladi.

5) Iqtisodiyot sub'ektlari (ishtirokchilari) o'rtasida doimiy va uzoq davrga mo'ljallangan, o'zaro manfaatli sherikchilik aloqalari o'rnatiladi.

6) Davlat, iqtisodiy hayotga aralashadi, o'z chora-tadbirlari bilan iqtisodiy tamoyillarning amal qilishi uchun sharoitlar hozirlaydi.

7) Iqtisodiyot tartiblanib turishidan chuqur iqtisodiy tangliklar yuz bermaydi, iqtisodiy tanglikdan tezda chiqiladi.

8) Iqtisodiyot yuksak bo'lishidan jamiyat boy bo'ladi, shu sababdan tadbirkorlik faqat foyda topish uchun emas, balki el og'zi tushish, obro'-e'tiborli bo'lish uchun ham olib boriladi.

9) Iqtisodiyot ijtimoiy (sotsial) yo'naltirilgan,ommaning farovonligini ta'minlashdek aniq mo'ljalga ega bo'ladi.

10) Kishilarning iqtisodiy jihatdan tabaqalanishi chegaralash; o'ziga to'q, o'rtahol aholi asosiy ijtimoiy qatlamga aylanadi. Shu boisdan jamiyatda ijtimoiy muvozanat saqlanib, kishilar o'rtasida to'qnashuvlarga o'rin qolmaydi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotiga o'tish deganda madaniylashgan iqtisodiyot sari borish tushuniladi.

## Qisqacha xulosalar

Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy faoliyatda erkinlikka, xo'jalik yuritishda oqilonalik tamoyillariga asoslangan demokratik iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy tanloverkinligi mavjud bo'lib yopiq va ochiq boshqaruvchi egadir.

Xozirgi davrda bozor iqtisodiyotiga o'tish asosan bozor belgilariga tayanadi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Reja iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyotining qanday farqlari bor?
2. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari nimalardan iborat?

3.Bozor iqtisodiyotining qanday turlari bor?

4.Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday yo'llari bor?

5.O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Asosiy adabiyotlar


1. I.A. Karimov «Uzbekistan po puti uglubleniya ekonomicheskix reform»
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi ssssiyasi ikkinchi yig'ilishida so'zlagan nutqi - T., «Xalq so'zi», 23 yanvar 2000
3. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. "Xalq so'zi", 13 fevral, 2002 yil.
4. Xamdamov K.S. Kishlok xujaligi korxonalari faoliyatini boshkarish: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-192c. 1 ekz.
5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
6. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз.
7. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
8. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
9. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004.


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## VII-MAVZU. IQTISODIY RAQOBAT TUShUNChASI

**7.1. Iqtisodiy raqobat mazmuni**
**7.2. Raqobat va baho**
**7.3. Raqobat - bozorni tartibga soluvchi kuch**

### 7.1. Iqtisodiy raqobat mazmuni

Bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uning taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi raqobatdir. Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, usiz bozorni tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, u bozor iqtisodiyotining mazmunidir.

Bozor sharoitidagi raqobat **iqtisodiy raqobat** bo'lib, u iqtisodiy jarayonda yuz beradi. Undagi asosiy maqsad bozor ishtirokchilarining erkin faoliyat sharoitini yaratish, har bir ishtirokchi o'z harakati uchun zarur muhit va holatni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kurashdan iboratdir. Har bir bozor ishtirokchisining kerakli ishlarni boshqalarga nisbatan muvaffaqiyatli hal qilishi, buning uchun zarur sharoitlarni oldindan va o'z vaqtida yarata olishi, doimo ustunlikka ega bo'lishi kabilar iqtisodiy raqobat kurashining mazmunini tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga qatnashuvchilar bir-biri uchun raqib hisoblanib, o'zaro kurash olib boradilar. Alohida-alohida holdagi ishtirokchilarning bir-birlari o'rtasidagi kurashi umuman bozor iqtisodiyoti bilan yakunlanadi.

Iqtisodiy raqobat kurashida qatnashuvchilar bir-birlarini shaxsan bilishlari, tanish bo'lishlari zarur emas. Buning uchun avvalo bozor xususiyati, uning harakat qonuniyatlarini yaxshi bilgan, sezgan holda faoliyat ko'rsatish asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, har bir narsada, har qanday sharoitda tezroq, ertaroq, har tomonlama o'ylab harakat qilgan oldin ulgurganidek va to'la maqsadga erishganidek raqobat kurashida bozor masalalarini hal qilish ham shunga o'xshab ketadi.

Raqobat kurashida barcha ham muvaffaqiyatga erishishga muyassar bo'lmaydi. Bu tajriba, bilim, matonat, tavakkalchilik va albatta, yirik sarmoyaga ega bo'lishni talab qiladi.

Raqobat kurashi keng mazmunli, ko'p qirrali bo'lib, bozor iqtisodiyotining barcha davrlari, sohalari, tarmoqlarida yuz beradi. Raqobat kurashiga bardosh bera oladigan shaxsgina bozor taraqqiyotiga ko'p hissa qo'sha oladi.

Raqobat kurashining asosiy mazmuni xaridorlarni o'ziga ko'proq jalb etish sharoitini yaratishdir. Chunki, har bir tadbirkorning molini sotib oladigan xaridor ko'p bo'lsa, u sotish muammosini tezroq hal etadi, ishi tezlashadi, yuqori foyda oladi. Sarmoyasi qancha tez qaytib, tez harakatda bo'lsa, shunchalik ko'p mahsulot ishlab chiqarishga, ko'proq sotishga muyassar bo'ladi.

Tadbirkor uchun kurashdagi eng muhim narsa zarur tovarni, xizmatni o'z vaqtida ko'proq ishlab chiqarish va xaridorga tezroq etkazishdir. Bu jarayonda boshqalarga nisbatan oldinroq ulgursa, albatta u bu kurashda g'olib chiqish imkoniyatini qo'lga kiritgan bo'ladi. Bu, birinchi navbatda, bir xil tovar ishlab chiqaruvchilar va bir xil xaridorlar o'rtasidagi kurashdir. Shuning uchun ham



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

raqobatdagi harakatning keng hajmlisi bozor uchun, tovarni muvaffaqiyatli sotish uchun bo'lgan kurashdir.

Raqobat kurashi iqtisodiy faoliyatning boshqa tarmoq va sohalarida ham yuz beradi. Masalan, xomashyo uchun kurashni olaylik. Ma'lumki, bu ishlab chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Kerakli xom ashyodan o'z vaqtida, kerakli miqdor va xissa olish uchun harakat qilish umumiy muvaffaqiyat uchun zarur shartdir. Yuqori samarali xomashyo joylarini qo'lga kiritish, arzon energiya uchun kurash katta o'rin egallaydi.

Bulardan yana biri ish kuchi ta'minotidir. Yuqori malakali, tajribali ishchi, xizmatchilarga ega bo'lish, ayniqsa tadbirkor, savdogar uchun juda kerak. Etarli miqdorda ularga ega bo'lish, kasaba uyushmalariga ta'sir etish uchun kurash raqobatda o'rinlidir. Demak, sotuvchilar, tadbirkorlar o'rtasidagi raqobat asosan xaridorlar, ish kuchi, xomashyo, material, ma'qul energiya xili uchun olib boriladi.

## 7.2. Raqobat va baho

Raqobat kurashida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan narsa **bahodir.** Umuman, baho talab va taklif muvozanatining natijasi bo'lib, raqobat orqali yuzaga keladi. Ma'lumki, har bir tovarga talab yuqori bo'lsa, baho ham ko'tarilishi kerak. Shunga ko'ra tovarlar sarf-xarajatiga ko'ra juda yuqori yoki juda past bahoda sotilishi mumkin. Yuzaki qaraganda sun'iy ravishda talabni ko'tarish tufayli bahoni oshirish mumkinga o'xshaydi. Mavjud sharoitga ko'ra shunday holat ham yuz beradi. Lekin raqobat natijasida bunday holat doimiy yoki uzoq cho'zilishi mumkin emas. Baribir ko'p tovar sotishga intilish ustun keladi.

Iste'molchining daromad darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi baho raqobat holatiga bog'liq bo'lib, u turg'un bo'la olmaydi, to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bozor ishtirokchilari uchun bozor holatini ko'rsatib turadigan narsa ham baho bo'lib, u sotuvchi va xaridorlarning harakat yo'nalishini aniqlab beradi. Chunki bozor ishtirokchilari bozorga qachon va qancha tovar etkazib turishni baho darajasi orqali aniqlaydilar. Bu esa bevosita ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi. Qachon, qancha, qanday tovar ishlab chiqarishni bozordagi yuzaga kelib turgan baho orqali belgilab ish ko'riladi.

Raqobat tufayli paydo bo'ladigan bozordagi baholarning tadbirkor va iste'molchilar uchun muhimligini ikki narsada ifodalanadi. Birinchisida tadbirkorning foydasi va daromadi ifodalanadi, ikkinchisida bozor holati aniqlanadi.

Iste'molchi - xaridorni olsak, u ham bahoga ikki tomonlama bog'liqdir. Birinchidan, bahoning darajasi, harakat mazmuniga qarab, qaysi tovarni qachon sotib olish va qancha miqdorda sotib olishni aniqlaydi. Ikkinchidan, daromadning taqsimlanishi va reallik darajasini aniqlab beradi. Baho ko'tarilib boraversa, albatta daromad darajasi pasayib boradi. Lekin raqobat baholarning pasayishiga ham olib keladi. Chunki, iqtisodiyotda, shaxsiy daromadda yuz beradigan barcha o'zgarishlar bozorda raqobat tufayli yuzaga keladigan baho darajasida o'z ifodasini topadi. Shunga ko'ra, barcha bozor ishtirokchilari, ayniqsa tadbirkorlar, katta diqqat va e'tibor bilan bahoni kuzatib boradilar, uning o'zgarishini o'z vaqtida bilib turish



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

choralarini qo'llaydilar.

Demak, bozorda paydo bo'ladigan baho bozor iqtisodiyotining ko'zgusi bo'lsa, raqobat uni yuzaga keltiruvchi kuchdir. Raqobat va baho mexanizmlari o'z ta'sirlari bilan bozorni harakatlantiruvchi muhim mexanizmlar bo'lib, bozor iqtisodiyotining boshqarilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular bozor iqtisodiyotini o'zidan-o'zi harakatga keltiruvchi va boshqaruvchi ichki kuchlaridirki, unga tashqaridan sun'iy ta'sir ko'rsatish va bahoni raqobatsiz oldindan belgilash bozor tabiatiga to'g'ri kelmaydi, uning mexanizmi harakatlariga faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, raqobatning asosida, shaxsiy manfaat yotadi va bu raqobat kurashining kuchayishi, ta'sirining ortib borishi uchun kuch bag'ishlaydi. Buning boisi shuki, har bir iqtisodiy birlik o'z nafsini ko'zlay-di. Har bir tadbirkor yuqori foyda uchun, hech bo'lmaganda kam zarar uchun kurashadi. Moddiy resurslar egalari uni sotishda yoki ijaraga berishda yuqori baho orqali ish tutishga urinadi. Ish kuchi egalarini olsak, miqdori va murakkabligi bir xildagi mehnatlariga imkoni boricha ko'p daromad olishga harakat qiladilar. Bularning hammasi xaridor sifatida, aytganimizdek, past bahoning tarafdorlaridir. Shaxsiy manfaatdorlik bozor iqtisodiyoti faoliyatida tartib o'rnatib turadi, manfaatsizlik esa kutilmagan tartibsizliklarga olib kelishi mumkin. Bunday voqelik shunday xulosaga olib keladiki, turli iqtisoday birliklar o'z ixtiyoriy tanlovini amalga oshirishi davrida shaxsiy manfaat asosida ularning asosiy harakat tarzi shakllanadi. Bu bozor iqtisodiyoti taqozosidir.

Masalan asosiy xalqaro savdo nazariyalarini ko'rib chiqqanda Olmoniya xalqaro bozorda sotadigan va sotib oladigan mollarining tabiati va sonini narx belgilaydi. Olmoniyada bitta sanoat uskunasiga 5 evro xarajat qilsa, qo'shni Daniyada bu xarajat 10 evroni tashkil qiladi, mebel esa 20 va 30 evroni tashkil qiladi. YA'ni Olmoniyada bitta mebelga 4 baravar ko'p xomashyo xarajat qilish kerak (20 : 5). Daniyada bu nisbat 3 ga teng (30 : 10). Demak Daniyada mebel chiqarish avzal, Olmoniyada esa uskuna ishlab chiqarish avzaldir.

YAna bir misol. Braziliyada tayyorlangan poyabzalni narxi 15 evro bo'lsa, Italiyada tayyorlangani 30 evroga teng, kiyim esa 30 va 60 evrogv teng. Bu raqamlar raqobat bozorida Braziliyani ushbu tovarlar bo'yicha 1 : 2 nisbatan Italiya tovarlariga nisbatan ustunligini ko'rsatadi.

## 7.3. Raqobat - bozorni tartibga soluvchi kuch

Umuman, raqobat iqtisodchilar tasavvuri bo'yicha quyidagilarni bildiradi:

1)Bozorda turli, istagan aniq mahsulot, resurslarni erkin holda sotuvchi va sotib oluvchilarning mavjudligi.

2)Sotuvchi va xaridorlarning istagan bozorda yoki iqtisodiy tarmoqda erkin qatnasha olishi yoki istaganda tarmoqdan chiqib keta olishi.

Raqobat o'z mohiyatini bozor ishtirokchilariga taalluqli iqtisodiy kuchlar tarqoqligida ifoda etadi. Buni shunday izohlash mumkin. Ma'lum bir bozorda, chunonchi, g'alla bozori yoki ip gazlama bozorida juda ko'p sotuvchi va xaridorlar mavjud, shu bilan birga tovarlar mo'l-ko'l, deylik. Bunday sharoitda sotuvchi va xaridorlar o'zlari uchun ma'qul bahoni talab eta olmaydilar. Chunki, alohida holdagi ularning



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

urinishlari bahoga ta'sir etmaydi va bunda ayrim harakatlar muvaffaqiyat keltirmay, mavjud muvozanat belgilaydigan umumiy baho bo'yicha oldi-sotdi amalga oshadi.

Raqobatning mohiyati shuki, har bir sotuvchi bozordagi juda ko'p miqdordagi sotuvchilar ishtirokida o'zining nisbatan kichik hissasi bilan umumiy taklifga ta'sir ko'rsata olmaydi, demak, bahoni ham yakka holda o'zgartira olmaydi. Aytish mumkinki, raqobat shundan iboratki, har bir sotuvchi — taklif sub'ekti umumiy taklifga kichik hissa qo'sha oladi va umumiy oqim ichida bo'ladi. YAkka holdagi sotuvchilar taklifning umumiy miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydilar, shuning uchun ham yakka ishlab chiqaruvchi sifatidagi sotuvchi mahsulot narxini istaganicha o'zgartira olmaydi va unga istagan holda munosabatda bo'la olmaydi. Haqiqatan ham har bir sotuvchi yakka-yakka holdagi harakatda va raqobatda qatnashuvchi sifatida bozor ixtiyorida bo'ladi. Bunda raqobat yakka-yakka holdagi barcha yoki juda ko'pchilik sotuvchilar harakatidan iborat bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, raqobat bozorda hukmronlikni inkor etib, erkin harakatni talab etadi.

Xaridorlar to'g'risida ham shuni aytish mumkin, ya'ni ular ham bir-biriga bog'liq bo'lmagan ixtiyoriy harakatda bo'ladilar. Umumlashtirib aytganda, raqobatning asosini tashkil qiluvchi iqtisodiy hokimiyatning keng tarqoqligi bu hokimiyatdan foydalanishni tartibga solib turadi va undan zararli foydalanish imkoniyatlarini chegaralab boradi. Demak, iqtisodiy imkoniyatlar uchun kurash iqtisodiy birliklarning o'z foydasini ko'zlab, bir-biriga zarar keltirishga to'siq bo'lib xizmat qiladi. Raqobat sotuvchi va xaridorlarning o'z manfaatlarini ta'minlashining amalga oshuvining chegaralarini belgilab turadi. Shuning uchun ham raqobat bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan raqobatlarning ikkinchi tomoni ishtirokchilarning tanlov erkinligidir. Bozor sharoitida har bir tadbirkor istagan tovari bilan ish ko'rishi, xohlagan tarmoqda faoliyat ko'rsatishi va zarur topganda hech qanday to'siqlarsiz va qiyinchiliksiz bu tarmoqdan chiqib ketib boshqasiga o'tish imkoniga egadir. Bu bilan ma'lum tarmoqlar, sohalarning zaruriyatga qarab kengayishi yoki torayishi imkoni ta'minlanib boriladi. Chunki, talab va taklif muvozanati tufayli ishlab chiqaruvchi va xaridorlarning tarmoqlararo harakati erkinligi ta'minlanadi. Bunday sharoit iqtisodiy moslashuvni ta'minlaydi va samaradorlikning saqlanib borishi imkonini tug'dirib boradi.

Endi biz raqobatning faqat tarmoqlar manfaati bilan chegaralanmay, uning tarmoqlararo va umumjamiyat manfaatlari borasidagi ta'siri va harakatini ko'rib chiqaylik. Bozor mexanizmlari bo'lgan talab va taklif orqali iste'molchilar va jamiyat istaklari korxonalarga, korxonalar orqali esa resurslar bilan ta'minlovchilargacha etkaziladi. Bu jarayonda raqobat ta'sirini ko'ramiz. Ma'lumki, iste'mol talabining ko'tarilishida baho o'z aksini topadi. Talab ortib borishi tufayli baho ko'tarilib boradiki, natijada yuqori foyda olinadi. Bu o'z-o'zidan shu mahsulotlarga talab oshgan va ularni ko'proq ishlab chiqarish kerakligadan xabar beradi. Raqobat, ayniqsa bunga qo'shiluvchi yangi firmalar ishlab chiqarishni kengaytirib, bahoning xarajatlar darajasida bo'lishini ta'minlashi mumkin. Agarda bu jarayonga raqo-batning ta'siri bo'lmay, monopoliyalik mavjud bo'lsa, o'zgarish yuz bermaydi va ortiqcha foyda olish davom etaveradi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Raqobat faqat jamiyat talabiga e'tibor berish va ba'zi tarmoqlarning kengayishi va qisqarishiga olib kelish bilan chegaralanmay, firmalarni eng samarali texnologiyaga o'tish, ilg'or ishlab chiqarishni ta'minlab borishga undaydi. U past va kam samarali texnologiya asosida ishlab chiqarishni uyushtirgan firmalarni qo'llamaydi va ularning boshqa ilg'or raqiblar tomonidan siqib chiqarilishiga olib keladi. Shuning uchun raqobat, aytganimizdek, texnik progress imkonini qo'llaydi va uni keng taraqqiyotiga undaydi.

Raqobatli bozorning yana eng muhim tomonlaridan biri, oldingi mavzuda ko'rganimizdek, xususiy va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligining ta'minlanishidir. Chunki, bu juda muhim va o'ta zarur bo'lgan manfaatlar tengligiga xos hodisadir. Bunda o'ta muhim bo'lgan davlat manfaati ham ko'zda tutiladi. Aytganimizdek, tadbirkorlar eng tejamli resurslar kombinatsiyasini, ya'ni mavjud raqobat sharoitida xususiy manfaatga ham to'la mos keladigan kombinatsiyani qo'llaydilar. Tadbirkorlarning texnik progressga asoslanmagan holdagi ishlab chiqarishi zarur foyda bermaydi va pirovardida sinishga olib keladi. Shu bilan birga kamyob resurslarni ishga solish, kam xarajatli ishlab chiqarishni uyushtirish eng samarali usullardan bo'lib, bu jamiyatga juda foydalidir.

Xulosa qilib aytganda, raqobat kuchi shaxsiy manfaatni tartibga solib, uni shunday yo'naltiradiki, u o'zidan-o'zi jamiyat manfaatining maqsadga muvofiq ravishda ta'minlanishiga olib keladi. Bozorga xos "ko'zga ko'rinmaydigan qo'l" ta'siri shunday yakunlanadiki, firmalar o'z foydalarini imkoni boricha yuqori darajaga etkazsalar, jamiyat mahsuloti ham shunchalik yuqori darajada bo'ladi.

Raqobatning bo'lishi, raqobat ta'sirining kuchayishidagi asosiy shart xo'jaliklarning turli-tumanligidir. Umuman, kurash to'g'rililik, ko'p xalollikni talab qiladi. Bozor iqtisodiyotida ko'p xillik xo'jaliklar, ularning egalari bir-birlarining raqiblari bo'lib, ular raqobat jarayonida faol ishtirok etishlari kerak. Xo'jalik turlari juda oz yoki bir xil bo'lsa, raqobatning ta'sir doirasini kengaytirish uchun sharoit bo'lmaydi.

Raqobat uchun xo'jalik usullari, shakllari ko'payishi kerak. Ayniqsa, xususiy xo'jaliklar ko'payib, asosiy o'rinni egallashi zarur. Qaror xususiy xo'jaliklar bilan bir qatorda kooperativlar, birlashma, qo'shma xo'jaliklar ko'payishi talab etiladi. Davlat xo'jaliklari ham shaklan va ham mazmunan o'zgarib, bozor talablari asosida qayta tashkil etilishi kerak. Bularga hissador (aktsiyali) jamiyatlar, ijarali xo'jaliklar kabilar misol bo'li-shi mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, busiz xo'jalik yuritishda mustaqillik bo'lmaydi, mustaqilliksiz raqobatni tasavvur etib bo'lmaydi va umuman bozor mazmunsiz bo'ladi.

Raqobat jahon iqtisodiyoti miqyosida ham bo'lib, uning milliy mamlakatlar iqtisodiyotiga ham ta'siri bo'ladi.

## 7.4. Xalqaro raqobat kurashi

Xalqaro raqobat kurashini olsak, u mamlakatlar o'rtasidagi, shuningdek, xalqaro yirik birlashmalar, ayniqsa, transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi kurashdir.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Bunda xalqaro bozorlarni egallash, xomashyo hududlarini o'zlashtirish, ilmiy-texnika manbalarini qo'lga kiritish kabi asosiy tomonlarni ko'proq egallashga uriniladi. Natijada iqtisodiy taraqqiyot manbalarini o'z ixtiyoriga olish, buning asosida o'z boyliklarini orttirish, olinadigan foydaning darajasini ko'tarish kabilarga muyassar bo'linadi.

Jahon iqtisodiyotiga qo'shilib borish, xalqaro bozorda ta'sirli kuchga ega bo'lish va xalqaro mehnat taqsimotida manfaatli o'rinlarni egallash xalqaro raqobat tufayli amalga oshadi. Bu barcha mamlakatlarni kuchli iqtisodiyotga ega bo'lishga, ilyur ishlab chiqarish darajasini qo'lga kiritishga undaydi.

Jahon miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi mamlakatlar va birlashmalar soni ortib bormoqda. Bu faqat jahon iqtisodiyoti taraqqiyotiga ta'sir qo'rsatish bilan chegaralanmasdan, balki ichki bozordaga monopol holatning oldini olishga ham ta'sir etmoqda. Chunki, bozorda qatnashuvchi sotuvchilar qancha ko'payib borsa, monopol ta'sir shuncha zaiflashib boradi. Ko'pchilik mahsulot bozorlarida mayda firmalar kamayib, yiriklari ko'payib bormoqda. Bu resurslar bozoriga ham taalluqlidir. Mehnat bozoridagi kasaba uyushmalarining faoliyati ham shunday mazmunda bo'ladi. Bir qator yuqori foydali tarmoqlarda patent mushkulligi va boshqa tur resurslardan foydalanishdagi to'siqlarning ko'payib borishi raqobat kuchini zaiflashtiradi. Lekin jahon raqobat kurashi natijasida chet mahsulotlarining kirib kelishi bozor ishtirokchilarini ko'paytirish orqali ichki raqobat imkoniyatlarini oshiradi.

Chunonchi, AQSh, G'arbiy Ovro'po, qisman YAponiyani olsak, avtomobil va po'lat bozorlari kabi, oziq-ovqat mahsulotlari, resurslar bozorlarida ham yirik firmalar hissalari oshib, bu raqobat ta'siriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, hozirgi davrda bir qancha oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha chet firmalar o'zlariga yo'l ochib, istiqbollarini ta'minlamoqdalar. Masalan Gollandiya oziq-ovqat eksporti bo'yicha etakchi o'ringa chiqdi.

Raqobat turlari va harakat mazmunlari mavjud bo'lib, u jadvalda ko'rsatilganlardan iborat bo'ladi.




*Raqobat turlari va ta'siri*

Raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda marketing kontseptsiyasida raqiblarga, uni tanlashga katta e'tibor beriladi. Raqiblarni



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

avvalo firmalarga qarab belgilash kerak, ya'ni qaysi firmalar qanday tovarlarni bozorga chiqaradi, ya'ni sotuvchi sifatidagi raqiblarni aniqlash va ularni o'rganishga qaratilgan ishlarni belgilash va amalga oshirish talab etiladi. So'ngra xaridor-raqiblar o'rganiladi. Bunda mashhur "Mar-keting asoslari" kitobi muallifi Filip Kotlyar izlanish usulini taklif etadi. U raqiblarni to'rtga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: 1) istak bo'yicha raqib; 2) tovar turi bo'yicha raqib; 3) tovar xili bo'yicha raqib va 4) tovar markasi bo'yicha raqiblar. Iste'molchilar xarid qilish bo'yicha qanday qarorga kelishini aniqlash har bir firma uchun ko'proq o'z tovarini sotish yo'lini topish, ya'ni o'z xaridorlarini aniqlash imkonini beradi. U "Neksiya" mashinasini chiqaruvchi Asakadagi zavod misol keltirib, avvalo xaridorning qanday tovarlar sotib olishi mumkinligi, ular ichida qanchasi transport vositalari, so'ngra qanchasi mashina sotib olishi, oxiri mashinaning "Neksiya" markalisini qancha xaridor sotib olishi mumkinligini va umuman, boshqa markali mashinalarni sotib oluvchi raqiblarni Rossiya, Qozog'iston va boshqa davlatlarda aniqlab, o'z xaridorlarini ko'paytirish choralarini qo'llashi qayd qilinadi.

Raqobat asosiy tartibga solish mexanizmi sifatida ishlab chiqaruvchilar va resurslar bilan ta'minlovchilarni xaridorlar hukmiga yoki iste'molchilar mustaqilligini ta'minlash manfaatiga to'la bo'ysundiradi. Haqiqatan ham raqobat sharoitida ko'pchilik sotuvchi va xaridorlarning hukmi bozor bahosini belgilaydi, ya'ni yakka holdagi ishlab chiqaruvchilar va resurslar bilan ta'minlovchilar xaridorlarning istagiga moslashadilar. Bu istak-larni bozor tizimi inobatga olgan holda sotuvchilarga etkazadi. Bozor tizimiga bo'ysunib ish tutuvchi raqobatdagi ishlab chiqaruvchilar foydaga ega bo'lib, o'z mavqelarini mustahkamlab borsa, bozor qonunlarini buzuvchilar zarar ko'radi va ularni sinish, bankrotlik kutishi mumkin. Raqobat kuchi ta'siri sharoitida xaridorlar xo'jayin, bozor — ularning vakili, korxonalar esa ularning xizmatkori vazifasini bajaruvchi sifatida mavjud bo'ladilar.

## Qisqacha xulosalar

Raqobat kuchi shaxsiy manfaatni tartibga solib, uni shunday yo'naltiradiki, u o'zidan – o'zi jamiyat manfaatining maqsadga muvofiq ta'minlanishiga olib keladi.

Raqobat kurashida xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan narsa bahodir. Raqobat bozorni tartibga solib turuvchi kuch.

Jaxon iqtisodiyoti qo'shilib borishxalqaroraqobat kurashini belgilaydi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy raqobat tushunchasi nima?
2. Iqtisodiy raqobat mazmuni nima?
3. Raqobat va baho.
4. Raqobat bozorni qanday tartibga soladi?
5. Xalqaro raqobat kurash nima?



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Asosiy adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasini majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasi ikkinchi yig'ilishda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi 23 yanvar 2000y.
2. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining konuni "Bankrotlik to'g'risida" (yangi tarixi) - Zakon Respubliki Uzbekistan "O bankrotstve" (novaya redaktsiya) G'Muxarirlar: S.Mirzaxujaev, O.E.Vulf. - T.: Ukituvchi, 2003.-288 c. 1 ekz.
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
6. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
7. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
8. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004.


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# VIII-MAVZU. MONOPOLIYA VA BOZOR MODELLARI

**8.1. Monopoliya tushunchasi**
**8.2. Bozorning asosiy modellari**
**8.3. Aksmonopoliya siyosati**

## 8.1. Monopoliya tushunchasi

Bozor iqtisodiyotida monopoliya raqobatga qarshi kuch sharoitida paydo bo'ladi va u raqobat ta'siri sharoitini o'zgartiradi.

Monopoliya — bu bozorda yuzaga keladigan iqtisodiy hodisa bo'lib, unda yirik sotuvchi yoki xaridorlar o'z iqtisodiy qudratiga suyanib, boshqa bozor ishtirokchilariga hukmlarini o'tkazadilar. Bunda monopolchilarning shaxsiy manfaatiga asoslangan, ularning foydasini ko'zlagan shartlar qolgan barcha uchun majburiy hisoblanadi. Bularga nisbatan boshqalar bozorga ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lmay, o'z manfaatlarini ko'zlash imkonidan mahrum bo'ladilar. Taklif hajmi va bozordagi baho monopoliya tomonidan belgilanadi.

Monopoliya holati firmalarga juda qo'l keladi. Chunki xaridorlarga qaram bo'lish, ularning didiga qarab ish tutish zaruratidan holi bo'linib, ularning talabiga zid ish ko'rish imkoni tug'iladi. Agarda xaridorlar majburiy qo'yilgan baholardan norozi bo'lsalar, monopolchi ishlab chiqarishni qisqartirib, savdoga chiqadigan tovar (xizmat)larni kamaytirishi mumkin. Bunda xaridorlarning mavjud yuqori bahoni tan olishdan boshqa iloji qolmaydi, albatta. Buning xaridorlarga qanday ta'sir etishi, kam xarajatli oilalarning ahvoli og'irlashuvi bilan monopoliyaning ishi bo'lmaydi. Monopolchilarni faqat bir narsa: yuqori foyda va katta daromad qiziqtiradi.

Monopolcha bozorni boshqarishning turlicha foyda olish usullari mavjud bo'lishiga qaramay, ularning hammasi jamiyat uchun katta iqtisodiy zarar keltirishini insoniyat o'z tarixida ko'rib o'tdi. Bu haqida keyinroq so'z yuritamiz. Hozir tabiiy monopoliya haqida so'z yuritaylik. Jamiyatning normal talabiga mos keladigan monopoliyalar ham bo'ladi. Bularni, albatta, iqtisodiyot siqib chiqarmaydi va jamiyat ta'qiqlashni istamaydi. Masalan, firma noyob tovarlar ishlab chiqarsa, bunda eng yangi texnologiyani qo'llab, foydadan xoli bo'lmagan holda past narxlarda sotish usulini qo'llab bozorni egallasa, buning yomon tomoni yo'q. Tabiiy usulda yuzaga kelgan monopoliya qonuniy bo'lib, uni yo'q qilish maqsadga muvofiq emas yoki iqtisodiy foy-dadan xoli emas.

Bunday monopoliyalar tabiiy boyliklardan foydalanish, transport, aloqa yoki kommunal xo'jalik tarmoqlarida bo'lishi mumkin. Masalan, juda noyob foydali qazilma uchun bitta shaxta etarli bo'lib, ikkinchi raqibning keragi yo'q. Shuningdek, aloqa shoxobchalari, gaz quvurlari kabilarni ko'rsatish mumkin.

Tabiiy monopoliya shunday holatni taqozo etadiki, bunda ob'ektiv kuchlar (tabiiy yoki texnik) sababli tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bir firma qo'lida bo'lib, lekin bu jamiyat uchun foydali hisoblanadi. Buning oldini olib bo'lmaydi, hatto zaruriyati ham yo'q. Ammo narx-navo bu monopoliyalar uchun davlat tomonidan yoki mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanish zaruriyati tug'iladi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## 8.2. Bozorning asosiy modellari

Monopoliyaning o'sishi, uning raqobatga ta'siri bozorning shakllanishini o'zgartiradi. Bu quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

*2-jadval*

**Bozorning asosiy modellari**

| Bslgilari | Raqobat va monopoliyaga qarab bozor modeli | | | |
|---|---|---|---|---|
| | sof raqobat | sof mono-poliya | Monopoliya-li raqobat | Oligopoliya |
| Firmalar Soni | juda ko'p | bitta | ko'p | bir nechagina |
| Mahsulot turi | standartlashgan | yagona, o'xshashi yo'q | Tabaqalash- gan | Sgandartlashgan yoki tabaqalashgan |
| Baho nazorati | Yo'q | ta'sirli | qisman | cheklangan |
| Kirish sha roiti | Juda oson | o'rab olin gan | nisbatan engil | Ta'sirli to'siqlar mavjud |
| Narxsiz raqobat | yo'q | deyarli yo'q | sifat, rek lama, savdo tamg'alari kabilarga e'tibor katta - | juda keng qo'llaniladi |

[1] *R. Makkonell, L. Bryu* "Ekonomiks", 1994, Moskva, 2-tom, 66-bet.

Jadvalda raqobat va monopol ahvolga qarab to'rt bozor modeli bo'lishi ko'rsatilgan. **Sof raqobat** modeli asosan yuqorida qayd qilingan sharoitlarga mos keladi. Bunda baho shakllanishi to'la erkin holda yuz beradi va sotuvchilar, xaridorlar juda ko'p bo'ladi. Bularning kelishib olib ish tutishlari, ozchilikning bozorda hukmini o'tkazishi, bir qism sotuvchilarning bahoni o'zgartira olishi mumkinligining imkoni bo'lmaydi. Ilgarilari asosan shunday bo'lgan bo'lsa ham keyingi vaqtlarda bozor sharoitlari o'zgarib, deyarli sof raqobat ta'kidlab o'tilgan darajada bo'lmaydi. Bunga e'tibor berishning sababi shuki, hozirgi vaqtda ham bir necha tarmoqlardagi raqobat shu modelga xosdir. Shu bi-lan birga sof raqobat oddiy holatni aks ettirib, bunda "daromad" va "xarajatlar" tushunchalaridan yaxshi foydalanish mumkin.

**Sof monopoliyani** olsak, bundagi eng muhim narsa mahsulot ishlab chiqarishning bir firma ixtiyorida

bo'lishi va uning o'rnini oluvchining yo'qligi, ya'ni haqiqatan ham bozordagi tanholikdir. Chunki, monopoliyaning barcha xususiyatlari shundan kelib chiqadi. Bu



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

modelning to'rt muhim tomonini ko'rsatish mumkin: 1) sotuvchi yakka, tarmoqning tengdoshi yo'q, chunki firma yakkayu-yagona; 2) sotiladigan mahsulot juda yuqori darajada bo'lib, undan yaxshirog'i yoki uning o'rnini bosadigani yo'q (ko'pincha ba'zi xomashyo va yangi mahsulot ta'minotchilariga xos); 3) monopolist bozorga o'z hukmini o'tkazadi, bahoni nazorat qiladi, tovarning bozorga kelishini o'z qo'lida ushlab turadi; 4) monopolist tomonidan raqiblar uchun bozorga kirish yo'li to'la to'siladi. Bunda uning yagonaligi ish bersa, zaruriyat tug'ilsa, sun'iy to'siqlar ham ishga solinadi. Ayniqsa bunda patent, litsenziyalardan to'la foydalanish mumkin.

Hozircha shu bilan chegaralanib (chunki quyida yana monopolizmga qaytamiz), bundan keyingi model — monopollik raqobatni ko'rib chiqaylik. Bunda tanholik yoki ommaviylik sharoiti hukmron bo'lmay, bozorda nisbatan ishlab chiqaruvchilar ko'p bo'ladiyu, lekin ularning tovarlari bir xil bo'lmay, farqlanadi. Shuning uchun ham ishlab chiqaruvchilar va firmalar minglab bo'lmay, o'nlab bo'lsa etarli. Sof raqobatda standartli tovarlar yoki bir xil tovarlar bozorga olib chiqilsa, bunda tabaqalashtirilgan tovarlar olib chiqiladi. Tabaqalashtirish yoki turlilik mahsulot va xizmatlar sifatiga taalluqli bo'lgani tufashga iste'molchining bularga munosabati narx-navoga bog'liq bo'lmaydi. Aytaylik, vinolarning alohida xillari yoki bir xil turdagi shokolad kabilarni misol keltirish mumkin. Kiyim modalarida buning o'rni albatta katta. Bunda raqiblarga nisbatan bo'lgan ta'sir va munosabat faqat baholar orqali bo'lmay, tovar va xizmatlar turliligiga katta e'tibor berish yo'li bilan ham amalga oshadi hamda bu asosiy tamoyil bo'lib hisoblanadi. Bu modeldagi bozor, ya'ni monopolli raqobatning muhim xususiyatlaridan yana biri shuki, tarmoqqa kirish va ma'lum tovar bozorida ishtirok etish oson ko'chadi. Bunday bozor ishtirokchilari juda yirik ishlab chiqarishga ega bo'lmay, nisbatan katta bo'lmagan firmalar bo'lib, ularning xarajatlari uchun katta mablag' talab etilmaydi.

Monopolli raqobatdagi monopollik mazmunini nima belgilaydi, degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga javoban shuni aytish mumkinki, tovar xillari turliligi, sotuvga chiqariladigan tovarlarning farqlanishi va o'ziga xos monopol egalikning mavjudligi bozorda monopol hukmronlikni yuzaga keltiradi. Tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona bo'lmay, yana boshqalarning bo'lishi va tarmoqqa kirish erkinligi mavjud bo'lishiga qaramay, o'z tabaqalashgan tovari yoki xizmatiga o'zi baho qo'yish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari bu bozorda mayda va o'rta ishlab chiqaruvchilar bilan birga yiriklari ham ishtirok etadi. Shuning uchun ham hozirgi zamon harbiy mamlakatlar bozori tuzilishida shu biz ko'rayotgan monopolli raqobat ustunlik qiladi.

Keyingi model — **oligopoliya** bo'lib, raqobatda ishtirok etuvchilarning ozchilikni tashkil etishi bilan farqlanadi. Agar bozordagi raqiblar ko'pchilik bo'lmay, juda ozchilikni tashkil etib, miqdori o'ndan oshmasa, buni oligopoliya deyiladi. Bu taxminan sof monopoliya va monopolli raqobat o'rtasidagi bozor modelidir. Aytaylik, AQShdagi avtomobil sanoatida uch yirik firma hukmronlik qiladi; "Djeneral motorz", "Ford" va "Krays-ler". YAponiyada ham bir nechta gigantlar mavjud. Shularga o'xshagan gigantlarning bozordagi hukmronligi oligopoliya mazmuniga ega bo'ladi.

Oligopollar bir xil yoki tabaqalashtirilgan tovarlar ishlab chiqarishi mumkin.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Bir xillilik ko'pincha xomashyo va yarim fabrikatlar bozoriga xosdir. Aytaylik, ruda, neft, po'lat, tsement, texnik spirt kabilar. Tabaqalashtirish asosan iste'mol buyumlariga xosdir. Albatta ozchilikni tashkil etgan firmalarning bir birlari bilan kelishuvi juda oson. Ular monopol baho, bozorlarni bo'lib olish va raqobatning boshqa tomonlariga osonlikcha ta'sir etib, uni chegaralay oladilar. Shunday qilib, oligopoliya sof monopoliyaga yaqinlasha oladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, oligopol bozordagi raqobat ishlab chiqarish kontsentratsiyasiga bog'liqdir: ular ko'p bo'lsa, ya'ni ko'p sonli firmalar mavjud bo'lsa, raqobat ta'siri kuchliroq bo'ladi, agar firmalar oz sonli bo'lsa, raqobat zaiflashadi, monopollik ustunlik qiladi.

Oligopol bozorning rivojlangan raqobatdan muhim farqi shuki, u baho harakati bilan bog'langandir. Raqobat bozorida baholar to'xtovsiz va tez-tez o'zgarib tursa, oligopol bozorda baho juda kam o'zgarib, ancha turg'unlikka ega bo'ladi. Baholarni etakchi firma bo'lsa, belgilaydi qolganlari uning ketidan ergashadilar.

Shunday qilib, raqobat va monopoliyalar ta'siri ostida bozor modellari turliligi to'g'risidagi umumiy tu-unchalar bilan tanishib chiqdik. Endi yuqorida aytganimizdek, sof monopoliyaga qaytib, bahoning shakllanishi va umuman unga xos ba'zi muhim tomonlarni to'laroq ko'rib chiqaylik. Bunda harakatlar, baho va daromadlar o'zgarish chizig'idan foydalanamiz. Sof raqobatli bozor sharoitida elastik, ya'ni o'zgaruvchan talab mavjud bo'lib, talab chizig'i pirovarddagi daromad chizig'iga to'g'ri keladi. Monopolistning talab chizig'i tarmoqlar talab chizig'iga mos keladi, shunga ko'ra u pasayish xususiyatiga ega. Bunda birinchi sotilgan yuqori bahodagi tovarga nisbatan keyingilarining bahosi pasayib boradi. Daromad ham shu tarzda bo'ladi.

Ammo shu narsani ham e'tiborga olish kerakki, doimo baho hisobiga daromad olib bo'lmaydi. Bahoning ko'tarilishi hamma vaqt monopoliya uchun foydali deb bo'lmaydi. Uning uchun eng ma'qul yo'l ishlab chiqarishni o'stirish va taraqqiy ettirishdir.

YAkka firma mavjudligi va sof monopoliya sharoitida raqobat yo'q bo'ladi, - deb bo'lmaydi. Chunki, bu firma resurslar, ishlab chiqarish vositalari va ish kuchi bozorida xaridor sifatida raqobatga uchraydi. Jahon bozori ichki bozordan farqlanadi. Aytaylik, AQSh yirik avtomobil kontsernlari YAponiya, Germaniya, Frantsiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar avtomobil firmalari bilan raqobat kurashida bo'ladilar. Bularning hammasi monopoliyaning sof mazmunini inkor etmaydi va aksmonopoliya

siyosatini qo'llash talab etiladi. Bu siyosat Xg'X asrning oxiridayoq boshlangan bo'lib, hozirgacha takomillashib kelmoqda. Davlatning monopoliyalarga qarshi birinchi qonuni antitrest qonun 1890 yilda AQShda chiqarilgan bo'lib, bu "Sherman qonuni" deb atalgan. Bu qonun keyinchalik bir necha bor qayta qo'rib chiqildi. Bunday qonunlar ko'pchilik bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarga mansubdir. Bizning respublikamizda monopoliyadan chiqarish qo'mitasi bor va uning asosiy vazifasi monopoliyaga qarshi kurashishdir.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## 8.3. Aksmonopoliya siyosati

- -Aksmonopoliya siyosati asosan uch yo'nalishni o'z ichiga oladi: bular ishlab chiqarish tarkibini boshqarish, aktsiyalarni sotib olish me'yorini belgilash, baholarning taklif va talab muvozanati darajasini ta'minlashga qaratilgan choralar kabilardir.

a) Ishlab chiqarish tarkibini belgilashga oid choralar korporatsiyalar uchun shu xil mahsulotlarning yarmidan ortig'ini ishlab chiqarish mumkinligi va nazorat qilishdan iborat.

b) Yirik korporatsiyalar ishtirokchilarining aktsiyalar sotib olish hajmi chegaralanadi. Bunda aktsiya bir korporatsiya ixtiyoriga o'tishi bilan monopollashuvga olib bormasligi e'tiborga olinadi. Chunki, ko'p miqdorda aktsiya sotib olish yo'li bilan tarmoq ustidan nazorat miqyosini kengaytirishga yo'l qo'yilmaydi. Agarda biron bir korporatsiya boshqalar aktsiyasining asosiy qismini sotib olsa, qo'shilishga va monopoliyaga olib kelishi mumkin, natijada bu tarmoqda raqobat ta'sirining so'nishi yuz beradi.

v) Baho sohasida kelishib olishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan choralar akskartel qonunlari, deb ataladi. Baho to'g'risida shartnomalar tuzib monopoliya yuzaga kelsa, buni kartel deyiladi. O'z vaqtida bu Germaniyada juda avj olib, hatgo Germaniya "Kartel mamlakati" deb atalgan edi. Al-batta bozorlarni taqsimlab olib, bir xil baholar ustida kelishib olish iste'molchilarning manfaatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va zarar keltiradi.

Aksmonopol qonunlar raqobat sharoitini yaratish va erkin iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qaratiladi. Lekin gap faqat bunday qonunlarning bo'lishida emas, balki ularning ijrosini ta'minlash, nazorat qiluvchi organlarning takomillashuvidadir. Shunday amaliy nazorat ostida samarali ishlab, xaqiqiy bozor raqobati ta'minlanilsa, monopoliyalar hukmronligining oldini olish imkoni tug'iladi. Bunday ahvolni ko'pchilik bozor iqtisodiyoti rivoj topgan mamlakatlarda ko'rish mumkin. Bu ayniqsa AQSh, YAponiya, Germaniya, Frantsiya va boshqa bir qancha mamlakatlarga taalluqlidir.

Monopoliyalar mavjud bo'lgan mamlakatlarda monopoliyalarga qarshi kurash olib borilsa, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda bozorning shakllanishi, raqobat sharoitini yaratish uchun harakat qilinadi. Bunday mamlakatlarda, ayniqsa totalitar tizimlarda davlat monopoliyasini yo'q qilish asosiy maqsad bo'ladi. Shunga e'tibor berish kerakki, raqobat shakllangan mamlakatlarda davlatning faol harakati raqobatni takomillashtirishga qaratilsa, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda raqobatni shakllantirishga qaratiladi. Davlatning raqobat sharoitini yaratishdagi faoliyati nodavlat xo'jaliklarini ko'paytirish, davlat xo'jaliklarini esa bozor munosabatlari tasiriga moslash mazmunida bo'ladi. Borgan sari davlat mulki hisobiga boshqa xil mulklarni kengaytirish, korxonalarni aktsionerlashtirish va bunga ko'pchilikni jalb eta borish, bozor talabiga xos soliq, boj, import-eksport tizimlarini yaratish, tijorat kreditlarini kengaytirish, xo'jalik faoliyatlarini ma'muriy ta'sirlardan ozod etish, tadbirkorlikni ta'minlash kabi raqobat uchun zarur sharoitlarni shakllantirib borishda albatta davlat faoliyati kuchayishi zarur.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Raqobat usullarini qo'llash, aksmonopoliya siyosati darajalari bozor holatiga bog'liqdir. Masalan, tovarga to'yingan bozor va uning aksi bo'lgan to'yinmagan bozor bo'lishi mumkin. Bozor shakllanayotgan O'zbekiston va bunga o'xshash respublikalarda tovar (xizmatlar) mo'l-ko'lligi hali ta'minlanmagan. Bunda erkin tovar tanlash imkoni yo'q va xaridlik darajasi ancha cheklangan. Bunday bozorda baho raqobati juda qo'l kelishi mumkin. Chunki, bahoning talab o'zgaruvchanligiga ta'siri kuchli bo'lib, baho pasayib borishi bilan xaridorlar ko'payib boradi. Bahoni pasaytirmaydigan, shuningdek, bahoning harakat xususiyatini o'z vaqtida payqamagan ishlab chiqaruvchi bozordan siqib chiqarilishi turgan gap.

Tovarlarga to'yingan bozorda esa tovar (xizmat) turlari serob, tanlab xarid qilish uchun imkoniyat juda keng bo'lib, elastik talab hukmronlik qiladi. Bunda daromadi puldorlar ko'pligi, bahoga e'tibor kuchli bo'lmaganligi umumiy bozor holatini belgilaydi. Bunday sharoitda bahosiz raqobat ustunlik qiladi. Lekin baribir qanday bo'lmasin sog'lom raqobat uchun kurash bozor taraqqiyotining asosi bo'lib, aksmonopoliya siyosati bunga yordam berishi kerak.

Aksmonopoliya siyosatining ta'siri haqida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, samarali iqtisodiyot yirik monopolistik iqtisodiy tuzumga qarshi kurash va monopol harakatlarning oldini olish hamda raqobat ta'sirini kuchaytirishni talab etadi. Aksmonopoliya siyosatida qonunchilik byudjet va banklarning moliyaviy harakatlari bilan to'ldiriladi. Bir tomondan, soliq oldida barcha xo'jalik ishtirokchilari bir xil tenglikka ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, alternativ ishlab chiqarish yaratilib, mayda va o'rta korxonalar uchun soliq sohasida ma'lum imtiyozlar bo'lmog'i zarur.

Bozor munosabatlari ta'siri kuchayib borishi bilan raqobat ham o'z mazmunini o'zgartirib boradi, ya'ni takomillashadi. Albatta hozirgi davrdagi raqobat holati, uning ta'sir etish mazmuni oldingi bozor raqobatidan tubdan farq etadi. Sobiq sho'ro bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat juda stixiyali, shafqatsiz ta'sirda bo'lib, uni haqiqatan ham "yovvoyi raqobat" deb atashadi. Nomiga yarasha ta'sir mazmuniga ham ega edi. Hozirgi davrda davlat ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi "yovvoyi raqobat" bilan "madaniylashgan raqobatni" yuzaga keltirgan. Lekin "yovvoyi raqobat" faqat o'tgan davr uchun xos, deb bo'lmaydi. Madaniylashgan raqobat aralash iqtisodiyot sharoiti uchun xos bo'lib, sekinlik bilan asosiy raqobatga aylanadi.

## Qisqacha xulosalar

Monopolga bozori boshqarishning turlicha foyda olish usullari mavjud bo'lishiga qaramay, ularning hammasi jamiyat uchun katta iqtisodiy zarar ko'rishini insoniyat o'z tarixida ko'rib o'tdi.

Raqobat va monopoliya qarab bozor modeli shakllanadi. Aksmonopol qonunlar raqobat sharoitini ratish va erkin iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdir.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1.Iqtisodiy raqobatning mohiyatini echib bering.

2.Iqtisodiy raqobatning bozor iqtisodiyotidaga o'rni, ahamiyatini tushuntirib bering.

3.Raqobatning bozor mexanizmi qanday mazmunni anglatadi?

4.Monopoliyaning mohiyati, uning bozor taraqqiyotiga, iste'molchilarga salbiy ta'sir ko'rsatishi sabablarini misollar bilan ko'rsatib bering.

5.Aksmonopoliya siyosati nimani bildiradi, u nimaga qarshi qaratilgan? Uning usullari nimalardan iborat?

6.Aksmonopoliya siyosatining O'zbekistonda qo'llanilishi mavjudligini va davlat monopoliyasi ta'siri bilan bog'lab tushuntirib bering.

7.Bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti va unga o'tish davridagi raqobat va monopol holatni tushuntirib bering.

## Asosiy adabiyotlar


1. Ishmuxamedov A.E. Jaxon iqtisodiyotiga integratsiya: O'quv qullanma G'A.E. Ishmuxamedov, M.N.Sunnatov, L.I.Shibarshova.-T.: TDIU, 2004.-1 60c. 1 ekz.
2. Ishmuxammedov A.E. Iqtisodiy xavfsizlik: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU,2004.- 176 c. 1 ekz.
3. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'kuv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
4. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз..
5. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
6. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
7. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
8. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# IX-MAVZU. MULK SHAKLLARI

**9.1. Mulk shakllarining bozorga ta'siri**
**9.2. Davlat mulki**
**9.3. Xususiy mulk**

## 9.1. Mulk shakllarining bozorga ta'siri

Har qanday iqtisodiy tizimda bo'lganidek, bozor iqtisodiyotida ham mulk muammosi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va harakatdagi mavjud mulk shakllarining bozor talabiga, uning xususiyatlariga mos kelishi talab etiladi. Yuqorida qayd qilganimizdek, erkin iqtisodiy taraqqiyot, xo'jalik xillarining turliligi, iqtisodiy tashabbuskorlik, raqobat holati bozorning mo-hiyatini belgilovchi asoslardir. Bular avvalo mavjud mulk shakllariga bog'liq bo'lib, ularning ifodasini tashkil etgan xolda asosan mulk mohiyatidan kelib chiqadi.

Iqtisodiy tizimlar mulk shakllarining aksi bo'lga-nidek, bozor munosabatlari ham o'zlariga xos va mos mulk shakllarini talab etadi.

Tarixda turli mulkchilik va yakka mulkchilik davrlari mavjud bo'lgan. Jamiyat turli xil mulkchilik asoslarida rivojlanib kelgan. XX asrga kelib yakka mulkchilik tizimi ham barpo bo'ldi. Bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyotining mulk shakllariga bog'liqligi ijtimoiy mulkchilik sharoitida, ayniqsa juda ayon bo'ldi.

Xo'jaliklarning turliligi, darajalarining har xilligi kurashga da'vat etadi, ya'ni raqobatga olib keladi. Ijtimoiy mulk esa, aksincha, tenglik, bir xillik xususiyatini yaratadi. Bundan tashqari u xo'jalik yuritishda markazlashuvga olib kelib, mustaqil harakat qilish, tashabbus ko'rsatish imkonlarini yo'q qiladiki, bunday sharoit bozor taraqqiyotini inkor etadi.

Eng muhim narsa shuki, ijtimoiy mulk bir xillik bo'lsa, xususiylik turlilikdan iboratdir.

Mulk moddiy va boshqa boyliklardan foydalanish sharoitlari, munosabatlari, egalik qilish, o'zlashtirish mazmunini o'z ichiga oladi. Mulkka egalik esa ko'proq boylikka ega bo'lish va u bilan boshqa barcha sharoitlarni qo'lga kiritishdir. Shunga ko'ra u iqtisodiyot asosidir. Iqtisodiy faoliyatda mulkning hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi unga egalik darajasini kuchaytirish va boyliklarga nisbatan erkin munosabatda bo'lishga erishishda ifodalanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish sharoiti, taqsimot va iste'mol holati, miqdori va darajasi albatta mulk munosabatlariga bog'liq va u bilan belgilanadi. Undan foydalanish, unga egalik qilishda umumiylik va xususiylik mavjuddir, boshqacha qilib aytganda, uning qatnashchilari tenglik, tengsizlik va itoatkorlik holatida bo'lishi mumkin. Bunda albatta mulkiy munosabatlar bir xilda bo'lmay, balki turli xilda va turli ta'sirda bo'ladi.

Mulkka egaliqdagi umumiylik amalda tenglikni yuzaga keltirmaydi. Chunki, uning harakati kimdir tomonidan boshqarilishi kerak, u vakil, belgilangan shaxs, yoki tashkilot bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda barchaning manfaatlari bir xilda e'tiborga olinishi mumkin emas, chunki, kimki mulkka yaqin u uni boshqarish huquqlariga ega bo'lsa, u manfaatdorlikdagi bir xillikka to'la rioya eta olmaydi va u



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

o'zi, o'ziga yaqinlarning manfaatiga ko'proq e'tibor beradiki, bu boshqalarning manfaati hisobiga amalga oshadi. Shu bilan birga umumiylikda xaqiqiy mulk egaligi ta'min-lanmaydi, asosan egasizlik ustunlik qiladi. Shuning uchun ham yirik iqtisodchilarning ijtimoiy mulkda egasizlik xususiyati mavjud, deb ta'kidlashida haqiqat bor. Shuning uchun ham mulqdagi umumiylikning samaradorlik darajasi, ayrim voqelikdan tashqari, yuqori bo'la olmaydi. Bu esa ijtimoiy mulkning istiqbolini belgilaydiki, bunga asoslangan tizim uzoq umr ko'rishi, yuqori taraqqiyotni ta'minlashi mumkin emas. Bundan tashqari mulkdagi umumiylik bozor sharoitlarini inkor etadi.

Mulkdagi xususiylikning ijobiy tomonlari ko'p, u ijtimoiylikka nisbatan bir qancha ustunliklarga ega. U, avvalo, umumiylikning teskarisi bo'lgan turlilik, xilma-xillik, tengsizlik sharoitlari bilan borliqdir. Bunda egalik darajasi yuqori bo'lib, javobgarlik hissiyoti kuchli bo'ladi. Eng muhimi shaxsiy manfaatdorlik to'la yoki to'laroq ifodalanadi. Mulqdan foydalanishning shaxsga bevosita bog'liqlik darajasi yuqori bo'ladi.

Mulk xususiyligi yuritishdagi turlilik, xilma-xillik va erkinlik sharoitlarini yaratish tufayli bozor munosabatlariga mos keladigan raqobatga asos soladi. Bozor munosabati bilan mulk muammosi, uning harakatdagi shakllariga e'tibor berar ekanmiz, uning bozor iqtisodiyoti rivojida o'rni, ahamiyati, bozor uchun uning ma'qul va zarur ko'rinishlari, bozor iqtisodi rivoji maqsadida mulk munosabatlarining taraqqiyotiga e'tibor berish zarur.

Mulkchilikning turi va shakllari mavjud. Mulk turi ijtimoiy iqtisodiy tuzumlarga nisbatan belgilanib, asosan bularga xos mulkiy munosabatlarni ifodalaydi. Bunda mavjud mulk shakllari avvalo ekspluatatsiya yoki noekspluatatsiya tuzumlarining asosi bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, tarixan yashab o'tilgan tuzumlar ekspluatatsiya bilan bog'liq bo'lib, ularni quldorlik, feodal va kapitalizm tuzumlari deb farqlar edik. Ekspluatatsiyaning mazmuni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur boyliklar ma'lum sinf, guruhlar qo'lida bo'lib qolganlarning ular uchungina mehnat qilishi bilan belgilanadi. Mehnat qilgan mahsulot taqsimotida ishtirok etmay, kam daromad olgan va mulk egalari esa mehnatsiz ham ko'p daromad olgan. O'z mehnati bilan daromad oluvchi mulkdorlar ham bo'lganu, lekin ular asosiy guruhlar qatoriga kirmagan.

Jamiyat taraqqiyotida, avval, iqtisodiy rivojlanish natijasida aralash iqtisodiyot yuzaga kelib, ko'pchilikning mulk egasi bo'la olishi sharoiti paydo bo'ladi. Yuqori darajada ishlab chiqarish, iqtisodiy o'sish ko'pchilikning mulkka hissador bo'lishi, moddiy resurslar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o'zlashtirishda qatnashuvi mumkin bo'ladi. Umuman, iqtisodiy taraqqiyotda barchaning manfaatdorligi yuzaga keladiki, bu yangicha mulkiy munosabatlar mazmuniga xos mulk turini yaratadi.

Mulkchilik yakka hukmronlikdan turlilik tomon rivojlanadiki, bu shakllari taraqqiyotini ko'rsatadi Mulk to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikrlar uning shakllarida o'z ifodasini topadi va o'z ta'sirini mavjud harakatdagi mulk shakllari tufayli namoyon etadi.

YAkkamulkchilik to'la ijtimoiy mulk shaklidan iborat bo'lsa, mulk shakllarining turliligi asosan davlat mulki, shaxsiy mulk, shuningdek, jamoa, qo'shma, kooperativ mulklari kabilardan iboratdir. Mulkdan foydalanishda yana qo'shimcha shakllar ham



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

yuzaga keladi. Bular qatoriga ijara, pudrat, sheriklik, fermerlik (dehqonchilik) kabilarni qo'shish mumkin.

Mulk shakllari mulkni o'zlashtirishdagi qo'rinishlar, mulkning amaliy ifodasi bo'lib, uning mazmunini bildiradi.




*4-tarx.* Bozor iqshsodiyotvdagi mulk shakllari

Aytganimizdek, bozor iqtisodiyoti turli mulk shakl-larini taqozo etadi. Yuqorida keltirilgan tarxda mavjud mulk shakllari bog'liqligi ko'rsatilgan. Asosan davlat, xususiy va birlashma mulklarni mulk turlari desak, turlar shakllarga, shakllar esa o'z navbatida, yana o'z ichida mulk subshakllariga bo'linib ketadi. Mulk shakllarining turliligi, yangilarining paydo bo'lishi bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti natijasidir. Biron bir mulk shakli mavjud ekan, demak u samarali harakatda bo'ladi.

Mulk turlari nisbatini xo'jalik sub'ektlari tuzumi bo'yicha olsak, O'zbekistonda bu 2002 yilning 1 yanvariga qadar quyidagicha edi:

1. Davlat korxonalari
2. Xususiy korxonalar
3. Birlashma korxonalar

## 9.2. Davlat mulki

Har bir davlat o'z mulkini tashkil etadi. Bu asosan xo'jalik, avvalo, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Keyingi vaqtlarda buning hajmi sezilarli darajada bo'lib, umumiy mulk miqyosida nisbati Frantsiyada deyarli uchdan bir qismga, Angliyada 20— 21 foizga, AQShda 13—14 foizga tengdir. Bular asosan barcha tarmoqlarga oid va xalq xo'jaligi infrastrukturalari sohasidadir. Lekin kapitalistik



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

deb atalayotgan davlat mulklari qaysi shaklda bo'lishiga qaramay, asosan xususiy xarakterda va bozor qoidalari asosida faoliyat ko'rsatadi. Shunga ko'ra u bozor munosabatlarini rivojlantirish, raqobatga sharoit yaratish uchun xizmat qiladi.

Lekin davlat mulkining boshqa bir turi mavjud bo'lib, u o'z hajmi va harakat mazmuni nuqtai nazaridan farklanadi. Bu sobiq sho'rolar mamlakatlarida yuzaga kelgan davlat mulkidir. Bu xil mulk shak-li ijtimoiy mulk bo'lib, o'ta darajada umumlashgan va markazlashgan mulkdir. Sobiq sho'ro imperiyasida bunday mulk avvalo ishlab chiqarish vositalari milliylashtirilib, ularni hech qanday to'lovsiz davlat ixtiyoriga olish hisobiga paydo bo'la boshladi. Bunda, birinchi navbatda, erga bo'lgan xususiy mulkka barham berildi va u davlat mulkiga aylantirildi.

Mayda mulk va bunga asoslangan ishlab chiqarish vaqtincha xususiyligicha saqlanib, 30-yillarga kelib, ular ham umumlashtirildi va artel shaklidagi kooperativlarga birlashtirildi. Qishloq xo'jaligida kolxozlar tuzildi, shaharlarda hunarmandchilik artellari yuzaga keldi. Nomiga bu jarayon ixtiyoriylik asosida tashkil topdiyu, amalda majburiy usulda yuzaga keldi. Shu bilan mamlakatda xususiy mulk yo'q qilinib, umuman xususiy manfaat ham inkor etilib, ijtimoiylikka asos solindi.

Birlashmalar, ya'ni korxona va tashkilotlar uyushmasi mulki mavjud bo'lib, bular asosan davlat mulki asosida bo'lganligi tufayli, buni davlat mulkiga bog'lab ko'rsatmoqchimiz. Chunki, bu umuman birlashma mazmunida bo'lib, xususiy mulk ishtirokida ham bo'lishi mumkinligi va xususiylik munosabatlariga moyillik bo'lishiga qaramay davlatchilik ustunlik qiladi va asos bo'lib hisoblanadi. Bunday mulk ham boshqalarga o'xshagan xalq xo'jaligining bar-cha tarmoq va sohalarida yuzaga keladi. Uyushma mulki esa ishtirokchilar mulkidan ajratilgan qisminigina tashkil etib, umumiy manfaat uchungina ishlatiladi. Bu ayniqsa, o'tish davriga juda xarakterli bo'lib, O'zbekistonda ham ko'p qo'llanilmoqda.

## 9.3. Xususiy mulk

Eng qadimgi va keng tarqalgan mulk xususiy shakldagi mulk bo'lib, u asosan ayrim shaxslar bilan bog'liqdir.

Xususiy mulkning asosiy xususiyati shuki, mulk bir kishining ixtiyorida bo'ladi va mulkka nisbatan to'la mustaqil ish tutish imkoniyati tug'iladi. Xususiy mulkning chegarasi uning egasidagi imkoniyat va qobiliyatga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti rivojida bu tur alohida o'rin egallaydi. Xususiy mulk bir shakldagi mulk, lekin har bir xususiy mulk o'ziga xos alohida mulk bo'lganligi tufayli, ular mustaqil mulklar, ya'ni juda ko'p miqdordagi, ming-minglab sonli mulklardir. Ularning har biri bozorning alohida ishtirokchisi va raqobat kurashining qatnashchisidir. Bundan xususiy mulk raqobatni kengaytiruvchi, kuchaytiruvchi mulk shakli ekanligi yana bir bor oydinlashadi.

Shunga ko'ra xususiy mulk bozor sharoitiga juda tez moslashadigan, xaridor talabini tez e'tiborga olib ish tutish va faoliyat ko'rsatish uchun eng qulay sharoitga ega bo'lgan mulk shaklidir. Bunday xususiyat bozor iqtiso-diyotida xususiy mulkning ahamiyatini kuchaytiradi va etakchilik rolini belgilab beradi. Demak,



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

bozor rivoji uchun birinchi navbatda, xususiy mulk keng quloch yozmog'i, iqtisodiyotda asosiy o'rinni egallamog'i talab etiladi. Zero, xususiy mulk taraqqiyotisiz bozor iqtisodiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Xususiy mulk asosiy o'rinni egallamaguncha va davlat mulki ustunligi yo'q qilinmaguncha iqtisodiy taraqqiyotning ob'ektivligiga nisbatan sun'iylikning ustunligi sharoiti mavjud bo'laveradi.

Xususiy mulk turlicha: kichik, o'rta, katta va juda katta hajmlarda bo'ladi va xuddi shunday xo'jaliklarni ifodalaydi. Albatta ular to'xtovsiz ravishda kattalashish va kengayish xususiyatiga ega. Shunga ko'ra xususiy mulk, ayrim shaxslar mulki bo'lishiga qaramay, juda katta hajmda million, milliard dollar miqdorida bo'lishi mumkinki, u juda yirik korxonalarni ham o'z ichiga oladi. Xususiy mulk O'zbekistonda juda tezlik bilan shakllanmoqda. Uning hissasi xo'jalik sub'ektlari ichida 2003 yil boshida 44,1 foizni tashkil etdi. Bu 1996 yilning boshiga nisbatan 9,4 foiz ko'pdir.

Xususiy mulk ikki, ya'ni individual va korporativ shaklda bo'ladi. **Individual mulk** sharoitida boylik alohidalik asosida o'zlashtiriladi. Bunda mulk egasi mulki-dan foydalanishda ijaraga berish yoki biron guruhga qushi-lib ish tutishda to'la mustaqillikka ega bo'ladi.

**Oila mulki** ham individual xususiy mulkdan ajrab chiqib, alohidalashadi.

**Korporativ mulk** shakli hissadorlikka asoslanadi, ya'ni bunda birgalikda ish ko'rish uchun guruhlarga qo'shi. Bunda, albatta mulkdor boylikni yakka o'zlashtirish huquqiga ega bo'ladiyu, lekin bu ma'lum guruhlarga birlashuv sharoitida yuz beradi. Korporativ xususiy mulkning tub mazmuni individual mablag'larni birlashtirish tufayli paydo bo'luvchi jamiyatlarning korporativ mulkidan iboratdir. Korporativ xususiy mulk xo'jalik yuritish zaruriyatidan kelib chiqib, katta mablag'lar ishlatish va kapitallarni birlashtirish orqali yuzaga keladi. Shu bilan birga mayda xususiy mulk mas'uliyati o'rniga korporativ mas'uliyat paydo bo'ladi.

Korporativ xususiy mulk monopolistik mulkni ham yuzaga keltiradi. Bular korporativ mazmundagi yirik xususiy mulk birlashmalaridan iborat va ular juda katta hajmdagi boylikdir. Bu boylik esa ozchilik ixtiyorida bo'ladi.

Tub xususiy mulkdan keyin mikdor jihatdan ko'p shaklli mulk turi xisoblangan birlashma mulki turadi. Birlashma mulkning korporativlik mazmuni bo'lsa ham u bir necha mustaqil mulk shakllaridan, ya'ni aktsio-nerlik, jamoa, kooperativ, qo'shma tashkilotlar mulki kabilardan iborat bo'ladi. Shu bilan birga korporativ xususiy mulkdan farqli o'laroq bunda davlat va chet mamlakatlar mulklari ham ishtirok etadi. Bundagi ko'p tarqalgan bu mulk shakli avvalo **jamoa mulkidir.** Bu mayda xususiy mulkchilarning birlashmasi sifatida yuzaga kelib, bir qancha ustunliklarga ega. Bundagi muhim tomon asosan sarmoyalarni kuchaytirish imkoniga ega bo'lish, mulkchilarning monopollik harakatiga bardosh bera olish imkonini yaratishdir. Bu xil jamoa mulki turli tarmoqlarda harakatda bo'ladi, ya'ni bu mulkchilik ishlab chiqarish, muomala sohalari, infrastrukturalarda faol qatnashishi mumkin.

Jamoa mulki, ayniqsa bevosita iste'mol buyumlari ishlab chiqarish va iste'mol qilish tarmoqlarida katta o'rin egallaydi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, ta'minlash, qurilish kabilarda uning ta'siri juda katga. Rivojlangan mamlakatlar ayniqsa,



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

YAponiyada bevosita iste'mol va umuman, inson hayoti sharoitida bu mulk shaklining o'rni katta. U erda minglab jamoa korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bizning sharoitimizda asosan qishloq xo'jaligida bu mulk shakli keng quloch yoygan. Bular asosan jamoa, guruh mulki asosida harakatdagi xo'jaliklardir. Bundan tashqari savdoda, qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish va qayta ishlashda ham bu xil mulk keng tarqalgan bo'lib, bular matlubot jamiyatlari, xarid-savdo bir-lashmalaridir.

Jamoa mulki mayda mulkchilar faoliyatida ahamiyatli-dir. Chunki alohida holda mayda mulk samara keltirishi u yokda tursin, hatto raqobatga bardosh bera olmasligi va arzigulik ish ko'ra olmasligi mumkin, mayda mulkdorlar esa o'zaro birlashib, kattaroq hajmda tijorat ishlarini amalga oshirish imkonini tug'diradi. Shuning uchun ham xaqiqiy demokratik asosda yuzaga kelgan jamoa mulki va bu asosdagi xo'jalik juda ahamiyatlidir. Har bir bunday birlashma ma'lum darajada erkin harakatni chegaralashi sababli bir-lashuv faqat ixtiyoriylikni talab etadi. Shuni e'tirof etish zarurki, jamoa mulkiga davlatchilikni singdirish faqat zarar keltiradi: jamoa mulkidan kutilgan samara bo'lmaydi.

Jamoa mulkining qo'llanilishidagi yana bir xususiyat shundan iboratki, boylikning o'zlashtirilishi uchun ish faoliyatida birgalikda qatnashish talab etiladi. Chunki, jamoa mulki mehnatsiz o'zlashtirishni inkor etadi va kor-porativ xususiy mulkdan farqlanib, ham mulkka, ham mehnatga hissa qo'shishi zarur hisoblanadi. Bu asosda tashkil etilgan xo'jalikdagi asosiy ish kuchi shu mulk egalarining o'zidir. Shu bilan birga zaruriyat talabi bilan yollanma mehnat jalb etilishi hollari ham mavjud bo'ladi. Mayda mulk bo-zorda ta'sirli kuchga ega bo'la olmasa, uning birlashuvi natijasida yuzaga keladigan jamoa mulki katta o'rin egallaydi va bozor iqtisodiyotining muhim ishtirokchisiga ay-lanadi, uning rivojida faol qatnashish imkonini tug'diradi.

**Kooperativ mulki** jamoa mulkining ko'p uchraydigan shaklidir. Kooperativ xillari ko'p, ular shu xil mulkka asoslangan va keng tarqalgan korxonalardir. Kooperativlarga birlashganlarning mulki umumiy va daromadi asosan sarf etilgan mehnat bilan belgilanadi. Bu guruh asosidagi birlashma bo'lib, hissadorlik mazmunida tashkil topadi. Kooperativlarda qo'shilgan mulk bilan bir qatorda shaxsiy qatnashuv hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir kooperativ bozorda mustaqil ishtirokchi sifatida faoliyat ko'rsata oladi.

O'zbekiston sharoitida mahalla mulki ham rivojlanib, uning ahamiyati o'sib bormoqtsa.

Mulkchilik shakllarining yana bir ahamiyatlisi bu - **qo'shma mulkdir.** O'z nomi bilan bu — mulklarning bir-biriga qo'shilishi tufayli yuzaga keladi. Ikki usulda barpo bo'lishi mumkin bo'lgan bu xil mulk mamlakatning ichki va tashqi imkoniyatlariga borliqdir. Chunki qo'shma mulk ichki yirik mulklarning bir-birlari bilan qo'shilib ish ko'rishga asoslanadi, shu bilan birga mamlakatlararo qo'shilish tufayli ham shakllanadi. Shuning uchun ham boshqa xil mulk shakllaridan farqli o'laroq, bu mulk xalqaro ahamiyat kasb etadi. Avvalo, mamlakat ichida turli mulklarning qo'shilishi orqali paydo bo'lib, bunda davlat asosiy rolni o'ynaydi. Aytaylik, davlat mulkiga xususiy va jamoa mulklarini tortish tufayli xo'jaliklar tashkil etish yoki ayrim xo'jalik faoliyati turi bo'yicha qo'shilib ish ko'rish mumkin va



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

bunda turli mulk sarmoyalari jalb etilgan bo'ladi. Bunday sharoitda faoliyat imkoniyatlari kengayadi, samara-dorlik darajasi ortadi. Ayniqsa, bunday mulk shakli ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsiya sohasi, yangi tarmoklar yaratishda juda ahamiyatlidir.

Ma'lumki, bozor munosabatlariga o'tishda chet sarmoyalarni jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mulk nuqtai nazaridan olsak, bu chet kapitalini jalb etgan holda qo'shma mulkni avj oldirishdir. Mamlakatimizda, ayniqsa Turkiya, Koreya Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi, AQSh kapitallari ishtirokida qo'shma mulklar ko'paymoqtsa. 2002 yilga kelib chet investitsiyasi bilan ish ko'rayotgan korxonalar soni 3061 ga etdi va shulardan 985 tasi shakllanish darajasidadir. 2001 yilning o'zida bunday qo'shma korxonalarda ishlab chiqarish 6,7 marta o'sdi va mahsulot 41,6 mlrd so'mga etdi. Qisqa vaqt ichida barpo etilgan bunday korxonalar miqdorining shunday darajaga etishi katta muvaffaqiyatdir, albatta. Lekin bu jarayon yana ham tezlashishi zarur.

Chetki kapital asosidagi qo'shma korxonalarning ahamiyati investitsiyani kuchaytirish, milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida shakllantirishda ortib boradi. Katta mablag'lar talab etiladigan sharoitda qo'shma mulk orqali chet kapitalini jalb etish zaruriyatdir**.** Zero, yuqorida aytganimizdek, respublikamiz oldida xalq xo'jaligi tizimini tubdan o'zgartirish, yangi tarmoqlar yaratish, zamonaviy texnologiyani o'zlashtirish kabi yirik iqtisodiy vazifalar turibdiki, ular nihoyatda katta sarmoyalarni talab etadi, qo'shma mulk esa bu muammoni echishda katta rol o'ynashi turgan gap.

Qo'shma mulk tufayli jalb etilgan chet kapitali yangi texnologiyani olib kirmokda. Chunonchi, Koreya Respublikasi, Germaniya Federativ hukumati kapitallari asosida yuzaga kelgan qo'shma korxonalar respublikamiz uchun yangi zamonaviy avtomobil sanoatini yuzaga keltirish imkonini bermoqda.

Xomashyoviylik yo'nalishini bartaraf etib, paxtadan kiyim-kechak tayyorlashgacha bo'lgan texnologik ishlab chiqarishni yaratishda Turkiya, Koreya Respublikasi kabilar bilan yuzaga kelayot-gan qo'shma mulk juda ahamiyatlidir. Bunday jarayonlar kundan-kunga rivojlanib, turli mamlakatlar ishtirokida qo'shma mulkni kengaytirish yanada avj olmokda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad qo'shma mulkning shakllanish jarayoniga chetdan yirik kapitallarni jalb etish, uni miqdori va hajmini kengaytirish yo'li bilan yangi tarmoqpar barpo etish, zamonaviy texnologiyani qo'llash kabi hajmli sarmoyalarga bog'liq masalalarni muvaffaqiyatli bajarishni tezlashtirishdir.

Keyingi vaqtlarda tashkilotlar mulkining mavqei ham oshmoqtsa. Chunki, ularning xo'jalik — tijorat faoliyatlarining o'sishi mulkni badal puli chegarasidan allaqachon chiqarib yubordi. Bular turli partiyalar, kasaba va yoshlar uyushmalari, turli fondlar kabilarning mulklaridir.

**Diniy tashkilotlarning** ham mulklari mavjud. Bu faqat diniy bino va inshoatlar bilan cheklanmay, balki xo'jalik faoliyati imkon tug'dirgan jamg'armalar, turli marosimlardan tushadigan mablag'lar hisobiga ortib boradi. Ular oddiy xo'jalik faoliyati bilan birga katta qurilish ishlari va boshqa kapital xarajatlarni bajarib boradilar. Bu mulk faqat diniy yo'lda qo'llaniladi va ishlatiladi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

**Hissadorlik mulk** bu turkumdagi eng salmog'li va ta'sirli shakl bo'lib, keng tarqalgandir. Bu ham aslida birlashgan mulk bo'lib, aktsiya chiqarishga asoslangandir. Bu aktsiyalar erkin harakatda bo'ladi, qimmatbaho qog'ozlar qatorida savdoda ishtirok etadi va sotiladi, sotib olinadi. Aktsiyaga ega bo'lganlar shu asosdagi mulkning qatnashchilari hisoblanadilar. Korxonalarning faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar. Aktsiyalar uchun korxonalar faoliyatlari natijasiga qarab daromad oladilar. Bu mulkda ishtirok etish ixtiyoriydir. Chunki, istagan vaqtda aktsiyani sotib olish yoki sotib yuborish mumkin.

Umuman, bozor iqtisodiyotining rivojlanishida bu xil mulkning ta'siri katta. Chunki, hissadorlik jamiyatlari juda yirik bo'lib, ular juda katta hajmdagi mulkni birlashtiradilar. Shu bilan birga aktsioner mulkda davlatlarning ishtiroki katta bo'lishi mumkin. Aytaylik, hozirgi bozorga o'tish davrida O'zbekistonda asosiy sanoat korxonalari aktsionerlashganiga qaramay, ulardagi mulkning asosiy qismi davlat mulkidan tarkib topgan. Sanoat, savdo, transport va qurilishda paydo bo'lgan yirik hissadorlik korxonalar mulklarida davlat qismi yuqoridir.

Bundan tashqari hissadorlik mulk boshqa mamlakatlar mulklari ishtirokida yuzaga kelishi mumkin. Jahonda xalqaro hissadorlik jamiyatlari ko'p. Masalan, transmilliy kontsernlar xuddi shunday mulkni tashkil etadilar.

**Xalq korxona mulki.** Bu shakldagi mulk hissador mulkdan kelib chiqadi. Chunki aktsiyalar egalari korxonada ish-laydilar. Shuning uchun ular ayni vaqtda korxonaning mulkdori huquqiga ega bo'ladilar. Bu korxonalar faoliyatiga aktsiyaga ega bo'lgan xodimlar ham qatnashuv huquqini qo'lga kiritadilar. Natijada hissadorlik korxona daromadidan shu hissadorlar manfaatdor bo'ladilar. Masalan, AQShni xalq kapitali mamlakati deydilar. Chunki, aktsiyaga ega bo'lgan xodimlar korxonalarda ko'pchilikni tashkil etadi. 1994 yilda xalq korxonalarida 11 mln. dan ortiq kishi ishlagan va aktsiyalarning 20 foizdan 51% foizigachasi ishlovchilarning birgalikdagi mulkidan iborat bo'lgan. U erda xalq korxonalari deb ataluvchi xo'jaliklar miqdori ortib bormoqda. Bunday holatda, albatta, ekspluatatsiya mazmuni o'zgaradi va mehnatga erkli munosabat asos bo'lib hisoblanadi.

Mulk shakllarining mohiyati va mazmuni bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti uchun barcha mulk shakllari ahamiyatli bo'lib, har biri o'ziga xos ustunlikka egadir. Aytish mumkinki, har bir mulk shakli bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy bo'lib, ular umumiy taraqqiyot jarayonida bir-birini to'ldirib boradi. Shuning uchun xam bozor munosabatlari sharoitida mulk shakllarining turliligi va har bir mavjud shaklining taraqqiy etib borishi talab etiladi. Bu jarayon erkin raqobat sharoitida amalga oshishi kerak.

## Qisqacha xulosalar

Mulk modiy va boshqa boyliklardan foydalanish sharoitlari, munosabatlari, egalik qilish, o'zlashtirish mazmunini o'z ichiga olib iqtisodiy faoliyatda namoyon bo'ladi.

Har bir davlat o'z mulkini tashkil etadi.

Xususiy mulk indivudial va koperatir shakilda bo'ladi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mulk shakllarini aytib bering.
2. Davlat mulki nima?.
3. Xususiy mulk nima?.
4. Jamoa mulkiga nimalar kiradi?.

## Asosiy adabiyotlar


1. I.A. Karimov. O'zbekiston – bozor munosabatlarga o'tishining o'ziga xos yo'li. - T.: O'zbekiston, 1993.
2. AO'zbekiston Respublikasini majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasi ikkinchi yig'ilishda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi 23 yanvar 2000y.
3. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
4. Основные показатели деятельности микрофирм за 2003 год: Статистический бюллетень. Т.3 /Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. - Т., 2004.-114 с. 1 экз.
5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qullanma /A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
6. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз..
7. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
8. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
9. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# X-MAVZU. DAVLAT MULKINI XUSUSIYLAShTIRISh

**10.1. Davlat mulkini xususiylashtirish**
**10.2. Xususiylashtirishni amalga oshirish**

## 10.1. Davlat mulkini xususiylashtirish

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlani-shida mulk shakllarining turliligi va xususiy mulkning asosiyligini ta'minlash davlat mulkini xususiylashtirish, uning monopol holatini bartaraf etishni muhim masala qilib qo'yadi. Chunki, nobozorcha boshqarish usuli o'rniga bozorcha xo'jalik yuritishni o'rnatish, raqobatbop xo'jalik turlarini yaratish asosiy muammolardandir. Davlat mulkini xususiylashtirish (privatizatsiya) umumiqtisodiy voqelik bo'lib, bozor iqtisodiyoti shakllanishi va rivojining zarur shartidir. Xususiylashtirish iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat mulkiga xususiylik munosabatlarini singdirish kabi erkin, iqtisodiy sharoitga bog'liq chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

Privatizatsiya davlat iqtisodiy monopolligini bitirish va o'rniga bozorga xos bo'lgan mulk erkinligini ta'minlashga qaratilgan. Chunki, bunda davlat mulki hukmronligi o'rniga asta-sekinlik bilan nodavlat, birinchi navbatda, xususiy mulk shakllarini o'rnatib borish yuz beradi. Agarda biz xususiy mulk shakllarini yaratish va bozorga o'tish sharoitlarini paydo etish uchun davlat mulkini xususiylahtirayotgan bo'lsak, rivoj topgan mamlakatlarda bozor iqtisodi rivoji sohasida katta tajriba orttirib, bozor taraqqiyotini takomillashtirish va shu sohada davlat va bozor tizimlari o'rtasidagi muvozanatni zamonaviylashtirish amalga oshmoqda. Bu ham tub mazmuni bilan monopollashuvga qarshi kurash, raqobatli bozorni kuchaytirish bilan bog'liq. Shuning uchun bizdagi va g'arbdagi xususiylashtirishni bir xil deb bo'lmaydi. Bizning sharoitimizdagi bu jarayon o'tish davri vazifasini bajarish va bozor iqtisodiga asos solish bilan bog'langan bo'lsa, g'arbdagisi bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini ta'minlash hamda navbatdagi davlat va raqobat bozori o'rtasidagi balansni ta'minlashdan iborat.

Mulkiy munosabatlarning umumiy va xususiy tomon-lari mavjud bo'lganidek, xususiylashtirishning ham umumiy qonuniyat va talablari hamda milliy, ommaviy xususiyatlari mavjuddir. Keyingi yillarda iqtisodiyotni nodavlatlashtirish jarayoni sharoitida **nog'oyaviylashtirish kuchaymoqda.** Chunki, faqat xususiylik tarafdorlari bo'lganlar yoki davlat iqtisodiyoti tarafdorlari bo'lganlar kamayib, o'z ahamiyatlarini yo'qotmoqdalar. Aytaylik, Buyuk Britaniyaning yirik neft kompaniyasi bo'lgan "British petrolium"ni konservatorlar emas, balki leyborist demokratlar xususiylashtirishdi. Shvetsiyada ham sotsial-demokratlar xuddi shunday qilishdi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Nodavlatlashtirish faqat xususiylashtirishdan iborat emas. Buning yo'l va usullari ko'p bo'lib, iqtisodiy ahvol, kuchlar muvozanati, hozirgi holat kabilarni hisobga olgan holda qulay usullardan foydalanish talab etiladi.

G'arb davlatlari tajribasiga ko'ra iqtisodiyotning no-davlatlashtirish usullaridan to'rt xilini samarali deb tanlasa bo'ladi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Albatta bu usullarni O'zbekiston uchun to'g'ri keladi deb bo'lmaydi. Lekin ulardan foydalanish mumkin. Shunga ko'ra bularni tahlil etish foydadan xoli emas, deb o'ylaymiz va quyidagilarni xulosa sifatida keltiramiz:

**1. Bozorni liberallashtirish.** Bu baholar erkinligiga o'tish bilan birga, raqiblarni bozorda ko'paytirish choralarini qo'llash, kichik biznesni kuchaytirish, chet tovarlarni ko'proq keltirish sharoitlarini kengaytirish kabilar bozorni o'zidan-o'zi privatizatsiyasiz nodavlatlashtirib, kengaytiradi va talabni qondirish darajasini ko'taradi.

**2. Aktsionerli davlat — shaxsiy korxonalar yaratish,** ularning faoliyat sohasini kengaytirish. Bunda davlatning aktsiyali kapitaldagi hissasini pasaytirib borishga qaratilgan soliq, kredit kabi mexanizmlar mavjud.

3. Davlat iqtisodiyotiga xos **nobozor muhitni ketmaket yo'q qiluvchi nodavlatlashtirish usullari.** Bular byudjet hisobiga korxonalarning shini yaxshilash, davlat buyurtmasini qisqartirish, kredit qarzlardan voz kechmaslik, xususiy investitsiya sharoitlarini davlat korxonalariga tatbiq etishlardan iboratdir. Bu bozor munosabatlariga yo'l ochadi.

## 10.2. Xususiylashtirishni amalga oshirish

Agar xususiylashtirish keng qo'llanilsa ayrim shaxslar, sotiladigan kor-xonalar, bank, yangi hissadorlik jamiyatlar, chet firmalarning jamoa a'zolari mulkdorlar qatoriga qo'shilib boradilar va Z-jadvalda iqtisodiyotni nodavlatlashtirish usullari berilgan.

Jadvalda iqtisodiyotning nodavlatlashtirishga xos usullarini ko'rsatuvchi tomonlarni umumlashtirilgan holda ko'rsatishga harakat qildik. Bularni alohida-alohida qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Bu, albatta taraqqiy etgan g'arb mamlakatlar tajribasi asosida tuzilgan. Lekin respublika sharoitlarini hisobga olgan holda bulardan muvaffaqiyatli foydalanish va bu bizning shakllanayotgan bozor iqtisodiyotimiz uchun katta foyda keltirishi mumkin. Bu to'rt usul bozor usuliga o'tgan mamlakatlarga xos bo'lib, ularda privatizatsiya oldindan hal qilingan. O'zbekiston uchun esa hozirgi asosiy vazifa — privatazatsiyani to'la amalga oshirishdir va ayniqsa hududiy mulkni o'rta korxonalarga ham tarqatishdir.

Amalda yuqorida keltirilgan to'rt usul birgalikda olib boriladi. Lekin iqtisodiyotni nodavlatlashtirishda liberallashtirish va xususiylashtirish bir-birini to'ldirib keladi. Chunki, bularning o'ziga xos katta ustuvorliklari mavjud. Liberallashtirishni olsak, u bozor eshiklarini keng ochib qo'yadi. Bunda bozorning ichki tuzilishi o'zgarib boradi va iqtisodiyotning nodavlatlashuviga yordam qiladi hamda monopollashuvni zaiflashtiradi. Xususiylashtirish esa birdaniga bunday o'zgarishlarga olib kelmaydi. Chunki, faqat mulk shakli o'zgaradi, bozorda darrov o'zgarishlar yuz bermaydi va o'sha tovar kamchilligi, monopoliya mavjudligi, tovar sifatining pastligi saqlanib qolaveradi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

3-jadval

**Iqtisodiyotni nodavlatlashtirish usullari**

| № | Usullar | Usulning mazmunn | Usulning mexanizmlari | Nosalbiy tomonlari | Salbiy tomonlari |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Bozorni liberallash tirish | Erkin baholar kiritilishi, raqobatga yo'l ochish, bozor qatnashchilar-ini ko'pay-tirish | Baho,raqobat,privat izatsiyasiz nodavlat-lashuv | Mayda korxo-nalar ko'payi-shi, bozorda taklifning o'sishi, bozor tuzilishining o'zgarishi | Bahoning ko'-tarilib bo-rishi |
| 2 | Davlat shax-siy aktsio-ierli kor-xonalarni yaratish | Aktsioner ka-pitalida dav-lat hissasini kamaygirish | Soliq, kredit | Mulkchilar ko'payadi, er-kin iqtiso-diy faoliyat o'sadi | Tabaqalashuv kuchayadi |
| 3 | Davlat iq-tisodiyo-tiga xos nobozor usullarni ketma-ket yo'q qi-lish | Davlat kor-xonalarida bozor muno-sabatlarini qo'llash | Byudjet, kre-dit, xususiy investitsiya-lardan foy-dalanish | Davlat buyurt-malarini qis-qartirish, korxonalar faoliyatini yaxshilash | O'tish bi-lan bog'liq ishlab chi-qarishning vaqtincha qisqarishi |
| 4 | Xususiylashtirish | Davlat mul-kini xususiy-lashtarish | Auktsion, ak-tsiyalar sota-lish, tekin-ga mulkni tarqatish | Mulk egasini topadi, uning samarador-ligi oshadi | Ta'siri ma'lum vaqt O'tgandan kuchga kiradi, katga o'zga-rishlarni talab etadi |

Lekin xususiylashtirishning ijobiy tomoni shuki, u mulkning real — xaqiqiy egasini topadi. Bilamizki, mulk egasini topmaguncha samaradorlik bo'lmaydi. Demak, bozor mexanizmlari ishga tusha boshlaydi, ishlab chiqarish o'sib, taklif kuchaya boradi.

Rivoj topgan mamlakatlarda xususiylashtirish moliya bozoriga ta'sir etadi, natijada sotiladigan aktsiyalar ko'payishi bilan taklif ortadi. Bu hech qanday xarajatlar bilan borliq bo'lmaydi va iste'mol buyumlariga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Foydali bo'lgani uchun fuqarolar xursandlik bilan davlat mulki-ning sotilishida faol qatnashadilar. Inflyatsiyaga qar-shi ta'sir kuchli bo'ladi. Daromadlarning bir qismi ak-tsiyalar sotib olishga sarflanganligi sababli tovar va xizmatlar bozorida talab pasayadi. Angliya, Frantsiyaga o'xshagan mamlakatlarda privatizatsiya jarayonida xuddi shunday voqelik yuz bergan.

Rossiyada axvol boshqacha bo'lib, xususiylashtirish cheklari chiqarildi, bu



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

ijtimoiy-siyosiy muvozanatga ancha yordam berdi.

Xususiylashtirishning muvaffaqiyati uchun bir nechta shartlarni bajarish talab etiladi.

1. Mulkning taqdirini belgilashda, imkoni bo'lsa privatizatsiyalashtiriladi. Bunda nohaqlik, nazoratsizlik yuz bermasligi uchun, avvalo davlat mulki sub'ektlarining to'la aniqligi talab etiladi.

2. Privatizatsiya iqtisodiyotning bozor potentsiallarini tezda ishga solishi uchun kapitallar harakatini ta'minlash, ularning tarmoqlararo va sohalararo siljish yo'llarini ochish talab etiladi.

3. Sotiladigan aktsiyalarning oldindan ma'lum bo'lishi. Rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon xaqiqiy bozor usulida erkin tarzda bo'lmaydi. Masalan, Frantsiyada sotiladigan korxonalar aktsiyalarining 10 foizi korxona xodimlariga past bahoda sotiladi, 15 foizi chet elliklarga, 50 foizi Frantsiya fuqarolariga va bank, muassasa, korxonalar, fondlarga, qolgan 25 foizi esa yirik moliya institutlariga sotiladi. Germaniyada esa davlat o'ziga 51 yoki 25 foizini qoldiradi.

4. Xususiylashtirishning oxirigacha amalga oshishini ta'minlash uchun mulkning biri xususiylashtirilib, ikkinchisini byurokrat apparat qo'lida qolishiga yo'l qo'yilmaslik kerak.

Yuqoridagi shartlar bajarilsa, xususiylashtirish muvaffaqiyatli o'tadi. Masalan, Germaniyada bu qiyinlik bilan ko'chdi. Chunki, mahalliy hokimiyatlarning huquqlari katta. Angliyada "British Genekom"ni privatizatsiya qilish natijasida 2,25 mln. kishi sherik mulkdor bo'lishdi. Bu, korporatsiyaning 96 foizi xodimlariga teng, degan so'z.

Davlat xususiylashtirishni kengaytirar ekan, demak u o'z faoliyatini bozor iqtisodiyoti talabiga moslashtirish, uning rivojini kuchaytirish va talab tomon to'la harakatda bo'lish, iste'molchilar uchun zarur tovarlar bi-lan bozorni to'ldirishni ko'zda tutadi. Privatizatsiya ishlab chiqarish samaradorligi va aholining yuqori darajali turmushini ta'minlash uchun bo'lgan harakatdan iboratdir.

O'zbekistonda raqobat bozoriga xos erkin iqtisodiyotni shakllantirishda albatta xususiylashtirish muxim asos bo'lib, u tezlashtirilishi kerak. Ammo yuqoridagi shartlar-ni e'tiborga olish va sharoitga qarab yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullardan foydalanishni esdan chiqarmaslik shart. Xususiylashtirishni iqtisodni liberallashtirish bilan bog'liq holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki, liberallashtirish bevosita bozorni kengaytiradi, ya'ni bu jarayonga hoziroq ta'sir ko'rsatib, tezda samara bera boshlaydi.

Respublikamizda baho liberalligi amalga oshdi va o'z samarasini bermoqda, boj sohasidagi amaliy ishlar chet tovarlarining ichki bozorimizda o'z o'rnini kengaytirmoqda. Pul-kredit sohasidagi ishlar, milliy pulning mustahkamlanishi kabilar bozor munosabatlariga o'tishni tezlashtirmoqda.

Lekin xususiylashtirish sohasida ham bir qancha ishlar bajarilib, bunda davlat katta tashabbuskorlik qilmoqda. Pulli, pulsiz va imtiyozli usullar keng qo'llanilmoqda. Aytaylik, turar joylarni xususiylashtirish juda tez vaqt ichida keng



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

miqyosda o'tkazildi. Bunda imtiyozli usul qo'llanilib, uy-joylar arzon bahoda kam pul hisobiga O'zbekiston fuqarolarining xususiy mulkiga aylantirildi. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, avvalo mayda va o'rta, so'ngra katta savdo korxonalari ham xususiylashtirildi. Bunda xizmatchilarga imtiyozli sharoitlar yaratib berildi.

Auktsion yo'li bilan kim oshdi savdosi orqali nodavlatlashtirish ham qo'llanilib, bu asosan viloyat va tumanlar hududlarida o'tkazilmoqtsa. Tez vaqt ichida davlat sanoat, qurilish, transport korxonalarini aktsionerlashtirish tufayli mulkchilarning soni ancha kupaytirildi. Bunda korxona xizmatchi va ishchilariga ustuvorrlik xuquqi berilib, avvalo ular cheklangan aktsionerpshk korxonalariga ay-lantira boshlandi.

O'zbekistonda ham xususiylashtirishda chet el kapitali qatnashib, mulk sotib olishi mumkin. Bu mulk tur-liligi sharoitini yaratishda ahamiyatlidir. Xususiylashtirishning tezlik bilan olib borilishi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ming-minglab xususiy korxonalar paydo bo'lmoqda. Ularning soni 2003 yilga kelib mingdan oshib ketdi.

Xususiylashtirish natijasida davlat monopoliyasiga barham berilmoqda, nodavlat mulkning barcha shakllari rivojlanmoqtsa. Xususiy mulkchi ishlab chiqaruvchilarning mikdori borgan sari ko'payib, erkin iqgisodiy harakat sharoitini yaratuvchilarga raqobat uchun qadam tashlanmokda. Natijada mulk egasini topib, undan foydalanish samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish sari siljish tezlashmoqda.

## Qisqacha xulosalar

Mulkiy munosabatlarning umumiy va xususiy tomonlari mavjud bo'lganidek, xususiylashtirishning ham umumiy qonuniyat va talablari hamda milliy, ommaviy xususiyatlari mavjuddir.

Xususiylashtirish keng ma'noda iqtisodiyotni nodavlatlashtirish usulidir.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mulk munosabatlari va mulkchilikni qanday tushunasiz?
2. YAkka mulkchilik va turli mulkchilik mazmunini tushuntirib bering.
3. Mulk turlari va shakllarini qanday tushunasiz? Har bir mulk shaklining bozor uchun ahamiyatini ochib bera olasizmi?
4. Nima uchun korporativ mulk va aktsiyadorlashgan mulk bir-biriga o'xshashligiga qaramasdan boshqa-boshqa mulk shakli bo'lib hisoblanadi?
5. Xususiy mulk va uning ko'rinishlari bozor rivoji uchun alohida ahamiyat kasb etishining siri nimada?
6. Xalq korxona mulkining mohiyatini ochib bering.
7. Xususiylashtirishning mazmunini to'laroq qilib tushuntirib bering.
8. O'zbekistonda xususiylashtirishning amalga oshuvi haqida nimalar bilasiz?
9. Umuman O'zbekistonda xususiylashtirishga qanday baxo berasiz?



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

10. O'z viloyat va tumaningizda xususiylashtirish jarayonini misollar bilan tahlil etib bering.

## Asosiy adabiyotlar


1. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qullanma /A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
2. Югай Л.П. Акционирование предприятий: Учебное пособие /Л.П.Югай, Э.Х. Махмудов. - Т.: ТГЭУ, 2004.-144с. 5 экз.
3. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз..
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
5. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
6. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
7. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# XI-MAVZU. PUL

**11.1. Pul va pul tushunchasi**
**11.2. Pul va inflyatsiya**
**11.3. Pul qiymat o'lchovi va jamg'arma vositasi**

## 11.1. Pul va pul tushunchasi

**Pulning kelib chiqishi.** Moliya, kredit va banklarning paydo bo'lishi va ularning faoliyati negizida pul yotadi. Pul inson kashfiyoti bo'lib, u juda qadimdan ma'lum. Pulning taqdiri ayirboshlashga borib taqaladi. Insonning yana bir muhim kashfiyoti bo'lgan ayirboshlash va uning rivoji pulni yuzaga keltirgan.

Pul birdaniga hozirgi shakliga aylangani yo'q. Bu uzoq davom etgan taraqqiyot natijasidir. Ayirboshlash boshida bevosita tarzda amalga oshgan, ya'ni tovar bevosita tovarga almashilgan. Bu jarayon kengayishi bilan vositachilik zaruriyati tug'iladi, uning oddiy shakllari murakkablashib, pulning va uning hozirgi holatining paydo bo'lishiga olib keladi.

Tarixda pul vazifasini sharoitga qarab turli tovarlar (masalan, tuz, asal, quritilgan baliq, sadaf, mo'yna kabilar) bajargan. Kengroq tarqalgani chorva bo'lgan. Lotinlarda pul "pessiya" deb atalib, chorva so'zidan olingan. Kapital "kapit" so'zidan olinib, bu ham lotincha chorva boshi degan mazmunni bildiradi. Tarixda halqasimon katta-kichik toshlar, bug'doy, un, choy, fil suyagi pul o'rnida ishatilganligi ma'lum.

Pulning paydo bo'lishidagi keyingi davr metall pullar bo'lib, bunda kumush va oltin etakchilik qilgan. Aytaylik, Buyuk Britaniya pul birligi funt sterlingning ma'nosi bir funt kumushni anglatadi. Rossiya pul birligi rubl kumushning bo'lagi, bo'lingan qismi ma'nosini bildiradi. Dollar va taller ham "tahler", ya'ni katta kumush tangalar degan ma'noni beradi.

Pulning eng keyingi ko'rinishi qog'oz pullar bo'lib, buning ham tarixi katta. Bundan oldin monetalar yuzaga keladi. Bu metall pullar bo'lagi bo'lib, mis, bronza, kumush, oltin monetalar bosilib chiqarilgan. Moneta so'zi yunonlarning monastir nomidan kelib chiqib, bunda tangalar yasalgan. Moneta tangalar barcha mamlakatlarga tarqalib ketgan. Tanga — monetaning paydo bo'lishi savdoda mayda pul zarurligidan kelib chiqadi. Moneta — og'irligi belgilangan, qadri muhrlangan metall bo'lagidir.

Uzoq vaqtgacha, hatto XX asrgacha, oltin pul vazifasini bajarib, xaqiqiy pul hisoblangan. Bunda oltinning noyobligi, qadrliligi va boshqa ko'p qulayliklar yaratadigan tabiiy xususiyatlarining ta'siri katta. Lekin uning pulga aylanishining asosiy sababi tovar ekanligi, zarur qiymatga ega bo'lishidadir. Ko'p vaqtgacha oltinning vakili sifatida qog'oz pullar kuchga ega bo'lgan. Kog'oz pullar monetalar o'rniga chiqarilgan. qogoz pullar birinchi marta qadamgi Xitoyda 1X asrda muomalada qo'llanilgan. So'ngra boshqa mamlakatlarda ham asta-sekin paydo bo'la boshlagan va hozir barcha mamlakatlarda qog'oz pullar asosiy pul bo'lib qoldi. Muomalada oltin pullar bo'lgan mamlakatning o'zi qolmadi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

**Pulning mohiyati.** Har bir mamlakat o'zining puliga egadir. Chunonchi, dollar, funt sterling bir necha mamlakatlarning puli bo'lib xizmat qiladi. Lekin ularning qadri-qiymati bir xil emas. AQSh, Kanada, Avstraliya dollarining qiymat miqdori farqlanadi. Shuningdek, O'zbekiston va Qirg'iziston so'mlari ham bir xil emas. Pul birliklari paydo bo'lganda ma'lum miqdordaga qadr-qiymat asos qilib belgilangan. Milliy pullarning qadrliligi, boshqa pullarga nisbatan qiyosiy miqdori doimo o'zgarib turadi. Chunki, bu iqtisodiyotdagi ko'p tomonlar, hatto siyosiy o'zgarishlar, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar kabi ta'sirlar natijasidir.

O'zbekistonning o'z milliy puliga ega bo'lishi davlat mustaqilligi, uning mustahkam iqtisodiyotini yaratishda katta o'rin egallaydi. Milliy pulimiz bo'lgan so'mning qadrini oshirib borish, uning iqtisodiy ta'sirini kuchaytirishga erishish va boshqa mamlakatlar puliga tenglashtirish darajasini ta'minlash juda zarur va muhim vazifadir.

So'mning, avvalo mamlakatimiz ichida, so'ngra xalqaro miqyosdagi tenglashuvi, almashuvchanligi (konvertatsiyasi)ni amalga oshirish talab qilinadi. Bu osonlikcha o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Bunga avvalo, ayirboshlashni rivojlantirish, tovar-pul muomalasini kuchaytirish orqali erishish mumkin. Chunki, pul ayirboshlashdan kelib chiqadi va uning taraqqiyoti tufayli rivojlana oladi. Ayirboshlash esa bozorni tovarlar, xizmatlarga to'ydirish orqali tezlashadi. Bular iqtisodiyotning qudratli bo'lishi, ishlab chiqarishning industrlashtirilgan darajadagi rivoji tufayli amalga oshishi mumkin.

Demak, milliy pul qudrati iqtisodiy taraqqiyotning ifodasi, uning natijasi va hosilasidir.

Qog'oz pullarning nominali (qadrliligi)ni xaqiqiy pul o'rniga chiqaradigan hukmron saltanat yoki bankir o'z imzo va muhrlari bilan tasdiqlaydi va zarur vaqtda uning asosidagi pulni qaytarish majburiyatini oladi. Bora-bora bu vazifa markaziy banklar qo'liga o'tadi. Pul emissiyasiga yo'l qo'ymaslik zarur shart hisoblanadi. Chunki, emissiya real qiymatlarga ega bo'lmagan qo'shimcha pul belgilarining chiqarilishini bildiradi. Shuning uchun o'z vaqtida banknotlarning oltinga erkin almashinishi kafolatlangan edi. Hozir unday emas.

Nima uchun bozor iqtisodiyotida pulning ta'siri katta va barcha ishtirokchilar imkoni boricha ko'p pulga ega bo'lishga, tovarlarini tezda pulga aylantirishga urinadilar? Pul ijtimoiy mehnatni ifodalaydi, u qiymat timsoli, ya'ni pul o'zida qiymat miqdorini ifodalaydi. Shunga ko'ra pul maxsus tovar hisoblanadi. Pulga ega bo'linsa, mikdoriga qarab istalgan vaqtda xohlagan tovarga yoki tovarlashgan xizmatga ega bo'lish imkoni mavjud.

**Pul muomalasi.** Pul o'z xususiyatiga ko'ra, avvalo muomala vositasidir, ya'ni tovarlarni bir-biriga almashtirish pul vositasida amalga oshadi. Chunki, tovar egasi bo'lgan sotuvchi xaridorga tovarni sotib, tovarning qiymatini pul sifatida oladi. Shuning uchun talab bilan taklifni bir-biriga pul ulaydi va ularning uzilishiga barham beruvchi bo'lib hisoblanadi.

Tovarlarning siljishi, harakat tezligi, bir-biriga yaqinlashuvi pul vositasida amalga oshadi, deyish mumkin. Ayirboshlashning eng yuqori pog'onasi bo'lgan muomala mazmunan pul tufayli yuzaga keladi. Tovar-pul mu-omalasi esa bozor



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

sharoitining asosidir. Demak, bundan pul va pul muomalasining bozor iqtisodiyoti rivojidagi o'rnini baholash qiyin emas.

Mamlakat iqtisodiyotining muvozanati, uning muomalasini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul talab qilinadi. Buni aniqlashda bir necha tomonlarga e'tibor berish zarur. To'lovlar naqd yoki naqd pulsiz bo'lishi mumkin. Agarda tovarning xaqi bevosita pul to'lovi orqali amalga oshsa, buni naqd pul asosidagi oldi-sotdi deyiladi. Basharti bevosita pul to'lovisiz oldi-sotdi yuz bersa, bunday oldi-sotdi pulsiz to'lov deyiladi. Asosan banklar orqali pul o'tkazuv shu usulga kiradi. Shuning uchun ham zaruriy pul miqdorini belgilashda bunday voqelik e'tiborga olinadi. Chunki, u bevosita pul zaruriyati darajasiga ta'sir etadi.

Bundan tashqari zarur pul miqdorini aniqlashda pul harakati tezligi ahamiyatlidir. Bu pul birligining yil ichida necha marta qo'ldan-qo'lga o'tib, tovar egalarining o'zgarishidagi ishtiroki darajasiga bog'liqdir, ya'ni pul qancha ko'p "ishlasa" — tovarlar, xizmatlarning oldi-sotdisida ko'p qatnashsa, shuncha tez harakat qilganligi aniqlanadi. Masalan, bir yilda shartli ravishda 100 mln so'm tovar, xizmatlar sotilishi 10 mln so'm pul tufayli amalga oshgan bo'lsa, har bir so'm yiliga o'rtacha 10 marta aylanib, o'z harakat tezligi darajasini belgilaydi (V).

Shunga asoslangan holda normal muomala uchun zarur pul miqdorini belgilash mumkin bo'ladiki, bu ayirboshlashni tenglashtirishga yordam beradi.

Mamlakat muomalasi uchun zarur pul miqdorini — M, sotiladigan tovar, xizmatlar bahosining o'rtacha darajasini — R, yil ichida sotiladigan tovar, xizmatlar umumiy hajmini Q, pul harakati tezligini — V bilan belgilasak, unda quyidagi tenglikka ega bo'lamiz: Pul miqdori

$$M = RQV$$

Demak, mamlakatda qancha pul ko'p bo'lsa mamlakat shuncha boy va yaxshi holatda bo'ladi deyish, noto'g'ridir. Chunki, pul ortiqchaligi ham, etishmovchiligi ham yaxshi emas, ya'ni pul hajmi ixtiyoriy bo'lmaydi. Aytaylik, ishlab chiqarish o'zgarmay, narxlar ko'tarilsa, albatta qo'shimcha pul miqdori talab etiladi yoki pul harakati tezlashib, ishlab chiqarish hajmi va baholar o'zgarmagan holda pul kam miqdorda talab etiladi. Aytish mumkinki, gap pulning umuman, ko'p-ozligida emas, balki u ifoda etadigan boyliklar hajmidadir.

## 11.2. Pul va inflyatsiya

Zarur pul miqdori bilan mavjud miqdor o'rtasida farq katta bo'lsa, u iqtisodiyotda salbiy oqibatlarga, chunonchi inflyatsiyaga olib keladi. Chunki, muomalada pul ko'p bo'lib, ortiqchalik darajasi ko'tarilib borsa inflyatsiya ro'y beradi. Bunday holat iqtisodiyotni tebrantiradi, aholi turmush darajasini pasaytiradi. Giperinflyatsiya, qimmatchilik, qashshoqlanish kuchayadi va umuman iqtisodiyot izdan chiqadi.

Inflyatsiya mamlakatda bahoning umumiy darajasining ko'tarilishi jarayonidan iborat bo'lib, ilgari buning sababini qog'oz pullardan axtarishar edi. Lekin pul



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

chiqarish qattiq nazorat ostiga olinganda ham inflyatsiya holati mavjudligi aniqlangan, ya'ni gap faqat davlatning pul chop etishi imkoniyati mavjudligida emas ekan. Uning sabablari ko'p va ular bir necha xil ko'rinishda bo'ladi. Iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarish tuzilishining keng hajmdagi o'zgarishi, umuman, bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o'tish kabi o'zgarishlar albatta inflyatsiya bilan bog'liq bo'ladi. Chunki, bunday holatlar talab va taklif muvozanatining o'zgarishi, pulga bo'lgan ishonchning pasayishi, narx-navoning tezlik bilan o'zgarishi, aksar hollarda uning ko'tarilib borishi natijasida yuz beradi.

Buning ikki tomoni ta'sirlidir: birinchisi talab **inflyatsiyasi** bo'lsa, ikkinchisi **xarajatlar inflyatsiyasidir.** Tijorat, firmalar, hukumat yuzaga keladigan zaruriyatlar tufayli ishlab chiqariladigan tovarlarga nisbatan ko'proq pul sarf etadi. Bu taklifga nisbatan talabning o'sishiga olib kelib, o'z navbatida, baholarning ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Xarajat inflyatsiyasi ishlab chiqarish xarajatlarining o'sib borishi vositasidir. Bundagi bahoning o'sishi resurslarga xarajatlarning ortib borishi va buning esa tovarlar bahosida o'z aksini topishi inflyatsiyani kuchaytiradi. Aytaylik, energiya, xomashyo va materiallar qimmatlashuvi xarajatlar inflyatsiyasi sabablaridir. Bunda ish xaqining o'sib borishi, ko'tarilayotgan baholarni oldindan ko'zlab, ishchilarning ish xaqini oshirish uchun urinishlar va shunga o'xshash boshqa harakatlar kuchayadi va bu inflyatsiyada o'z aksini topadi.

Inflyatsiyaning oldini olishda normal tovar-pul muomalasi jarayonini ta'minlash, uning uchun pulning ma'lum miqdorda bo'lishi, uning na ko'p va na oz bo'lishiga qarshi kurash eng ma'qul yo'l. Bu talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi. Baho ko'tarilishining oldini olishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar inflyatsiyaga qarshi qaratilgan harakat hisoblanadi.

## 11.3. Pul qiymat o'lchovi va jamg'arma vositasi

Pulning qiymat o'lchovi va jamg'arish vositasi ekanligi. Pul muomalasi, uning shu vositaga xos xususiyatlari bilan tanishib chiqdik. Pulning ko'rib chiqishimiz zarur bo'lgan keyingi vositasi — **qiymat o'lchovi** ekanligidir. Bu pulning eng asosiy xususiyati bo'lib, tovarlar dunyosi va ularning harakatini ta'minlashda katta o'rin egallaydi. Pulning qiymat o'lchovi xususiyati, ya'ni sotuvchi va xaridor uchun tovarlar qadrini belgilovchi yagona o'lchov birligi vazifasini bajara olishi uning boshqa xususiyatlariga, vositalariga yo'l ochadi. Chunki, u **qiymat o'lchovi bo'lganligi tufayli muomala vositasi bo'la oladi.** Pul paydo bo'lishi bilan tovarlarning bir-biriga taqqoslanishining imkoni tug'iladi. Bunda insonning yana bir ulug' kashfiyoti bo'lgan tovarlarni bir-biriga ularning nisbiy qadrlari tufayli tenglashtirish va puldan yagona o'lchov sifatida foydalanish uchun keng yo'l ochib beriladi.

Tovarlarning nisbiy qadrliligi ayirboshlash tengligi bilan aniqlanib, bu tenglikni sotuvchi o'zi uchun foydali deb hisoblasa, xaridor ham o'zi uchun sotib olish foydali deb hal qiladi. Shundagina oldi-sotdi yuz beradi. Ayirboshlash kengayib borishi bilan tovarlarni bir-biriga bevosita taqqoslab tenglashtirish vazifasi pulga yuklanib, u yagona o'lchov vositasi bo'lib qoladi. Bu ayirbopshashni tubdan



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

o'zgartirib, uning rivojlanishini tezlashtiradi, natijada insonning iqtisodiy istiqboliga katta yo'l ochib beradi. Lekin iqtisodiyotda va uning pul xo'jaligida ishlar yomonlashib borsa, muomala qisqarib, pul qadrsizlanib, o'rniga eskicha bevosita tovarlar almashuvi — barterning kuchayishi yuz beradi. Amaliy hayotimizda bunday misollar ko'p uchraydi, ya'ni pulni o'lchov birligi vazifasidan asta-sekin chetlashtirib, uning o'rnini eng zarur, talabi yuqori tovarlar egallagan.

Qiymat o'lchovidan kelib chiqadigan pulning keyingi xususiyati jamg'arish vositasi ekanligidir. Pul paydo bo'lishi, o'z faoliyati va ta'sirini kengaytira borishi tufayli daromadni saqlash, uning bir qismini zarur vaqtgacha jamg'arib borish imkoni tug'iladi. Shu bilan boylikning bir qismini pul sifatida jamg'arish sharoiti yaratiladi.

Masalan, biron-bir qadrli buyum, ko'proq sarmoya talab etadigan narsa sotib olish maqsadi paydo bo'lsa, albatta pulning bu xususiyati, vositachiligi qo'l keladi. Daromadning bir qismi sarf etilmay saqlanib boriladi va kerakli hajmda pul jamg'arilishi bilan katta xarid qilish imkoni tug'iladi. Uy, mashina yoki boshqa shunday katta qimmatli tovarlar sotib olish shular jumlasidandir. Hozir esa, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda bularning hajmi kengayib borib, ko'pchilik ro'zg'or buyumlar, ya'ni mebel, gilam, xolodilnik, televizor, magnitofon va boshqa shunga o'xshash tovarlar qo'shilmoqda.

Pulning bu sohadagi katta ustuvorligi shuki, uni istagan vaqtda va zarur mikdorda ma'qul tovarga aylantirish mumkin. Bu juda qulaydir. qadrli va qimmat buyumlar ham jamg'arma sifatida xizmat qila oladi. Ayniqsa, "o'lmas mollar" qadrlidir. Lekin bularni pulga aylantirish va ayni zarur tovar sotib olish ma'lum vaqtni talab etadi. Pul jamg'armasi esa bu ishning juda oson va tez amalga oshishini ta'minlaydi.

Pulning xususiyatlari tufayli uning bajaradigan vazifalari, muomalasini uyushtirish, pullarni ayirboshlash, saqlash, sotish, moliya va kreditni amalga oshirish kabi iqtisodiy munosabat, aloqalar yuzaga keladi. Bular keyingi mavzu va mulohazalarga yo'l ochib beradi.

## Qisqacha xulosalar

O'zbekistonning o'z miliy puliga ega bo'lishi davlat mustaqilligi, uning mustahkam iqtisodiyotini yaratishda ktta o'rin egallaydi.

Zarur pul miqdori bilan mavjud pul miqdori o'rtasida inflyatsiya yuzaga keladi.

Pul bajarish vazifasiga qarab qiymat o'lchovi va jamg'arma vositasidir.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pul va pul tushunchasi
2. Pul va inflyatsiya
3. Pul qiymat o'lchovi va jamg'arma vositasi
4. Moliya bozorida pulning xususiyati



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Asosiy adabiyotlar


1. I.A. Karimov «O'zbekistan po puti uglubleniya ekonomicheskix reform»O'zbekiston Respublikasnning Prezidseti I.A.Karimovning Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sssiyasi ikkinchi yig'lishida so'zlagan nutqi - T.: «Xalq so'zi» 23 yanvar 2000 yil.
2. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
3. Шуляк П.Н. Финансы предприятия: Учебник.- 5-е изд., перераб. и доп.-М.: Дашков и К, 2004.- 712 с. 1 экз.
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
6. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
7. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
8. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# XII-MAVZU. MOLIYA VA BANK TIZIMI

**12.1. Moliya va uning asoslari**
**12.2. Moliyaning vazifalari**
**12.3. Moliya tizimi**

## 12.1. Moliya va uning asoslari

Moliyaning mohiyati. Bozor iqtisodiyotidagi har qanday faoliyat pul talab qiladi, moliyani yuzaga keltiradi. Umuman moliya xalq xo'jaligidagi pul resurslari bilan bog'langan bo'lib, bunday resurslarni hosil qilish, taqsimlash va ishlatish jarayonlarining shakllanishi tushunchasidan iboratdir. Ma'lumki, ishlab chiqarish iste'moldan oldin taqsimotni talab etadi. Avvalo qiymat shaklidagi taqsimot amalga oshib, mahsulot ana shu qiymatlar hissasiga qarab taqsimlanadi.

Qiymat taqsimoti turli pul resurslarini, fondlarini yuzaga keltiradi. Bular tovarlarga almashinilib, iste'molni shakllantiradi. Umumjamiyat iste'moli davlat tomonidan ta'minlanadi. Buning uchun avvalo resurslar, bir necha xil pul fondlari yuzaga keltiriladi. Aholi ijtimoiy himoyasi, atrof muhitni saqlash, mudofaa, davlat boshqaruvi, nomoddiy sohalarni ta'minlash kabilar shular jumlasidandir. Buning uchun avvalo qiymatlar taqsimoti tufayli zarur pul resurslari tashkil etilib, maxsus pul fondlar yuzaga keladi. Shu pul resurs va fondlarning ishlatilishi tufayli eslatib o'tilgan tarmoq va sohalarning ehtiyoji qondiriladi. Bular davlat tomonidan amalga oshirilib, davlat moliyasining shakllanishi va davlatning moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadi.

Demak, pul shaklidagi moliyaviy fondlar hosil bo'lib, ular moliyaviy resursni tashkil etadi. Moliya mahsulot qiymatining taqsimlanishidir. qiymat taqsimoti mahsulotni ishlatishdan oldingi jarayon bo'lib, u iste'molga atalgandir.

Davlat va nodavlat moliyasi mavjud bo'lib, birinchisi asosan umumjamiyat mohiyatini kasb etsa, ikkinchisi tadbirkorlar, oila, jamoa moliyasidan iboratdir. Moliyaviy munosabatlar va aloqalarning sub'ektlari bo'lib, bularga moliyaviy resurslarni tashkil etish, taqsimlash va ishlatishda ishtirok etuvchi korxona, davlat, tashkilot, muassasa, fuqaro kabilar kiradi. Har bir sub'ekt o'ziga qaratilgan mahsulotlarga teng bo'lgan pul fondlarini tashkil etadi. Bu fondlar turlicha bo'lib, har biri ma'lum maqsadni ko'zlaydi. Masalan, davlat moliyasi davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash, aholini ijtimoiy himoyalash, zahiralar tashkil etish kabilarga sarf etiladi.

Moliya munosabatlarining ob'ekti deganda pul zahiralarini tushunamiz. Albatta bular ma'lum miqdordagi mahsulotlarni o'zida ifoda etishi zarur.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## 12.2. Moliyaning vazifalari

Moliyaning o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lib, bulardan asosiy to'rt xilini ko'rsatish mumkin: taqsimlash, rag'batlantirish, ijtimoiy himoyalash, iqtisodiy axborot vazifalari. Moliyaning vazifalari (funktsiyalari) deganimizda uning xo'jalik faoliyatida mazmunlashuvini, aniq ifodalanishini tushunamiz. Haqiqatan ham qiymatning taqsimlanishi pul fondi va resurslarning ishlatilishi tufayli moliya mahsulotlarni taqsimlash, shaxslar va jamoalarni rag'batlantirish, aholining ijtimoiy himoyalanishini amalga oshirish, iqtisodiy axborot kabilarda o'z aksini topadi.

**Taqsimlash** vazifasi milliy mahsulot, milliy daromadning pul fondlari shakllanishi asosida taqsimlani-shidan iboratdir. Birlamchi va qayta taqsimlash mavjud. Bevosita ishlab chiqarishdagi taqsimlash birlamchidir, bundan keyingi taqsimlanish qayta taqsimlashdan iboratdir. Aytaylik, ish xaqi, foyda, ijtimoiy sug'urta, amortizatsiya kabi fondlarga bo'linish birlamchi taqsimotga kiradi. Soliqlar, turli to'lovlar, maishiy xizmat xaqi kabilar ikkilamchi yoki qayta taqsimlashga kiradi. YAlpi milliy mahsulotni 100 foiz deb olsak, shundan 60 foizi ishlab chiqarishni tiklash, 20 foizi ish xaqi, 15 foizi foyda, 5 foizi ijtimoiy sug'urta fondlari uchun taqsimlanishi mumkin.

Iqtisodiy rag'batlantirish ham avvalo moliyadan, ham pulni taqsimlashdan boshlanadi. Soliq tizimidagi imtiyozlar, to'lovlarda va subsidiyalarda ragbat-lantirish o'z aksini topadi. Boj xaqini kamaytirish, mukofot fondlari tashkil etish va ulardan foydalanish iqtisodiy faollikka undaydi. Bularning biri eksport yoki importni rag'batlantirsa, ikkinchisi bevosita ishlovchi jamoalarni rag'batlantirladi.

**Ijtimoiy himoyalash ham** moliyadan boshlanadi va u orqali amalga oshiriladi. Chunki, u avvalo pul orqali, pul fondlari vositasida bajariladi va u pul tufayli amalga oshiriladi. Ma'lumki, aholi qatlamida muhtoj qismlari ko'p, ya'ni etim bolalar, qariyalar, nogironlar, kamdaromadli oilalar shular jumlasidan bo'lib, ular o'z tirikchiligini yuritishni minimal darajada ta'minlashda ham doimo muhtoj bo'ladilar. Ijtimoiy himoyalash esa shularni moliyaviy ta'minlash, boshqacha aytganda, moliyaviy kafolatlashni talab etadi. Bu asosan davlat yordamida amalga oshadi. Davlat maxsus fondlar tashkil etib, bunday himoyalashni amalga oshirib boradi. Bunga yordamchi sifatida korxona, tashkilot, jamoalar ham shunday fondlar tashkil etadi va aholini ijtimoiy himoyalashda faol ishtirok etadi. Ishsizlik nafaqalari, bolalar uchun nafaqa, nogironlar pensiyasi kabilar bundagi asosiy fondlar hisobiga kiradi.

Bundan tashqari ijtimoiy iste'mol orqali amalga oshadigan fondlar ham mavjud bo'lib, bularga bepul tibbiy xizmat, maorif, atrof muhitni sog'lomlashtirish kabilarni kiritish mumkin. Bulardagi umumiylik ommaviy ijtimoiy kafolatlilikdadir. Inflyatsiya vaqtidagi kompensatsiyalar yoki zararlarni qisman qoplashga jalb etilgan fondlar ham shular jumlasiga kiradi.

**Moliyaviy axborotlarning** iqtisodiyotni boshqarishda, iqtisodiy faoliyatni baholashdagi o'rni katga. Bu moliyaviy yakunlar xususida o'z vaqtida xabarlar berib turish orqali amalga oshadi. Aytaylik, moliyaviy ko'rsatkichlar orqali ishlab chiqarishni kuzatish, moliyaviy fondlar holati bo'yicha xalq xo'jaligi sohalarining muvozanati, bir-birlariga monandligi kabilarni aniqlash imkoni tug'iladi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Moliyaviy axborotda **auditorlik xizmati** ma'lum o'rin egallab, axborotdan foydalanishni yaxshilaydi va tezlashtiradi. Chunki, auditorlik xizmati korxonalar, kompaniyalarning xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tahlil etadi, ekspertizasini bajaradi, xolisona xulosalar chiqaradi va ularni o'z vaqtida etkazib beradi. Ma'lumki, bunday xizmat moliyaviy boshqaruvda ahamiyatlidir.

Moliya vazifalaridan unumli foydalanish iqtisodiy o'sish uchun xizmat qiladi. Moddiy va mehnat resurslari-ning to'g'ri yo'nalishda bo'lishi va ularni samarali sarf-lash moliya faoliyatiga, uning vazifalari reallashuviga bogliq. Ko'rib chiqqanimizdek, takror ishlab chiqarish, iqtisodiy o'sish pul mablag'lari bilan ta'minlanishdan boshlanadi. Shu yo'lda moliya o'z vazifalarini bajarish bilan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni tartibga soladi, samarali xo'jalik faoliyatini rag'batlantiradi. Bularni amalga oshirish moliyaviy vositalar tufayli yuz beradi. Bular qatoriga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari, amortizatsiya, foyda, aktsiya kursi, dividend, soliqlar, sug'urta xaqi, bank xaqi, dotatsiya, subsidiya, kompensatsiya kabilarni kiritish mumkin. Moliyaviy vositalar fondlarda shakllanib **moliya resurslarini** tashkil etadi.

Ana shu resurslar orqali moliyaning ta'siri va harakati amalga oshadi. Aytaylik, amortizatsiya fondi va foy-daning bir qismi investitsiya uchun xizmat qiladi, bularning ko'payish rezervlari ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirish rezervlari demakdir. Agarda bular etarli bo'lmasa, texnika, texnologiyaga sarf etish kamayadi va ishlab chiqarish o'sishi susayadi. Yoki dividendlarni olaylik. Bular yuqori bo'lsa, aktsiya chiqargan kompaniyalar ahvolining yaxshiligidan darak beradi, ularning moliyaviy holati yaxshi bo'lib, aktsiya kursi oshadi, qo'shimcha kapital kelishi, umuman iqtisodiy o'sish tezlashadi.

Moliyaviy resurslarda asosiy o'rinni foyda va milliy boylik tutadi. Bular iqtisodiy o'sish manbaini tashkil etadi. Foyda, sof daromad sifatida investitsiya, turli rezervlar, sug'urta va ijtimoiy fondlarni uyushtirish uchun taqsimlanadi.

Moliyaviy resurslar pul shaklida bo'lganligi tufayli ular moddiy ta'minlanish orqaligina iqtisodiy kuchga ega bo'ladilar. Agarda ularni mahsulot bilan qoplash imkoni bo'lmasa, uning iqtisodiyot uchun, ayniqsa ishlab chiqarish uchun hech qanday ta'siri bo'lmaydi.

Moliyaviy resurslar ikki turga, ya'ni **mikroresurslar va makroresurslarga** bo'linadi. Mikroresurslar markazlashmagan bo'lib, korxona, firma, kompaniya, tashkilot, jamoa uyushmalari, shaxslarning pul resurslaridan iboratdir. Bunga qarzga olingan pullar ham kiradi. Makroresurslar asosan davlat ixtiyoridagi pul resurslaridan iborat bo'lib, umumdavlat miqyosida tashkil etiladi. Bular umuman byudjetda jamg'ariladi. Shu bilan birga boshqa fondlar ham mavjuddir.

Bozor iqtisodiyotida, albatta, mikroresurslar asosiy o'rinni egallaydi. Bozorda erkin iqtasodiy faoliyat sharoitida albatta firma, kontsern, korporatsiya, birlashma, korxona kabilarning moliyasi asos bo'lib hisoblanadi. Lekin bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat moliyasi etakchi o'rinda bo'ladi.

Iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish, moliya resurslarining tashkil topishi asosan uch usulda amalga oshadi: 1) o'zini-o'zi moliyalashtirish, 2) qarz olish (kredit), 3) zaruriy holatlarda davlat ajratgan moliyadan foydalanish. Birinchi usulda



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

pul mablag'lari, resurslari har bir iqtisodiy sub'ekt tomonidan o'z xisobiga shakllanadi. Ikkinchi usulda qarz olish hisobiga moliya resurslari tashkil topadi. Uchinchi usulda davlat byudjeti yoki boshqa umumiy fondlar hisobiga moliyalashtirish zaruriyati tug'ilishi bilan moliya resursi paydo bo'ladi va shu asosdagi sarmoyalar ishga solinadi.

Bozor iqtisodiyoti talabi bo'yicha sarmoya va mablag'larning erkin harakati ta'minlanadi. Bu albatta moliya bozorining rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Moliya bozori milliy va xalqaro miqyosda bo'lib, bunda pul mab-lag'larining erkin harakati shakli tushuniladi. Har qanday bozor shakliga o'xshab, pul bozorining ham ob'ekt va sub'ektlari mavjuddir. Moliya bozorining ob'ektlari asosan qimmatbaho qog'ozlar, pul, qarz pul kabilardir. Aktsiya, obligatsiya, chek, veksel kabilar qimmatbaho qorozlar bozorining ob'ektini tashkil etsa, qarz pullar kredit bozorining ob'ekti hisoblanadi. Moliya bozorida pul egalari va ularga muhtojlar uning sub'ektlari hisoblanadi. Bularning o'rtasidagi bevosita munosabat va oldi-sotdi moliya bozorining mazmunini bildiradi. Bu jarayonda talab va taklif ta'siri hamda erkin baho asos bo'lib xizmat qiladi.

Moliya bozori bo'sh pul mablag'larini jamg'aradi va ma'lum maqsadni mo'ljallagan holda ularni moliyaviy resurslarga aylantiradi. Bu aholi qo'lidagi harakatsiz yotgan pullarni ishga solishda ayniqsa qo'l keladi. Ka-pitalga aylangan pul mablag'larining tarmoqlar o'rtasi-dagi harakatini, ularning sohadan sohaga ko'chishini ta'-minlab, erkin ko'chib yurish, pul resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashda moliya bozorining ta'siri katta. Masalan, kompyuter sanoati tezlik bilan o'sib borar ekan, demak, buning uchun katta mablag' zaruriyati tug'iladi. Buning uchun bu sohaga keng miqyosda pul kapitali darkor. Metallurgiya kengaymasa, hatto qisqarib borsa bundagi pul kapitali erkin holda boshqa tarmoqqa, misolimizdagi kompyuter sanoatiga ko'chishi kerak. Chunki, bu erda talab yuqori, foyda katta, demak, baho ham yuqori, metallurgiya va shunga o'xshash tarmoqlarda esa talab kam, foyda nisbatan past. Bu moliya bozori orqali hal qilinadi. Pul sarmoyalari erkin holda, ya'ni oldi-sotdi tarzida eng zarur tarmoqlar tomon harakat qiladi, pul resurslari bilan ta'minlash normallashtirilib boriladi.

## 12.3. Moliya tizimi

Moliya tizimi deganda jamiyatdagi moliya munosabatlari yig'indisi, ularni ifodalovchi moliya mexanizmlari, vositalari hamda moliya siyosatini tushunish kerak.

Mikroiqtisod va makroiqtisod mavjud bo'lganidek moliya tizimida ham mikromoliya va makromoliya mavjuddir. **Mikromoliya** birlamchi bo'lib, u korxona, firma, jamoa, oila moliyalarini bildiradi. Buning asosida ichki va tashqi moliyaviy, pul bilan bog'langan munosabat aloqalari yotadi. Bunda o'zlari pul topib, o'zlari taqsimlab, o'zlari ishlatadilar.

Mikromoliyadagi ichki aloqalar shu jumladan ichidagi pul taqsimoti va uni ishlatish jarayonini o'z ichiga olsa, tashqi aloqalar pul sarmoyalari bilan aloqador boshqa korxona, firmalar, birjalar, banklar va davlat moliya idoralari bilan bo'lgan munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mikromoliyada xo'jaliklar o'z moliyalarini



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

shakllantiradilar va tashqi moliyaviy majburiyatlarini bajaradilar. Bunday moliya amortizatsiya ajratmasi, iqtisodiy faoliyatdan olingan foyda, korxona sotib olingan bo'lsa, o'z ishchi va xizmatchilaridan tushadigan pul, shuningdek, firma sotgan aktsiya va obligatsiyalardan tushumlar, qarzga olingan pul mablag'lari, davlat subsidiyasi kabilardan tarkib topadi.

Korxona, firma moliyasi albatta, o'z faoliyatlari natijasi bo'lib, avvalo u foyda darajasi va miqdoriga bog'liqdir. Ko'rinib turibdiki, bu xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligining asosidir. Chunki, korxonaning yaxshi ish natijalari o'z hissasining ortib borishi, o'zi ishlab topgan sarmoyalar hisobiga pul resurslarini ko'paytirib o'z ishini o'zi moliyalashtirish darajasida bo'lishi mustaqil ish olib borish, tez rivojlanish imkonini tug'diradi. Moliyaviy qaramlik har bir firma uchun doimo qiyinchilik tug'diradi. Mikromoliyadagi tashqi majburiyatlarni olsak, bular soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, sug'urta pulini to'lash, qarz-kredit hajmiga qarab qarz qismi hamda foizini to'lash kabilarni o'z ichiga oladi. Moliyalashtirishda korxonani rivojlantirish hamda asosiy kapital qismini yangilab borish aylanma kapitaliga qo'shilish bilan bog'liq xarajatlar amalga oshiriladi. Firmani kuchaytirish maqsadida imkoni boricha boshqa firma aktsiyalari va obligatsiyalarini sotib olish, o'z ishchi va xizmatchilarini rag'batlantirish uchun, sarmoyalarni ko'paytirish uchun harakat qilinadi.

Mikromoliyada aktsiya va obligatsiyalarning ta'siri katta bo'lishi mumkin. Aktsiya qimmatbaho qog'oz bo'lib, u korxona kapitalida ishtiroklilikni bildiruvchi hujjatdir. Aktsiya daromad keltiradi. Bu dividend deyiladi. Obligatsiya esa qarzdorlikni bildiruvchi qimmatbaho qog'oz bo'lib, bu ham foiz turida daromad keltiradi.

Keyingi vaqtlarda hissadorlik jamiyatlari ko'payib, aktsiyalarning korxonalar iqtisodiy faoliyatiga ta'siri ortib bormoqda. Aktsiyalar oddiy va imtiyozli bo'ladi. Oddiy aktsiyada dividend foyda darajasiga qarab turli bo'ladi va aktsioner ovoz berish xuquqiga ega bo'ladi. Imtiyozli aktsiyada esa daromad oddindan belgilanib, kafolatlanadi, lekin aktsioner ovoz berish huquqiga ega emas.

Imtiyozli aktsiyalar xaridorgir bo'lib, bozorda uning xaridorlari ko'p, bahosi esa oldi-sotdida belgilanadi. Aktsiyalarning bozor bahosi ularning sotish kursini yuzaga keltiradi. Bozor kursi kotirovka deyilib, u fond birjasida amalga oshiriladi. Aktsiya kursi iqtisodiy, siyosiy va ruhiyat omillariga ega.

Makromoliya asosan davlat moliyasidan iborat. Lekin bunga mavjud ijgimoiy fondlar ham kiradi. Davlat moliyasi uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faoliyatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bu milliy boylik va milliy daromadning bir qismi. Lekin davlat moliyasi uning ixtiyoridagi korxona, tashkilot, muassasalarning moliyasini ham o'z ichiga oladi, ya'ni bunda mikro va makro moliya bir-biriga chatishib ketadi. Aralash iqtisodiyot xususiyatiga ega bo'lgan davlat iqtisodiyotining moliyasi ham bozor va nobozor munosa-batlaridan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham davlat moliyasi tarkibi murakkab bo'lib, davlat byudjeti, uyushtirilgan fondlar, davlat, kredit va korxonalar moliyasi kabilarni o'z ichiga oladi.

O'tgan davr mobaynida bank tizimi iqtisodiyotimizning ustuvor tarmoqlaridan hisoblangan energetika, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, engil va mahalliy sanoatni



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdi.

Jumladan, Buxoro va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlari, Ko'kdumaloq neft koni, kimyo sanoatida "Navoiyazot" Qizilqum fosfor zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo kombinati, YAngiyo'l tsellyuloza-qog'oz fabrikasi, Asaka avtomobil zavodi va unga tutash bo'lgan butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi o'ndan ortiq qo'shma korxona qayta qurilib, ishga tushirildi.




**Moliya tizimi**

Davlat moliyasi daromadlari avvalo, aytganimizdek, milliy daromad va milliy boylik qiymatining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonida paydo bo'ladi. Aniq holda davlat ixtiyoriga tekkan qismi hiso-biga shakllanadi. Buning ichki manbalari soliqlar, zayomlar, emissiyadan iboratdir.

Soliqlar davlat byudjetining manbai bo'lib, xo'jalik faoliyatini rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish vazifalarini bajaradi. Albatta soliqning ob'ekt va sub'ektlari bo'lib, uning normasi, imtiyozliligi ham mavjud.

Davlat zayomlari qarz hisobiga shakllanadi. U korxona, tashkilotlar va fuqarolardan qarz olish hisobiga byudjet kamomadini qoplash maqsadida qo'llaniladi. Ular markaziy, mahalliy bo'lib, muhlati tugagach davlat tomo-nidan sotib olinadi. Emissiya qo'shimcha pullar chiqarish bilan bog'liq bo'lib, qo'shimcha daromaddir, ya'ni o'z xarajatlarini qoplay olmaganda qo'llash mumkin bo'lgan vosita hisoblanadi. Kredit emissiyasi ham bo'ladi. Basharti soliq va zayomlar etarli miqdorda bo'lmasa, emissiyadan foydalanishadi.

Bu manbalardan tashqari davlat moliyasiga uning iqgisodiy faoliyatidan keladigan tushumlar ham kirib, dividend, foiz, ijara haqlari, davlat mulkini sotish kabilardan kelgan daromadlar shular jumlasidandir. Albatta bu va bularga o'xshash daromadlar davlat xarajatlarini qoplash uchun ishlatiladi.

Davlat moliyasining ikkinchi tomoni umumdavlat xarajatlaridir, bular asosan davlat byudjeti orqali amalga oshadi, ya'ni davlatning investitsiya ajratmalari, mudofaa xarajatlari, ijtimoiy ehtiyoj uchun ajratmalar, davlat boshqaruvi kabilarning moliyaviy manbai asosan uning byudjetidir. Davlat byudjeti asosiy xarajatlari-ning to'rt asosiy xili mavjud: 1) ishlab chiqarishni taraqqiy ettirish; 2) davlatga qarashli maorif, sog'liq-ni saqlash, ijtimoiy ta'minot; madaniyat tarmoqlarini pul bilan ta'minlash; 3) mavjud davlat idoralari xarajatlari; 4) mamlakat mudofaasini ta'minlash. Davlat byudjetining daromad qismi, albatta, birinchi navbatda, ana shu to'rt xil xarajatlarni



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

to'la qoplashi zarur.




*Davlat byudjetining asosiy xarajatlari strukturasi*

Byudjet kamomadi bu xarajatlarni qoplay olmasligi bilan bog'langan bo'lib, byudjet taqchilligini yuzaga keltiradi. Bunday ahvol ko'pincha qo'shimcha soliqlar kiritish, emissiyadan foydalanish, zayomlar chiqarish va chet mamlakatlardan qarz olish kabilarga olib keladi. Davlat byudjetining taqchillik holati salbiy holatga o'xshab ko'rinadi. Amalda hamma vaqt ham buni juda xavfli deb bo'lmaydi. Barcha mamlakatlar, hatgo eng rivojlangan mamlakatlar davlat byudjetida ham bunday axvolni uchratish mumkin. Gap taqchillik darajasida va uning xususiyatida-dir. Taqchillik juda katta va uni kamaytirishning iloji bo'lmasa, albatta bu iqtisodiy xavf turg'dirishi mum-kin. Shu bilan birga byudjet iste'mol yo'nalishida bo'lsa va uning kamomadi shu bilan bog'liq bo'lsa, bu ham xatarli. Agarda byudjet taqchilligi iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishi bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish investitsiyasi yuqori darajada bo'lsa, buning qo'rqinchli tomoni yo'q. Chunki, bu xalq xo'jaligining istiqbolli tuzilishini yaratish, samaradorlikni oshirish va umuman, iqtisodiy o'sishni ko'zlagan xarajatlar bo'lib, bu o'zini tezda oqlashi mumkin.

Byudjetdagi muvozanatni ta'minlash va undagi taqchillikni qoplash asosan iqtisodiy rivojlanish, byudjet daromadlarini oshirish tufayli amalga oshiriladi.

Makromoliyaga bevosita davlat moliyasidan tashqari bir qancha fondlar kiradi. Ijtimoiy sug'urta, nafaqa, aholini ish bilan ta'minlash, yo'l qurilishi, tabiatni muhofaza etish, tarixiy yodgorliklarni saqlash, tadbirkorlarga, harbiylarga yordam berish, innovatsiya, korxonalarga yordam (sanatsiya) kabi fondlar shular jumlasidandir.

Bu xildagi moliya fondlarining umumiy xususiyatlari bozor va nobozor munosabatlari mavjudligidadir. Chunki, bunday moliya fondlari harakati, ya'ni ularning shakllanishi, ishlatilishi uchun tijoriy asosda yoki tekin xarajatni qoplash shartsiz amalga oshuvi xususiyatlidir. Aralash iqtisodiyotga xoslik bu fondlarda juda ochiq ifodalanadi.

Bular ichida **sug'urta fondlari** katta o'rin egallaydi. Ma'lumki, sug'urta moliya munosabatlarining bir turidir. Buning daromad manbai sug'urtalangan aholi va xo'jaliklarning pul manbaidan iborat bo'lib, mahsulot qiymati taqsimotida bir qismini sug'urtaga ajratish tufayli pul fondi, sug'urta fondi paydo bo'ladi. Sug'urtalash shu fondni tashkil etish, taqsimlash va ishlatish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urtalash tub mazmuni bilan zararni qoplash maqsadida zarar ehtimoli



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

asosida yuzaga keladi. Sug'urta ob'ekti xilma-xildir. Shunga ko'ra u ikkiga bo'linishi mumkin: mol-mulk sug'urtasi va ijtimoiy sug'urta. Mol-mulkka boylik turlarini sug'urtalash kirsa, ijtimoiy sug'urtaga hayotiy, turmush xotirjamligi kiradi. Tadbirkorlik xavf-xatarini sug'urtalash ham paydo bo'lib, kengaymoqda.

Ijtimoiy sug'urtaning ahamiyati ortib bormoqda, bunga ajratiladigan pul resurslari ko'paymoqda. Buning uch manbai mavjud: davlat, korxona va tashkilot hamda shaxsiy mablag'lar. Bular jamiyat a'zolarining mehnatga yaroqsiz, o'zini ta'minlay olmaydigan qismlari uchun ishlatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida **tibbiy sug'urta** ham kengaymoqda. Bundan maqsad insonlar sog'lig'ini saqlash bo'lib, pirovardida barchaga minimal tibbiy yordam berishni tashkil etish, sug'urtalanganlarning salomatligini ta'minlash bilan bog'iq xarajatlarni qoplashdan iboratdir. Bu sug'urta fondi ham davlat, korxona, firmalarning majburan ajratadigan va fuqarolarning o'z xohishlari bilan ajratadigan pul mablag'laridan tarkib topadi.

**Tadbirkorlik sug'urtasi** tadbirkorning faoliyatini kafolatlashda ahamiyatlidir. Bunda foydani kam olish yoki

olmaslik xavfi, pul tushumining o'z vaqtida bo'lmasligi, savdo-sotiqdagi noxush hodisalar kabilar sug'urtalanadi. Bu sug'urta tadbirkorning ishonch bilan ish boshlashiga yordam qiladi, uni sinish holatidan asraydi, faoliyatiga dalda bo'ladi.

Sug'urtalar ham oldi-sotdi ob'ekti bo'lib, o'z bozorlarini tashkil etadi. Sug'urta resurslaridan kapital sifatida keng foydalaniladi, ayniqsa, ishlab chiqarishga keng jalb etishda qo'l keladi.

Notijorat tashkilot, muassasalar, ya'ni kasaba uyushmalari, ko'ngilli jamiyatlar, partiyalar, yoshlar, xotin-qizlar va faxriylar ittifoqlari, ijodiy uyushmalar, ilmiy-ma'rifiy tashkilotlar kabilarning ham moliyasi mavjud bo'lib, ular ham turli manbalardan yig'iladi. Vaqtincha ortiqcha bo'lgan ulardagi pul mablag'lari tijorat ishlarda qo'llanilishi va moliya bozorida ishtirok etishi mumkin.

Xayriya maqsadida homiylik tufayli yig'ilgan pullar ham o'z moliyasini tashkil etib, yuqorida aytganimizdek, turli jarayonlarda ishtirok etadilar. Bunda maxsus va xayriya fondlari katta o'rin tutadi. Xayriya fondlari ko'ngilli bo'lib, miqdori chegaralanmaydi va faqat savob ishlar uchun xayriya sifatida ishlatiladi. Islom mamlakatlarida vaqf fondi tashkil etilgan. Bunga er, imorat, antikvar, qadrli kitoblar, pul va boshqa boyliklar kiradi. O'zbekistonda shunga o'xshash mahalla, navro'z kabi fondlar mavjud.

Bozor va aralash iqtisodiyot sharoitida, erkin va demokratlashgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda moliyaning turlari, ayniqsa makromoliya turlari, xillari juda ko'p bo'lib, ular pul xususiyatlaridan keng foydalanish imko-nini beradi va iqtisodiy o'sish hamda inson turmushi darajasini ko'tarishda barcha imkoniyatlarni ishga solishga yordam beradi.

## Qisqacha xulosalar

Moddiy va mehnat resurslarining to'g'ri yo'nalishda bo'lishi va ularni samarali sarflanishi moliya faoliyatiga, uning vazifalariga bog'liq holda amalga oshirilmog'i



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

lozim.

Moliyaning vazifalari uning xo'jalik faoliyatida mazmunlashuvidir.

Jamiyatdagi moliya munosabatlari yig'indisi moliya tizimini ifodalaydi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliya va uning asoslarini qanday tushunasiz?
2. Moliyaning qanday vazifalari bor?
3. Moliya tizimi nima?
4. Bozor iqtisodiyotida moliya bozorining o'rni qanday?
5. Moliyaning qanday qismlari mavjud?

## Asosiy adabiyotlar


1. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
2. Самарходжаев Б.Б. Инвестиции в Республике Узбекистан (международно-частноправовой аспект).- Т.: Академия, 2003.- 240 с. 5 экз.
3. Шуляк П.Н. Финансы предприятия: Учебник.- 5-е изд., перераб. и доп.-М.: Дашков и К, 2004.- 712 с. 1 экз.
4. Xodiev B.Yu., Samatov G'.A.., Yusupov M.S., Meliboev Sh.A. «Kichik tadbirkorlikning moliyaviy menejmenti» o'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent: EH TEMPUS dasturi «Matador-2000» loyihasi 2004.-144 bet.
5. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
6. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
7. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
8. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
9. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# XIII-MAVZU. KREDIT VA BANKLAR FAOLIYATI

**13.1. Kredit tushunchasi**
**13.2. Banklar**
**13.3. Banklar turi**

## 13.1. Kredit tushunchasi

Pul harakati va pul mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan bozor iqtisodiyotidagi muhim voqeliklardan yana biri kreditdir. Moliya va kreditning umumiyligi shundaki, ikkovi ham pul mablag'lari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardan iborat. Lekin ular o'rtasida muhim farq ham mavjud. YA'ni moliya xo'jalik egalarining pullari bilan bo'lgan munosabatlarni o'z ichiga olsa, kredit qarz pullar harakati va ularga bog'liq munosabatlarni bildiradi. Moliyada pulni ishlatish erkin va xarajatsiz amalga oshsa, kreditda bu xaq to'lash tufayli va muhlati kelganda qaytarib berish sharti bilan ishlatish huquqiga ega bo'linadi.

Kredit pullarning harakati, aylanishda bo'lishi bo'sh, vaqtincha ishlatilmay erkin holdagi pullar mavjudligidan kelib chiqadi. Pul egalari ixtiyorida vaqtincha bo'sh turgan pullarni foiz bilan qaytarish sharti asosida ma'lum vaqt ichida ishlatish uchun olinadi. Ko'rinib turibdiki, kredit qarz beruvchi pul egasi bilan qarz oluvchi tadbirkor yoki iste'molchi o'rtasida bo'ladigan aloqadan kelib chiqadi. Kreditning umumiy sub'ektlari qarz beruvchi puldor va qarzdor tadbirkordir. Bu erda shuni ilova qilish o'rinliki, kredit shaxsiy iste'mol yoki kapital sifatida foydalanilishi mumkin. Biz asosan ikkinchisi, ya'ni kapital ustida so'z yuritamiz.

Shunday qilib, har qanday pul kredit ob'ekti bo'lavermaydi, faqat hozircha ishlatilmayotgan va vaqtincha egasi qo'lida bo'sh turgan pul, qarzga berilishi mumkin bo'lgan pul kredit ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Bunday pul egalari aholi, korxona va firmalar, shuningdek, davlat bo'lishi mumkin, ayni vaqtda qarz oluvchilar ham ayni shulardir.

Kreditning o'zi takror ishlab chiqarish jarayonidan kelib chiqadiki, ayni vaqtda pulga muhtojlar ham ko'p bo'ladi va shuningdek, puli vaqtincha bo'sh bo'lgan pul egalari ham ko'p bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish, tovarlar sotilishi vaqtida pullar bo'sh bo'lsa, tovarlar sotib olish, ya'ni xomashyo, materiallar, energiya sotib olishda, ish xaqi to'lash vaqtida pullar ko'p kerak bo'ladi. Iqtisodiy aylanma jarayonida bir vaqtda bo'sh pulni ishlatishni istovchi va pulga muhtoj va uni axtaruvchilar mavjuddir. Bunday muammolar kredit orqali hal qilinadi. Aytaylik, amortizatsiya ajratmalari, investitsiyaga atalgan pullarning xomashyo va materiallar pulining yig'ilib borishi, ish xaqining ma'lum vaqtdagina to'lanishi tufayli yig'ilib borishi kabilar bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liqdir. Bulardan tashqari aholini ijtimoiy himoyalashga ajratiladigan pullar ham ma'lum vaqt ichida jamg'arilib, so'ngra ishlatiladi. Aholi iste'molida ham shunday holatlar bo'ladi va ma'lum qism daromad jamg'arilib boriladi. Davlat moliyasida ham pul yig'ilishi va vaqti-soati kelganda sarf etilishi tabiiydir. Bular qarz berish uchun, ya'ni kredit uchun manbalar bo'lib xisob-lanadiki, ular ayni vaqtda qarz fondlarini shakllantirib



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

boradi.

Demak, iqtisodiy hayotning o'zi, pul resurslarining harakati, pullarning ishlatilishidagi davriylik kabilar kreditga asos solib, uni bo'sh pullar bilan ta'minlab turadi. Albatta bu kreditning bir tomoni, ya'ni kredit bozoridagi taklifning shakllanish jarayonidir. Ma'lumki, shu bilan birga talab zarur. Pul mavjud ekan, u doimo aylanib, harakatda bo'lar ekan, demak, unga doimo muhtojlik mavjud bo'ladi. U pulga bo'lgan talabni yuzaga keltiradi.

**Kredit vazifalari.** Kredit xilma-xil vazifalarni turli shakllarda bajaradi. Ular quyidagilardan iborat.

1) qimmatbaho qog'ozlar chiqarish;
2) bo'sh pullarni kapitalga aylantirish;
3) qarz usuli bilan pul mablag'larini tarmoqlararo taqsimlash;
4) pul qarzi usuli bilan iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Qimmatbaho qog'ozlar kredit orqali muomalaga, xo'jalik harakatiga kiritiladi. Veksel, chek, sertifikat shular jumlasidandir. Tadbirkorlarni qo'llab, ularning pulga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishi tufayli harakatdagi kapital miqdori ko'paytiriladi, iqtisodiy taraqqiyot ta'minlanadi va tezlashtiriladi. Kredit orqali tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish resurslarining ko'chishi yuz berib, zaruriy taraqqiyot muvozanatining ta'minlanishi uchun vositachilik qilinadi. Umuman, kredit bo'sh pullarni kerakli joylarda ishlatish imkonini tug'dirib, umumiy iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga yordam qiladi.

Ko'rinib turibdiki, kredit o'z vazifalarining amalga oshuvi tufayli iqtisodiy harakat va taraqqiyotdagi ahamiyatini oshiradi. Qarz xuddi, yuzaki qaraganda, ikkinchi darajali narsaga o'xshab ko'rinadi. Lekin bajaradigan vazi-falari, bozor iqtisodiyotida uning o'rni juda katta ekanligini va usiz bozor iqtisodiyotini tasavvur etib bo'lmasligini ko'ramiz. Demak, bozor iqtisodiyoti rivoji uchun kredit tizimini avj oldirish har bir mamlakat uchun o'ta zarur vazifalardandir.

Kredit bozori mavjud ekan, demak, unda baho bor va shu orqali qarz jarayoni yuzaga kelishi mumkin. Baho qarz xaqidan iborat bo'lib, kreditda qarz foizi deyiladi. Chunki, u qarz miqdoriga nisbatan foiz hisobi bilan belgilanadi. Amalda foiz kreditning bahosidir. Agar qarzga talab ortsa, foiz ko'tariladi, kamaysa — pasayadi. Bundagi tak-lif harakati ham shunday xususiyatga ega, lekin harakat yo'nalishi aksincha bo'ladi.

Foiz darajasi talab va taklif muvozanati bilan birga yana bir qancha omillarga bog'liqdir. Bularning ichida qarz muhlati, qarz berish shartlari, inflyatsiya darajasi, qarzning qanday pul bilan berilishi, pulni qarz berishdan boshqa yo'lda ishlatishdan keladigan foyda darajasi, qarz berish xatarliligi kabilarni qayd qilish mumkin.

## 13.2. Banklar

Kredit, pul qarz berish ikki usulda yuz be-rishi mumkin: birinchisi, bevosita bo'lib, bu qarz beruvchi va qarz oluvchi, o'zaro aloqada bo'lishi va bevosita pul qarz olish yo'li yoki nasyaga mol sotish yo'li bilan amalga oshadi. Chunki, nasyaga sotish mazmunan qarzga berishning o'zi. Nasyaga sotish ham ma'lum muhlat va xaq to'lash



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

asosida yuz beradi, ya'ni tovar bahosiga ustama qo'yilib, tovar nasyaga sotiladi. Rivojlangan mamlakatlarda tovar va to-varlashgan xizmatlarga to'yingan bozor sharoitida avtomobil, turar joy, yaxta, video va boshqa apparaturalar kabilar keng miqyosda kreditga sotiladi, ya'ni bo'lajak daromad hisobiga sotilib, tovar xaqi bo'lib-bo'lib foiz bilan to'lanadi.

O'tmishdagi sudxo'rlik, hozirgi davrdagi innovatsiyada moliyadagi venchur kapitalining ayrim qismlari ham bevosita kreditning ko'rinishlaridir.

Ikkinchi usul bilvosita bo'lib, qarz berish vositachilik yo'li bilan, ya'ni uchinchi sub'ekt yordamida amalga oshadi. Bunda alohida kredit tashkilot va korxonalari yuzaga kelib, banklar paydo bo'ladi. Banklar haqiqatdan ham kredit vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan muassasadir.

Banklar kreditdagi ikki tomonni bir-biriga bog'laydi, ular o'rtasidagi zarur aloqalarni o'zi bajaradi. Bo'sh pul egalari va pulga muhtojlar bank orqali o'z muammolarini hal qiladilar. Amalda bank faoliyati tufayli bundagi sub'ektlar bankka pul qo'yuvchi va qarz oluvchilarga aylanadilar. Bank pul qo'yuvchilarga foiz to'lasa, pul oluvchilardan foiz oladi. Bu foizlar o'rtasidagi farq bank daromadini shakllantiradi.

Bundan tashqari banklar xazina saqlovchi va qimmatbaho qog'ozlar chiqaruvchi bosh bo'g'indir. Davlat emissiyasi ham bank orqali amalga oshadi. Shu bilan birga banklar garovga boylik qo'yish vazifasi, kapital va iste'molchi kreditlari kabi vazifalarni ham bajaradi. Umuman ban-klarning kredit, moliyalashtirish sohasidagi faoliyati juda keng bo'lib, bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi ko'p jihatdan banklar faoliyatining keng ko'lamligi hamda banklar tizimining rivojiga bog'liqdir.

## 13.3. Banklar turi

Davlat, xususiy va jamoa banklari mavjud. Buning asosida mulk shakllari, pul sarmoyalari manbalari yotadi. Davlat banklari xazina saqlash, pul chiqarish, pul muomalasini ta'minlash, moliyani tartibga solish kabi vazifalarni bajaradi. Davlat banklari markaziy deb atalib, bir tizimni tashkil etadi. Masalan, AQShda davlat bank tizimi 13 ming banklarni o'z ichiga olib, shundan 1G'3 qismi milliy va qolgani shtatlar ixtiyoridadir. Barcha milliy va shtatlardagi eng yirik banklar federal rezerv tizimini tashkil etadi. ?olgani bu tizimdan chetda bo'lib, faqat 15 foizi depozitga egadir. AQSh ning "markaziy banki" 12 okrut federal rezerv bankidan ibo-rat bo'lib, federal rezerv kengashiga birlashadi. Federal rezerv tizimi hukumatga emas, balki AQSh kongressiga itoat etadi.

Banklar faoliyati hukumat e'tiborida bo'ladi, chunki ularning bozor iqtisodiyotida tutgan o'rni juda katta.

Shuning uchun ham pulning vujudga kelish jarayoni, bank kreditlari, banklarning paydo bo'lishi va faoliyatlari bozor tizimi sharoitida hukumatning e'tiborida bo'lishi shart.

Jamoa banklari birlashmalar, yirik tashkilotlar, kooperatav ittifoqlari tomonidan o'z faoliyatlarini moliyalashtirish uchun tashkil etiladi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Xususiy banklar miqdoriy jihatdan asosiy bo'lib, ular juda ko'pchilikni tashkil etadi va bozor iqtisodiyotida moliyaviy, kredit vazifalarini bajarib, tovar-pul muomalasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Faoliyat xususiyatlariga ko'ra banklarning xili ko'p. Bularning asosiy qismi **tijorat banklaridir.** Bular bir necha tur banklardan iborat bo'ladi. Masalan, "Tashqi iqtisodiy faoliyat banki", "Milliy bank", "Xalq banki", "Paxta banki", "Asaka bank" "G'alla banki", "Sanoat-qurilish banki" kabilar bo'lib, ularning hududiy bo'limlari ham ko'p. Bularning ichida milliy bank tashqi iqtisodiy aloqalar uchun xizmat qilsa, qolganlari asosan ichki bozor, mamlakatning tovar-pul muomalasi uchun xizmat qiladi. YAngi tashkil etilgan xalq banki fuqarolar bilan aloqada bo'lib, omonatchilar bilan ish olib boradi, aholiga pul qarz berish ishlarini bajaradi. Bu juda tarqoq holdagi pul massasini yig'ib, ishga soladi va bundan keng aholi-omonatchilarni manfaatdor qilib, bo'sh yotgan pulning ishlatilishidan kelgan daromadning bir qismini foiz hisobida to'laydi.

Hozir respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining soni 38 ta bo'lib, ularning aktivlari 1518,4 mlrd. so'mga ko'paydi va 2002 yil 1 yanvar holatiga 3198,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Tijorat banklari tomonidan O'zbekistonnnig real sektorini kreditlash va investitsiya shaklida moliyalashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar respublikamiz iqtisodiyotini yanada yuksalishga zamin yaratmoqda. Xususan, tijorat banklarning iqtisodiyot turi sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari 2001 yil mobaynida 928,8 mlrd. so'mga ko'payib, 2002 yil 1 yanvar holatiga 1920,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Banklar faoliyatidagi eng muhim tomonlardan biri shuki, ular o'z mijozlari o'rtasidagi pul muammolari, o'zaro to'lovlar va boshqa shunga o'xshash xizmatlarni ham bajaradi. Ma'lumki, iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda to'lovlar asosiy o'rin egallab, tovarlar harakati, ularning bir egalikdan ikkinchisiga o'tishida, ya'ni takror ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarish va tovar-pul muomalasining to'xtovsiz harakatini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, to'lovlardagi uzilish mahsulotlar siljishining to'xtab qolishiga, iqtisodiy aloqalarning buzilishiga olib keladi. Qulay to'lov usullarini qo'llash, mijozlar o'rtasidagi ishonchni kuchaytirish ko'p jihatdan banklar ish faoliyatiga bog'liqdir.

## Qisqacha xulosalar

Bo'sh, vaqtincha ishlatilmay erkin holdagi pul mavjudligidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishni iqtisodiy o'sishni ta'minlamog'i lozim.

Banklar kreditdagi ikki tomoni bir – birigabog'laydi.

Faoliyat xususiyatlariga ko'ra davlat hamda tijorat banklardan mavjud.

## Nazorat va muhkama uchun savollar

1. Pulning kelib chiqishi, taraqqiyot shakllarini misollar bilan tushuntiring.
2. Pulning mohiyati, bozor iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatini qanday



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

tushunasiz?

3. Pulning vazifalariga nimalar kiradi?
4. Pul muomilasini qanday tushunasiz?
5. Moliya, moliyalashtirishning mohiyati, bularning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati kabi masalalarni qanday tushunasiz?
6. Moliya resurslari mohiyati, ularning manbalari, ishlatilishi kabilarni amaliy misollar bilan tushuntira olasizmi?
7. Moliyaning qanday vazifalarini bilasiz?
8. Makromoliya va mikromoliyani aytib bering. Davlat moliyasi nima?
9. Banklar haqida va ularning faoliyatiga oid tushunchalarni aytib bering.
10. Banklarning qanday xillarini bilasiz? Ular qanday xususiyatlarga ega?

## Asosiy adabiyotlar


1. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
2. Деньги, кредит, банки: Учебник / Под ред.О.И. Лаврушина.- 2-е изд., перераб. и доп.-М.:Финансы и статистика, 2004.-464 с. 1 экз.
3. Финансы, деньги, кредит: Учебное пособие /Под ред. Е.Г.Черновой.- М.: ТК Велби, 2004.- 208 с. 1 экз.
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.- 208 c. 1 ekz.
5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
6. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
7. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
8. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# XIV-MAVZU. BIZNES VA TADBIRKORLIK

**14.1. Biznss va tadbirkorlik tushunchasi**
**14.2. Biznes va tadbirkorlik tamoyillari**
**14.3. Tadbirkorlik va mulk shakllari**

## 14.1. Biznss va tadbirkorlik tushunchasi

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan maxsus iqtisodiy faoliyat bo'lib, biznes nomini olgan. Biznes bilan shug'ullanuvchi kishilar biznesmen deyiladi. Keng ma'noda bironta ish bilan shug'ullanib, pul topishdan iborat faoliyat biznes deb ataladi.

Tadbirkorlik biznesning asosiy unsuridir. Ammo biznesda tadbirkorlikka aloqasi yo'q ishlar ham bor, masalan o'z mulkini ijaraga berish, pulini bankka qo'yish yoki yashirin yo'l bilan sudxo'rlik qilish. Bu ishlar pul topish yo'li, lekin tadbirkorlik emas

Tadbirkorlik deganda moddiy va pul mablag'larini foyda topish yo'lida sarflab, bozorga kerakli tovarlar va xizmatlarni etkazib, kishilarga naf ksltiruvchi, ularning hojatini chiqaruvchi iqtisodiy faoliyat tushuniladi.

Tadbirkorlik — bu o'z mulkini ishlatib yoki o'zga mulkidan amalda foydalanib, tovarlar yaratish yoki xizmatlar ko'rsatish. Undan kutilgan maqsad esa pul topish. Bu ishni aholining maxsus toifasi — tadbirkorlar olib boradilar. Tadbirkorlik maxsus tayyorgarlik va iste'dod talab etadi. Tadbirkorlar sinfi bor, ular foydani ko'zlab ishlaydi, o'ziga to'q va farovon yashovchi guruhni tashkil etadi.

Tadbirkorlik - mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir.[3]

Bozor iqtnsodiyotiga o'tish davrida bo'lgan O'zbekistonda tadbirkorlar ishchi, xizmatchi va dehqonlar hisobidan vujudga kela boshladi. Bu erda tadbirkorlar kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchilardan, fermyerlardan, tomorqa xo'jaligi sohiblaridan, hissadorlik jamiyati a'zolaridan, yakka tartibda ishlovchilardan iborat. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining asosiy tayanchi, chunki u bozorga tovarlar va xizmatlarni muntazam etkazib beradi, bozordagi talabni to'ldiradi.

## 14.2. Biznes va tadbirkorlik tamoyillari

Tadbirkorlikning asosiy tamoyillari bor 1-Mulk sohibi bo'lish. Tadbirkorlar resurslar yoki mahsulotlarning egasi bo'lishi kerak. Ular o'z mulkiga tayanib yoki o'zga mulkini ijaraga olib ishlaydi.

2.Foyda olishga intilish. Tadbirkorning boyishdan iborat iqtisodiy maifaati bo'lib, unga foyda olish orqali erishiladi.

3)Iqtisodiy erkinlik. Tadbirkor bozorga qarab nimani, qancha, qanday

[3] O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respudlikasida tadbirkorlik to'g'risida» qonunidan



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

texnologiyada ishlab chiqarishni, yaratilgan tovarni kimga, qachon va necha pulga sotishni, qaysi bank bilan aloqa qilishni, o'ziga sherik topishni, xullas, har qanday iqtisodiy faoliyatni hech bir toifasiz, o'z bilganicha amalga oshiradi.

4. Iqtisodiy mas'uliyat. Tadbirkor mas'uliyatni o'z zimmasiga olib,ko'rgan foyda-zarariga o'zi javob beradi.

5. Iqtisodiy tavakkalchilik. Tadbirkor tavakkal qilib, «yo ustidan, yo ostidan» degan qabilida ish tutadi, iqtisodiy xavf-xatarni zimmasiga olib, chuv tushib qolishdan qo'rqmaydi.

6. qonun-qoidalarga rioya qilish. Tadbirkor sa'y-harakatlarining o'z qoidalari bor, ularga itoat qilish ham farz ham qarz hisoblanadi.

7. Raqobat kurashida qatnashish. Tadbirkor har doim boshqalar bilan «kim o'zadi» qoidasiga ko'ra bellashuvi shart.

8. Tadbirkorlik siri. Biznes ishida texnologiya, yangi tovar yaratish, bozor topish, narx belgilash, kontrakt tuzish va boshqalar sir saqlanadi.

9. Halollik bilan ish yuritish. Tadbirkorlik halol yul bilan pul topishga asoslanish zarur. Qalloblik, g'irromlik va aldamchilik uning tabiatiga zid. Masalan, Muhammad a.s. odamlarga "halol yo'l bilan nafaqa topinglar" deb marhamat qilganlar. Shu sababli «halol top» degan qoida tadbirkorlikka ham xos bo'lgan.

O'zbekiston qonunlariga ko'ra tovar ishlab chiqaruvchilar iste'molchilarning tovar sifatiga bo'lgan talabini qondirishi, tovar sifatini kafolatlashi shart. Davlat shu qonunlar ijrosini nazorat qiladi.

«Davlat iste'molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi».[4]

10.Nufuz (imij)ga ega bo'lish. Nufuz xalq orasida, tadbirkorlar doirasida obro'-etiborli bo'lishni bildiradi. Tadbirkor o'z sha'nini avaylashi, firma nomini e'zozlab, unga dog' tushirmasligi, yaxshi nom chiqarishi shart.

11.Tadbirkorlikda o'z-o'zini boshqarish tartibi bor. Davlat firma ishiga aralashmaydi, balki iqtisodiy siyosati bilan tadbirkorlarga ko'maklashadi, qonunlar orqali tadbirkorlik uchun sharoit yaratadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga ko'ra davlat tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi, tadbirkorlar mulkinipg daxlsizligiii ta'minlaydi.

## 14.3. Tadbirkorlik va mulk shakllari

Bozor iqtisodiyotining turli mulk shakllariga asoslanishini tadbirkorlikda yaqqol ko'rish mumkin. -Insonga naf keltiruvchi har qandan ne'matlar albatta kimningdir mulki. Faqat hech kimga kerak bo'lmagan narsaning egasi yo'q. Bozor iqtisodiyoti kerakli narsani yaratib, uni bozor orqali iste'mol etishga asoslanar ekan, u albatta mulkchilikni talab qiladi.

Mulk moddiy va maishiy boyliklarni qonuniy ravishda va belgilangan tartibda kishilar tomonidai o'zlashtirish shaklidir.

[4] O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunidan.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

O'zlashtirish tartibini mulkiy huquq belgilaydi, u kimning mulkdor bo'lishi, mulkdan, foydalanish qoidalari, mulkni davlat tomonidan kafolatlash kabilarni belgilab qo'yadi. O'zbekistondagi mulk Respublika Konstitutsiyasi va mulkchilik to'g'risidagi qonunga binoan boshqariladi.

Tadbirkorlar mulkiy munosabatning sub'ekti, ya'ni ishtirokchisi bo'ladilar. Ular mulk qilib o'zlashtiradigan narsalar er, bino, inshoat, asbob-uskunalar, mashina-mexanizmlar, yaratilgan tovarlar, ilmiy g'oyalar, loyihalar, tovar belgilari va boshqalardan iborat. Bular mulkiy munosabatlarning ob'ektidir. Mulkning uch bosqichi bor: a) egalik qilish; b) foydalanish (ishlatish); v) tasarruf etish. Ularning yaxlitligi mulkchilikni yaratadi. Tadbirkorlarning mulkiy maqomi ikki yoqlama bo'lib, birinchidan, ular o'z mulkiga tayanib nsh yuritadilar, ya'ni moddiy resurslar va yaratilgan tovarlar ularning o'ziniki. Ikkinchidan, ular o'zgalar mulkini ijaraga olib ham faoliyat yuritadilar, bunda mulkka vaqtinchalik egalik qiladilar va mulkdan foydalanadilar, ammo uni tasarruf etib xujayinlik qila olmaydilar. Baribir, har ikki holda ham yaratplgan tovarlarning egasi tadbirkor bo'lib qolaveradi. Tadbirkor o'z mulkidan naf ko'rishi shart, shundagina uning iqtisodiy manfaati yuzaga chiqadi. Tadbirkor o'z mulkini ishlatib foyda topadi, o'z mulkini qimmatiga sotib, daromad ko'radi, o'z mulkiga tayanib mehnat qiladi va shu yul bilan pul topadi va, nihoyat, u o'z mulkini merosga qoldiradi yoki xayr-ehson yo'lida hadya qiladi. Mulkni qanday ishlatishni tadbirkor o'zi hal qiladi, ya'ni buning eng maqbul yo'lini o'zi tanlab oladi. Tadbirkor o'z mulkidan naf ko'rgani uchun mulkiy mas'uliyatni, ya'ni mulkni oqilona ishlatish javobgarligini znmmasiga oladi.

Tadbirkorlik turli mulk shakllari doirasida yuz beradi va qonunga qarab uning turlari yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyotida hususiy mulk etakchi mavqeda turadi.

Xususiy mulk ayrim kishilarga tegishln va ularga naf keltiruvchi mulkdir.

Xususiy mulkka qarab xususiy tadbirkorlik mavjud bo'ladi. Xususiy mulkiing o'zi ikki ko'rinishga ega:

1. YAkka xususiy mulk—bu yakka shaxsnnng mulki, shu mulkka: asoslangan korxona yakka shaxsga tegishli korxona hisoblanadi. Ayrim mulkdorga qarashli, lekin ishchilarni yollab ishlatadigan yoki mulkdorning shaxsan o'zi va oila a'zolari ishlaydigan korxonalar ham bo'ladi.

2. Guruhiy - korporativ xususiy mulk — bu ma'lum maqsadni ko'zlab o'zaro birlashgan mulk sohiblarining xususiy mulki. Bu mulkni har bir sohib alohida emas, balki birgalikda o'zlashtiradi. Uning namunasi korporatsiyalar bo'lib, ular amalda hissadorlar jamiyati shaklida faoliyat ko'rsatadi. Tadbirkorlik ishi korporatsiya doirasida amalga oshadi.

Tadbirkorlik jamoa mulkiga ham asoslanadi. Bu mulk jamoaga birlashgan kishilarning umumiy mulki hisoblanadi. Jamoaga kiruvchilar uning mulkiga o'z hissasini qo'shishi shart. Bu erda ham hissadorlik qoidasi bor ammo aktsiyadorlikdan farqi shuki, mulk sohibi jamoa tarkibida ishlashi shart. Bunga misol qilib kooperativlarni mahalla va jamoa xo'jaliklarini olish mumkin.

Davlat mulki davlatning vazifalarini bajarishga xizmat qiluvchi mulk, davlat korxonalarining va tashkilotlarinnng mol-mulkidan iborat. Davlat unitar korxonalari ham tadbirkorlik bilan shug'ullanib, foyda ko'radilar.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Qisqacha xulosalar

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan maxsus iqtisodiy faoliyat bo'lib, biznes nomini olgan.

Bozor iqtisodiyotida biznes va tadbirkorlik mamlakatlari bozor talabini beligilaydi.

Tadbirkorlar mulkiy munosabatning sub'ekti, ya'ni ishtirokchisi bo'ladilar.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1.Tadbirkorlik va biznes o'rtasida farq bormi?
2.Tadbirkorlik qanday tamoyillarga asoslanadi?
3.Mulkchilik nima va uning turlari?

## Asosiy adabiyotlar


1. I. A. Karimov «Iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloxatlarni chuqurlashtirish eng muhim vazifa «Xalq so'zi» 24 yanvar 2000yil.
2. Maxmudov E.X. Biznes-planirovanie: Uchebnoe posobie G'E.X. Maxmudov, M.Yu. Isakov. - T.: TDIU, 2004.-160 c. 5 ekz.
3. Бизнес-планирование: Учебник / Под ред. В.М.Попова, С.И. Ляпунова. - М.:Финансы и статистика, 2003.-672c. 1 экз.
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
6. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
7. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
8. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# XV-MAVZU. BIZNES ASOSLARI

**15.1. Firmalarning shakllari**
**15.2. Biznesda sof xarajatlarning turlari**
**15.3. Me'yoriy xarajatlar**

## 15.1. Firmalarning shakllari

Tadbirkorlik mavhum narsa bo'lmay, firmalar faoliyatida ifoda etiladi. Firma bozor uchun ishlovchi korxona. Korxona qaysi mulkka taalluqli bo'lmasin firma, zavod, fabrika nomlari bilan yuritiladi. Dehon xo'jaligi bundan istisno, u fermer xo'jaligi deb ataladi. Qishloq xo'jaligida shirkat firmalar ham faoliyat ko'rsatadi.

Firma muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashadi, bozorga qarab ish yuritadi, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida firmalarning mustaqilligi bir qadar cheklangan bo'ladi. Firmalar va xo'jaliklar, birinchidan, erkin bozor uchun ishlasalar, ikkinchidan, davlat buyurtmasiga binoan ishlaydilar, tovarni davlatga xarid narxiga ko'ra sotadilar. Shu jihatdan ular yarim mustaqil bo'ladilar.

O'zining faoliyat miqyosiga qarab firmalar kichik, o'rta va yirik korxonalarga bo'linadi. O'zbekistonda ishlovchilar soni sanoat va qurilishda 50 kishigacha, boshqa ishlab-chiqarishda —25 kishigacha, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish sohasida—10 kishigacha, chakana savdoda — 5 kishigacha bo'lgan korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi.

Korxonalar o'z navbatida kichik, o'rta va yirik biznesni tashkil etadi. Kichik va o'rta biznes sharoitga tez moslashadi, uning uchun pul topish oson, muhimi unda iqtisodiy xatar kamroq bo'ladi. Firmalarning turlari ko'p,ulardan asosiylarnni ko'rib chiqamiz.

Xususiy firma ayrim shaxslarga yoki oilalarga qarashli korxona bo'lib, yakka xususiy mulk hisoblanadi. Bunday korxonalar asosan kichik biznes doirasida ish yuritadilar. Xususiy firma egasi yakka sohib, uning ustidan hech kim xo'jayinlik qila olmaydi, topishgan foydani o'zi oladi, ya'ni uni boshqalar bilan baham ko'rmaydi, zararni ham faqat o'zi ko'taradi. Bunday firmada xatar faqat bir kishi — sohib zimmasiga tushadi. Agar u o'z mulkini garovga quyib qarz olsa va uni to'lay olmasa mulkidan mahrum bo'ladi. Bunday firma soliq, qarz, ish xaqini to'lay olmasa, uning egasi uni qo'lga ilinadigan asbob-anjomlarini sotib bo'lsa ham o'z majburiyatidagi pulni to'lashga majbur etiladi. Xususiy firmalar tez yopilib va ochilib turadi.

Shirkat-firmalari. Tadbirkorlikda javobgarlikni kamaytirish uchun shirkat shaklidagi firmalar tuziladi.

Shirkat bir necha sohiblarning mulkini birlashtirish va talbirkorlikda olingan foydani baham ko'rishga asoslangan sherikchilik firmasidir.

Shirkat, birinchidan, kichik miqdordagi pullarni jamlab katta pul yig'ish va uni tadbirkorlikka qo'yish imkonini beradi; ikkinchidan, tadbirkorlik javobgarligini ko'pchilik zimmasiga yuklab, har bir tadbirkor uchun xatarni kamaytiradi; uchinchidan, ko'pchilikka, hatto, puli ozlarning ham tadbirkorlik bilan



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

shug'ullanishga imkon beradi, ya'ni u kapitalni demokratiyalashtiradi. Shu afzalliklar tufayli shirkatlar hozir keng tarqalgan. Shirkat firmalar ikki xil bo'ladi:

a) Mas'uliyati cheklanmagan firma. Uning mulki sherikchilik asosida yuzaga keladi. Sheriklarning dastlabki mulki firmaning ustav kapitali deyiladi. Bu mulkka har bir sherik o'z hissasini qo'shadi. Ammo hissadorlar to'la huquqli va huquqi cheklangan sheriklarga bo'linadi. To'la huquqli sheriklar firmaning ham javobgarligini, foydasiyu zararini ham baham ko'radilar, ular ustav fondiga qancha pul qo'ysa, hissasiga qarab foyda oladilar. Agar Islomov firma ustav kapitalining 15 foizga bergan bo'lsa, u foydaning 15 foizini oladi. Agar Ollayorov 10 foiz qo'ygan bo'lsa, foydaning ham 10 foizini oladi. Bordiyu firma sinsa, 1 sheriklar zararni hamji hatlikda ko'taradilar, ya'ni bir sherik boshqasiniig javobgarligini ham zimmasiga oladi. Agar 5 kishi sherik bo'lsayu, ulardan 2 tasi firma zararini to'lashga qodir bo'lmasa, qolgan 3 sherik ular zimmasidagi zararni ham o'zinikiga qo'shib ko'taradi. Bu erda «kemaga tushganlarning joni bir» degan qoidaga amal qilinadi.

b) Mas'uliyati cheklangan firma. Uning kapitali sheriklarning ustav fondiga qo'ygan pay» (hissasi) hisobidan shakllanadi. Shunday firmalar nomiga «limited» degan so'z qo'shiladi, bu iiglizcha "cheklangan" degan ma'noni bildiradn. Masalan, "Ko'ksuv LTD" degan firma bo'lsa, darhol uning majburiyati cheklanganliini tushunish kerak. Bunday firma bilan munosabatda bo'lganda firmaning faoliyatida ishkallik yuz bersa, undan faqat ustav kapitaliga teng pulni undirish mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak. Uning to'lov majburiyatidagi bundan ortiqcha bo'lgan qarzni hech qanday yo'l bilan undirib bo'lmaydi. Masuliyati cheklangan firmalarning eng keng tarqalgan shakli hissadorlik jamiyatlari yoki korporatsiyalardir. Jamiyat jamlagan kapitalga qarab maxsus qimmatli qog'oz — aktsiya chiqaradi. Aktsiyani sotib olganlar hissadorlarga aylanadilar va foydadan o'z hissasi — dividendni olib turadilar. Yopiq jamiyat aktsiyalari faqat ma'lum guruh kishilari, masalan, korxona ishchi-xizmatchilari o'rtasida, ochiq jamiyag aktsiyalari esa barcha xohlovchilarga sotiladi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida davlat korxonalari yopiq aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Islohotlarniig ikkinchi bosqichida ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari tuzishga usgivorlik berildi. Masalan, qishloq xo'jaligida jamoa xo'jaliklari yopiq jamiyatlar — paychilar xo'jaligi shakliga o'tkazila boshladi. 1996 yil g' yanvarga kelib O'zbekistondagi hissadorlik jamiyatlari soni 5500 ga etdi (1995 yil 1 yanvarda esa 2255);

Davlat korxonalari — davlat mulki bo'lgan va uning nazorati ostida ishlovchi korxonalar. Bu korxonalar markaziy va mahalliy hokimiyatga qarashli bo'lib, ishlab chiqarishdagi davlat sektorini tashkil etadi, eng muhim va mas'uliyatli vazifalarni bajaradi (mudofaa, aloqa, eiergetika, transport va boshqalar).1996 yil boshida O'zbekistonda 16000 ta davlat korxonasi bor edi.

Aralash firmalar xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag'lariga tayanadi. Qo'shma firmalar (korxonalar) ham shunday firmalar qatoriga kiradi. Aralash firmalarning milliy va xorijiy kapitalga tayangan korxonalari kengroq



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

tarqalgan. Ularning kapitali hissadorlik qoidasiga binoan tashkil topadi, foydasi shunga qarab taqsimlanadi. 2001 yil boshida O'zbekistonda xorij kapitali ishtirokida tuzilgan 3301 ta qo'shma korxona bor edi. Bundan tashqari 1958 ta aralash mulkka asoslangan milliy korxonalar ham faoliyat ko'rsatdi.

Konsortsium korxonalarining maxsus tashknl etilgan birlashmasi. Uning ishtirokchilari o'z mustaqilligini saqlab qolgan holda muayyan maqsad yo'lida birlashadilar. Odatda konsortsium moliyaviy ishlar yuzasidan tuzilib, unga davlat, banklar, moliya investitsiya kompaniyalari, yirik firmalar, har xil pul fondi tashkilotlari uyushadi, U katta mablag' talab qiladigan ishlarni bajaradi.

Konsortsium odatda xolding kompaniya shaklida tuziladi. Xoldinglar sanoat-moliya guruhi hisoblanadn. Ular tarkibida bosh — ona korxona va har xil shuba korxonalar ma'lum maqsad yo'lida hamjihatlik bilan ishlaydilar.

Kontsern korxonalarning ishlab chiqarish, investitsiya, moliya, texnika, tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida birgalikda ish yuritishni ko'zlaydigan uyushma. Kontsern bir tarmoqlararo (konglomerat) birlashmalar shaklida tashkil etiladi.

Firmalar shaxobchasi (filiali) yirik firmalarning tarkibiy qismi bo'lib, turli joylarda ish yuritadi. Mazkur korxona mustaqil bo'lmay, bosh firmaning bir qismi hisoblanadi.

Mulkiy maqomidan qat'iy nazar firmaning korporativ guruhpy manfati mavjud. Firma ishlab chiqaruvchilar jamoasi. Bu jamoa a'zolarini birlashtiruvchi kuch ularning umumiy — foyda olishidan iborat Bu manfaat korxona meyorida ishlagandagina yuzaga chiqadi. Korxona jamoasi maqomi jihatidan uch toifaga bo'linadigan kishilardan tashkil topadi: 1) korxona egalari; 2) menedjyerlar (boshqaruvchilar); 3) yollanib ishlovchilar.

Korxona egalari — bu mulkdorlar, korxonadagi moddiy resurslar, yaratilgan tavarlar va pul mablag'lari ularga tegishli. Ammo korxona maqomiga qarab mulkdorlar tarkibi turlicha bo'lishi mumkii. Mulkdorlarga korxona egasi - tadbirkorlardan tashqari ularning sheriklari bo'lmish menedjyerlar qisman oddiy ishchi-xizmatchilar ham kiradi. Ular korxona ishida nafaqat kapitali — mablag'i, balki mehnati va tadbirkorlnk iste'dodi, boshqarish mahorati bilan ham qatnashadilar.

Firma mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi sifatida u yoki bu sohaga ixtisoslashadi. Masalan, bir firma kiyim tiksa, boshqasi oziq-ovqat ishlab chiqaradi, yana boshqasi qurilish yoki yuk tashish bilan shug'ullanadi.

Ixtisoslashuv tovarlarni sifatli chiqarish va arzonga tushirish shartidir. Shu sababli unversal, ya'ni hamma ish bilan shug'ullanuvchi firmalar bo'lmaydi, ular bir yoki bir necha tovarlar ishlab chiqarish sohasida ixtisoslashadi. Toshkentdagi "Qizil tong" firmasi ayollar paltosi va plashini, Chirchiqdagi «Guncha» firmasi bolalar kiyimini, Ko'qondagi Oxunboboev nomli firma erkaklar ko'ylaginn tikishga ixtisoslashgan. Ixtisoslashuvniig ikki afzal tomoni bor: birnnchidan mehnat unumdorligini oshiradi, xarajatlarni pasaytirib, foydani oshirish imkonini beradi. Ikkinchidan, sifatli tovar chiqarishni, binobarin. tovarning bozorda yaxshi sotilishini ta'minlaydi. Shu sababli chuqur ixtisoslashuv yuz beradi, firmalar faqat ayrim tovarlarnigina emas, balki mayda-chuyda butlovchi qismlarni ham ishlab chiqaradilar.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## 15.2. Biznesda sof xarajatlarning turlari

Har qanday firma kapital negiziga quriladi. Kapital foyda topish maqsadida firmaga qo'yilgan puldir. Bu pul firmaning o'z mablag'i va bankdan qarzga olingan puldan iborat bo'lib, asosiy aylanma kapitalni tashkil etadi (ular MDH mamlakatlarida asosiy va oborot fondlari deb yuritiladi). Asosiy kapital — bino-inshoat, mashina-uskunalarga sarflanadi, ular uzoq xizmat qiladi, masalan, bino 100 yil, mashina 5—10 yil, inshoat 200 yil ishga yarab turadi. Xizmat qilish davriga qarab ularning qiymati har yili qisman yaratilgan tovarlarga o'tadi, mahsulot sotishdan bu qism pul shaklida yana firmaga qaytib keladn. Shu qism amortizatsiya deyiladi. Masalan, tikuvchilik stanogi 500 ming so'm turadi va 5 yil xizmat qiladi. Har yili uning yordamida 50 ming metr gazlama to'qiladi, bu gazlama narxi 2,5 million so'm turadi, shundan 100 ming so'm stanokning amortizatsiyasi hisoblanadi va u stanok narxiga nisbatan 20 foizni gashkil etadi.

Ishlab chiqarish uchun ashyoviy resurslar (xomashyo, yarim fabrikat, yoqilg'i, elektr energiya, har xil materiallar) va ish kuchi kerak, ularni olish uchun ketadigan pul oborot kapitali (fondi) deb ataladi. Ashyoviy resurslar uzoq xizmat qilmaydi, darhol ishlatiladi va ularning qiymati yaratilgan tovarlarga bir yo'la o'tadi. YAna gazlama misoliga qaytsak, uinng 2,5 million so'mdan iborat bir yillik qiymatida 100 ming so'm amortizatsiya bo'lsa, xomashyo, yoqilg'i, materiallar qiymati 1 million so'mga boradi. Ularni olish uchun ajratilgan pul aylanma kapitaldir. Bu pul faqat 200 ming so'm, chunki u bir yilda 5 marta aylanadi yoki qayta muomalaga kiradi. Bu pul gazlama sotilgach, firmaga qaytib keladi, unga yana ashyoviy resurslar olinadi. Bu pul yiliga 5 marta aylanganidan ashyoviy resurslar qiymati 1 million so'm bo'ladi. Firma o'zining pul shaklidagi kapitalni bozorda resursga aylantiradi. Resurslar ishlab chiqarishda qo'llanib, tovarlar va xizmatlar yaratiladi, ular bozorda sotilgach, firma kapitali qaytadan pul shakliga keladi. Firma kapitali bozorga pul shaklida chiqsa, u bozordan resurs shakliga kirib ishlab chiqarishga uning omillari sifatida qaytadi. Bu erda tovar va xizmatlar shaklida yana qayta bozorga chiqadi va u erda avval pul shaklini olib, so'ngra biror narsa sotib olingach, rssurslarga aylanada. Xullas, tadbirkor kapitali turli bosqichlardan o'tib, turli shakllarga kiradi va shu yo'sinda doiraviy (aylanma) harakatda bo'ladi.

Firmannng faoliyati bozordan resurs sotib olishdan boshlanadi. Firma moddiy resurslar, ya'ni asbob-uskunar, stanoklar, transport va aloqa vositalari, xomashyo, yoqilg'i, har xil materiallarni, mehnat bozoridan ish kuchini sotib oladi, ya'ni ishchilarni ishga yollaydi. Kerak bo'lsa binolar va erni ham sotib oladi. Mabodo zarurat bo'lmasa, ularni ijaraga olib, xaqini to'laydi. Iqtisodiy rssurslar uchun qilingan sarf ishlab chiqarish xarajatlariga aylanadi.

YAratilgan tovarlar va xizmatlar, bajarilgan ish birligi uchun sarflangan pul firmaning ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi.

Xarajatsiz hech qandan iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi, binobarin, foyda topish mumkin emas. Tadbirkorlar orasida «xarajatsiz harakatning natijasi nolga teng» degan hazil-mutoyiba gap yuradi. Bu gapning tagida chuqur ma'no bor. Ishlab



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

chiqarish albatta resurslarni talab qiladi, resurslarni esa hsch kim tekinga bermaydi, ularni sotib olishi kerak. Foydani imkoni boricha ko'paytirishga intilmaydigan firma bo'lmaydi, bunga erishish uchun xarajatlarni imkonn boricha pasaytirish talab etiladi.

Bozordagi narx o'zgarmagan sharoitda foydani ko'paytirish sharti xarajatlarni kamaytirishdan iborat.

Xarajatlar moddiy resurslar uchun sarflanadigan pul (moddiy resurslar sarfi), ish xaqi, har xil mukofotlar, ijtimoiy (sotsial) sug'urta ajratmalari kabi mehnat sarflari va tadbirkorni qoniqtiradigan pul daromadidan iborat. Tadbirkor ishbilarmonlik qobiliyati va zimmasiga mas'uliyatni olib tavakkaliga ish qilgani uchun el qatori foyda olishi kerakki, uning topadigan daromadi hech bo'lmaganda yuqori ish xaqidan kam bo'lmasligi shart. Agar tadbirkor shunday daromad topmasa, tadbirkorlik qilib, halovatini yo'qotishdan ko'ra yollanib ishlagani ma'qul. Aytaylik, malakali ishchi oyiga 8000 so'm topadi, tadbirkorning ko'radigan odatdagi foydasi bundan kam bo'lmagandagina u biznesga qo'l uradi. Mahsulot arzon-garov, ya'ni faqat xarajatni qoplaydngap narxda sotilganda ham tadbirkor foyda oladi, o'z ishini tashlab ketmaydi.

Bozor iqtisodiyotida tanlash qoidasi va zimmaga tushgan xarajat, ya'ni iqtisodiy xarajat mavjud.

Ishlab chiqarish uchun tanlab olingan resurslarni eng qulay ishlatgan sharoitlar xarajatlar, ya'ni o'z ishiga jalb etish uchun resurslar egalariga to'langan pul zimmaga tushgan xarajatlar yoki iqtisodiy xarajatlar deb ataladi.

Muayyan bir resursni har xil ishlatish mumkin. Masalan, metalldan avtomashina, traktor, ekskavator, stanok, tramvay ishlab chiqarish mumkin. Bulardan qaysi birini ishlab chiqarish uchun resurs jalb etilsa, shunga ketgan xarajat iqtisodiy xarajat hisoblanadi. Binobarin, iqtisodiy xarajatlar muqobil ravishda tanlangan faoliyat xarajatlaridir.

Xarajatlarni ishlab chiqarish doirasi bilan cheklab bo'lmaydi. Ular har xil xizmatlarga, chunonchi, savdo-sotiq, davolash, o'qitish, moliyaviy ish yuritish, maslahat berish xizmatlariga ham taalluqli. Tovarlarni oldi-sotdi qilish, ya'ni savdo xizmati ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar muomala xarajatlari deyiladi.

## 15.3. Me'yoriy xarajatlar

Firma o'z faoliyatini yuritish uchun tashqaridan resurslar sotib oladi va pullik xizmatlardan foydalanadi. Shuningdek, firma ilgari sotib olingan resurslarni– binolar, mashina. stanok, asbob-uskunalarni ham ishlatadi, ularga ham ilgari xarajatlar qilingan. Bundan tashqari firma ijara xaqi, banklardan olgan qarzi uchun foiz to'lab turadi. Shu boisdan xarajatlar tashqi va ichki xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajkatlarga ish kuchi. xomashyo, yoqilg'i, energiya sotib olish, transport, aloqa va boshqa xizmatlar uchun, shuningdek, soliqlar uchun to'langan pul kiradi. Binolar, asbob-uskunalar, ijara xaqi va boshqa sarflarning hammasi ichki xarajatlar hisoblanadi. Xarajatlarga, bulardan tashqari, tadbirkorlik me'yordan foydasi ham kiradi. Shunday qilib xarajatlar o'zining kelib chiqish manbalariga qarab har xil



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

sarflardan iborat bo'ladi.

Xarajatlarning tarkibiy tuzilishi ishlab chiqarishning omillari bilan bog'liq. Ishlab chnqarishda esa doimiy va o'zgarib turadigan ikki omil ishtirok etadi. Doimiy omilga bino, inshoatlar, mashina va uskutsalar kiradi. Ishlab chiqarishdagi o'zgaruvchan omillarga qisqa vaqtda va tezdan o'zgartirlish mumkin bo'lgan ish kuchi, xomashyo, yoqilg'i, elektr energiya, har xil materiallar, mayda-chuyda asboblar kiradi, ularni tezda ko'paytirib va ozaytirib turish, ayni paytda ishlab chiqarish hajmini ham o'zgartirish mumkin. Omillarning har xil bo'lishi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni paydo etadi.

Miqdori ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgarmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.

Shunday xarajatlar ham borki, ularning miqdori firmaniig faoliyatiga bog'liq bo'lmaydi, hatto firma ishlamagan taqdirda ham ularni qoplash lozim. Bularga renta to'lovlari (ko'chmas mulk uchun ijara puli), qarz foizi, reklama xaqi, garov puli, amortizatsiya ajratmasi, ijara xaqi, sug'urta puli, oldindan to'lanishi ko'zda tutilgan maoshlar kiradi. Masalan, firma banklar yiliga 10 foiz to'lash sharti bilan 100 million so'm olgan, demak u pul olganidan keyin uni ishlatadimi yoki yo'qmi, baribir, bankka yiliga 10 million so'm to'lashi shart. Yoki binoni 150 ming so'mga ijaraga olgan bo'lsa, shu pulni, korxonasi yoki ofisi turgan er uchun er egasiga ham 100 ming so'm er xaqi to'lashi zarur.

Miqdori ishlab chpqarish hajmiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgarib turuvchi xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlar deyiladi.

Bu xarajatlar ish xaqi, xomashyo, yoqilg'i, har xil materiallar va yuk tashish xarajatlaridan iborat. Ishlab chiqarish hajmi ortsa, o'zgaruvchan xarajatlar ko'payadi, qisqarsa, kamayadi Masalan, to'qimachilik fabrikasi 10 million so'mlik gazlama to'qib chiqarish uchun 7 million so'm sarf qildi. Shundan 3 million so'm paxta tolasi, 1 million so'm buyoq, 1 million so'm elektr energiyasi sarfidir, Qolgan 2 million so'm mashina-uskunalar amortizatsiyasi, ijara xaqi va soliqlardan iborat. Aytaylik, fabrika gazlama to'qib chiqarishni 20 foiz oshirib, mahsulot hajmini 12 million so'mga etkazdi. Buning uchun qo'shimcha ravishda paxta uchun 600 ming so'm, bo'yoq uchun 200 ming so'm, elektr energiya uchun 200 ming so'm sarflandi. Ammo bu ish uchun ijara xaqi, mashina-uskunalar sarfini oshirish talab qilinmaydi.

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisi umumiy xarajatlar deyiladi.

Umumiy xarajatlardagi siljishlarni eng avval o'zgaruvchi xarajatlar yuzaga chiqaradi.

Iqtisodiyotda xarajatlarning umumiy mikdori emas, ularning samarasi muhim. Agar xarajatlarga nisbatan yaratilgan mahsulotlar tezroq o'ssa, ish samarali bo'ladi. Shu boisdan o'rtacha xarajatlarning ahamiyati katga.

O'rtacha xarajat mahsulot birligiga sarflangan xarajatdir.

Meyoriy xarajatlar. Me'yoriy xarajat deganda qo'shimcha ravishda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan qo'shimcha xarajat tushuniladi.

Umumiy xarajatlardagi qisqa muddatli siljishlar faqat o'zgaruvchi xarajatlar hisobiga yuz beradi. Ularni oshirish yoki qisqartirish hieobidan ishlab-chnqarish



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

hajmi o'zgaradi.

Masalan, bosmaxona kitobni ko'proq bosib chiqarishi uchun qog'oz, bo'yoq, karton, elim, ip va elektr energiyasi sarfini ko'paytirishi kerak. Bunda mashinalarni ko'paytirmasdan, ularning ishlash soati oshiriladi. Sarflarni qisqa vaqtda o'zgartirish uchun resurslarni sotib olib, korxonaga keltirishning o'zi kifoya, bu esa uzoq vaqt talab etmaydi. Lekin bu yo'l bilan mahsulot hajmini oshirishning cheki bor. Firmalar tovariga talab oshgan kezlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun uzoq muddat talab etadigan ham doimiy, xam o'zgaruvchan xarajatlarni ko'paytirish zarur. YAna bosmaxona misoliga qaytsak, kitobning bozori chaqqon bo'lib, uni sotishga ko'proq tashlash uchun o'zgaruvchi xarajatlarni oshirish kifoya qilmaydi. Buning uchun yangi tsexlar va omborlar qurish, yangi harf teradigan, bosadigan va muqovalaydigan mashinalarni o'rnatish kerak bo'ladi.

Albatta, uzoq muddatli o'zgarishlar vaqti bir xil emas. Masalan, yangi konni ochib, uni texiika bilan jihozlashga ko'p vaqt, bosmaxona uchun yangi tsex qurib, uni jihozlashga oz vaqt talab etiladi.

## Qisqacha xulosalar

Firma muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashadi, bozorga qarab ish yuritadi, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'ladi.

YAratilgan tovar va xizmatlar, bajarilgan ish birligi uchun sarflangan pul firmaning ishlab chiqarish harajatidir.

Me'yoriy harajat qo'shimcha ravishda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan qo'shimcha harajatdir.

## Nazorat va muhokkama uchun savollar

1.Firmaning qanday turlari bor?
2.Firmaning qaysi bir turi keng tarqalgan?
3.Xarajatlar nima va uning turlari qancha?
**4.**Me'yoriy xarajatlar nimani belgilaydi?

## Asosiy adabiyotlar


1. I.A.Karimov «Iqtisodiyotni erkinlashtirnsh va isloxatlarni chuqurlashtirish - eng muhim vazifa» «Xalq so'zi» 24 yanvar 2000yil.
2. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
3. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qullanma /A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
4. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз..




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

5. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
6. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
7. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
8. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..

## Internet veb-saytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## XVI-MAVZU. BIZNES SAMARADORLIGI MUAMMOLARI

**16.1. Biznesda foyda va rentabellik**
**16.2. Investitsiya faoliyati**
**16.3. Biznes va tadbirkorlik xatarlari va ularni kamaytirish tadbirlari**

### 16.1. Biznesda foyda va rentabellik

Tadbirkor foyda bermaydigan ishga qo'l urmaydi, binobarin sarf-xarajat ham qilmaydi. Xarajat qilish foyda ko'rishning sharti, vositasidir.

Foyda ishbilarmonlik qobiliyatini ishga solib, xatarli ishga qo'l urgani uchun tadbirkorlarga tegadigan mukofotdir.

Foydaning ham ikki turi bor: me'yoriy (normal) foyda tabiatan tadbirkorlik faoliyati uchun olinadigan xaq hisoblanadi va xarajatlar tarkibiga kiradi. Tovarlar eng past narxda, ya'ni xarajatga teng narxda sotilganda ham tadbirkor meyoriy foydani oladi; iqtisodiy foyda (sof foyda deb ham yuritiladi), miqdoran tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan pul (daromad) bilan xarajatlar o'rtasidagi farqqa teng bo'ladi va tovarlar xarajatlardan yuqori narxda sotilganda hosil bo'ladi. Iqtisodiy foydani tadbirkor va uning sheriklari oladi.

Sof foyda firma faoliyatining umumlashgan yakuniy ko'rsatkichidir. Sof foydaga qarab firma ishiga baho bersa bo'ladi. Foydaning turlari ko'p. Faoliyat turiga ko'ra ishlab chiqarish, tijorat (savdo-sotiq), bank foydasi kabilarni ko'rsatish mumkin. Ishlab chiqarish faoliyatida olinadigan foydadan farqliroq savdo-sotiq ishlarida tijorat foydasi bilan birga omad foydasi ham bor. Bozordagi narxlarning o'zgarishi tufayli olinadigan foyda omad foydasi deyiladi. Bu foyda xarajatlariga bog'liq bo'lmaydi, uni narxda kutilmagan o'zgarishlar yuzaga keltiradi. Masalan, to'qimachilik firmasi 2000 tonna paxtani har tonnasiga 1400 dollar to'lab sotib oldi. 3 oydai so'ng paxta narxi 1600 dollarga ko'tarildi. Demak, firma 400 dollar foyda ko'rdi. Chunki, u paxtani oldin sotib olmaganda, keyinchalik uni qimmatga olar edi. Tovarlar sotilish narxining ham ko'tarilmaganda ortib ketishi omad foydasini beradi. Lekin omad foydasi muhim emas, chunki, u firma ishiga bog'liq bo'lmaydi. Shu sababli firmalar o'z ishiga bog'liq bo'lgan ishdan daromad topish va foyda olishni ko'zlaydilar.

Firmaning daromadi deganda uning pul tushumlari anglanadi. Daromad foydadan ko'p bo'ladi. Firma daromadi uch turga bo'linadi: a) Umumiy daromad — barcha tovar va. xizmatlarni sotishdan tushgan pul. Uning miqdori sotiladigan tovarlar, xizmatlar soniga va ularning bozor narxiga bog'liq. Agar firma tovarni ko'p chiqarsa va yaxshi narxda sotsa, umumiy daromad ko'payadi.

b) O'rtacha daromad — tovar birligini sotishdan tushgan pul. Uni topish uchun umumiy daromad sotilgan tovarlar miqdoriga bo'linadi.

v) Me'yoriy daromad— qo'shimcha ravishda sotilgan tovardan tushadigai qo'shimcha pul. Uni aniqlash uchun tushgan umumiy pul(daromad) o'simi qo'shimcha sotilgan tovarlar miqdoriga bo'linadi.

Bu ko'rsatkich tovarlarni qo'shimcha ishlab chiqarish umumiy daromadni



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

qanchalik oshirishni ko'rsatadi. Agar umumiy daromad xarajatga teng bo'lsa, natija nolga teng, ya'ni foyda ko'rilmaydi.

Xar bir firma foydani eng ko'p darajaga ko'tarishga intiladi. Buning uchun tovarlarni ko'proq chiqarish shart. Demak, me'yoriy.daromad ortib borishi kerak. Ammo bunga erishmoq uchun hech bo'lmaganda xarajatlar o'zgarmasligi yoki ular oshgan taqdirda ham tovarlarning bozor narxlaridan sekinroq o'sishi kerak.

Foyda miqdori narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda, xarajatlarga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi.

Bu qoidaga binoan foydani maksimumlashtirish uchun tovarlarni yuqori narxda sota bilish kerak, sotish uchun esa bozorbob, xaridor suyadigan tovarlarni ishlab chiqarish zarur, foyda topish xarajatlarni eng kam darajaga tushirishni (minimumlashtirish) ham talab qiladi. Masalan, A tovar 100 so'mga sotiladi, uning xarajatlari 80 so'm, foyda 20 so'm. Endi-A tovar modernizatsiyalandi, sifati yaxshilandi va bozorda narxi 110 so'mga ko'tarildi. Ayni vaqtda harajatlar kamaytirilib 75 so'mga tushdi. Bunda ko'riladigan foyda 35 so'm bo'ladi. Demak, u maksimumlashdi, chunki 35>20. Narx o'zgarmagan sharoitda xarajatlar qanchalik pasaysa, foyda shu qadar ortib boradi.

Xarajatlarning foydaga ta'siri mehnat unumdorligi orqali yuz beradi. Foydani maksimumlashtirish yuksak mehnat unumdorligini talab etadi va iqtisodiy ravnaq (progress) ni ta'mnlaydi.

Mehnat unumdorligi xarajatlarni pasaytirish orqali foydani oshiradi, shu sababli foydani ko'proq olish omili hisoblanadi.

Foyda firma faoliyatining moliyaviy natijasi hisoblanadi. qancha sarflab, qancha foyda ko'rilgani firma ishining samarasini belgilaydi. Shu boisdan iqtisodiyotda foydalilik yoki rentabellik deb ataladigan ko'rsatkich qo'llaniladi. Uni aniqlash uchun olingan foyda qilingan xarajatlar bilan taqqoslanadi va xarajatlar birligiga qancha foyda to'g'ri kelishi ma'lum bo'ladi.

Ishlab chiqarish rentabelligi va mahsulot rentabelligi mavjud. Ishlab chiqarish rengabelligi uning naqadar foyda bsrishini ko'rsatadi. Foydalilik (rentabellik) darajasi foyda normasi bo'lib; ikki usulda aniqlanishi mumkin.

Birinchi usulda foyda miqdori ishlab chiqarishga qo'yilgan kapitalga bo'linadi va foizlarda ifodalanadi. Masalan, firma 100 million so'm kapital quyib, 16 million so'm foyda ko'rsa rentabellik quyidagicha 16 foizga teng bo'ladi.

Bu olingan foyda firma sarflagan kapitalini necha foiziga teng degan ma'noni bildiradi. Masalan, 2001 yili Qibray pivo zavodining daromadi 159150 ming so'm, xarajatlari 120390 ming so'm, shundan sof foyda 17160 ming so'm bo'ldi. Korxonaning kapitali (aktivi) 186360 ming so'm edi.

Xuddi shu usul bilan hisoblanganda 2001 yili tashkilot qishloq xo'jaligi kimyo mashinasozligi zavodida IChR 3.7% bo'ldi, Demak foyda normasi keskin farqlandi, bu esa korxona ishining natijasidan kelib chiqdi. Rentabellik darajasini hisoblashning ikkinchi usulida foyda miqdori joriy xarajatlar miqdori bilan taqqoslanadi. Agar firmaning ishlab chiqarish uchun qilgan joriy sarfi 500 million so'm bo'la turib, 200 million so'm foyda ko'rsa, rentabellik 40 foizga teng bo'ladi. Bunda firma 1 so'mlik sarfi evaziga 40 tiyin topgan bo'ladi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Foydani maksimumlashtirish uchun nimani ishlab chiqarish eng yuqori rentabellik bersa, firma shu ishga qo'l uradi. Shu bois ayrim mahsulot turining rentabelligi aniqlanadi. Bunga muayyan mahsulotni sotishdan kelgan foyda uni ishlab chiqarish xarajati bilan solishtiriladi. Masalan, tikuvchilik firmasi foydani maksimumlashtirish uchun engi uzun va engi kalta chit ko'ylak, engi kalta trikotaj ko'ylakdan qaysi birini ko'proq chiqarsh uchun ularning rentabelligini aniqlashi kerak. Agar birinchisi 12 foiz, ikkinchisi 14 foiz, uchinchisi 20 foiz rentabellik bersa, albatta firma uchinchi ko'ylakni tikishni ma'qul ko'radi yoki ikkinchi ko'ylakni ham qo'shib tikadi.

Rentabellik qaerda pul ko'p foyda keltirsa, uning shu erga qo'yilishini bildiradi. Ammo pul egasi oz bo'lsa-da, kafolatlangan Daromad topmoqchi bo'lsa, pulini rentabelliga past, ammo bexavotir foyda beruvchi sohaga yoki ko'p daromad topmoqchi bo'lsa, rentabellik yuqori bo'lgan, lekin xatarli sohaga qo'yishi mumkin.

Tadbirkorlik uchun foydaniig mutlaq miqdori — hissasi ham muhim. Foyda massasi rentabellik darajasiga, qo'yilgan pul (kapital) miqdoriga va kapitalning aylanishiga bog'liq. Agar rentabellik qanchalik yuqori bo'lsa va qo'yilgan pul qanchalik ko'p bo'lsa foyda massasi shunchalik ko'p bo'ladi. Foyda massasi bir so'm pul keltirgan foyda bilan qo'yilgan jami pul miqdoriga qarab o'zgarib turadi. Ammo shu bir so'm pul keltiradigan foyda kapitalning aylanish tezligiga ham bog'liq. Kapital aylanish qanchalik tez bo'lsa, rentabellik o'zgarmagan taqdirda ham olingan foyda miqdori ko'p bo'ladi. Masalan, bir sohaga qo'yilgan 100 million so'mlik kapital yiliga 4 marta aylanadi, har aylanishda 5 million so'mdan foyda keltiradi. Demak, foyda massasi yiliga 20 mnllion so'm (5.4) bo'ladi. Ikkinchi sohaga qo'yilgan kapital ham ,100, million so'm, har oborotida u ham 5 million so'mlik foyda keltiradi. Ammo u yiliga 6 marta oborot qilib, jami 30 million so'm (5.6) foyda beradi. Demak, ikkinchi sohada foyda massasi ko'proq (30>20).

Agar rentabellik firma pulining naqadar samarali ishlatilishini ko'rsatsa, foyda massasi uning iqtisodiy qudratini ifodalaydi.

Foyda uni topishda kim qanday hissa qushganiga qarab taqsimlanib, o'zlashtiriladi. Bu ishda pul egalari o'z kapitali, ishchilar mehnati, tadbirkorlar ishbilarmonligi bilan qatnashadilar. Shu sababdan ular foydani bo'lib oladilar.

Firmaning iqtisodiy ahvoliga qarab uning reytingi unga beriladigan baho aniqlanadi. Reyting mazkur firma bnlan aloqa qiladiganlar uchun muhim axborot xizmatiii o'taydi. Odatda reyting ko'rsatkichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: hisobotlarning ishonchli bo'lishi, rentabellik, kapital miqdori va uning aylanish tezligi, to'lov qobiliyati, raqobatbardoshlik, foydaning o'sishi va uning taqsimlanishi, tovarlarning sotilish hajmi, soliqlarni to'lay bilish, qarzdorlik, dividend olish, investitsiya qobiliyati va, nihoyat, bankrot bo'lish ehtimoli.

## 16.2. Investitsiya faoliyati

Tadbirkorlik ishining rivoji investitsiya talab qiladi. Investitsiya bironta ishga mablag' qo'shishni, sarflashni bildiradi. Investitsiya qilishdan maqsad foyda ko'rish. Investitsiya keng ma'noda pul chiqadigan har qanday ishga mablag' qo'yish, tor



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

ma'noda ishlab chiqarishning moddiy bazasini rivojlantirish, masalan, mashina-uskunalarni sotib olish, o'rnatish, yangi texnikani joriy etish, yangi bino-inshoatlarni qurish uchun mablag' sarflashdir. Bu bizning mamlakatda kapital mablag'lar, kapital sarflar deb yuritiladi.

Investitsiya sifatida pul, qimmatbaho qog'ozlar (aktsiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), er, bino, inshoat kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, texnikaviy yangiliklar, ixtirolar ishlatiladi. Muhimi, hamma mablag'lar pulga chaqilgan holda investitsiyalanadi. Investitsiya ikki turga bo'linadi. Birinchisi—to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash, ya'ni uni korxona ishiga kapital sifatida qo'yish. Ikkinchisi — mablag'ni korxonalar aktsiyalarini sotib olishga sarflash bo'lib, portfel investitsiyalar deb ataladi.

Investitsiyalash muqobil tanlov qoidasiga asoslanadi, ya'ni investitsiyalashningg eng foydalisi tanlab olinadi. Tadbirkorlik ishida xatarni kamaytirish uchun investitsiya bir vaqtning o'zida bir necha ishga qo'yiladi, bu bilan bir erda ko'riladigan zararnn boshqa erda ko'rilgan foyda bilan qoplash mumkin. Bunday mablag' qo'yish diversifikatsiyalashgan investitsiya deb yuritiladi. Odatda buning uchun turli korxonalar aktsiyasi sotib olinadi. Masalan, 100 ming so'm pulga avtopark, to'qimachilik fabrikasi, turistik firma, non zavodi, tikuvchilik firmasi, sug'urta kompaniyasi va bank aktsiyalari sotib olinishi mumkin.

Mablag'ni investitsiyalashda uning tezda qaytim berishi, o'zini» tez oqlanishi hisobga olinadi, investitsiyalangan - mablag' keltirgan foydasi bilan taqqoslanadi, ya'ni foyda normasi (rsntabellik) hisoblab chiqiladi. Masalan, 10 million so'm pul investitsiyalanishdan oldin turli muqobil usullar o'zaro solishtiriladi, aytaylik, bu yo'l har yili tikuvchilik ishida 2 million so'm foyda bersa, o'zini 5 yilda, agar mashinasozlik zavodida yiliga 1 million so'm foyda bersa, 10 yilda oqlaydi. Bunda albatta birinchi usul tanlanadi. Chunki, u kapital sarfini 2 marta tez oqlaydi.

Investitsiya samaradorligini oshirish uchun quyidagilar talab qilinadi: birinchidan, investitsiya keltiradigan foyda bank beradigan foizdan yuqori bo'lishi kerak. Agar shunday bo'lmasa ovora bo'lib, pulni investitsiyalagandan ko'ra, uni bankka qo'yib, bemalol foiz olib yotish qulay. Masalan, bank foizi yiliga 8 foiz bo'lsa, investitsiyadan keladigan foyda bundan ortiqcha - 9, 10 yoki 11 foiz bo'lishi kerak; ikkinchidan, investitsiyadan keladigan foyda inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lishi talab qilinadi. Agar yillik inflyatsiya 5 foiz bo'lsayu, investitsiya beradigan foyda normasi 2 foiz bo'lsa, zarar ko'riladi, Shuning uchun foydaning o'sishi hech bo'lmasa inflyatsiya shiddatidan yuqori bo'lishi kerak. Aytilgan 5 foiz inflyatsiya sharoitida foyda 15 foiz bo'lsa, inflyatsiyadan keladigan 5 foiz zarar qoplanib, 10 foiz foyda olingan bo'ladi; uchinchidan, nnvestitsiya eng yuqori foyda normasini ta'minlaydigan sohalarga qo'yilishi lozim. Masalan, investitsiyaning uch sohasi bo'lib, ulardan birinchisi 12 foiz, ikkinchisi 13 foiz, uchinchisi 15 foiz foyda beradigan bo'lsa, albatta, uchinchi yo'l tanlanadi. Investitsiya yo'li tanlanganda foyda normasining pasayishiga moyil bo'lishi nazarda tutiladi.

Foyda miqdorini kamaytirmaslik uchun foyda normasi pasaygan chog'da olingan foydani qaytadan pul topish uchun qo'yish kerakki, bu reinvestitsiya deyiladi. Reinvestitsiya qo'yilgan kapital summasini oshirish orqali foyda



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

mmiqdorini kamaytirishga yo'l qo'ymaydi. Masalan, 100 mln. so'm investitsiya xozir 10 mln. so'm foyda beradi, demak, foyda normasi 10 foiz, 3 yildan so'ng foyda normasi 8 foizga tushib qolsa, 100 mln. so'mdan 8 mln. foyda ko'rilib, foyda miqdori 2 mln. so'mga qisqargan bo'ladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun 3 yilda har yili 10 milliondan jami 30 mln. so'mga teng foyda reinvestitsiya qilinib, kapital 130 mln. so'mga etkaziladi. Foyda normasi 8 foiz tushgan taqdirda ham 10,4 mln. so'm foyda ko'riladi.

Binobarin, olingan foyda miqdori o'sadi, chunki 10,4>10,0 bo'ladi.

Investitsiya ishining ham o'z xatari bor. Uning oldini olish uchun iivestitsiyalar sug'urtalanadi. Masalan, O'zbekistonga keladigan xorijiy investitsiyalarni xatardan sug'urtalash ishini «O'zbekinvest» sug'urta kompaniyasi olib boradi, uning dastlabki kapitali 10 million dollar hisobida belgilangan.

### 16.3. Biznes va tadbirkorlik xatarlari va ularni kamaytirish tadbirlari

Bozor iqtisodiyoti tasodiflardan xoli emas. Bozorda faoliyat ko'rsatayotgan firmalar har xil vaziyatga tushib qolishi mumkin. Firmaning ishi yurishib, tezda boy firmaga aylanishi yoki zararga yo'liqib, bor-budidan ayrilib qolishi ham hech gap emas. Tadbirkorlik xatari ham mana shunda. Bu xatarni bartaraf etib bo'lmaydi, ammo uni kamaytirish mumkin. Buning uchun biron ishga qo'l urishdan avval uning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish talab qilinadi.

Doimiy xatar xavfi firmalarni hushyor tortishga majbur qilib, ziyraklik talab qiladi.

Firmaning o'z foydasi, hatto kapitaldan ajralib qolishi ehtimoli tadbirkorlik xatari deyiladi.

Xatar, birinchidan, firma ishini o'quvsiz yuritishdan, ikkinchidan, firmaga bog'liq bo'lmagan holda vaziyatning o'zgarishidan, ya'ni bozorda noaniqlik bo'lishidan kelib chiqadi. Bozordagi resurslar va tovarlar narxining kutilmaganda o'zgarishi, iste'molchi va sheriklarning aynib ketishi, soliqlar va boj pulining o'zgarishi, xalqaro vaziyatning keskinlashuvi kabilar xatarni yuzaga chiqaradi. Xatarni oldindan bilish yoki uni engib o'tish hamma firmaning ham qo'lidan kelavermaydn. Firmalar xatarini uch turga bo'lish mumkin.

1. Ishlab chiqarish xatari. Bu mo'ljallangai hajmda va kerakli turdagi tovarlarni yaratishga raxna soluvchi xavf-xatar, masalan, firma bozorga 10 million so'mlik mol chiqarishga jazm qilgan bo'lsa, vaziyat o'zgarishi bilan u 8 million so'mlik tovar chiqara oladi.

2. Tijorat xatari. Bu mo'ljallangan resurslarni bozordan ola bilmaslik va tovarlarni kutilgan miqdor va narxda sota bilmaslik xatari. Masalan, firma 100 ming dona tovar chiqarib, uning har birini 5 ming so'mdan sotishni ko'zlagan bo'lsayu, tovarni 100 ming o'rniga 40 ming dona chiqarsa yoki uni 5 ming so'm o'rniga 4,5 ming so'mdan sotsa, natijada faqat savdoning o'zida ma'lum bir ziyon ko'rdi.

3. Moliyaviy xatar. Bu firma moliya bozorida va soliq to'lash soxasida yo'liqadigan xavf-xatardir. Aytaylik, firma mo'ljallagan kreditni ola bilmaydi, foizi ortib ketadi, firma aktsiyasining narxi tushadi, davlatdan moliyaviy yordam tegmay



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

qoladi, natijada firma xatar girdobiga tushib qoladi va hokazo.

Yuqorida aytilganidek, bozorda faoliyat ko'rsatayotgan har qanday firmaga xatar soya tashlab turadi. Undan tamoman qutulish mumkin bo'lmasada, uning ta'sirini kamaytirish imkoni bor va bu firmaning o'ziga bog'liq. Xatarning eng halokatlisi bankrot bo'lish, sinish xavf-xataridir.

Bironta ishga pul sarflashdan oldin zarar ehtimolini imkoni boricha kamaytirishning har xil yo'l-yo'riqlari ishlab chiqiladi. Eng avval firma xatarini chetlab o'tish yo'llarini axtaradi, qaerga, qancha pul qo'yish, qaysi sohada ish boshlashdan oldin qayerlarda ish qanday ketayotganligi o'rganiladi, axborot to'planadi. Axborot tovar narxi, savdo hajmi, raqobatchilik vaziyati, xarajatlar darajasi, bozorning kengayishi imkoniyati, resurslar narxi, reklama holati va boshqa sohalarni qamraydi, Shularni tahlil etib, pul qo'yish yoki qo'ymaslikka qaror qilinadi. Bunda sinalgan yo'llardan biri - pul foyda ko'p bo'lmasada, xatari eng kam ishga qo'yiladi. Boshqa yo'l tadbirkorlik xatarini sug'urtalash hisoblanadi. Bu yo'l tanlanganida sug'urta puli kutiladigan foydadan ma'lum darajada kamroq bo'lishi lozim, aks holda zarar qilish mumkin. Masalan, firma 5 million so'm kapital sarflab, shundan 500 ming so'm (foyda ko'rsa, sug'urta puli 300 ming so'm bo'lishi kerak. Shunda biror hol ro'y berganda firma 200 ming so'm (500-300-200) foyda ko'radi. Agar sug'urta puli foydani yo'qqa chiqarsa, xatar saqlanib qoladi. hozirgi sharoitlarda investitsiya diversifikatsiya etiladi, ya'ni pul har xil sohalarga qo'yiladi. Chunki, bir ishda zarar ko'rilsa, boshqasida foyda tegishi mumkin. Bu usul ayniqsa aktsiya sotib olishda qo'l keladi. Masalan, 100 million so'm pulga 5 ta firma aktsiyasini olish mumkin.

Xatarni qisqartirish uchun firmalar o'z faoliyatini chegaralaydilar, ish hajmi va sarf-xarajatini ma'lum me'yordan oshirmaslikka intiladilar. Masalan, firma vaziyatni hisobga olib, har bir tovar uchun ketgan sarf-xarajatni 500 so'm bilan chegaralangan holda 5 million dona tovar chiqaradi va ularnnng har birini 750 so'mdan sotadi. Agar xarajat oshib ketsa yoki tovar ko'p chiqarilib, sotilmay qolsa, zarariga ishlash mumkin.

## Qisqacha xulosalar

Foyda ishbilarmonlik qobiliyatini ishga solib, xatarli ishga qo'l urgani uchun tadbirkorlarga tegadigan mukofotdir.

Investitsiya faoliyati tadbirkorlarni YAngi muqobil tanlov qoidasiga undaydi.

Firmaning o'z foydasi bo'lganidek uning kapitaldan ajralib qolish ehtimoli ham mavjuddir.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Foyda miqdori nimalarga bog'liq?
2. Ishlab chiqarish rentabelligi va mahsulot rentabelligi qanday farq qiladi?
3. Nima uchun firma tadbirkorlikda xatar bor?



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Asosiy adabiyotlar


1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlisning birinchi sesiyasi ikkinchi chaqiriq yig’lishida so’zlagan nugqi. «Xalq so’zi» 2000 yil 23 va 24 yanvar.
2. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo’limiz. Xalq so’zi 13 fevral, 2002 yil.
3. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O’quv qullanma /A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
4. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз..
5. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O’quv qo’llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
6. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
7. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
8. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O’zbekiston Respublikasining “Iqtisodiy tadqiqotlar markazi” ning “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – “Mikro-makroiqtisodiyot” kafedrasi sayti mavjud bo’lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo’lgan ma’lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – “O’zbekiston iqtisodiyoti” qo’llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so’nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o’zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o’zida qamrab olgan veb-sahifa.




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# XVII-MAVZU. MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BIZNESNING O'RNI

**17.1. Makroiqtisodiy barqarorlik**
**17.2. Iqtisodiy barqarorlikda biznesning o'rni**
**17.3. Biznes mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash choralari**

## 17.1. Makroiqtisodiy barqarorlik

Respublikada iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda islohotlarni chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyot hamda uning etakchi tarmoq va sektorlarida 2001 yili muntazam o'sish tendentsiyasi kuzatildi. YAlpi ichki mahsulot hajmi 1991 yil darajasiga nisbatan 103 foizni tashkil etdi va 4868,4 mlrd. so'mga etdi. YAlpi ichki mahsulotning o'sishi sanoat mahsuloti (108,1 foiz), qishloq xo'jalik ishlab chiqarish (104,5 foiz), qurilish ishlari (103,3 foiz), ichki savdo hajmining (109,5 foiz) va tashqi savdo hajmi (103,1 foiz) yanada ortishi hisobidan ta'minlandi.

Respublika tashqi savdo balansi ijobiy shakllandi, eksport importdan 128 mln. AQSh dollariga ortdi.

Respublikada o'tkazilgan moliyaviy va pul-kredit siyosati natijasida makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlandi, iqtisodiyotning umuman davlat miqyosida, shuningdek, mintaqalar va tarmoqlar miqyosida moliyaviy mutanosibligi mustahkamlandi, xo'jalik ish yurituvchi sub'ektlarda to'lov intizomi sezilarli darajada mustahkamlandi. Investitsiya dasturi doirasida respublika iqtisodiyotda tarkibiy qayta tuzishlarni yanada chuqurlashtirish hamda investitsiyalarni, shu jumladan chet el investitsiyalarni keng ko'lamda jalb etish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Masalan, mablag' bilan ta'minlanishning barcha manbalari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (1194,2 mlrd. so'm) 2000 yilga nisbatan 3,7 foizga ortdi, bu esa, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 24,5 foizni tashkil etdi. 2001 yilda kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlashda ma'lum qismi chet el investitsiyalari va kreditlari hisobiga ortdi. Ularning ulushi 2000 yilga nisbatan 7,6 foizga ortdi va asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 29,3 foizini tashkil etdi. Kapital qo'yilmalar tarkibida, shuningdek, korxonalarning o'z mablag'lari ulushi 1,1 foizga ortib, 27,5 foizni tashkil etdi.

Jalb qilingan investitsiyalarning ancha qismi ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish, kengaytirish, qayta qurish va qayta jihozlashga yo'naltirildi. Ularning hajmi 744,6 mlrd. so'mni yoki o'zlashtirilgan jami investitsiyalarning 62,4 foizini tashkil etdi.

Masalan 2001 yilda energiya ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, neft-gaz majmui, ko'mir, metallurgiya, kimyo, paxtani qayta ishlash, engil sanoat, ipak, charm-poyabzal, mebel va iqtisodiyotning boshqa etakchi tarmoqlari korxonalarni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash dasturlari izchil amalga oshirildi va texnik ishlab chiqarish hajmi 2884,5 mlrd so'mni tshkil qildi va 2000 yilga nisbatan foiz hisobida 108,1 tashkil etdi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Bunda temir yo'l va avtomobil transporti komunikatsiyalarining modernizatsiyasi va yangi qurilishlari faol olib borildi va kichik va o'rta biznes faol ishtirok etdi.

Eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida o'tgan yili 200 dan ortiq qo'shma korxona, shu jumladan, respublikaning barcha mintaqalarida chet ellik sheriklar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish dasturini amalga oshirish doirasida 90 ta qo'shma korxona barpo etildi. Chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar mahsulot va xizmat hajmi 2001 yilda 2000 yilga nisbatan foiz hisobida respublikada 158,2 ga oshgan bo'lsa, Andijon viloyatida 2,1 marta, Buxoro viloyatida 5,1 marta oshdi.

Respublikada chet el investitsiyalari kiritilgan 2001 yilning 1 yanvar holatiga 33001 ta korxona ro'yxatga olindi. Ko'plab qo'shma korxonalar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Koreya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Ukraina va boshqa mamlakatlar investorlari ishtirokida barpo etildi. Respublikaga kiritilgan chet el investitsiyalarini 23,4 % Qashqadaryo viloyatida va 30,3% Toshkent shahrida o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan chet el investitsiya va kreditlar hajmi 349,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Kichik va o'rta biznesning qonunchilik, me'yoriy-huquqiy negizini mustahkamlash, «bir yo'la» kichik va o'rta biznes sub'ektlar ro'yxatga olingan kichik, o'rta korxona, mikrofirmalar soni 201,9 mingtaga etdi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sonidan 90,5 foizni tashkil etdi.

Makroiqtisodiyotning kichik sektorining mahsulot ishlab chiqarishi, ishlar bajarilishi va xizmat ko'rsatishi 2001 yilda yuqori sur'atlar bilan o'sdi. Kichik va o'rta tadbirkorlikning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari(dexqon xo'jaliklarisiz) tomonidan yalpi ichki mahsulotning 24,4 foizi ishlab chiqarildi. Kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlikni jadallashtirilgan rejalanishning davlat dasturini amalda bajarish natijasida mazkur sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yilga nisbatan 2,8 foizga ortdi. Aholini ish bilan taminlashda kichik va o'rta biznes muhim omil bo'lmoqda. 2001 yilda iqtisodiyotning bu sektorida 4842,5 ming kishi band bo'lgan yoki iqtisodiyotda barcha band bo'lgan aholining 53 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar izchil o'tkazildi. O'tgan yilda respublikamizda jami 1449 ta korxonalar xususiylashtirilib, ular negizida 775 ta xususiy korxona, 240 ta ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari va 674 ta turli tashkiliy-huquqiy shakldagi nodavlat korxonalari tuzildi. Xususiylashtirish natijasida davlat byudjetiga tushgan pul mablag'lari hajmi 23,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Makroiqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar natijasida 2002 yil 1 yanvar holatiga nodavlat sektorda mamlakat barcha korxona va tashkilotlarning 87,1 foizi faoliyat ko'rsatdi. O'tgan yilda nodavlat sektorida yalpi ichki mahsulot hajmining 74,1 foizi, sanoat mahsulotlarining 70,8 foizi ishlab chiqarildi, qishloq xo'jalik mahsulotining 99 foizi etishtirildi, qurilish ishlarining 83,9 foizi bajarildi. Chakana tovar aylanmasining 97,1 foizi, aholiga pullik xizmat ko'rsatishning 59,4 foizi nodavlat sektorda shakllandi. Jami iqtisodiyot sohasida band bo'lganlarning 76 foizi nodavlat sektoriga to'g'ri keldi va makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## 17.2. Iqtisodiy barqarorlikda biznesning o'rni

Makroiqtisodiy xususiy sektori mustahkamlandi, (qishloq xo'jalik, savdo, xizmat ko'rsatish sohasi) ishlab chiqarilgan mahsulot bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning ancha qismi uning ulushiga to'g'ri keladi. 2002 yilda 62,5 ming korxona (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) o'z faoliyatini xususiy mulkchilik doirasida amalga oshirdi. Xususiy korxonalarning yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasida, har oltinchisi sanoatda faoliyat ko'rsatmoqda.

Oqibatda 2001 yilda 2000 yilga nisbatan 8,1 foizga ko'p), 1329,1 mlrd. so'mlik iste'mol mollari(10,9 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

Kichik va o'rta biznes, xususiy sektorda yangi turdagi ishlab chiqarish va tarmoqlar jadal sur'atlar bilan rivojlandi. 2001 yilda respublika sanoat korxonalari tomonidan 467 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va chuqurlashtirish davrida mahalliy mineral va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga asoslangan holda yangi mahsulotlar ishlab chiqarish keng o'zlashtirilmoqda. 2001 yilda mamlakatimizda etishtirilgan paxta tolasini qayta ishlovchi, eng zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan jihozlangan «Kabul-Farg'ona», «Chinoz to'qimachi» kabi yangi qo'shma korxonalar ishga tushirildi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, agar 1991 yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, endilikda bu raqam 24 foizga etdi. Paxta tolasi va ipak xomashyolaridan mukammal texnologiya asosida tayyorlangan kalavali ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmlari ancha oshdi.

Tabiiyki, xorijiy investitsiyalarni jalb etmay turib, ishlab chiqarishga kiritilgan kapital mablag'lar hajmini oshirmay turib, bunday o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi. Jumladan, 2001 yili ana shu sarmoyalar ulushi 62 foizdan ziyod darajani tashkil etdi. Joriy 2002 yilda esa respublika iqtisodiyotini investitsiyalash hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 24,5 foizni tashkil etdi. Kapital mablag'lar tarkibida xorijiy investitsiyalar hissasi ko'payib, u jami investitsiyalarning 30 foiziga yoki 1mlrd AQSh dollariga to'g'ri kelishi kutilmoqda.

## 17.3. Biznes mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash choralari

O'tgan 2001 yilning muhim xususiyati-bu mahalliy resurslarni qayta ishlash asosida kichik va o'rta tadbirkorlikning sur'atlari yanada tezlashgani bilan bog'liqdir. Kichik va o'rta biznesning, fermer xo'jaliklarning qonunchilik hamda huquqiy-me'yoriy asoslari ancha mustahkamlandi va takomillashdi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlarini ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartiblari joriy etildi.

Mahalliy mineral va xomashyo resurslarini chuqur ishlash yo'lida imtiyozli va mikrokreditlar berish hamda boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun mablag' ajratish yo'li bilan respublikada kichik va o'rta biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash miqyoslari kengaytirildi. Masalan, 2001yilda kichik va o'rta biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar hajmi 2001 yilning o'zida 2,4 martadan oshdi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Bularning 70 foizga yaqini o'rta va uzoq muddatli kreditlardir. Tadbirkor va fermyerlarga berilgan mikrokreditlar hajmi esa 27mlrd. so'mdan ziyod bo'ldi.

Kichik va o'rta biznes vakillarining moddiy-xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tovar xomashyo birjalarida sotish hajmi oshib bormoqda Natijada kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi oshdi, u hozirgi 2002 yilning boshida 24,5 foizni tashkil etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, butun mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan aholining 53 foizidan ko'prog'i kichik va o'rta tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda.

Shuning uchun ham qishloq xo'jaligida isloxotlarni amalga oshirish shirkatlarga aylantirilgan 18 ming,55,1 ming fermer xo'jaliklari va ularga biriktirilgan 1054,7 mig gektar er, ya'ni bir xo'jalikka o'rta hisobdan 19 gektar er to'g'ri keladigan yerlarni suiorishga yaroqli suvdan tejab-tergab, samarali foydalanishga, sug'orish va irrigatsiyaning zamonaviy tizimlarini joriy qilishga, suvdan foydalanish intizomini kuchaytirishga erishayotganlarni rag'batlantirishga qaratilgan va ilmiy-tadbirkorlikni hayotga tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Respublika Prezidenti I.Karimov «har tomchi suv oltinga teng bo'lib turgan bir paytda ko'plab viloyatlarda suvdan foydalanish koeffitsienti tushib ketgan. Jumladan Buxoro Navoiy, Surxondaryo, Namangan kabi bir qator viloyatlarda sodir bo'layotgan bunday salbiy holatlarning sabablarini chuqur sinchiklab o'rganish va tegishli choralar ko'rish lozim[5]» dedilar.

Alohida e'tiborni talab qiladigan yana masala viloyatlar, Toshkent shahrida va boshqa aholi punktlarida ichimlik suvini tejash masalasidir. YAqin yillar ichidayoq bu masala eng keskin muammolardan biriga aylanishi, ichimlik suvi esa eng noyob va qimmatbaho tabiiy resurs bo'lib qolishi mumkin. Hozirning o'zidayoq butun-butun mintaqalarda, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro viloyatlarida, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlarining ayrim tumanlarida suv ta'minoti bilan bog'liq muammolarga duch kelinmoqda.

Bu masala o'rganilganda aholi tomonidan suv sarflanishining amaldagi miqdori belgilangan me'yorlardan 2-3 barobar ortiq ekani ayon bo'ldi. Masalan, Toshkent shahrida korxonalarda, avtomobil yuvish shaxobchalarida ichimlik suvidan texnik maqsadlarda foydalanish kabi odatlarga hanuzgacha chek qo'yilgani yo'q. Bundan tashqari respublikaning ayrim shaharlari va tuman markazlarida sug'orish shaxobchalari yo'qligi, mavjud ariqlarning esa ko'mib tashlangani tufayli yoz mavsumida aholi vodoprovod suvidan sug'orish maqsadlari uchun foydalanilmoqda.

Ichimlik suvi sarflanishini hisobga oluvchi o'lchagichlarni o'rnatish ishlari qoniqarsiz ahvolda. Toshkent shahrining o'zida ahvol yomon «Toshviloyatsuvoqava» trestiga qarashli iste'molchilarning atigi 3 foizidagina ana shunday o'lchagichlar mavjud.

Energetika resurslaridan, birinchi galda tabiiy gazdan foydalanish ahvoli yaxshi emas. Masalan, respublika bo'yicha o'tkazilgan tekshirishlar natijasida jami 12 mingdan ortiq issiqxonalar qonunga xilof ravishda gazdan foydalanayotgani

[5] Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz Xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

aniqlandi. Bunday issiqxonalarning soni Samarqand viloyatida 4250 ta, Toshkentda 1500 ta, Andijon viloyatida esa 1450 ta ekanligi ma'lum bo'ldi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ayrim aholi qatlamlarining tabiiy gazdan foydalanish darajasi me'yoridagiga nisbatan 1,5-2 barobar ortiq.

Moddiy resurslardan xo'jasizlarcha, mas'uliyatsizlik bilan foydalanish mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan material va energiya sarfining oshishiga, bu esa, o'z navbatida ana shu mahsulot tannarhining qimmatlashuviga olib keladi. Tovarning narxi oshib ketadi va oqibatda u raqobatga bardosh bera olmaydi. Shu tariqa, mahsulotlarimizni jahon bozoriga olib chiqish yo'lidagi say'i-harakatlar yo'qqa chiqadi.

Shuning uchun bunday holatlarning oldini olish, bu borada tartib o'rnatish va mahalliy resurslardan oqilona foydalanish O'zbekistonning jahon bozoriga tezroq integratsiya qilishga imkon beradi, bu imkoniyat tabiiy gazlardan oqilona foydalanishdir. Haqiqatan respublikamizda tabiiy gaz zahiralari keng tarqalgan. Shular ichida Sho'rtan gaz konlari xazinasini oqini oqqa, ko'kini ko'kka ajratib olsak, tamomila boshqacha ko'rinishdagi manzara paydo bo'lar ekan. Mutaxassislarning aytishlaricha, mana shu gaz tarkibidan 148 turdan ziyod polietilin ishlab chiqarish imkoniyati bor. Bu imkoniyat Sho'rtan gaz kimyo majmuasida ro'yobga chiqarilmoqda. Cho'l bag'rida bunyod etilgan ushbu maskanni 450 gektarga yaqin yashil o'rmon qurshab turibdi. Bu erda qariyb 1 million tup ko'chat o'tkazildi.

Ko'rib turibmizki, istiqlol tufayli O'zbekiston mahalliy mineral va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash orqali yangi marralarni zabt etmoqda, mamlakatlaru qit'alar bilan mustahkam aloqa o'rnatmoqda.

## Qisqacha xulosalar

Respublikada o'tkazilgan iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda islohotlarni chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash shartidir.

Iqtisodiy barqarorlikda kichik va o'rta biznes sub'ektlari alohida barqarorlik shartlarini bajaradi.

Mahalliy resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy tanlov qoidasida amalag oshiriladi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda biznesning o'rnini aytib bering.
2. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish chora tadbirlari.
3. Mahalliy mineral va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash yo'llari.
4. Mahalliy resurslardan foydalanishda biznesning roli.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Asosiy adabiyotlar


1. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. Xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
2. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз..
3. Xodiev B.Yu., Samatov G'.A.., Yusupov M.S., Eshov M.P. «Kichik tadbirkorlik faoliyati asoslari» o'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent: EH TEMPUS dasturi «Matador-2000» loyihasi 2004.-144 bet.
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
6. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
7. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
8. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..


## Internet veb-saytlari


1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# XVIII-MAVZU. KIChIK VA O'RTA BIZNES ISTIQBOLI

**18.1. Kichik va o'rta biznes**
**18.2. Kichik va o'rta biznes istiqboli**

## 18.1. Kichik va o'rta biznes

Butun dunyoda bozor iqtisodiyoti mexanizmi taraqqiyotning harakatlanuvchi kuchi sifatida o'z samarasini ifoda etmoqda. Bozor mexanizmining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun xususiy mulkchilik, raqobat va tadbirkorlik muhiti mavjud bo'lishi kerak.

O'zbekiston mustaqillikka erishish bilan mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov xususiy tadbirkorlik va uning kichik va o'rta biznes shaklini rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratdi. Natijada respublikamizda qisqa vaqt ichida kichik va o'rta tadbirkorlik rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi shakllantirildi. Birinchi navbatda bu tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoyalovchi huquqiy asos bo'lsa, ikkinchidan, ularning qisqa va uzoq muddatli kredit resurslariga ega bo'lishi, imtiyozli soliqlar belgilanishi, moliyaviy, ijtimoiy, bozor infratuzilmalaridan foydalanishlariga imkoniyatlar yaratildi. Bu esa ushbu sektorda faoliyat ko'rsatayotgan barcha xususiy korxonalarning rivojlanishiga yaqindan yordam berdi, raqobat va tadbirkorlik muhiti shakllanishini tezlashtirdi.

Shu bilan birga respublikada milliy iqtisodni yanada erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish dasturining qabul qilinishi kichik, o'rta biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hamda uni iqtisodiyotda etakchi o'ringa olib chiqish ustivor vazifa qilib qo'yildi. Prezident I.Karimov: «Biz o'z oldimiga kichik, o'rta va xususiy biznesni faqat ichki yalpi mahsulotni ishlab chiqarishda yuqori o'rinni egallashiga erishishimiz, balki aholi farovonligi va daromadlarini o'sishi, ayniqsa kichik shaharlar va qishloq joylarida bandlik muammosining muhim manbai bo'lishi kerakligi haqidagi vazifani qo'yamiz», deb alohida ta'kidlagan.

Bunday vazifani amalga oshirish uchun harakatdagi qonunchilik xujjatlariga tegishli qo'shimchalar kiritildi, kichik biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash tizimlari takomillashtirildi va tadbirkorlik erkinligini himoya qilish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Shular tufayli hozirgi kunda respublika xususiy mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi nodavlat korxonalari asosiy o'rin tutmoqda. YA'ni, 2001 yilda respublika bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalarning 201,9 mingi yoki 90,5 foizi kichik, o'rta korxonalar va mikrofirmalardir. Ularning shu yilgi yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,8 foizni, shundan kichik va o'rta korxonalar ulushi esa 14,8 foizni tashkil etdi va bu o'tgan 2000 yilga nisbatan mos ravishda 2,8 va 1,7 foizga ko'pdir. Shu bilan birga kichik va o'rta biznes. Xususiy tadbirkorlik sohasida band aholining soni ham muntazam o'sib bormoqda. Bu ko'rsatkich respublika bo'yicha 2001 yil boshiga nisbatan 7,1 punktga yuqoridir. Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham muntazam o'sib bormoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi hali talab



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

darajasida emas. Buning uchun bizning fikrimizcha, davlat tomonidan olib borilayotgan tadbirkorlik muhitini faollashtirish bilan birga kichik va o'rta korxonalar faoliyatining bozor sharoitiga moslashuvini tezlashtirish hamda respublikada makroiqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun kichik va o'rta biznes rivojlanishining ustivor yo'nalishlari o'zgarishini bashoratlarini amalga oshirish lozim.

Bozor iqtisodiyoti xo'jalik faoliyatining asosiy sub'ektlari bo'lib uy xo'jaliklari, biznes tashkilotlari va davlat hisoblanadi. Uy xo'jaliklari biznes tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarni iste'mol qiladi. O'z navbatida davlat institutlari va biznes tashkilotlari, oila a'zolarining tadbirkorlik faoliyatini ta'minlovchi tuzilmaviy tashkilotlar hisoblanadi. Aynan ana shu faoliyat natijasida biznes egalari- uy xo'jaliklari daromad oladilar. Biznes korxonalarining faoliyat ko'rsatish mexanizmiga davlat va uning tashkilotlari turli xil usullar bilan ta'sir ko'rsatib turadi. Ular qatoriga imtiyozli soliqlar, huquqiy kafolatlar, resurslar bozoriga kirishni osonlashtirish, marketing, axborotlar xizmatlarini ko'rsatish, mahsulotlarni to'siqlarsiz bozorlarga chiqarish, imtiyozli kreditlar olish va boshqalar kiradi. Shular bilan birga kichik korxonalarni rag'batlantiruvchi asosiy mexanizm talab va taklif hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, taklif va talab muvozanatini tahlil qilish, korxonalarning faoliyat ko'rsatish mexanizmini aniqroq tasvirlab beradi.

## 18.2. Kichik va o'rta biznes istiqboli

Bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif kichik va o'rta biznes korxonalarini samarali faoliyat olib borishga undaydigan mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. Agarda korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar bozor talablariga to'liq- javob bersa, demak korxonaning ushbu mahsulotlarni sotishdan oladigan daromadlari o'sib boradi va korxona qo'shimcha kengayish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ikkinchi tomondan, tovarlarning narxi ishlab chiqaruvchilarga bozorda bo'ladigan o'zgarishlar to'g'risida signal bo'lib xizmat qiladi. Tovarlarning bozordagi narxlari oshishi bilan ishlab chiqaruvchilarga raqobat paydo bo'ladi va ular bozorga ko'plab mahsulotlar chiqara boshlaydilar.

Shularni hisobga olib kichik va o'rta biznes korxonalari faoliyati ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirishning uslubiy asoslari tadqiq qilinadi va ular rivojlanishining modellari ishlab chiqiladi.. Buning uchun iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish usullari va unda qo'llaniladigan yondashuvlar, modellarni tahlil qilish va ularni kichik va o'rta biznes korxonalari faoliyatini tizimli o'rganish va rivojlanishidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kichik va o'rta biznes korxonalari ishlab chiqarish, mehnat va moddiy resurslar miqdorlarini hamda foyda va xarajatlar hajmini modellashtirish usullari va ularga mos ishlab chiqarish funktsiyalari tuzishi lozim.

Kichik va o'rta biznes korxonalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish vaqtida turli xil resurslar, texnologiyalar, ishchi kuchi va boshqa resurslarni jalb etadilar. Ushbu korxonalar o'zlarining maqsadlariga qarab uzoq va qisqa muddatli oraliqlarda



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

faoliyat ko'rsatadilar. Qisqa muddatli oraliqda korxona ishlab chiqarish quvvatini o'zgartira olmaydi, lekin undan foydalanishni intensivlashtirishi mumkin. Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish quvvati ham o'zgaradi. Albatta uzoq va qisqa muddatli oraliqlar, har xil mahsulotlar uchun turlicha bo'lishi mumkin. Shu davrlarda korxonalarning asosiy maqsadi foydaning eng katta hajmiga erishishdan iboratdir. Umumiy holda foyda yalpi daromaddan umumiy xarajatlarni ayirish orqali topiladi.

$$\pi = TR - TC \text{, (1)}$$

bu erda $\pi$ - foyda, TR-umumiy daromad, Tayanch so'zlar:- umumiy xarajat.

Shundan kelib chiqib kichik va o'rta biznes korxonalariga foyda, xarajatlar va optimal ishlab chiqarish miqdorini modellashtirish usuli taklif etilishi lozim.

Ishlab chiqarish- bu kerakli mahsulotlarni tayyorlash uchun ishchi kuchidan, uskuna va texnologiyadan, tabiiy resurslardan hamda materiallardan ma'lum miqdordagi kombinatsiyada foydalanish jarayonidir. Ularni yiriklashgan uch guruhga bo'lish qabul qilingan: mehnat, kapital va materiallar.

Bunday omillar birgalikda olib qaraladigan bo'lsa, ular ishlab chiqarish funktsiyasi orqali ifodalanadi va ishlab chiqarish funktsiyasi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o'rta biznes korxonalarining chegaralangan resurslardan qay darajada foydalanilayotganligini tahlil qilishga imkon beradi. Agar omillar majmuasi kapital sarfi, mehnat va materiallardan iborat bo'lsa, ishlab chiqarish funktsiyasi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

$$Q=f(K,L,M), \quad (2)$$

Bu erda Q- berilgan texnologiyada eng ko'p ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori; K- kapital; L- mehnat; M-materiallar.

Agar ishlab chiqarish funktsiyasi ikkita K(kapital) va L(mehnat) omillariga bog'liq bo'lsa, ishlab chiqarish funktsiyasi quyidagicha yoziladi:

$$Q= f(K,L). \text{ (3)}$$

Ushbu funktsiyada mahsulot ishlab chiqarish hajmi kapital va mehnat ishlab chiqarish omillariga bog'liq. Masalan, ishlab chiqarish funktsiyasi yordamida non ishlab chiqarish kombinatida mehnat resurslardan va kapitaldan foydalangan holda qancha non mahsulotini ishlab chiqarish mumkinligini ifodalash mumkin, yoki qishloq xo'jalik korxonasining berilgan mehnat resurslaridan va texnikadan foydalangan xolda ma'lum vaqt oralig'ida qancha mahsulot ishlab chiqarishini ifodalash mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish ko'proq qo'l mehnatiga asoslangan bo'lsa u xolda ishlab chiqarish funktsiyasini faqat sarflangan mehnatga bog'liq ravishda yozish mumkin: Qqf(L)     Agar mahsulot ishlab chiqarishda ko'proq kapital sig'imiga ega bo'lsa, ishlab chiqarish funktsiyasini Qqf(K) ko'rinishida yozish mumkin.

Ta'kidlash joizki, 2 va 3 tenglamalar ishlab chiqarishning ma'lum



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

texnologiyasida qo'llanilishi mumkin. Agar texnologiya o'zgarsa, ya'ni yangi texnologiya qo'llansa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi resurslar hajmi o'zgarmaganda ham o'sishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda kichik korxonalarda ishlab chiqarish mehnat va kapital sarfiga, mehnat sarfi o'zgarmas bo'lib, u faqat kapital sarfiga bog'liq bo'lgan hamda texnologiyalar takomillashuvining ishlab chiqarish hajmlariga ta'sirini modellashtirish usullari asoslangan va ular non mahsulotlari, mebel va boshqa turdagi ishlab chiqarishlarning optimal hajmlarini aniqlash orqali sinab ko'rish kerak.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida milliy iqtisodning barcha tarmoqlarida ko'plab kichik va o'rta biznes korxonlari vujudga kelmoqda. Ushbu korxonalar aholi daromadlarini oshirish bilan ularning bandligini ta'minlashda, ichki iste'mol bozorini zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqdalar. Shularni hisobga olib kichik va o'rta biznesning ustuvor yo'nalishlari bo'lgan korxonalar sonini oshirish, iqtisodiy raqobatni ta'minlash, bu sohaga investitsion resurslarni jalb qilish, turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish respublikamiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida ularning ulushini oshirish kabi ko'rsatkichlarni bashorat qilishning ekonometrik modellari ishlab chiqilgan.

Ushbu modellar asosida respublikada kichik va o'rta biznes rivojlanish istiqbollari bashorati natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

***O'zbekiston Respublikasida 2002-2005 yillarda kichik va o'rta biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari bashorati.***

| Yillar | I-ajratilgan investitsiyalar mln.so'm | $Y_1$-korxonalar soni, mingta | $Y_2$-i.ch mahsulot miqdori, mln. so'm | $Y_3$-asosiy fondlar qiymati, mln.so'm | $Y_4$-ishlovchilar soni ming kishi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1992* | 4563 | 20105 | 19183 | 67125 | 110,45 |
| 1993* | 9124 | 46577 | 28397 | 82344 | 163,12 |
| 1994* | 7344 | 72314 | 40119 | 102375 | 220,17 |
| 1995* | 12186 | 101241 | 52331 | 94160 | 422,80 |
| 1996* | 20617 | 127654 | 68805 | 110541 | 245,24 |
| 1997* | 32315 | 130172 | 89683 | 153200 | 249,09 |
| 1998* | 58541 | 142714 | 101422 | 188617 | 364,78 |
| 1999* | 74338 | 165645 | 147728 | 223155 | 392,31 |
| 2000* | 91845 | 159719 | 260284 | 307155 | 411,65 |
| 2001* | 107321 | 201962 | 344968 | 350425 | 475,25 |
| 2002 | 108121 | 209954 | 377010 | 335890 | 496,59 |
| 2003 | 120177 | 227234 | 409052 | 366432 | 531,34 |
| 2004 | 132234 | 244515 | 441094 | 396974 | 566,09 |
| 2005 | 144290 | 261795 | 67125 | 427516 | 600,84 |

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi ma'lumotlari, Toshkent, 2002



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Bashorat natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki,2005 yilda kichik va o'rta biznes korxonalari soni 2001 yildagi xaqiqiy o'sishga solishtirilganda qariyb 30 foizga ko'payish, mahsulot ishlab chiqarish hajmi esa 69,4foizga, ishlovchilar soni bunda 26,4 foizga oshishi kutiladi. Bunday jarayonlarga jalb etiladigan investitsiyalar hajmi 36,9 mlrd. so'mga oshishi lozim bo'ladi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish istiqbollarini amalga oshirishdagi chora-tadbirlar mamlakat miqyosida bajarilishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga tijorat banklari, chet el sarmoyalari, maxsus fondlar, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan kredit resurslari berishni yanada soddalashtirish hamda lizing xizmatidan foydalanishni kengaytirish kerak. Ikkinchidan, kichik va o'rta biznes korxonlarining iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyatiga chetdan bo'ladigan aralashuvlarni, turli xil nazorat va tekshiruvlarni kamaytirish lozim. Kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun yana bir muhim manba- axborot resurslariga bo'lgan talablarini imkoni boricha to'liqroq ta'minlash kerak. Kichik va o'rta biznes sub'ektlari ichki va tashqi bozor konyunkturasi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emaslar. Ushbu masalani hal etish uchun hozir faoliyat ko'rsatayotgan monitoring tizimini bozorlar haqidagi ma'lumotlar bazasini tashkil etish hisobiga kengaytirish zarur.

Respublikamizda tashkil etilayotgan ko'plab kichik va o'rta biznes korxonalari etarli darajada xuquq va manfaatlarini himoyalashni tushunib olishlari uchun maaxsus huquqiy yordamlarni tashkil etish va amalga oshirish lozim. Kichik va o'rta biznes korxonalari ishlab chiqargan mahsulotlarni eksportga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish va ularni rag'batlantirish lozim. Bu ishlarni xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borayotgan vositachi tashkilotlar va firmalar orqali amalga oshirish mumkin. Kichik va o'rta biznes korxonalari boshqaruv apparati, ishlovchilarini turli xil kasb va malaka oshirish institutlarida o'qitish zarur. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlar uchun birgina tajribaning o'zi etarli emas. Ba'zi hollarda tezkor qarorlarni qabul qilishda ilmiy asoslangan, noan'anaviy yondoshuvlar lozim bo'ladi.

Respublikamizda kichik va o'rta biznes qo'l mehnati talab qilinadigan, ayniqsa qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish sohalarida tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Hozirgi paytda respublikamizda kichik va o'rta biznes o'zining ibtidoiy rivojlanish bosqichida turibdi. YA'ni an'anaviy turdagi kichik korxonalar o'rniga zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish lozim. Bunday korxonalar tarmoqda fan-texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi korxonalar jumlasiga kiradi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan ushbu chora-tadbirlar pirovard natijasida o'zining ijobiy samaralarini beradi. Ushbu samaralar quyidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi: kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bozorda raqobat muhitini keltirib chiqaradi; ichki bozorda xaridorlar ehtiyojlarini qondiruvchi tovarlar, xizmatlar paydo bo'ladi va mahalliy iste'molchilarning respublikamizda ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga bo'lgan talabi shakllana boradi; mahalliy kichik va o'rta biznes korxonalari ishlab chiqargan tovarlar iste'molchilar



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

ehtiyojini qondiribgina qolmay, balki xorijiy mamlakatlardan import qilib olinadigan tovarlarni kamaytirishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida tovarlarni import qilish uchun ketadigan valyuta mablag'larini tejash imkonini beradi, kichik va o'rta biznes korxonalari sonining ortishi keng ko'lamlikning samarasini keltirib chiqaradi, ya'ni korxonalar soni qanchalik ortib borsa, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori ham shunchalik ortib boradi.

Xulosa qilib yana shuni aytish lozimki, respublikamizda kichik va o'rta biznes korxonalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichi bo'lgan- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishga olib keladi va respublikamizni dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi.

Izlanish natijalaridan kelib chiqqan xulosa va takliflar ilmiy ishning yakuniy qismida batafsil ifodalangan.

## Qisqacha xulosalar

Kichik va o'rta biznes korxonalari faoliyati samaradorligini belgilovchi tadbrkorlik muhiti asosan bozor mexanizmining istiqbolli yo'nalishlari dasturidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif kichik va o'rta biznes korxonalarini samarali faoliyatini ta'minlaydi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o'rta biznes roli.
2. Tadbirkorlikni qo'llab- quvvatlash.
3. Kichik va o'rta biznesni bashoratlash.
4. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish chora-tadbirlarini aytib bering.

## Asosiy adabiyotlar


1. Avtoreferat. «O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesning ustuvor yo'nalishlarini ekonometrik bashoratlash». Toshkent 2002yil.
2. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. Xalq so'zi 13 fevral, 2002 yil.
3. Основные показатели развития малого и частного предпринимательства за январь-март 2004 года: Статистический сборник / Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. - Т., 2004.-59с. 1 экз.
4. Основные показатели развития малого, среднего бизнеса и частного предпринимательства за 2003 год: Статистический бюллетень.- Т., 2004.- 68 с. 1 экз.




PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

5. Xodiev B.Yu., Samatov G'.A.., Yusupov M.S., Eshov M.P. «Kichik tadbirkorlik faoliyati asoslari» o'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent: EH TEMPUS dasturi «Matador-2000» loyihasi 2004.-144 bet.
6. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.-208 c. 1 ekz.
7. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma /A.E.Ishmuxamedov va boshk.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.
8. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.
9. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.
10. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..

## Internet veb-saytlari

1. http:\\www.cer.uz –O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.
2. http:\\www.economyfaculty.uz – "Mikro-makroiqtisodiyot" kafedrasi sayti mavjud bo'lgan veb-sayt
3. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar veb-sayti
4. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti
5. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
6. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
7. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
8. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## QISQACHA IZOHLI LUG'AT (GLOSSARIY)

**Akselerator (accelerator)** – iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlar hajmi o'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalari hajmining o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatgich.

**"Yovvoyi raqobat"** va **"tsivilizatsiyalashgan raqobat"** tushunchalari. Birinchisi asosan rivojlanmagan bozorga xos bo'lsa, ikkinchisi asosan aralash iqtisodiyot va rivojlangan bozorga xosdir.

**Yopiq iqtisodiyot (closed economy)** – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.

**Qadrsizlanish (depreciation)** – milliy valyutaning narxi chet el valyutalarining bahosidan kamayishi.

**Qarz berish (crediting) –** pul yoki tovarlarni qaytarish sharti bilan ma'lum muddatga berish ( qarz ishlatilgani uchun oldindan kelishilgan foizlar tushuniladi).

**Qarzlar - "zayomlar" (borrowing) –** ma'lum muddatga qaytarib olish sharti bilan berilgan mablag'lar. Qarzlar quyidagicha bo'lishi mumkin: foizsiz tijorat shaklidagi qarzlar, imtiyozli qarzlar hamda ichki va tashqi qarzlar; jismoniy, yuridik shaxslarning qarzlari ichki qarzlarga kiradi.

Q**immatbaho qog'ozlar (securities) –** egasining kapital yoki mol-mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi va dividend ko'rinishda daromad keltiruvchi xujjat.

**Devalvatsiya (deyaluation)** – mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

**Davlat byudjeti (state budget, local budget) –**

**Davlat iste'moli** - mahsulot va xizmatlarga ketgan davlat iste'moli xarajatlari, xususiy sektorda ishlab chiqilgan.

**Daromad (income) –** ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda).

**Daromadning mavjud miqdori (disposable income) –** sarf xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlarning qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar; daromadlar va to'g'ri soliqlar orasida farq bilan aniqlanadi.

**Bartaraf etilgan inflyatsiya** – boshqariladigan narxlarni boshqarishga bo'lgan iqtisodiyot doirasida inflyatsiya jarayonlarning o'ziga xos ko'rinishi. Direktiv tarzda belgilangan narxlar darajasi saqlangan holda inflyatsiya muomiladagi pul miqdori ko'payishi va uning sotib olish qobiliyati pasayishi, bular ta'sirida keskin talab keskin oshib borishi hamda tovar va xizmatlar taxchilligi orqali namoyon bo'ladi.

**Belgilangan almashuv kursi (fixed exchange rate) –** milliy valyutaning chet el valyutalariga nisbatan an'anaviy tarzda belgilanadigan va o'zgarmas tizim.

**Valyuta kursi** – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

**Bandlik darajasi (rafe of employees)** - bandlar umumiy soning mehnatga layoqatlash yoshdagi aholiga nisbati.

**Bank zahiralari (reserves) –** bankda saqlanayotgan naqd pullarning markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlari.

**Depozitlar (deposits) –** omonatga qo'yilmalar – bank va omonat kassalariga



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

qo'yilgan omonatlar: bank daftardagi yozuvlar; kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatbaho qog'ozlar (aktsiya va obligatsiya).

**Deflyatsiya (deflation) –** inflyatsiya davrida chiqarilgan muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul- kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.

**Baho, narx ( prise)** – tovar qiymatining puldagi ifodasi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar va foydani ko'rsatadi.

**Dividend (dividend) –** hissadorlik jamiyatlari foydasining bir qismi, aktsiyaning soni va turiga qarab har yili hissadorlar orasida taqsimlanadi.

**Jamg'armaga moyillik (propensity to saye)** – daromadda jamg'arma hissasining qanchani tashkil etishi.

**Jami band aholi (employees) –** band bo'lgan aholi va harbiy xizmatchilar.

**Jami talab (aggregate demand)** – mamlakatning real sotib olish qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich, jami xarajatlar deb ham ataladi. Unga davlatning iste'mol xarajatlari, xususiy sektor iste'moli, jami invenstitsiyalar va eksport-import sadosi xarajatlari kiradi.

**Jami taklif (aggregate suply)** – mamlakatda ishlab chiqarilgan hamma tovar va xizmatlarning jami qiymati, milliy mahsulot deb ham ataladi.

**Giperinflyatsiya (hyper - inflation)** – haddan tashqari inflyatsiya, narxning muddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi.

Akseleratsiya printsipining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investitsiyalar hajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajatlarining sezilarli o'sishi investitsion faollikni yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha.

**Diskont (dicount) –** markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.

**Aktivlar (assets)** – iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlar qiymati.

**Alternativ variantlardan tanlov (tradeoff)** – tanlab olingan variant muqobil variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qaror qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy atamalar doirasida iqtisodiy atamalar siyosati chora-tadbirlarni ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g'oyalarning tanlov–muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o'sishi va inflyatsiya jadalligi, foydaning o'sishi yoki ish haqining oshishi orasidagi tanlov muammosi.

**Bozor narxi (market price)** – iqtisodiyotda jami talablarning o'zgarmas holda qoluvchi narxlari.

**Bozor munosabati (market clearing)** – bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqadi.

**Doimiy, davomiy inflyatsiya (cronic inflation)** – nisbatan yuqori yoki past inflyatsiya darajasi uzoq muddat davomida ushlab turiladigan iqtisodiy vaziyat. Barqarorlikka erishgunga qadar davomli yuqori inflyatsiya darajasiga xos bo'lgan



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

mamlakatlarga misol qilib, Braziliya, Isroil, Meksika, Peru  Argentinani keltirish mumkin.

**Amortizatsiya (depreg'atg'on)** – asosiy jamg'armalarni (asbob-uskunalar) ishlatilgani sayin o'z qiymatini mahsulot hisobiga o'tkazish jarayoni.

Asosiy jamg'armalar iste'mol narxini to'la yoki qisman tiklash uchun amortizatsiya orqali amalga oshiriladigan narxini to'latishi zarur.

**Asosiy narx (base price)** – xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda indekslarni hisoblash va to'lashgacha bo'lgan narx.

**Asosiy fondlar va ularning bahosi (capital stock)** – turli xo'jalik sub'ektlari va fuqarolarning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birgalashtirish va ishlatish.

Byudjet xarajatlarini nisbatan qisqartirish maqsadida hukumat Bundesbank rahbariyatidan hisob stavkasini pasaytirishni so'ragan edi. Ammo ular rozi bo'lishmadi. ×unki, hisob stavkasini atigi 0,5 foizga pasaytirish muomaladagi pul massasini 5-6 foizga oshirar ekan. Bu esa milliy  valyutaning xarid quvvati pasayishiga olib keladi.

**Byudjet, soliq siyosati (fiscal policy) –** byudjet siyosatida davlat o'z istagi bilan byudjet  xarajatlari va daromadlarini shakillantirgan holda 3 xil byudjet siyosati yuritadi. Byudjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilmagan qimmatbaho qog'ozlarning realizatsiyasidan va byudjet tomonidan ma'lum qismi markaz tomonidan banki emmissiyasi hisobiga yopilishidan. SHunga ko'ra, davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali byudjet siyosati yuritiladi.

**Aholining bandligi (employees) –**  ijtimoiy ishlab chiqarishning fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan belgilangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

**Cof milliy mahsulot (net product)** – ßMM va amortizatsiya ajratmalarining jami miqdorini ayirmasini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkich.

**Real almashuv kursi (real exchange rate) -**  ikkala mamlakatdagi narxlar darajasining o'zaro nisbati, munosabatini hisobga oluvchi almashuv kursi. Solishtiralayotgan mamlakatlardagi nominal almashuv kursi narxlari indekslarini ularning o'zaro nisbatiga bo'lishi orqali hosil bo'ladi.

**Real ish haqi (real wage) –** narxlar o'zgarishi  darajasi hisobiga tuzatish kiritilgan nominal ish haqi ( yoki nominal ish xaqidan narxlar o'zgarishi darajasining hisobga olingani).

**Real foiz stavkasi (real interest rate) –** ma'lum davr ichida depozit hisoblar va qimmatli qog'ozlardagi aktivlarning real qiymati o'sishi yuz beradigan foiz stavkasi: nominal foiz stavakasidan shu davr oralig'ida kutilayotgan nominal foiz stavkasi.

**Real ßMM (potential GNP) –** solishtirma doimiy narxlar orqali aks ettirilgan ßMM. U joriy narxlarda hisoblangan ßMM narxlarini o'zgarishi (inflyatsiya darajasi) hisobiga to'g'rilash yo'li bilan hisoblanadi.

**Revolvatsiya (revaluation)** – mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish.

**Ratsional kutishlar (ratiohal expectations)** – ishlab chiqaruvchilar va



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

iste'molchilar o'zlarida mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar asosida eng ratsional tarzda o'z iqtisodiy xulq - atvorini rejalashtiradilar deb ta'kidlovchi nazariya.

**Iqtisodiy o'sish** – real milliy daromad (mahsulot)ning o'sishi yoki bu daromadning aholi jon boshiga o'sishi.

**Ichki iste'mol uchun mo'ljalangan tovarlar (nontraded goods)** – tashqi bozorda realizatsiya qilib bo'lmaydigan ichki ishlab chiqarish tovar va xizmatlari ( ko'chmas mulk, xizmatlarning ayrim turlari ...).

**Kapital eksporti** – tijorat maqsadda amalga oshirish.

**Likvidlik (lequidity)** – turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati.

**Indeksatsiya (indexation)** – iqtisodiyotdagi narxlarning o'rtacha darajasi o'zgarishiga bog'liq ravishda ish haqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish tizimi.

**Indekslar – ßMM deflyatorlari (GNP deflators)** – ßMM ko'rsatkilarini solishtirma narxlarda aks ettirish uchun ishlatiladigan indekslar guruhi, bularga narxlarning agregat indeksi, ßMM mavhum deflyatori narxlari indeksi, iste'molchi narxlar indeksi, shuningdek, maxsus tashkil qilingan indekslar kiradi.

**Investitsiya (invetment)** – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellardan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

**Investitsiyalarga bo'lgan moyillik (propensity to invest)** – iste'mol xarajatlarning daromaddagi hissasi.

**Import (import )** – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U xalq xo'jaligi, vaqtni tejash, xalq ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga ko'maklashadi.

**Import qilishga moyillik (propensity to import)** – daromadda importga qaratilgan xarajatlar hissasi.

Insonga kapital sifatida yondashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, bunday yondashuv resurslardan samarali foydalanishni, ularning, oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi.

**Inflyatsiya (inflation )** – pulning qadrsizlanishi, muomiladagi pulning qadrsizlanishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Inflyatsiya tovar bahosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

**Inflyatsiya darajasi ( rate of inflation ) –** ma'lum vaqt ichida (oy yil) narx darajasining foizdagi o'zgarishi.

**Iste'mol (consumption)** – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoning oxirgi bosqichi.

**Iste'mol qilishga moyillik (propensity to consume)** – iste'mol xarajatlarining daromaddagi hissasi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

**Iste’mol krediti (consumer credit)** – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo’llaniladigan pul siyosati vositasi. U banklar tomonidan berilishi mumkin bo’lgan ichki kreditning maksimal miqdori rasmiy ravishda belgilanishini taqozo etadi.

**Iste’mol narxlar indeksi (cosumer price index)** – oila tomonida, odatda, iste’mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davrga nisbatan o’zgarishining o’rtacha darajasini aks ettiradigan ko’rsatkich, inflyatsiya ko’rsatkichi sifatida ishlatiladi.

**Iste’mol xarajatlari** – makroiqtisodiyotda uy xo’jaligi xarajatlari, qurilish xarajatlari.

**Ish vaqtining umumiy soatlar soni (total hours of work)** – o’rtacha statistik ishlovchi band bo’lgan ish vaqtining o’rtacha soatlari soni.

**Ish haqi (wage, nominal) –** pul, qiymat shaklidagi ish haqi.

**Ishchi kuchi (labour force)** – odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne’matlarini ishlab chiqarish jarayonida ular ishga soladigan jami jismoniy va ma’naviy kuchlar.

**Ishchi kuchi hissasi (labour fore rate)** – odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne’matlarini ishlab chiqarish jarayonida u ishga soladigan jami jismoniy va ma’naviy kuchlar.

**Ishlab chiqarish funktsiyasi (productg’on function)** - mahsulot ishlab chiqarish uchun korxonaga zurur bo’lgan barcha kishilar va mehnat qurollari harakatlari majmui.

**Ishlab chiqaruvchilar narxi (producers price)** – tovar va xizmatlarning bazis narxi; unga soliqlar qo’shiladi va subsidiyalar qo’shilmaydi.

**Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index)** - bazis davri oralig’ida xomashyo materiallar va oraliq tovarlar narxi o’zgarishining o’rtacha darajasini aks ettiruvchi ko’rsatkich. ßMMni maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o’tkazishda ishlatiladi.

**Ishsizlik ( unemloyment)** – aholi iqtisodiy faol qismining o’ziga ish topa olmay, mehnat zaxirasi armiyasiga aylanishi.

**Ishsizlikning darajasi ( unemloyment rate)** – ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga nisbati.

**Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemloyment)** – real va potentsial yalpi milliy mahsulotning o’sishi bir-biriga mos keladigan, iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo’lgan ishsizlik darajasi.

**Kutilayotgan inflyatsiya darajasi (expected rate of inflation)** - mavjud ijtimoiy iqtisodiy axborotlar, ma’lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo’lg’usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

**Ochiq iqtisodiyot (open economy)** – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo’lgan iqtisodiyot.

**Markaziy bank (Central bank)** – mamlakatning jami kredit tizimiga rahbarlik qiluvchi, davlat pul-kredit siyosatini, pul va qimmatbaho qog’ozlar emissiyasini



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

monopol huquqda amalga oshiruvchi muassasa.

**Paritet (parity)** – teng huquqli, teng vakillik asoslarida biron bir iqtisodiy ( siyosiy) harakatda ishtirok etish.

**Narxlar indeksi (price index)** – ikki har vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

**Narxlar korrektirovkasi (price adjustment) –** bozor vaziyati o'zgarishiga narxlarning moslashuv jarayoni.

**Makroiqtisodiyot (macroeconomics)** – barqarorlashtirish, milliy valyutamizni mustahkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilash yo'lini davom ettirish rejasini yoki mulkdorlar sinfini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tarkibni mustahkamlash.

**Pasayishi (recession)** – iqtisodiy faollikning pasayishi.

**Mehnat umumdorligi (labour productivity)** – mehnatning mahsulotligini, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi umumlashma ko'rsatkichlardan biri.

**Oraliq iste'mol (intermediate consumption)** – ishlab chiqarishning bir bosqichida ishlab chiqarilgan maxsulotlarni boshqa bosqichda mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

**Ortiqcha talab (excess demand)** – mavjud narxlar holatida tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab takliflardan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat, defitsit deb ham ataladi.

**Ortiqcha taklif (excess suply)** – mavjud narxlarda tovar va xizmatlar taklifi ularga bo'lgan talabdan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyati, shuningdek, ortiqcha ishlab chiqarish deb ham ataladi.

**Milliy daromad (national income) –** milliy ishlab chiqarishda olinadigan daromad yoki iqtisodiyotning barcha turdagi daromadi bahosi.

**Monetaristlar (monetarists) -** ular siyosatga katta ahamiyat beradi va pul yordamida iqtisodiyotni ko'tarishni taklif qiladi. Monetaristlar pul muomilasida asosiy xavf hukumat faoliyatidan kelib chiqadi, deb hisoblaydilar. SHu sababli ular byudjet kamomadini markaziy bank krediti hisobidan qoplanishga qat'iyan qarshi chiqadilar. Bu nazariy qoidaning ahamiyatligiga jahon amaliyoti bir necha bor guvohi; xususan, Olmoniya markaziy banki misolida yaqqol namoyon bo'ldi. Bizga ma'lumki, ikki nemis davlatning qo'shilishi bilan bog'liq xarajatlarning har yili 25-30 milliard markasi Olmoniya federal byudjeti hisobidan moliyalashtirishmoqda.

**Nominal almashuv kursi (nominal exchange rate)** – milliy valyuta va chet el valyutalari birliklarining, odatda, mavjud bo'lgan nisbati. Ushbu nisbat ham qat'iy belgilangan, ham chayqalib turuvchi asosda amalga oshirilishi mumkin.

**Nominal foiz stavkasi (nominal interest rate)** – ma'lum davr ichida (oy, yil) qarzga olingan pul birligiga to'langan pul miqdori. Depozit hisoblarda va qimmatli qog'ozlarda aktivlarning nominal qiymati o'simtasi belgilanishiga foiz stavkalari deyiladi.

**Nominal ßMM (gross national product–GNP) –** joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi milliy mahsulot.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

**Potentsial ßMM ( potential GNP) –** mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchi hisobiga erishilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

**Pul bazasi - MO (monetary) –** muomaladagi naqd pullar, kaccadagi korxonalarning pullari va milliy bankdagi tijorat bank zahirasi.

**Pulga bo'lgan talab (demand for money)** – mamlakat aholisi jamg'arish va iste'mol qilish, oldi-sotdi va har xil iqtisodiy bitimlar tuzish uchun egalik qilmoqchi bo'lgan mablag' miqdori; iste'mol, foiz stavkasi, operatsion xarajatlar va boshqa funktsiyalar bilan ifodalanadi.

**Mulk (property)** – biron shaxsga qarashli qiymatga ega bo'lgan boylik.

**Muomaladagi pullar (currency) –** mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz): pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari; pul hisob-kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayriboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadi.

**Savdo balansi (merchandise trade balance)** – bunda eksport va importdan keladigan tushumlar va to'lovlarni aks ettiruvchi hujjat. Uni savdo bitimida ko'zda tutilgan, ammo joriy davrda amalga oshirilmaydigan to'lovlar va tushumlar o'z aksini topmaydi.

**Savdo balansining defitsiti (trade deficit)** – hisob davri oxirida import bo'yicha qilingan jami xarajatlar eksport daromadlaridan ustun kelgan vaziyat.**Sarf-xarajat balansi (spending balance)** – makroiqtisodiyotda ßMM ni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlar va yaratilgan yalpi milliy mahsulot oxirgi iste'mol maqsadida ishlatilishi orasidagi balans.

**Soliq siyosati** – soliq siyosatini rivojlantirish uchun kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda "majburiy jamg'armalar" tashkil qiluvchi asosiy omillardan biri.

**Soliqlar (taxes)** – milliy daromadni taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish. Soliq byudjet va byudjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

**Solishtirma afzallik (comparative advantages)** – ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada solishtirma afzalliklar printsipi ishlab chiqarish va eksportning samarali strukturasini shakllantirish uchun qo'llaniladi.

**Subsidiya (subsidy)** – davlat byudjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga qaytarib bermaslik sharti beriladigan mablag'. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

U shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida ham hisoblanishi mumkin. SHunigdek, **betaraf ishsizlik (natural rate of enemloyment)** – atamasi ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkich ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo'lib, inflyatsiyani turg'un, barqaror sur'atlari hamda real va potentsial yalpi milliy mahsulot (ßMM) mos tushishi holatdagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

**Tarkibiy ishsizlik (structural unemloyment)** – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, eskirgan tarmoq va kasblarning bartaraf etilishi, ishchi kuchining malaka darajasi pastligi yoki umuman, yo'qligi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlik.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

Tayyorlanayotgan mahsulotga ketgan sarfni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasi xarajatlari mahsulot tannarxini ichiga kiradi. Bu, korxona, tashkilotlarga asosiy jamg'armalarning moddiy va ma'naviy sarfini qoplash uchun mahsulotlarni sotish orqali mablag' to'lash imkonini beradi.

**Talab etilugunga qadar saqlanadigan depozitlar (demand deposits) –** bankdagi qo'yilmalarda talab etilgungina qadar saqlanadigan pul vositalari.

**Faktor daromad (factor income) –** ishchi kuchi, kapital mulk, ishlab chiqarish omillarining qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan daromad.

**Tashqi dunyo** – shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

**SHaxs sarmoyasi –** kapital sifatida yondashuv ikki tomonlama xususiyat ega bo'ladi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, bunday qarashlarni ijtimoiy muammolar va mehnatdan kapital tomonidan ekspluatatsiya qilish haqidagi fikrlarga ulanib ketishga olib keladi. Bu erda kapital mehnatni ekpluatatsiya qilar ekan, u holda inson kapitali ham mehnatni ekspluatatsiya qiladimi, degan savol tug'iladi.

**SHaxsiy daromad (personal income) –** jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

**Uzoq muddat davomida ishlatuvchi tovarlar (durable goods)** – iste'molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Bunday tovarlarga avtomobil, xolodilnik va boshqa maishiy xizmat vositalari kiradi.

**Transfer to'lovlari (transfer payment)** – o'tqazma to'lovlar, ya'ni davlat byudjetidan aholiga va xususiy tadbirlarga beriladigan to'lovlar. Tadbirlarga yordam davlat qarzi bo'yicha foizlarni - ulash, ijtimoiy ehtiyojlarda aholiga nafaqa to'lovlariga bo'linadi.

**Friktsion ishsizlik (frictionfl unemloyment)** – bir ishdan boshqa bir ishga o'tish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ishsizlik.

**Tijorat bank (Commercg'al bank)** – qo'yilmalar shaklidagi pul kapitallari va jamg'armalar hisobiga barcha tarmoq korxonalari uchun universal bank harakatlarini amalga oshiruvchi kredit muassasasi. Tijorat banki – kredit tizimining etakchi bo'g'inidir. Uning harakatlarida sanoat va savdo korxonalarini kreditlash asosiy o'rinni egallaydi. Bank, shuningdek, komission muomalarni ham olib boradi.

**Tijorat krediti (comerecial credit)** – qisqa muddatli qarz ( 1 yil muddatgacha beriladi), sotib olinadigan tovarlariga to'lash uchun pul qarz ko'rinishda beriladi.

**Filips egri chizig'i (Phillips curve) –** inflyatsiya va ishsizlik darajasi dinamikasi yoki real ßMMni potentsialidan og'ishi orasidagi o'zaro bog'liklikning grafikda ifodasi.

**Tovar eksporti** – ichki ishlab chiqarish mahsulotlari chetga sotish hamda xorijdagi sheriklarga ishlab chiqarish va talabgorlik xususiyatidagi xizmatlarni ko'rsatish.

**Foyda (profit)** – qo'shimcha mahsulotning pul shakli: korxona, tarmoq va butun xalq xo'jaligi ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkichi. Korxonaning moliyaviy ahvoli, iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakillantirish imkoniyatlari, byudjet va yuqori turuvchi organlar bo'yicha



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

majburiyatlarning bajarilishi foyda hajmiga bog'liq.

**Foiz (interest)** – daromad, mulkni boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berib, foyda olish.

**Foiz stavkasi (interest rate)** – kredit yoki qarz stavkasi kapitali evaziga to'lov foizi ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisi bir- birlariga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

**Xususiylashtirish (privatization)** – davlat mulki, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirishi. Xususiylashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin sohibkorlik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisodiyotini rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

**To'lov balansi (balance of payment) –** mamlakatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlari holatini, jahon iqtisodiyotdagi mavqeini, halqaro miqyosda to'lovga qobilligini ko'rsatuvchi kategoriya. To'lov balansida mamlakatlarning xorijiy davlatlarga ulashgan va xorijiy davlatlardan kelgan barcha to'lovlar va tushumlarning haqiqiydagi summasi aks ettiriladi. Shuningdek, shartnomalarda ko'zda tutilgan, ammo hali kelib tushmagan to'lovlar yoki tushumlar summasi o'z aksini topadi.

**ßlpi milliy mahsulot (ßMM) (national product) –** iste'molchilarning yil davomida mahsulot yaratish uchun qilgan xarajatlari qiymatini jamlash orqali, ya'ni mahsulotni umumiy pul qiymati aniqlanishi orqali hisoblanadi. YAlpi milliy mahsulotni hisoblashda jamiyatdagi iqtisodiy o'sish aniqlanadi, hozirgi paytda bu jarayonda yalpi va xususiy investitsiya tushunchalari qo'llanmoqdaki, ular orqali yil davomida qurilgan uylar, fabrika, zavod, mashinalar ifoda etiladi.

**ßMM darajalardagi farqlar (GNP gap)** – potentsial va real ßMM darajalar orasidagi farq.

**ßMMni mavhum deflyatori narxlar indeksi (GNP implicit price deflator)** – joriy narxlardagi ßMMni solishtirma narxlardagi ßMMga nisbatan tavsiflovchi ko'rsatkich yoki nominal ßMMning real ßMMga nisbati.

**ßshirin ishsizlik (hidden, latetnt, olisgeised)** – ishlab chiqarish jarayonida ob'ektiv holda ishchilar sonini ham talab etadigan, lekin amalda ishlab chiqarishda ortiqcha bo'lgan ishchilar soni.

**Eksport (export)** – tashqi bozorda tovarlar, xizmatlar va kapitallarni realizatsiya qilish maqsadida chetga chiqarish.

**Aksmonopol siyosat –** monopoliya hukmronligaga qarshi qaratilgan davlat siyosati. Bunda qonunchilik va byudjet - pul, kredit - pul siyosatlaridan foydalaniladi.

**Bank krediti (banking credit)** – daromad ( %) ko'rinishida olish maqsadida bank tomonidan qarzga pul berish.

**Davlat byudjeti taqchilligi (budget difficit)**– davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi byudjet taqchilligi deb ataladi.

**Ish vaqti (hours of work)** – ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining ishlagan vaqti hajmi.

**Monetar** – siyosatga alohida e'tibor bilan qarovchi, iqtisodiyotni mablag' yordamida ko'tarishni taklif etuvchi guruh.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

**Monopoliya –** bozordagi hukmronlik. Sotuvchi yoki xaridorlar o'z iqtisodiy qudrati va imkoniyatlariga suyanib, boshqa bozor ishtirokchilariga o'z tazyiqlarini o'tkazadilar, o'z manfaatlariga to'la yo'l ochishga harakat qiladilar. Natijada raqobat susayib, iste'molchilar manfaatiga zarar etadi.

**Pul (money) –** raqobatchilar o'rtasidagi jazolovchi shartnoma; foydani barcha ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash uchun taqdim etish haqidagi shartnoma; birja spekulyantlarining vaqtincha birlashishi.

Raqobat va monopoliya holatiga qarab to'rt xil *bozor modeli* yuzaga keladi: a) sof raqobatli; b) monopol raqobatli; v) oligopol raqobatli; g) sof monopolli.

**Revalvatsiya (revaluation)** – milliy valyutalar kursini oshirish, pullarning ichki bozordagi xarid qobiliyatini kuchaytirish ko'rinishidagi tuzatish.

**Reyting (rating) -** qiymatni baholash, aniqlash, moliyaviy holatni baholash; sinf, tur, toifa qatoriga qo'yish.

**Remitent (remettre) –** o'tkaziluvchan veksel yoxud chek bo'yicha pul oluvchi.

**Savdo balansini ijobiy saldosi (trade surplus)** – hisobot davri oxirida eksport bo'yicha jami daromadlar import bo'yicha xarajatlardan ustun kelgan.

**Sanatsiya (sanatio)** – moliyaviy va iqtisodiy tadbirlar tizimi bo'lib, firma, bank, trestlarning bankrotligining oldini olish maqsadida o'tkaziladi.

**Sanoat tsikli (business cycle)** – iqisodiyotning turli rivojlanish bosqichlari; u umumiy ishbilarmonlik faolligi oshishi va tushumlaridan, pasayishlaridan iborat.

**Spred (spread) –** birja spekulyatsiyasi bo'lib, xuddi o'sh bir mahsulotning turli muddatlari uchun kotirovkalar o'rtasidagi odatdagi nisbatlarning o'zgarishidan foyda ko'rish maqsadida o'tkaziladi.

**Subventsiya (subvenire) –** ayrim sohalar va korxonalarga davlatning moliyaviy yordami shakli.

**Tarif (tariff) –** xizmatlar ko'rsatish uchun to'lov (narx) stavkasi yoxud soliq xizmatlari undiradigan boj stavkasi.

**Transfert (transfer) –** pul mablag'larini bir bank hisob raqamidan boshqasiga o'tkazish.

**Trassant (trassante) –** trattani taqdim etuvchi, o'z to'lovlarini boshqa shaxsga o'tkazuvchi shaxs.

**Tratta (tratta) –** o'tkaziluvchan veksel; chek yoxud boshq bir hujjat turi bo'lib, uning egasiga ko'rsatilgan pul summasini olish huquqini beradi.

**Faktoring (factoring) –** debitorlarning to'lanishi lozim bo'lgan hisob raqamlari garovi ostida mablag'larni avanslash.

**Faktura (facture) –** alohida savdo amaliyotlari bo'yicha hisob-kitoblar qilish uchun standart blank ko'rinishidagi to'lov hujjati.

**Forfetlash (forfaiting) -** qarz majburiyatlarini hisobga oluvchi, ish amaliyotlarini moliyalash.

**Franshiza (franchise)** – sug'urtachi qoplamaydigan yuk narxining ma'lum foizi miqdordagi zarar; soliqdan ozod etish; imtiyoz.

**Fronting (fronting) –** bunday amaliyot jarayonida kompaniya sug'urta polisini rasmiylashtiradi, biroq moliya tavakkalini boshqa sug'urtachiga yuklaydi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

**Fyuchers (futures) –** 1) ish bitimini amalga oshirish jarayonida uning shartlari o'zgarishini ko'zda tutuvchi moliyaviy amaliyotlar; 2) moliyaviy dastaklar yoxud mahsulotarni tovar birjalarida sotib olish yoki sotish bo'yicha kelishuv. Bunda ularni kelajakda etkazib berish shart qilib qo'yiladi.

**Xej (hedge)** – 1) narxlarning extimolli tushishidan sug'urtalash uchun tuziladigan muddatli birja kelishuvi; 2) muddatli mahsulot bozorlaridagi moliyaviy amaliyot bo'lb, u odatdagi bozorda tuzilgan bayga qiymatiy hajmiga ko'ra teng hamda o'z xususiyatiga ko'ra ziddir.

**TSedent (cedant) –** o'z qarz talab qilish huquqini boshqa shaxsga o'tkazuvchi kreditor.

**Chek (cheque) –** bankka yuboriladigan yozma farmoyish bo'lib, unga ko'ra, u erdagi mavjud jamg'armalar hisobiga ko'rsatilgan pul summasini to'lash lozim.

**O'zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate)** – ichki muvozonatini tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

**«TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiyot mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriyat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari»dan olingan «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari» fani bo'yicha bitiruv malakaviy ishlari mavzulari ro'yxati**

1. Проблемы Финансирования социальных отраслей в регионах. (№4084)
2. Зарубежный опыт деятельности местных органов самоуправления и пути их использования в Узбекистане.(№ 4085.)
3. .Зарубежный опыт размещения производительных сил и ее использование. (№4086)
4. Природные ресурсы Узбекистана и их экономическая оценка по регионам. (№4087.)
5. Размещение минерально-сыревых ресурсов в регионах. (№4088.)
6. Региональные проблемы совершенствования состава и структуры отраслей промышленности (на примере области.) (№4089.)
7. Региональные аспекты развития фермерского хозяйства в Узбекистане. (№4093.)
8. Региональные особенности демографических процессов (на примере сравнительного анализа г.Ташкента и областей). (№4097)
9. Проблемы безработицы в регионах Узбекистана и пути их решения. (№4098.)
10. Трудовые ресурсы региона и проблемы их рационального использования. (№4049.)
11. Экономические проблемы больших, городов и пути их решения( на примере г. Ташкента). (№4101.)
12. Региональные особенности развития совместных предприятий. (№4102.)
13. Рынок труда и пути их решения, проблемы безработицы в регионах.(в области). (№4111.)
14. Региональная инвестиционная политика в РУз. (№4128.)
15. Межрегиональные экономические проблемы. (№4130.)
16. Региональная экономическая политика Японии. (№4136.)
17. Проблемы местных налогов в экономическом и социальном развитии регионов. (№4139.)



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

18. Финансы регионов и источники их становления. (№4140.)
19. Значение местных налогов в экономическом и социальном развитии регионов. (№4141.)



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## FAN BO'YICHA AYRIM DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALAR SHARHI

**1. Ishmuhamedov A.E., Askarova M.T. «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» - (O'quv qo'llanma ) -Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 256 bet.**

Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbkiston milliy iqtisodiyotining bozor iqtisodiyoiti sharoitida o'ziga xos rivojlanish yo'llari, kelgusida rivojlantirish yo'nalishlari jahon bozoriga chiqish, integratsiya jarayonlariga bog'liqligi ko'rsatilgan; respublika iqtisodiyotida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning moliya - kredit dastaklari, uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari yoritilgan; tarmoqlar rivojlanishi va ular o'rtasidagi mutanosibliklar raqamlar asosida izohlangan va ko'rsatilgan. O'quv qo'llanma iqtisodiy ta'lim yo'nalishdagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan.

Undan, shuningdek, oliy o'quv yutlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari bakalavrlari, magistrlari, professor - o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

## Mundarija

*Kirish*
*1-mavzu. «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» fanining mazmuni, mohiyati va vazifalari*
*2-mavzu. Milliy iqtisodiyotning mohiyati va o'lchov xususiyatlari*
*3-mavzu. Milliy boylik – davlatning qudratini belgilovchi ko'rsatkich*
*4-mavzu. Makroiqtisodiy vaziyat va uning asosiy yo'nalishlari*
*5-mavzu. Respublikaning sanoat majmui*
*6-mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirishda transport majmui*
*7-mavzu. Respublikaning agrosanoat majmui, uning taraqqiyoti va yuksalish yo'llari*
*8-mavzu. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faoliyatini jadallashtirish*
*9-mavzu. Respublikaning qurilish majmui*
*10-mavzu. Respublikada boshkarish tizimini takomillashtirish yo'llari*
*11-mavzu. Iqtisodiyotni boshkarishda moliya – kredit yo'llari*
*12-mavzu. Respublikada bozor infratuzilmasining asosiy yo'nalishlari*
*13-mavzu. Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi*
*14-mavzu. Davlat siyosatida ijtimoiy majmua*
*15-mavzu. Mehnat bozorini tartibga solish va aholi bandligi muammolari*
*16-mavzu. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy dasturlarini tuzish*
*17-mavzu. Strategik rejalashtirish va hududiy iqtisodiyotning muommolari*
*18-mavzu. Jahon iqtisodiyotiga integratsion yo'nalish*
*19-mavzu. Iqtisodiy rivojlanishda pullik xizmatlar*
*20-mavzu. Milliy iqtisodiyot barqarorarorligini ta'minlashda biznesninig o'rni*
*21-mavzu. Milliy iqtisodiyotni markaziy osiyo mustaqil davlatlari transformatsiyasi*
*22-mavzu. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti va markaziy osiyo davlatlarining global iqtisodiyotga qo'shilish siyosati*
*23-mavzu. Milliy iqtisodiyotning globallashuv va valyuta almashuv siyosatidagi o'rni*



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

2. **Ishmuxamedov A.E., Axmedov D.Q., Jumaev Q.X., Jumaev Z.A. «Makroiqtisodiyot» -Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 256 bet.**

Ushbu o'quv qo'llanmada asosiy e'tibor «Makroiqtisodiyot» faniga taalluqli bo'lgan zamonaviy makroiqtisodiy usullar va ularning amaliyotda qo'llanilishiga qaratilgan. Chunki, «Makroiqtisodiyot» bozor iqtisodiyoti munosabatlarini o'rganuvchi fanlar orasida ancha murakkabligi va ko'p qirraligi xususan, mavjud resurslardan maqbul darajada foydalanish, hamda iqtisodiy o'sishga zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun iqtisodchi avvalo makroiqtisodiy jarayonlar tahlilini, iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, iqtisodiy turli xulosalar chiqarish va ularning to'g'ri hamda asosli ekanligini isbotlab bera olishi ajralib turadi. Shuning uchun mamlakat makroiqtisodiyotining rivojlanish bosqichlarini aniqlash va uni takomillashtirish uchun ishlab chiqiladigan makroiqtisodiy siyosatlar alohida ahamiyatga ega. Bu borada iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar makromodellari bilan bir vaqtda, haqli ravishda o'zbek modeli ham ko'p bor tilga olinib o'z isbotini topmoqda.

O'quv qo'llanmada «Makroiqtisodiyot» fani bo'yicha ma'ruza matnlaridan keng foydalanilgan va har bir mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar, nazorat va muhokama uchun savollar berilgan.

O'quv qo'llanma Oliy va O'rta maxsus o'quv yurtlarining iqtisodiy yo'nalishdagi bakalavrlar, magistrlar, aspirantlar va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

## Mundarija

*Kirish*
*I mavzu. «Makroiqtisodiyot» fanining predmeti, ob'ekti va ahamiyati*
*II mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash*
*III mavzu. Makroiqtisodiy beqarorlik*
*IV mavzu. Iste'mol va investitsiya funktsiyalari*
*V mavzu. AD - AS modeli*
*V I mavzu. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli*
*VII mavzu. Pul bozori va bank tizimi*
*VIII mavzu. Bozor iqtisodiyotida davlat*
*IX mavzu. Fiskal siyosat*
*X mavzu. Pul-kredit siyosati*
*XI mavzu. IS-LM modeli*
*XII mavzu. Iqtisodiy o'sish*
*XIII mavzu. Xalqaro savdo nazariyasi*
*XIV mavzu. Savdo siyosati*
*XV mavzu. To'lov balansi*



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

*XVI mavzu. Valyuta kursi*



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# “ Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari ” fanining «Mulk shakllari» tematik ma’ruzasini o’qitish va o’rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llashning o’ziga xos xususiyatlari

***O’qituvchi Eshov M.P.***

| **Fakultet, kafedra, o’qitish bosqichi** | **O’quv predmeti** | **Mavzuning o’quv dasturida tutgan o’rni** |
|---|---|---|
| Fakultet “Iqtisodiyot va statistika”, kafedra “Mikro-makroiqtisodiyot”, o’qitishning 3-bosqichi | Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari | 9-mavzu 4 soat |
| Muddati: 2-semestr | O’quv guruhi: IKT<br>Talabalar soni: 20-40 | O’qituvchi: Eshov M. P. |
| Mavzu nomi | «Mulk shakllari» | |
| Ma’ruza rejasi | 1.Mulk shakllarining bozorga ta’siri<br>2.Davlat mulki<br>3.Xususiy mulk | |
| Asosiy tushuncha va iboralar | Mulk shakllari, Ijtimoiy tashkilot mulki, Uyushma mulki, Birlashma mulki, Davlat mulki, Xususiy mulk, Individual mulk, Oila mulki, Jamoa mulki, Kooperativ mulk, qo’shma mulk, Diniy tashkilotlarning mulklari, Hissadorlik mulk, Xalq korxona mulki. | |
| Mustaqil o’qish uchun adabiyotlar ro’yxati va internet saytlari | 1. I.A. Karimov. O’zbekiston – bozor munosabatlarga o’tishining o’ziga xos yo’li. - T.: O’zbekiston, 1993.<br>2. O’zbekiston Respublikasini majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasi ikkinchi yig’ilishda so’zlagan nutqi. Xalq so’zi 23 yanvar 2000y.<br>3. Iqtisodni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo’limiz. xalq so’zi 13 fevral, 2002 yil.<br>4. Основные показатели деятельности микрофирм за 2003 год: Статистический бюллетень. Т.3 /Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. - Т., 2004.-114 с. 1 экз.<br>5. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O’quv qullanma A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2004.-160 c. 1 ekz.<br>6. Шевелева С.А. Основы экономики и бизнеса: Учебное пособие /С.А.Шевелева, В.Е.Стогов.- 2-е изд., перераб. и доп.- М.: ЮНИТИ, 2005.- 515 с. 1 экз..<br>7. Круглова Н.Ю. Основы бизнеса. учебник для вузов Издательство: РДЛ, 2005.<br>8. Кузнецов А. Основы рыночной экономики. Терминологический словарь. Издательство: Владос, 2004.<br>9. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. Учебное пособие, Издательство: Экономика, 2004..<br>10. http:\\www.cer.uz –O’zbekiston Respublikasining “Iqtisodiy tadqiqotlar markazi” ning “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining elektron manzili. Turli xil iqtisodiy mavzularga oid materiallarni olishga imkon beradi.<br>11. http:\\www.economyfaculty.uz – “Mikro-makroiqtisodiyot” kafedrasi sayti mavjud bo’lgan veb-sayt<br>12. http:\\economics.com.ua –bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo’lgan | |



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

| | |
|---|---|
| | ma'lumotlar veb-sayti<br>13. http:\\www.bearingpoint.uz – "O'zbekiston iqtisodiyoti" qo'llanmasiningg veb-sayti<br>14. http:\\goldenpages.uz – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari<br>15. http:\\rea.ru – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti<br>16. http:\\5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.<br>17. http:\\bankreferatov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa. |
| O'quv darsining maqsadi | 1.Mulk shakllarining bozorga ta'sirini o'rganish va talqin etish<br>2.Davlat mulki haqida tushunchaga ega bo'lish<br>3.Xususiy mulk haqida tushunchaga ega bo'lish |
| Pedagogik vazifalar:<br>Mulk shakllari to'g'risida tushuncha berish.<br>Mulk shakllarining iqtisodiyotdagi o'rni va o'zaro munosabatlarning muhim tomonlarini yoritish.<br>Mulk shakllarini himoyalovchi me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish. | O'quv faoliyat natijalari:<br>Mulk shakllari va uning vazifalariga oid tushunchalar haqida fikr bildiradilar.<br>Mulk shakllarining iqtisodiyotdagi o'rni va o'zaro munosabatlarning muhim tomonlari haqidagi savollarga javob bera oladilar.<br><br>Mulk shakllarini himoyalovchi me'yoriy hujjatlarni sanab o'tadilar. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matnlari, chizmalar, testlar, slaydlar. |
| O'qitish sharoitlari | Bir turdagi auditoriya |
| Zarur boshlang'ich bilimlar | Mehnatni muhofaza qilish va hayot xavfsizligi haqida tushunchalar |



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# « Mulk shakllari » mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi

| Texnologik bosqichlar | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchining faoliyati | Talaba faoliyati |
| 1-bosqich o’quv mashg’uloti-ga kirish (20 daqiqa, agar darsning ikkinchi yarmi alohida o’tilsa 10 daqiqa) | Ma’ruza mashg’uloti mavzusini e’lon qiladi, reja va tayanch iboralarni yozdiradi, uyga berilgan vazifani eslatadi: insert usulida mavzuni o’qib chiqish, hulosalarni tekst chetiga belgilar asosida yozib borish | Eshitadilar, reja va tayanch iboralarni yozadilar va diqqatlarini vazifaga jalb qiladilar |
| 2-bosqich informa-tsion (120 daqiqa, agar darsning ikkinchi yarmi alohida o’tilsa 60 daqiqa) | 1.Tekstni o’qish davomida qilingan belgilar asosida quyidagi savollarga javob berishni so’raydi :<br>Ushbu dars mavzusi bo’yicha nimalarni tushundingiz?<br>YAna nimalarni bilishni xohlar edingiz?<br>2.Talabalardan qilingan xulosalar asosida blits - so’rov o’tkazadi va bir-nechta talabalar javobini eshitib, dars kichik guruhlarda olib borilishini e’lon qiladi.<br>3.Guruhni mini-guruhlarga bo’lib, mavzudagi savollarni guruhlarga bo’lib beradi va 2-ilova ning 1-2chi ustunlarini to’latishni suraydi.<br>4.Guruh sardorlaridan prezentatsiya o’tqazishni so’raydi<br>5.1-ilovaning uchinchi ustunini to’latishni so’raydi<br>6.Xar bir sardor prezentatsiyasidan sung xulosalar qiladi va talabalarni qoniqtirmagan savollariga javob beradi | Talabalar fikrlarini bildiradilar.<br>Savollarga javob beradilar<br>Mini-guruhlarga bo’linib, xulosalarini umumlashtirib jadvalni to’latadilar<br>Sardorlar prezentatsiya o’tqazadilar, xulosalarini asoslaydilar va savollarga javob beradilar<br>Jadvalning uchinchi ustunini to’latadilar<br>Bilishni xoxlagan savollarini beradilar |
| 3- bosqich yakunlovchi (20 daqiqa, agar darsning ikkinchi yarmi | Mavzu bo’yicha xulosalar qiladi, talabalar faoliyatini baholaydi , Mustaqil ishlarni bajarish bo’yicha maslahatlar beradi. | O’z-o’zlarini baholashlari mumkin |



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

| | | |
|---|---|---|
| alohida o'tilsa 10 daqiqa) | | |



*1-ILOVA*

| ***Bilaman*** | ***Bilishni xohlayman*** | ***Bilib oldim*** |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

# «BOZOR IQTISODIYOTI VA BIZNES ASOSLARI» FANI BO’YICHA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com




*Raqobat turlari va ta'siri*




*Bozor iqshsodiyotidagi mulk shakllari*



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Bozorning asosiy modellari

| Bslgilari | Raqobat va monopoliyaga qarab bozor modeli | | | |
|---|---|---|---|---|
| | sof raqobat | sof mono-poliya | Monopoliya-li raqobat | Oligopoliya |
| Firmalar Soni | juda ko'p | bitta | ko'p | bir nechagina |
| Mahsulot turi | standartlashgan | yagona, o'xshashi yo'q | Tabaqalash- gan | Sgandartlashgan yoki tabaqalashgan |
| Baho nazorati | Yo'q | ta'sirli | qisman | cheklangan |
| Kirish sha roiti | Juda oson | o'rab olin gan | nisbatan engil | Ta'sirli to'siqlar mavjud |
| Narxsiz raqobat | yo'q | deyarli yo'q | sifat, rek lama, savdo tamg'alari kabilarga e'tibor katta - | juda keng qo'llaniladi |




*Davlat byudjetining asosiy xarajatlari strukturasi*



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## Iqtisodiyotni nodavlatlashtirish usullari

| № | Usullar | Usulning mazmunn | Usulning mexanizmlari | Nosalbiy tomonlari | Salbiy tomonlari |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Bozorni liberallash tirish | Erkin baholar kiritilishi, raqobatga yo'l ochish, bozor qatnashchilar-ini ko'pay-tirish | Baho,raqobat,privat izatsiyasiz nodavlat-lashuv | Mayda korxo-nalar ko'payi-shi, bozorda taklifning o'sishi, bozor tuzilishining o'zgarishi | Bahoning ko'-tarilib bo-rishi |
| 2 | Davlat shax-siy aktsio-ierli kor-xonalarni yaratish | Aktsioner ka-pitalida dav-lat hissasini kamaygirish | Soliq, kredit | Mulkchilar ko'payadi, er-kin iqtiso-diy faoliyat o'sadi | Tabaqalashuv kuchayadi |
| 3 | Davlat iq-tisodiyo-tiga xos nobozor usullarni ketma-ket yo'q qi-lish | Davlat kor-xonalarida bozor muno-sabatlarini qo'llash | Byudjet, kre-dit, xususiy investitsiya-lardan foy-dalanish | Davlat buyurt-malarini qis-qartirish, korxonalar faoliyatini yaxshilash | O'tish bi-lan bog'liq ishlab chi-qarishning vaqtincha qisqarishi |
| 4 | Xususiylashtirish | Davlat mul-kini xususiy-lashtarish | Auktsion, ak-tsiyalar sota-lish, tekin-ga mulkni tarqatish | Mulk egasini topadi, uning samarador-ligi oshadi | Ta'siri ma'lum vaqt O'tgandan kuchga kiradi, katga o'zga-rishlarni talab etadi |



PDF created with pdfFactory trial version www.pdffactory.com

## ADABIYoTLAR RO'YXATI


1. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» Toshkent «O'zbekiston» 1992 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonun va farmonlar.
3. «Byudjet tizimi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent 9 oktyabr 1999 yil
4. I.A.Karimov. «Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar» Toshkent «O'zbekiston» 1992 yil.
5. I.A.Karimov. «O'zbekistonnnig o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» Toshkent «O'zbekiston» 1992 yil
6. I.A.Karimov. «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» Toshkent «O'zbekiston» 1993 yil
7. I.A.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida» Toshkent «O'zbekiston» 1995 yil
8. I.A.Karimov. «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura» 4tomlik. Toshkent «O'zbekiston» 1996 yil
9. I.A.Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent «O'zbekiston» 1997 yil.
10. I.A.Karimov. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» Toshkent «O'zbekiston» 1997 yil.
